

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAPAYEVA FERUZA DAVLATOVNA

**HOZIRGI ADABIY JARAYON
(O‘QUV QO‘LLANMA)**

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim
yo‘nalishi uchun

NUKUS – 2019

UDK.821.51.1.11.
BBK.83.3(5uzb)
C.21.

Sapayeva Feruza. Hozirgi adabiy jarayon (O'quv qo'llanma). – Nukus., 2019. – 160 b.

Ushbu qo'llanma o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan "Hozirgi adabiy jarayon" fani o'quv dasturi asosida yaratilgan. Qo'llanmada talabalarga so'nggi bir asrdan ziyod vaqtda kechgan adabiy-tanqidiy o'zgarishlar, uning adabiy jarayonga ta'siri, har bir davr adabiy jarayoni tamoyillarini belgilashga xizmat qiladigan asarlar haqida bilim berish, tanqidchilik tarixi, uning taraqqiyot tamoyillari, bir qator munaqqid va ijodkorlarning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish, badiiy asarni tahlil qilishga, muayyan yozuvchi yoki shoirning asari orqali g'oyaviy-badiiy niyatini to'g'ri tushunishga o'rgatish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Qo'llanma orqali talaba fan haqida yalpi tasavvur hosil qilishi, uning asosiy yo'nalishlari to'g'risida muxtasar ma'lumot (olishi) berishga o'rganishi, eng muhim qoida va talablari bilan tanishishi jihatidan, undan filologiya sohasidagi barcha mutaxassislar, o'qituvchi va magistrlar ham foydalanishlari mumkin.

Данное пособие рассчитано для студентов, обучающихся по образовательному направлению Узбекский язык и литература. Дисциплина "Современный литературный процесс" создана на основе учебной программы. Основная цель данного пособия дать знания о литературно-критических изменениях, произошедших за последнее время, которое насчитывает более чем одного века, его влиянии на литературный процесс, произведениях, служащих в определении принципов литературного процесса каждого периода, истории критики, принципах ее развития, дать сведения о жизни и творчестве критиков и творцов, обучить правильному пониманию идейно-художественного замысла через анализ художественного произведения определенного писателя или поэта.

При помощи пособия студент может иметь общее представление о дисциплине, научиться давать последние сведения о ее основных направлениях, ознакомиться с самыми важными правилами и требованиями. Им могут пользоваться все специалисты, учителя и магистры филологического направления.

Bul qollanba o'zbek tili ham adabiyoti bakalavr talim bag'darında o'qib atirgan talabalar ushin arnalgan «Hozirgi adabiy process» p'ani o'qiw dasturi tiykarında jaratilgan. Qollanbada talabalarga so'ngi bir asirden ziyat vaqitda keshken adabiy-sin o'zgerisler, onin adabiy procesine tasiri, har bir dawir adabiy principlerin belgilewge xizmet qilatuvin shigarmalar haqqında bilim beriw sinshiliq tariyxı, onin rawajlanıw principleri, bir qatar sinshilar ham doretivshilerdin omiri hamde olardın doretivshiligi haqqında maqliwmat beriw, k'orkem shigarmanı talqilawga belgili jazıwshı yaki shayırdın shigarması arqalı ideyalıq-k'orkem niyetin durıs túsiniwge úyretiw tiykarı maqset etip belgilengen.

Qollanba arqalı talaba p'an haqqında ulıwma k'ozqaras payda etiwı, onin tiykarı j'ónelisleri haqqında tolıq maqliwmat (alıwı) beriwge úyreniwı, e'n zárúr qağıyda ham talapları menen tanısıwı tárepinen, onnan filologiya tarawındağı barlıq qánigeler, oqıtıwshı ham magistrılar da paydalanıwı múmkin.

Mas'ul muharrir:

Karimboy Quramboyev – filologiya fanlari doktori, professor. Xalqaro "Maxtumquli Firog'iy" nomidagi Davlat mukofoti sovrindori

Taqrizchilar:

Kenesbay Allambergenov – filologiya fanlari doktori, professor

Shahlo Yuldasheva – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Ilhom Qurbonboyev – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH

Qo'lingizdagi "Hozirgi adabiy jarayon" fani bo'yicha o'quv qo'llanma o'zbek tili va adabiyoti bakalavr yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Kurs davomida talabalarga hozirgi adabiy jarayon va uning estetik talqini, rivojlanish bosqichlari va taraqqiyot tamoyillarini yoritish ko'zda tutiladi.

"Hozirgi adabiy jarayon" fanining o'quv dasturida talabalarga so'nggi bir asrdan ziyod vaqtda kechgan adabiy-tanqidiy o'zgarishlar, uning adabiy jarayonga ta'siri, har bir davr adabiy jarayoni tamoyillarini belgilashga xizmat qiladigan asarlar haqida bilim berish, tanqidchilik tarixi, bir qator munaqqidlarning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish, badiiy asarni tahlil qilishga, muayyan yozuvchi yoki shoirning asari orqali g'oyaviy-badiiy niyatini to'g'ri tushunishga o'rgatish, nazariy va amaliy sohalaridan malaka hosil qilishlarini ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Buning uchun darslarni ta'limning 3-bosqichida 14 soat nazariy va 20 soat amaliy mashg'ulot tarzida o'tkazish belgilangan.

Soatlar hajmining cheklanganligi hisobga olinib, qo'llanmada fanning umumiy jihatlari, ijodkor faoliyati, asarlarini tahlillash va eng muhim qoida-tamoyillariga ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari asosida qamrab olinadi, ular amaliy mashg'ulotlar jarayonida mustahkamlanadi. Shuning uchun kursning nazariy (ma'ruza) qismida adabiy jarayon va adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlar va yo'nalishlarni aks ettirish bilan chegaralanadi. Dars mavzularining taqsimlanishi asosan ikki soat hisobidan bo'lib chiqilgan va ayrim alohida masalalar ichki mavzularda yoritilgan. Mustaqil o'rganish uchun mavzular darsning asosiy mavzusini ochib berish mumkin bo'lgan, yangi paydo bo'layotgan materiallar bilan almashtirib yoki boyitib borilishi tavsiya etiladi.

O'quv jarayonida talabalar fan haqida umumiy tushuncha hosil qilishlari, uning maqsad va vazifalarini chuqur anglab olishlari, fanning asosiy predmeti, tarkibiy qismlari, o'rganish sohalar, janri bo'linishi, tarjimada funksional uslublar sohasida atroflicha bilimga ega bo'lishlari zarur.

Adabiy jarayon va adabiy tanqid, tanqidchilikda ijodiy metod, ijod erkinligi, estetik tahlil adabiy tanqidchilikning asosiy mezon ekanligi, o'zbek adabiy tanqidchiligi namoyandalari, adabiy-nazariy qonuniyatlar va yo'nalishlar fan bo'yicha zaruriy bilimlar hisoblanadi. Xususan, talabalar dars mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim olish asosida adabiy jarayon va tarjima adabiyoti, badiiy-adabiy va nazariy adabiyotning o'zaro aloqasi va bir-birini boyitishi, zamonaviy adabiy jarayonga xos yangicha badiiy tafakkur va janrlar, shakliy-uslubiy izlanishlar, poetik tendensiyalar haqida tasavvurga ega bo'libgina qolmasdan, muayyan badiiy asarni adabiy tanqid talablari nuqtayi nazaridan tahlil qila olish malakasiga ega bo'lishlari lozim.

Mazkur o'quv fanini o'zlashtirish uchun talabalarining adabiyotshunoslik, adabiyot tarixi, matnshunoslik fanlarining ayrim bo'limlari yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lishlari taqozo qilinadi. Jumladan, qiyosiy uslubshunoslik, adabiyotshunoslik sohasida adabiy janrlar, adabiy aloqalar, adabiy tanqid, badiiy matn tarkibi kabi bo'limlardan hosil qilingan bilimlar mazkur fanni o'rganish uchun dastak sanaladi. Darslarga matbuotdagi eng so'nggi yangiliklarni tatbiq etish, kompyuterdan, internetdan, kino (parcha), radio va televidenie materiallaridan foydalanish – fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni joriylashga xizmat qiladi.

Qo'llanma zamonaviy pedagogik texnologiyalar (DTS) talablariga mos ravishda ishlanib, o'quv (dars) reja, asosiy tushuncha va atamalar, mavzuga oid muammolar, nazorat savollari, mustaqil o'qish uchun tavsiya qilingan topshiriqlar (adabiyotlar), test topshiriqlari o'rin olgan. Ma'ruza mavzularini tayyorlashda ta'limning ilmiylik prinsipiga amal qilinib, internet materiallardan unumli foydalanildi. Har bir mavzu-moduldan so'ng nazorat savollari berilgan bo'lib, talabalar ko'rsatilgan adabiyotlardan o'zlarini qiziqtiradigan savollarga javob olishi mumkin. Nazorat savollari asosida u yoki bu masalada bahs yuritish, o'zining bilim saviyasini o'zi sinovdan o'tkazish imkoni yaratiladi. Ma'ruza mashg'ulotlarni o'tkazish tartiblari, undan kutiladigan o'quv maqsadlari, kerakli jihozlar, materiallar, ishni bajarish tartibi ko'rsatib o'tilgan.

1-dars.

Hozirgi adabiy jarayon fani 1-ma'ruza mavzusining texnologik xaritasi (Kirish o'rnida):

Adabiy jarayonda ro'y berayotgan yangiliklar va yangi tamoyillar (1-modul)

<i>Talabalar soni: 68</i>	<i>Vaqt - 2 soat</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Kirish-mavzuiy ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Adabiy jarayon milliy va madaniy merosning ajralmas qismi sifatida. 2. Adabiy jarayon va adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlar va yo'nalishlar. 3. Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti, badiiy adabiyot va nazariy adabiyotning o'zaro aloqasi va bir-birini boyitishi. 4. Badiiy adabiyot janrlarining o'ziga xos xususiyatlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Adabiy jarayonda ro'y berayotgan yangiliklar va yangi tamoyillar to'g'risida yaxlit tasavvur shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Hozirgi adabiy jarayon fani bilan tanishtiradi; • Hozirgi adabiy jarayonda yangi tamoyillar; adabiyotda hayot haqiqati, mustaqillik mohiyati haqida so'z yuritadi. • Adabiy yo'nalishlar va uslubiy tendensiyalar, insoniyatning umumbashariy qadriyatlar haqida gapirib beradi; • Adabiy jarayon milliy va madaniy merosning ajralmas qismi, adabiy jarayon va adabiy tanqidning ahamiyatini tushuntiradi; • Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti, badiiylik va zamonaviylik prinsipi bilan tanishtiradi; • "Hozirgi adabiy jarayon" faniga tavsif beradi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> <i>Talaba bajarishi lozim:</i> • "Hozirgi adabiy jarayon" fanining ijtimoiy ahamiyati ochib beriladi; • Quyidagi tushunchalarga ta'rif beradilar: "Badiiy tahlil", "germenevtika", "badiiy tahlil idroki", "ma'naviyat va badiiy asar", "adabiyotshunoslik va tahlil", "tahlil va ma'naviyat"; • "Hozirgi adabiy jarayon" fanining ilmiy-tadqiqot metodlari sanab beradilar va tushuntiradilar • "Hozirgi adabiy jarayon" faniga qisqacha tavsif beradilar; • "Hozirgi adabiy jarayon" fanining taraqqiyot istiqbollarini tasvirlab beradilar.
<i>O'qitish usullari</i>	Ma'ruza, aqliy hujum, texnika: blits-so'rov, diqqatni jalb qiluvchi savollar va h.k.
<i>O'qitish usullari</i>	Lazerli proektor, vizual materiallar
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoaviy, ommaviy, juftlikda ishlash
<i>O'qitish sharoitlari</i>	TSO bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: diqqatni jalb qiluvchi savollar, aql charhi.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (5 daqiqa)	Tashkiliy holat: Talabalar bilan tanishadi, o'zi haqida ma'lumotlar beradi. 1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish tartibini e'lon qiladi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar.
2- bosqich.	2.1. Bilimlarni faollashtirish uchun diqqatni jalb qiluvchi	2.1. Individual

Axborot bosqichi (65 daqiqa)	savollar beradi: 1. Adabiy jarayon tushunchasi haqida gapiring. 2. Adabiy jarayonni davrlashtirish? 3. Adabiy jarayon va adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlar va yo‘nalishlar haqida nimalarni bilasiz? 4. Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti, badiiy adabiyot va nazariy adabiyotning o‘zaro aloqasi va bir-birini boyitishi? 5. Hozirgi kunda adabiy jarayonda ro‘y berayotgan yangiliklar va yangi tamoyillar? 6. Adabiy jarayon va adabiy tanqidning ahamiyati? Hozirgi adabiy jarayon har davrda turlicha nomlar bilan ataldi. Biz asosan, shu jarayonni o‘rganamiz, ammo kechagi kunimiz bilan chambarchas bog‘liq holda. Hozirgi adabiy jarayon o‘zining janrlar ko‘lami kengayganligi, ya‘ni xususiyat kasb etganligi, mavzu yangiligi, xarakterning mukammallashganligi bilan ajralib turadi. 2.2. Ekranga vizual matereiallar joriy qilinadi va ushbu fanning o‘qish, amaliy faoliyat bilan bog‘liqlilgini, kurs nimani o‘rgatadi va u boshqa fanlar bilan qanday bog‘liqligini, tasniflashni o‘rganadi (aqliy hujum usuli). Talabalar aytilgan fikrlarni umumlashtiradi, ma’lumotlarni sharhlaydi, fanning roli va ahamiyati haqida yakuniy fikr bildiradi. 2.3. Ekranga “Fanning tarkibi” slaydi namoyish etiladi, fanning mavzulari tanishtiriladi, ularni qisqacha sharhlaydi. Fan reyting mezonlari, joriy, oraliq va yakuniy baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro‘yxati, talabalarga qo‘yiladigan talablar bilan tanishtiradi. 2.4. Bosqichma-bosqich ravishda rejadagi savollar bo‘yicha ma’ruza materiallarini tushuntiradi va diqqatni jalb qiluvchi savollar beradi: Birinchi savol bo‘yicha – Nechanchi yillardan boshlab, hozirgi adabiy jarayonda asar tahlilining hal qiluvchi ahamiyati anglanadigan bo‘ldi? Saksoninchi. Ikkinchi savol – “Hozirgi adabiy jarayon” fanining o‘ziga xos tadqiqot metodlari ham mavjuddir. Chunonchi, komparavistika, kuzatish, dalillash, deduksiya, induksiya, umumlashtirish, shartlilik, psixologik asoslanganlik singari metodlar mazkur fanga doir xulosalarni chiqarishda qo‘llaniladigan ilmiy-tadqiqot usullaridir. Mavzuning asosiy mazmuniga e’tiborni qaratadi, ularni yozib olishni taklif qiladi.	ravishda ishlaydilar, muhokama qiladilar va javob beradilar. 2.2. Slayd taqdimotini muhokama qiladilar, o‘rganadilar. Fanning nazariy-amaliy ahamiyati, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar. 2.3. Keyingi slaydlarni o‘rganadilar. Sharh mobaynida sxema, jadvallar, slayd-taqdimotlarni muhokama qiladilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Asosiy manba va ma’lumotlarni yozib oladilar.
---	---	---

3-bosqich. Yakunlovchi (10 daqiqa)	3.1. O‘zlashtirish darajasini sinash uchun savol beradi: 1. “Hozirgi adabiy jarayon” kursining mazmuni nimadan iborat? 2. Kursning maqsadi va vazifasini aniqlang? 3. XX asr so‘nggi choragidagi shart-sharoit haqida gapiring. 4. Mustaqillikning ilk odimlari nimada ko‘rinadi? (Asarlar, yillar, jarayonlar misolida) 5. Yangicha tafakkur o‘zlikni anglash haqida nima deya olasiz? 6. Konsepsiya nima? Mavzu bo‘yicha yakun chiqaradi, fan haqidagi ma’lumotlarni blits-so‘rov texnikasi yordamida umumlashtiradi. 3.2. Mustaqil ish va o‘qish uchun vazifa beradi.	3.1. Savolga javob beradi. 3.2. Mustaqil ish uchun vazifani yozib olishadi.
---	---	---

1- ma’ruza mashg‘ulot mavzusi: ADABIY JARAYONDA RO‘Y BERAYOTGAN YANGILIKLAR VA YANGI TAMOYILLAR

REJA:

1. Adabiy jarayon tushunchasi: adabiyot taraqqiyotining ichki va tashqi omillari.
2. Adabiy jarayonni davrlashtirish. Adabiy jarayon milliy va madaniy merosning ajralmas qismi sifatida.
3. Adabiy jarayon va adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlar va yo‘nalishlar.

Asosiy tushuncha va atamalar: *Adabiy jarayon, milliy va madaniy meros, adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlar, tarjima adabiyoti, adabiy aloqalar, adabiy an‘ana va yangilik munosabati, adabiy-estetik hodisalar, jadidchilik ta’sirida adabiyotga kirib kelgan avlod, sho‘ro adabiyoti avlodi, adabiy davr, asr, adabiy avlod, davr va adabiyot munosabatlari, mustamlakachilikning salbiy oqibatlari, mafkura va ijod.*

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida adabiyotning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ayniqsa, hozirgi adabiy jarayon, adabiy aloqalar va badiiy tarjimaning yosh avlod ma’naviy-axloqiy, intellektual tarbiyasidagi roliga alohida e’tibor berilmoqda. Natijada, milliy madaniyatimizning ajralmas qismi hisoblangan badiiy adabiyotning millat ongi va tafakkurini yangilashda o‘zbek adabiyoti muhim ahamiyat kasb etuvchi manba ekani haqidagi tushunchalar barqarorlashdi. Binobarin, “hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turganligi”¹ ham badiiy adabiyotning g‘oyat muhim ijtimoiy vazifa bajaruvchi qadriyatlar tizimi ekanini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, o‘zbek adabiyotshunosligida jahon adabiyoti, qardosh xalqlar adabiyoti, adabiy aloqalar, yaqin tillardan tarjima qonuniyati va tamoyillarini hozirgi adabiy jarayon nuqtayi nazaridan maxsus ishlab chiqish bugungi o‘zbek adabiyotshunosligining istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir.

Adabiyotshunoslikda “adabiy jarayon” atamasi tor va keng ma’nolarda qo‘llaniladi. Keng ma’noda qo‘llanganda adabiy jarayon atamasi badiiy adabiyotning eng qadimgi davrlaridan to hozirgi kunga qadar davom qilib kelayotgan uzluksiz taraqqiyot jarayonini bildiradi. Tor ma’noda esa ushbu atama ostida

¹ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 47.

muayyan bir davr adabiy jarayoni, undagi badiiy adabiyotning mavjudligi va rivoji bilan bog'liq barcha narsa-hodisalar, jarayonlar tushuniladi. Masalan, XX asr boshlaridagi Turkiston adabiy jarayoni deganda, o'sha davr adabiy-ijtimoiy hayoti (ya'ni, unda faoliyat ko'rsatgan ijodkorlar, ularning o'zaro munosabatlari; jamiyat hayotida yetakchilik qilayotgan g'oyalar, ijtimoiy maqsad va intilishlar va h.), davrning xarakterli adabiy-estetik hodisalari (badiiy adabiyotdagi yangiliklar, yangi adabiy-estetik tamoyillarning vujudga kelishi, yangi janrlarning paydo bo'lishi, adabiyotning real hayotga yaqinlashuvi, uning ijtimoiylashuvi va h.), adabiyotning u yoki bu yo'nalishda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar (ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, madaniy-ma'rifiy sharoit, adabiy aloqalar, adabiy an'ana va yangilik munosabati)... – qisqasi, badiiy adabiyotga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan barcha narsa-hodisalar, jarayonlar nazarda tutiladi.

Istiqlol sharofati tufayli O'zbekiston xalqlari tarixida yangi davr boshlandi. Mamlakat hayotining hamma sohalarida, jumladan adabiyot sohasida ham buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Bu davrda adabiyotimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga-keskin burilish va yangilanish bosqichiga ko'tarildi. Mustaqillik davri adabiyotidagi eng katta yutuq va yangilik shuki, bu davrda yozuvchilarimiz sotsialistik realizm va kommunistik mafkura tazyiqidan xalos bo'lib, tom ma'noda so'z erkinligiga, matbuot erkinligiga muvassir bo'ldilar. Natijada hayotda bo'lganidek, adabiyotda ham demokratiya va oshkoralik kuchaydi. Ko'p mavzularni tasvirlashda avvalgi noto'g'ri mezonlarga qat'iy chek qoyildi.

Ma'lumki, O'zbekiston XIX asrning ikkinchi yarmidan to XX asrning 90-yillarigacha uzoq yillar davomida Rossiyaning tom ma'nodagi mustamlakasi bo'lib keldi.

Mamlakatda ijtimoiy adolat, demokratiya va oshkoralik yo'q edi. «Boz ustiga milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilardi. Navro'z, Ramazon, Qurbon hayiti kabi ko'plab muqaddas, milliy bayramlar ta'qib etilgandi. Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad al-Farg'oniy, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Xo'ja Ahrori Vali, Abduholiq G'ijduvoni kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Usmon Nosir kabi milliy ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinardi.

Darhaqiqat, mustamlaka davrida Vatan ozodligi, xalq erki, mamlakat mustaqilligi yo'lidagi har qanday ezgu harakat qattiq qarshilikka uchrar va ayovsiz bostirilar, bu sohada haq so'zni aytish butunlay man qilingan edi. Matbuotda, badiiy adabiyotda haqiqatni yozishga mutlaqo yo'l qoyilmasdi. Xususan, mustamlakachilarning yovuz qilmishlariga, adolatsizliklariga, nohaqlik va zulmlariga til tekkizish qat'iy va mutlaqo man etilgandi. Bunday rostgo'y bo'lish o'sha mash'um yillarda to'g'ridan-to'g'ri og'ir jinoyat sanalardi va ayovsiz jazolanardi.

Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Elbek, Botu singari rostgo'y, vatanparvar iste'dodlarning hukmron kuchlar tomonidan qatl etilishi ana shu mudhish adolatsizlikning natijasi va bir ko'rinishi edi.

Biroq mustamlakachilar qanchalik zo'ravonlik qilmasinlar, qanchalik vahshiyona harakat etmasinlar, baribir, xalqimizni butunlay va so'zsiz bo'ysunishga, itoatkor va mo'min bo'lishga majbur qilaolmadilar. Millatimizning haqiqatgo'y va erksevar farzandlarini butunlay qirib, yo'q qilib tashlashga ularning kuchi-qurbi yetmadi. Xalqimizning mard va tanti, jasoratli va matonatli, asl farzandlari “Boshimga qilich kelsa-da, rost so'zimni derman” tarzidagi hikmatga qattiq mahkam turib aytishdan (yozishdan) va jabrdiyda xalqni mardona himoya qilishdan qaytmadilar. Bor gapni dangal, hech bo'lmaganda ramziy obrazlar vositasida aytishdan, oqni-oq, qorani-qora deb yozishdan qo'rqqadilar. Mustaqillik, milliy istiqlool uchun turli shakllarda izchil kurash olib bordilar.

Fitrat “Yurt qayg'usi” nomli publitsistik maqolasida “Ko'rdim, kezdim, eshitdim, o'qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo'qdir”, – deb yozadi va bu baxtsizlikning tub sabablarini ochib berishga intiladi.

Fitrat chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini keskin fosh etib, istiqlool g'oyalarini dadil targ'ib etadi. U “Muxtoriyat” maqolasida “ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo'limiz bog'landi,

tilimiz kesildi, og‘zimiz qonlandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafigimiz yemirildi, nomusimiz g‘asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo‘ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, tizimli turdik, sabr qildik, kuchga tayangan har bir buyruqqa bo‘ysundik, butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermadik, yashuntirdik, iymonlarimizga avrab saqladik: “Turkiston muxtoriyati”, – deb yozgan edi.

Milliy o‘zbek tilimiz turli davrlarda ulug‘ mutafakkirlar, buyuk shoir-yozuvchilar tomonidan boy, shirin, suluv va dilbar til sifatida ta‘riflangan hamda uning ajoyib fazilatlari qayta-qayta isbotlangan. Lekin, shunga qaramasdan, ko‘p hollarda bu boy, serjilo va serma‘no tilimiz jamiyatdagi hukmron kuchlar tomonidan qadrlanmadi. Ona tilimiz ko‘p yillar davomida kamsitilib, xo‘rlanib kelindi. Bu, hech shubhasiz, mustamlakachilik siyosatining oqibati va amaldagi bir ko‘rinishi edi.

Mustamlakachilikning o‘sha davrdagi adolatsiz, kamsitish siyosati O‘rta Osiyo xalqlari folkloriga munosabat masalasida ham yaqqol ko‘rindi.

Ma‘lumki, o‘zbek xalqi juda boy va g‘oyat qimmatli madaniy merosga ega. Bu bebaho xazinada xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, xalq dostonlari salmoqli o‘rinni egallaydi. Xalq dostonlari orasida esa eng mashhuri, eng mukammali va eng go‘zali, shubhasiz, “Alpomish” dostonidir. U qahramonlik, do‘stlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yuksak odob-axloq va sevgiga sodiqlikni kuylovchi va ulug‘lovchi dostonidir. Bu doston badiiy til, badiiy mahorat jihatidan ham mukammal va go‘zaldir.

Biroq sovet davrida “Alpomish” dostoniga nigilistlarcha munosabatda bo‘lish, uning g‘oyaviy-badiiy fazilatlarini ataylab buzib “tahlil” etish hollari yuz berdi. 1952-yilda “Pravda Vostoka” gazetasida va “Zvezda Vostoka” jurnalida mazkur doston asossiz holda keskin qoralanib, xalqqa qarshi, zararli asar deb e‘lon qilindi. Biroq, ko‘p vaqt o‘tmay “Alpomish” dostonini yo‘q qilishga qaratilgan bunday urinishlar chippakka chiqdi. Haq yana o‘z joyida qaror topdi. Natijada “Alpomish” dostonining jahon xalqlari epik ijodiyoti namunalari orasida alohida o‘rin tutishi hamda uning buyuk tarbiyaviy-estetik ahamiyati yaqqol isbotlandi.

Yoki, mustamlakachilik davrida buyuk sohibqiron va dono podshoh Amir Temur (1336 – 1405-yy) shaxsiga bo‘lgan munosabatni olaylik. Ma‘lumki, o‘tgan olti asr davomida jahon afkor ommasining Amir Temurga bo‘lgan e‘tiqodi, sohibqiron hayotini, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini, shaxsiy hislatu fazilatlarini bilishga qiziqishi aslo susaygani yo‘q. Aksincha, bu qiziqish ko‘p xollarda jahon bo‘ylab tobora kuchayib bordi. Turli mamlakatlarda, turli tillarda Amir Temur haqida ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Bu tasodif emas, balki tabiiy va qonuniy xoldir. Bu Amir Temurning insoniyat tarixida, xalq va jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaganining dalili va natijasidir.

Biroq mamlakatimizda mustamlaka davrida, xususan, sovet hokimiyati yillarida hukmron kuchlar Amir Temur to‘g‘risida haqiqatni yozishga, uning insoniyat tarixidagi buyuk rolini haqqoniy ko‘rsatishga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko‘rsatib keldilar. Oqibatda xorijiy mamlakatlarga nisbatan Amir Temurning o‘z yurtida buyuk sohibqiron haqida oz yozildi. Yozilgan taqdirda ham haqiqat ko‘proq boyab-buzib ko‘rsatildi. Bu mavzuni xolisona yoritib, haqiqatni ochiq aytishga intilganlar esa turli shaklda ta‘qib qilindi, jazolandir. Dalillar keltiramiz.

Birinchil dalil. Dramaturg Fitrat yuqorida qayd etilgan “Temur sag‘anasi” fojiasida Amir Temur obrazini xolisona ko‘rsatgani uchun gunohkor qilingan edi.

Ikkinchi dalil. Sovet tuzumining aybi bilan Oybekning Amir Temur haqida yirik roman yozish orzusi ro‘yobga chiqmay qoldi. Ma‘lumki, Oybek 60-yillarda hasta bo‘lishiga qaramay, sohibqiron haqida doston yoza boshlagan. Doston yozib tugatilmagan bo‘lsada, unda Amir Temur shaxsining asosiy jihatlarini she‘riy tilda ochib berilgan. Dostonda Amir Temurning aql-zakovatini, kuch-qudratini to‘g‘ri ifodalovchi yorqin misralar bor:

Yer kurra qo‘limda-siqsam ushalur,

Istasam yo‘limda xonlar tushalur.

“Oybekning (dostondan so‘ng) Temur haqida roman yozish orzusi zo‘r edi. Buni xotirlasam yuraklarim qonga to‘ladi, siynalarim zirqirab ketadi” – deb yozgan edi adibning umr yo‘ldoshi Zarifa Saidnosirova.

Uchinchi dalil. Akademik Ibrohim Mo‘minov “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” (1963) nomli haqqoniy ilmiy asar yozgani uchun asossiz xolda keskin tanqid qilindi va qattiq siqov ostiga olindi. Holbuki, ushbu risolaning yaratilishi faylasuf olimimizning katta jasorati va mardligining natijasi edi. Kitobda sovet davrida birinchi bo‘lib Amir Temurning O‘rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o‘rni va roli nodir hujjatlar va noyob dalillar asosida teran va to‘g‘ri ko‘rsatib berilgan.

To‘rtinchi dalil. Yozuvchi Asqad Muxtor 1963-yilda Amir Temur haqida “Insonga qulluq qiladurmen” nomli qissa yozgan va qo‘lyozmani sevimli muallimi akademik Ibrohim Mo‘minovga bergan. Domla esa qissani o‘qib, ma’qullagan. Lekin yozuvchiga “Sen buni hozir biron joyga bermay qoyaqol. Mening kunim sening ham boshingga tushib o‘tirmasin”, – degan.

Asqad Muxtorning bu asari oradan o‘ttiz bir yil o‘tgach, 1994-yilda, ya’ni mustaqillik davrida olam yuzini ko‘rdi, nashr etildi.

Beshinchi dalil. Shoir Dushan Fayziy 60-yillarda Amir Temurning realistik obrazini yaratishga intilib, yaxshi bir ballada yozgan edi. Biroq shoir “Buyuklik” deb atalgan bu asari uchun maqto‘v emas, balki dakki – keskin tanqid eshitgan. Balladadagi, xususan, quyidagi misralar soxta mafkura xo‘jayinlarining jig‘iga tekkan:

Ziyorat qilganlar Amir hokini

Buyuklikka ta’zim etishar har gal.

Maboda bo‘lsaydim shahar hokimi

Men shu buyuklikka qoyardim haykal.

Qisqasi, mustamlaka davrida Amir Temurning tarixiy xizmatlarini haqqoniy ko‘rsatishga va uning realistik obrazini yaratishga aslo yo‘l qoyilmas edi. Aksincha, Amir Temur yashagan davr va uning o‘zi haqida noto‘g‘ri, kamsituvchi ma’lumot va soxta tasavvur beruvchi asarlar har jihatdan qo‘llab-quvvatlanar va beasos rag‘batlantirilar edi. Buni S.Borodinning “Samarqand osmonidagi yulduzlar” romani taqdiri misolida ochiq ko‘rish mumkin. Afsuski, Amir Temur obrazini qora bo‘yoqlarda buzib tasvirlovchi bu roman o‘sha vaqtda Davlat mukofoti bilan taqdirlangan edi.

Xullas, sovet davrida o‘zbek xalqining ulug‘ ajdodlari, milliy qadriyatlari, ma’naviy boyliklari, istiqlo‘l g‘oyalari haqida haq so‘zni yozish qatag‘on etilgan edi. U davrda mustamlakachilikni va soxta ozodlikni qoralab, mustamlakachilarga yoqmaydigan erk, hurriyat mavzularida hayotiy asarlar yozishga yo‘l qo‘yilmas edi. Mustamlakachilik siyosatiga, kommunistik partiya aqidalariga til tegizgan ijodkor ayovsiz jazolanardi. Shunga ko‘ra rostgo‘y va xalqsevar yozuvchilarimiz o‘zlarining umuman mustamlakachilikka, xususan, sovet siyosatiga qarshi erk va ozodlik haqidagi poetik fikrlarini ko‘pincha ochiq ayta olmasdan pardalashga majbur bo‘lardilar. Turli adabiy-badiiy usullardan, ertak, masal janrlaridan, fantastik va romantik sujetlardan, har xil simvol (ramziy obraz)lardan, kinoya va qochirimlardan foydalanib, ozodlik va mustaqillik haqidagi muhim va dolzarb g‘oyalarni “yashirincha” ifodalar edilar.

Agar badiiy adabiyotning eng qadimgi davrlardan to hozirgacha kechayotgan uzluksiz rivojlanish jarayoniga nazar solinsa, bu jarayon kishilik jamiyatining taraqqiysi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, umummadaniy va umumma’rifiy rivojlanishi bilan baqamti kechayotgani ko‘riladi. Shu bois ham adabiyotshunos muayyan davr adabiy hodisalarini o‘rganganda ijtimoiy-tarixiy sharoitni, albatta e’tiborga oladi, chunki har bir davr adabiyotining rivojlanish darajasi, undagi turfa adabiy hodisalar ko‘p jihatdan ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy-tarixiy sharoit deganda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, umummadaniy va umumma’rifiy xolati tushuniladiki, bular bari badiiy adabiyot taraqqiyotining tashqi omili sanaladi. Ma’lumki, jahon hamjamiyatiga kiruvchi turli millatlarning ijtimoiy taraqqiyot darajasi turlicha bo‘lib, bu narsa milliy adabiyotlar taraqqiy darajasida ham o‘z aksini topgan. E’tiborli jihati shundaki, umuman kishilik jamiyati taraqqiyotining ma’lum bosqichlariga xos ijtimoiy-tarixiy sharoit har bir konkret jamiyat rivojida mohiyatan o‘xshashdir. Shunga ko‘ra milliy adabiyotlar taraqqiyot bosqichlarida ham muayyan o‘xshashliklar kuzatiladiki, ularni milliy adabiyotlar taraqqiyotidagi stadial umumiylik deb yuritiladi. Fikrimizni oydinlashtirish uchun konkret misolga murojaat qilaylik. Masalan, asrimiz boshidagi Turkiston ijtimoiy-tarixiy sharoitining milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga ta’sirini

yorqinroq tasavvur qilish uchun, fikrimizcha, uni Yevropa adabiyoti tarixi bilan muqoyasa qilish foydalidir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati o'zining ko'p jihatlari bilan XVIII asrda Yevropada keng quloch yoygan ma'rifatchilik harakatiga o'xshashdir. Har ikki harakatga xos mushtarak nuqtalarga bir qur nazar solinsayoq, bizningcha, bu fikrimizda jon borligi anglashiladi.

Badiiy adabiyotning taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan ko'p jihatdan bog'liq bo'lgani holda, uni faqat shu sharoit bilan bog'lab tushunish, tashqi ta'sir ahamiyatini mutlaqlashtirish ham to'g'ri bo'lmaydi. Deylik, badiiy adabiyot muayyan tarixiy bosqichlarda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti darajasidan oldinlab ketishi yoki, aksincha, ortda qolishi ham mumkin. Masalan, XIX asrdagi chor Rossiyasi ko'plab Yevropa davlatlaridan ham iqtisodiy, ham ijtimoiy taraqqiyotda ancha ortda qolgan edi, yarim quldorlik tuzumiga asoslangan davlat edi. Biroq ayni shu asr rus adabiyoti ko'plab iste'dodlarni, jahon miqyosida tan olingan Tolstoy, Dostoyevskiy singari buyuk yozuvchilarni yetishtirdi. Yoki, aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ancha oldinlab ketgan amerika adabiyotining jahon badiiy tafakkurida hodisa sanaluvchi u qadar katta iste'dodlarni berolmaganini ham qayd etish zarur. Demak, badiiy adabiyot taraqqiyoti ko'p jihatdan ijtimoiy sharoit bilan bog'liq rivojlanadi va, ayni paytda, nisbiy mustaqillikka ham egadir.

Badiiy adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omillaridan biri sifatida *an'ana va yangilik* munosabati olinadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr adabiyotida mavjud eng yaxshi jihatlarni o'ziga singdiradi va o'zidan unga nimadir qo'shishga intiladiki, shu asosda taraqqiyot jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi. Adabiyotdagi vorisiylik, an'analarga sodiqlik har bir milliy adabiyotdagi o'ziga xoslik, milliy qiyofaning yo'qotilmasligini kafolatlaydi. Boy an'anaga tayangan adabiyotning rivojlanish imkoniyatlari, tabiiyki, boshqalarga nisbatan yuqori bo'ladi. Masalan, xalqimizning boy adabiy-madaniy an'analari XX asr boshlaridan kuzatiluvchi yangi o'zbek adabiyotning shakllanish jarayoni tez kechishini ta'minladi: adabiyotimiz juda qisqa fursat ichida jahon adabiyotidagi yutuqlarning ko'pini ijodiy o'zlashtirdi, o'zining badiiy arsenalini boyitdi. Aytaylik, roman g'arb adabiyotiga xos janr ekanligi, uning o'zbek adabiyotida o'zlashishi 20-yillarga to'g'ri kelishi ma'lum. Biroq g'arbona shakl milliy adabiyotimizni boyitdigina emas, balki adabiy an'alarimiz zaminida uning o'zi ham boyidi – o'zbek romanchiligi dunyoga keldi. *Milliy romanchiligimizning ilk namunasi bo'lmish "O'tgan kunlar" dan boshlab "Otamdan qolgan dalalar" gacha bo'lgan namunalarda ming yilliklar bilan o'lchanadigan adabiy-madaniy an'alarimiz izlari bor, shu tufayli ham u o'zining qiyofasiga ega "o'zbek romani" dir.*

Badiiy adabiyotning rivojlanishida adabiy aloqalar katta ahamiyatga molikdir. Milliy adabiyotlarning o'zaro aloqasi ularni boyitadi, rivojlanishiga turtki beradi. Masalan, o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga uning forsiy adabiyot bilan aloqalari juda katta ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, forsiy adabiyotda yaratilgan hamsachilik, ruboynavislik an'analari o'zbek adabiyotida davom ettirildi; deyarli barcha mumtoz shoirlarimiz Hofiz, Sa'diy kabi forsiyzabon ijodkorlardan ta'sirlandilar, ularni o'zlariga ustoz deb bildilar. Shunga o'xshash, badiiy adabiyot taraqqiyotida uning boshqa san'at turlari bilan o'zaro aloqasi ham katta o'rin tutadi.

Adabiyotshunoslik oldida turgan muhim muammolardan biri adabiy jarayonni davrlashtirish masalasidir. Bu masalada qarashlar turlichaligi mavjud bo'lib, bu turlichalik ikkita asosiy ko'rinishga ega: birinchi guruh adabiyotni davrlashtirishda ijtimoiy-tarixiy sharoitga asoslansa, ikkinchi guruh adabiyotni faqat adabiy hodisalar, badiiy-estetik tamoyillardan kelib chiqqan holda davrlashtirish lozim deb hisoblaydi. Bu o'rinda har ikki tomonni ham to'la yoqlash yoki to'la inkor qilish maqbul emas, aksincha, o'rtaliq mavqeni egallash to'g'riroq bo'ladi. Chunki, ijtimoiy-tarixiy sharoitdagi o'zgarishlar adabiyotda sezilarli darajada aks etmagan davrlar bo'lganidek, ular juda kuchli iz qoldirgan davrlar ham bo'lishi tabiiy. Deylik, insonning ijtimoiylashuv darajasi kuchli bo'lmagan davrlarda (XIX asrgacha, bizda XX asrgacha) ijtimoiy-tarixiy sharoitdagi o'zgarishlar adabiyotda har vaqt ham yaqqol ko'zga tashlanmaydi, keyingi davrlarda esa izziz ketgan o'zgarishning o'zi yo'qdek. Demak, davrlashtirishda ijtimoiy-tarixiy sharoitni e'tiborga olish va shu sharoitning adabiyotga ko'rsatgan ta'sirini yaqqol ko'rsatish zarur bo'ladi.

Adabiy jarayonni davrlashtirishda adabiy davr, asr, adabiy avlod tushunchalarini ajratish mumkin. Shuni aytish kerakki, bundagi vaqt astronomik vaqtga har vaqt ham to'g'ri kelmaydi. Eng katta bo'linish sifatida davrni olsak, o'zbek adabiyotida uchta katta davrni:

- 1) eng qadimgi adabiyot davri,
- 2) islom sharqi adabiyoti ta'siridagi mumtoz adabiyot davri, va
- 3) yangi o'zbek adabiyoti davrlarini ajratish mumkin.

Ikkinchi davrni asrlarga ajratmoqchi bo'lsak, unda quyidagilarni ko'rish mumkin:

- 1) turkiy sulolalar davri adabiyoti;
- 2) mo'g'ul istilosi davri adabiyoti;
- 3) temuriylar davri adabiyoti;
- 4) uch xonlik davri adabiyoti.

Adabiy avlod adabiy jarayonni davrlashtirishda eng kichik birlik sifatida olinishi mumkin. Adabiy avlod sanalishi uchun ma'lum guruh ijodkorlarining bir davrda tug'ilgani yoki bir davrda adabiyotga kirib kelgani emas, balki ijodda bir-biriga yaqin tamoyillarga tayangani e'tiborga olinadi. XX asr o'zbek adabiyotidagi avlodlarga nazar solsak bu narsa yaqqol ko'riladi:

- 1) jadidchilik ta'sirida adabiyotga kirib kelgan avlod;
- 2) sho'ro adabiyoti avlodi;
- 3) 60-yillar avlodi;
- 4) 70-yillar adabiy avlodi.

Yuqoridagilardan, misol uchun, 60-yillar adabiy avlodiga O.Yoqubov, P.Qodirov, O'.Umarbekov, O'.Hoshimov, A.Oripov, E.Vohidov, R.Parfilarni ko'rsatish mumkin. Ular ijodining boshlanishi, tug'ilgan yillaridagi farqlarga qaramay bitta avlodga mansub, chunki ularning ijodi estetik tamoyillari jihatidan bir-biriga yaqin turadi. Keyingi avlod ularni inkor qiladi va yangi ijodiy tamoyillar bilan maydonga chiqadi.

Professor Naim Karimovning "Cho'lpon", "Maqsud Shayxzoda" ma'rifiy-biografik romanlari bilan "XX asr adabiyoti manzaralari" fundamental tadqiqoti 1-kitobini, professor Umarali Normatovning "Qodiriy mo'jizasi" monografiyasi bilan adabiy-tanqidiy maqolalar, esse, xotira, qayd va suhbatlardan tarkib topgan "Nafosat gurunglari" majmuasini, professor Anqaboy Quljonovning uch jildlik saylanma asarlarini, professor Abdug'afur Rasulovning "Tanqid, talqin, baholash", "Badiiylik – bezavol yangilik" adabiy-ilmiy maqolalar, talqinlar, etyudlar, "Betakror o'zlik" adabiy-tanqidiy maqolalar majmualarini ta'kidlash joiz. Ularda adabiy xarakterning mulki borliq bilan murakkab munosabatlarga kirishuvi, san'at asarining betakror, o'ziga xos dunyo ekanligi, undagi so'z, timsollar aro aloqalar, adabiy avlodlar, badiiy asar va ijodkor fenomeni, so'z san'ati jarayonlari hamda muammolari xususida bahs yuritiladi. Professor Naim Karimovning "Maqsud Shayxzoda" ma'rifiy-biografik romanida shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va pedagog Maqsud Shayxzodaning hayoti, taqdiri haqida zamondoshlarining xotiralari, maxfiy ma'lumotlar asosida, Ozarbayjon, Dog'iston, O'zbekistonda kechgan hayoti sahifalari katta mehr-muhabbat, samimiyat, yuksak ehtiros bilan aks ettiriladi. Siyosiy-mafkuraviy tazyiqlar iskanjasini yorib chiqqan, el-yurt-millat yuragiga yo'l topgan beqiyos aql-tafakkur ziyolaridan boxabar qiladi. Naim Karimov so'z san'ati, ilmiy-badiiy tafakkur madaniyatining bosh vazifasi, bu – insonni ma'nan va axloqan, intellektual jihatdan tarbiyalash, shaxsiyatini ma'rifat shu'lalari bilan ziynatlashdan iborat, deb biladi. Ushbu konsepsiya Naim Karimov estetik qarashlaridagi ma'rifiy g'oyalar mag'zini tashkil qiladi. Xususan, Maqsud Shayxzoda tirikligi, hayoti, faoliyati badalida ezgu so'z vositasida odamlarni ruhoniylashtirishga, haqiqatparvarlikka, insonsevarlikka undab yashadi. Uning taqdiri ma'naviy-axloqiy komillikning benazir timsolidir. Inson sha'ni va shaxsini oyoqosti qilishga qaratilgan diktatura tuzumiga, zulm – yovuzlikka qarshi isyondir.

Despotizmga asoslangan sho'ro tuzumi inson shaxsini bukishi, tutqunlik asoratiga solishi, ming bir qiynoqlarga giriftor qilishi mumkin. Va, lekin, erkin fikrini, ozod ruhini, adolatli so'zini qul qilolmaydi, degan ma'rifiy g'oyalar "Maqsud Shayxzoda" asarining yuksak badiiyatini belgilaydi. Ana shunday holatlarda ezgu so'z, adolatli fikr go'zallikka, hayot haqiqatiga tiklangan haykal misoli

muhtashamdir, degan ma'rifiy ma'nolar olim estetik qarashlarining ustuvor yo'nalishini tashkil etadi. Odamlarni, jamiyatlarni axloqiy-aqliy kamol topdirish adabiyotning va, demakki, badiiy so'z san'atining bosh maqsadidir, degan ma'no Naim Karimov asarida balqib turgan yana bir fazilat. Professor Abdug'afur Rasulovning "Betakror o'zlik" asari adabiy-tanqidiy maqolalardan tarkib topgan. U Abdulla Qahhor ("Abdulla Qahhor universiteti", "Saralar sandig'idagi roman", "Sarob"da yozuvchi mahorati", "Badiiy tasvir vositalari", "Sarob"da psixologik tasvir), Rahmat Fayziy ("Hazrati inson yodi"), Pirimqul Qodirov ("Zamon san'atkor talqinida"), O'lmas Umarbekov ("Asarlari yashayaptiki..."), Xudoyberdi To'xtaboyev ("G'aroyib saltanat", "Betakror uslubning kashf etilishi", "Hoshimjon. Sehrli qalpoqcha. Sariq dev", "Akrom bilag'on Hoshimning do'sti, Garri Poterning og'asi", "Sho'rpushona Orifjon", "Mangu muammo"), Tursunboy Adashboyev ("Ijodiy o'zlik sari yo'l") badiiyati chizilgan, Homil Yoqubov ("Tanqid maydonida turish mashaqqati"), Ozod Sharafiddinov ("Ozod Sharafiddinovni anglash"), Ibrohim G'afurov ("Munavvar siymo") singari adabiyotimiz ilmining yorqin siymolari ijodiy qiyofasi yoritilgan kuzatishlari bo'ladimi, barchasida badiiy asarning tahlili adabiy-estetik qarashlari bilan uyg'un olib boriladi. So'zning adabiy matnda, badiiy asar bag'rida nechog'liq katta salohiyat, ijtimoiy-estetik ahamiyat kasb etishi hassoslik bilan tahlil qilingan. Va, eng muhimi, oddiy so'z estetik mazmunga aylanish jarayonida umumbashariy qadriyat maqomiga ega bo'ladi, degan qonuniyatni asoslashga erishadi.

Keyingi yillar adabiyotshunosligimizda namoyon bo'lgan yetakchi tamoyillardan yana biri – bu o'zbek adabiyotining yetuk badiiyat namunalarini jahon kontekstida tahlil qilishda ko'zga tashlanmoqda. Jahon badiiyati tarixini yaratib kelayotgan asarlar bilan muqoyasada izchil, qat'iy yo'nalish kasb etadi. Qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta'sir va xalqaro adabiy aloqalar yo'nalishida tipologik, tarixiy-analitik tahlil metodlari asosida qutlug' samaralarga erishilmoqda. Bu jihatdan taniqli adabiyotshunos Pariza Mirzaahmedovanning rus tilidagi "Klassika va zamonaviylik adabiy aloqalar yo'nalishida" ("Klassika i sovremennost v aspekte vzaimodeystviya") monografiyasi hamda "Chingiz Aytmatov va zamonamizning madaniyatshunoslik masalalari" asari, Pariza Mirzaahmedova mas'ul muharrirligida chop etilgan "Adabiy aloqalar milliy adabiyotlar taraqqiyotining manbayi tariqasida" ("Vzaimodeystviye kak istochnik obogash'eniya natsionalnoy literatury") jamoaviy tadqiqoti, adabiyotshunos Ulug'bek Saidovning "Sharq va G'arb: madaniyatlar tutashgan manzillar", "Globallashuv va madaniyatlararo muloqot" monografiyalari, Murod Ibrohimov (marhum)ning "Adabiyot – mening borlig'im" tadqiqot va maqolalar kitobi ushbu yo'nalish takomilida salmoqli o'rin tutadi. Adabiyotshunos olimi Muhabbat Sharafiddinovaning "XX asr o'zbek nasri jahon adabiyoti kontekstida" monografiyasi, iste'dodli adabiyotshunos Zamira Qosimovanning rus tilidagi "Milliy va jahon adabiyoti an'analari nuqtayi nazaridan zamon va inson konsepsiyasi: A.Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon asarlari misolida" nomli doktorlik dissertatsiyasi, yosh adabiyotshunos Dilshoda Ibrohimovanning nemis tilida yozilgan va rus tiliga o'girilgan "Xildenbrand haqida qo'shiq asari, uning sharqona va g'arbona mushtarak xususiyatlari (Matn strukturasi, qiyosiy tahlil muammolari)" mavzuidagi tadqiqoti xalqaro adabiy aloqalar borasida jiddiy samaralarga erishilayotganining dalolatidir.

Professor Muhammadjon Xolbekovning xalqaro adabiy aloqalar borasidagi salmoqli risola va monografiyalari ("O'zbek adabiyoti Fransiyada", "O'zbek-fransuz adabiy aloqalari") jamoatchilik nazariga tushgan edi. Keyingi yillarda taniqli olimning "Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari", "Alisher Navoiy asarlari fransuz tilida" risolalari, "Jahon adabiyotida umuminsoniy tamoyillar" tadqiqoti ushbu yo'nalishda yanayam sobitqadam izlanishlar olib borayotganligini tasdiqlaydi. Bir-biridan uzoq hududlarda joylashgan xalqlar badiiy madaniyatining o'zaro aloqalari, adabiyotlarning biri ikkinchisiga ta'siri, aks ta'sirlanish jarayonlari milliy ma'naviyatlar taraqqiyotini belgilash barobarida jahon adabiyotining ham sifat-mazmun jihatdan yangi takomil bosqichini tayin etadi, degan nuqtayi nazar professor Muhammadjon Xolbekov tadqiqotlariga alohida fayz bag'ishlaydi; ilmiy xulosalarining yangiligini, nazariy salmog'ini ko'rsatadi. Ushbu hodisaning tabiiy va qonuniy hosilasi tariqasida milliy ruhga tayangan bashariy qadriyatlarning yuzaga kelishi, shubhasizdir, deydi professor Muhammadjon Xolbekov.

O'zbek adabiy-estetik tafakkurining jahon madaniyatida tutgan o'rni, ijtimoiy-falsafiy qadri, ahamiyatiga oid tadqiqotlar ham alohida yo'nalish kasb etdi. Bu – istiqlol yillari adabiyotshunosligimiz erishgan qutlug' samaralar sirasidandir. Sharqning badiiy-falsafiy, ma'naviy ummonidan bahramand bo'lgan san'atkorlar jahon madaniyati tarixida nihoyatda ko'p. Ular qatorida Ovrupo tarixida muqaddas Qur'on oyatlaridan ta'sirlanib asar yaratgan, ilohiy hikmatlarni kashf eta olgan ijodkorlar ham bor. Gyotening "G'arbu Sharq devoni", Pushkinning "Qur'ondan iqtibos" she'riy turkumi fikrimiz dalilidir. Adabiyotshunos D.Qambarovning "Qur'on baxsh etgan ilhom" monografiyasida Pushkinning "Qur'ondan iqtibos" asari Qur'onning arabiy matni, ruscha tarjimasi va Gyotening Qur'on ta'sirida yozgan she'rlari bilan qiyosiy tahlil qilingan. **Adabiy aloqa va ta'sir masalalari ijodkorlarning ongi-dunyoqarashidagi evrilishlar, badiiy asarlari poetikasi bilan bog'liq kechishiga oid ilmiy ishlar ham nufuzlidir. Bu borada, R.Vohidov, M.Hoshimovning "Adabiy qardoshlik sarhad bilmaydi", K.Quramboyevning "Mirtemir va qaroqalpoq adabiy muhiti" tadqiqotlarini ko'rsatish joiz.**

Istiqlol sharofati bilan qodiriyshunoslik, fitratshunoslik, cho'lponshunoslik alohida fan tarmoqlari sifatida yuzaga keldi, shakllandi. Va, bugungi kunda yangi-yangi tadqiqotlar bilan o'z hadlarini kengaytirib bormoqda. Oybekning dastlabki tadqiqoti "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" ushbu yo'nalishga tamal toshini qo'ygan edi. Akademik Izzat Sultonning "Yozuvchi Abdulla Qodiriy haqida" "Ulkan adib saboqlari", "Abdulla Qodiriyning o'tgan kunlari" asarlari, "Adabiyot nazariyasi" darsligining asosiy fasllari Abdulla Qodiriy ijodi tahliliga bag'ishlangan; akademik Matyoqub Qo'shjonovning "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati", "Qodiriy erksizlik qurboni", Ahmad Aliyevning "Abdulla Qodiriy", "Ijod va izlanishlar" asarlari, professor Sobir Mirvaliyevning "Abdulla Qodiriy" tadqiqoti, professor Umarali Normatovning "Qodiriy bog'i", "Haqiqat taqozosi" badealari, professor Bahodir Karimning "Abdulla Qodiriy: tahlil va talqin" monografiyasi, Habibullo Qodiriyning "Otam haqida", "Qodiriyning so'nggi kunlari" asarlari qodiriyshunoslik takomilida fayzli o'rin tutadi.

Hozirgi adabiy jarayon hodisalarini ijodiy shaxsiyatlar maydoni, mahoratshunoslik – badiiyat tarixi, hayotiy hamda ijtimoiy haqiqatlarning sintezi tariqasida nazariy umumlashtirish mayli ildiz otib bormoqda. Bu borada professor Naim Karimov qalamiga mansub "Qurbon Beregin" asarini, professor Umarali Normatovning "Ijod sehri", adabiyotshunos Ibrohim G'afurovning "Hayo – xaloskor", "Mangu latofat", "Dil erkinligi" asarlarini, professor No'mon Rahimjonovning "Asqad Muxtor poetikasi", "Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi" (hammualliflikda), "Halima Xudoyberdiyeva lirikasi" (hammualliflikda), "Mustaqillik davri o'zbek she'riyati" monografiyalarini, professor Qozoqboy Yo'ldoshevning "Yoniq so'z", professor Yo'ldosh Solijonovning "Haqiqatning sinchkov ko'zlari", professor Hakimjon Karimovning "Adabiyot nazariyasining ilmiy asoslari", Dilrabo Quvvatovanning "XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligida janr va uslub rang-barangligi", Tohir Shermurodovning "Jozib izhor izlab" kitoblari, o'nlab olimlarning risolalari, monografik tadqiqotlari ilmiy-adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Taniqli adabiyotshunos, yozuvchi, tarjimon Ibrohim G'afurov ikki jildidan iborat asarlarining yuksak ilmiy-nazariy, badiiy saviyasini alohida ta'kidlash joiz. "Hayo – xaloskor" kitobiga keyingi yillarda yozilgan mansuralari, mumtoz adabiyot, mumtoz siymolar, mumtoz tarix yo'lidagi badealari, hikoyalari kiritilgan. Muallif mo'jaz lirik asarlarini: "mening romanlarim", deb ataydi. Darhaqiqat, ular rang-barang hayot, g'aroyib inson umrlarining har soniyasida bo'lib turgan, hali yozilmagan, lekin, asli mo'jizaga teng jonli romanlarning qaymog'i, javhari kabi go'zal taassurot qoldiradi. Ularda davr ichida o'rtanayotgan, boy kechinmalar botinida yashayotgan, insonlikning asl ma'nosini qidirayotgan zamondoshimiz gavdalanadi. U o'quvchini go'zal ko'ngil va go'zal aql dunyolarida tinimsiz ro'y berayotgan ajib fikrlar, go'zal tuyg'ular bazmiga chorlayotgandek bo'ladi. "Mangu latofat" kitobidagi "Millatning billurlashuvi" faslida millatning tug'ilishi, shakllanishi, milliy ongning uyg'onishi va juda murakkab, qiyin tarixiy, ijtimoiy jarayonlarda o'zini tanishi, hozirgi zamon dunyosiga kirib borishi haqidagi najib kuzatishlari, o'y-xayollari aks etgan risolalari ("Adiblar gulshani", "Axloqni sog'inish") jamlangan. Adabiy-badiiy badealarida axloq, ma'naviyat, insonning hozirgi zamondagi o'rni to'g'risida bahs yuritiladi. *Dostoyevskiy "dunyoni go'zallik qutqaradi", degan umidbaxsh hikmatni aytgan edi. Ibrohim G'afurov Dostoyevskiyga payrov bo'lib, dunyoni aslida hayo,*

odob va axloq qutqaradi, degan g'oyani ilgari suradi. Muallifning chuqur e'tiqodiga ko'ra, "mangu latofat" bu – hayo, odob va axloqdir. Qalbimizda mujassam mangu go'zal, samoviy axloq insonning insoniyligi uchun yagona mezondir. Shonli istiqloq yillari so'z san'atkorlari shaxsiyati bilan badiiyati, asarlarining yaratilish tarixiga oid adabiy ijod psixologiyasi yangi yo'nalish sifatida sobit qadamlarini tashladi. Bu borada, Ozod Sharafiddinovning "Cho'lponni anglash" asari, Naim Karimovning "Cho'lpon" ma'rifiy-biografik romani, No'mon Rahimjonovning akademik Izzat Sulton dramalarining yozilish tarixiga, adabiy-estetik qarashlariga oid "Badiiy asar biografiyasi" tadqiqot-qo'llanmasi, Sh.Ergashevaning Saida Zunnunova lirikasi bilan dostonlari yaratilishiga bag'ishlangan "Ko'ngilning mohipaykari" risolasini ta'kidlagimiz keladi. Adabiyotshunoslik ilmida atoqli adiblar va adabiyotshunoslar haqidagi xotiralar yangi bir tamoyil tariqasida takomillashib bormoqda. Mazkur yo'nalishning yangiligi, fazilati shundaki, ijodkor shaxsiyati, iste'dodi va asarlarini milliy-bashariy qadriyat tarzida o'rganish, baholash madaniyati yuz ko'rsatdi. Yana bir xususiyat bu – adiblaru olimlarning adabiy-estetik, falsafiy, ma'rifiy-axloqiy qarashlarini davr-jamiat-ijtimoiy voqelik bilan yaxlit birlikda yagona jarayon sifatida yondashish, tahlil qilish, umumlashtirish mayli bo'rtib ko'zga tashlanadi. Bu borada "G'afur G'ulom zamondoshlari xotirasida", Maqsud Shayxzodaning 100 yilligiga atalgan "Zamon allomasi", "Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida", "Shuhrat zamondoshlari xotirasida", "Shukur Xolmirzayev zamondoshlar xotirasida", "Bolajonlik saodati" (Safar Barnoyev zamondoshlari xotirasida), "Professor G'affor Mo'minov dildoshlari xotirasida", "Professor Asil Rashidov do'stlar nigohida", "Sobitlik" (professor Hamidjon Homidiy haqida), "Ko'ngil sezib turar" (professor Pirmat Shermuhamedovga oid), Umrzoq O'ljaboyevning "Xotiraga ko'chgan umrlar" majmualari ahamiyatlidir.

Adabiyot haqidagi fan taraqqiyotida adiblarning adabiy-estetik qarashlari ham salmoqli o'rin tutadi. Erkin Vohidovning "Iztirob", Abdulla Oripov tanlangan asarlarining to'rtinchi jildi hamda "Adolat ko'zgusi" majmuasi mundarijasini belgilagan adabiy-tanqidiy maqolalar, Muhammad Alining "Oshiq bo'lmay haq diydorin ko'rsa bo'lmas", Mirpo'lat Mirzoning "Surur", Ulug'bek Hamdamning "Badiiy tafakkur tadriji" asarlari adib shaxsiyati, iste'dodi va ijodining hayotda, jamiyatda nechog'liq muhim o'rin tutishi, asarlarining badiiyati, mahorati xususida so'z yuritadi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, Zulfiya, I.Sulton, Shukrullo, H.G'ulom, O.Yoqubov, P.Qodirov, M.Qoriyev, O'.Umarbekov, U.Nazarov, Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov. O.Muxtor, I.G'afurov. X.Do'stmuhammad, A.Dilmurod, I.Otamurod, N.Eshonqul singari shoir-yozuvchilarning badiiy ijod sirlari, adabiy jarayon psixologiyasi, adabiy mehnat va badiiy mahorat, so'zning ijtimoiy ahamiyati va estetik ta'sir salohiyati, badiiy idrok va ifoda san'ati, tasvir usullari va imkoniyatlariga doir suhbatlari, chiqishlari, maqolalari ham adabiyotshunoslikning nazariy masalalarini o'rganishda salmoqli o'rin tutadi.

So'z san'atida azal-azaldan yozilmagan bir qonuniyat bor. Xususan, katta adabiyotni benazir iste'dod egalari – katta shaxslar yaratadi. Bu narsa, avvalo, so'z san'atkorining iste'dod darajasi va shaxslik miqyosi, nuqtayi nazari bilan adibning estetik g'oyalari, qarashlari badiiy obrazlarga singdirilgan holda ifodalangani bois, yuksak qadr-qimmat topadi. Betakror mazmun-mohiyat kasb etadi. Estetik hodisa sifatida badiiy madaniyatda yangi sahifa bo'lib qoladi. Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, M.Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, I.Sulton, A.Muxtor, O.Yoqubov, P.Qodirov, U.Nazarov, R.Parfi, Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov, A.Oripov, J.Kamol, N.Aminov singari ijodkorlar ijodi nafaqat turkiy xalqlar adabiyotida, shuningdek, jahon badiiyatida ham betakror go'zallik hodisasidir, degan nuqtayi nazar olimlarimiz ijodiy izlanishlari mehvarini tashkil qiladi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqadigan ayrim xulosalarimiz quyidagilardan iborat: Adabiyotshunosligimizda adabiy hodisalarni, badiiy asarlarni, ijodkor fenomenini ma'naviy madaniyatning, milliy qadriyatlarning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi tariqasida o'rganish, baholash, ilmiy xulosalar chiqarish tamoyili qaror topdi. Adabiyotshunoslikning ham adabiyot va san'at singari davr didini, millatning badiiy-estetik saviyasini, jamiyat ma'naviyatini kamol topdirishda betakror o'rni bor. Ilm ahli o'z zamonasidagi ana shu yuksak mas'uliyatni teran anglagan holda, adabiyotni, madaniy-tarixiy-diniy merosni umumbashariy qadriyat sifatida o'rganishi, baholashi, asnosida, nazariy umumlashtirish madaniyati tobora takomillashib

bormoqda. Keng o'quvchilar ommasi ilm ahlidan, avvalo, badiiy asar va yozuvchi fenomenini tushuntirib berishini kutadi. Shu ma'noda, ana shu bir-biri bilan uzviy bog'liq ikki hodisa millat tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichidagi madaniyatining, ma'naviy-intellektual darajasining bir belgisidir, degan tamoyil yetakchilik qilmoqda. Badiiy adabiyotning umumiy holati adabiyotshunoslik ilmining ham darajasini belgilab beradi. Tarix, falsafa, din, san'at, kino, teatr, musiqa, tasviriy va amaliy san'at ijodkor shaxsiga nechog'liq katta ta'sir ko'rsatayotgan paytda, asarlarni ana shu omillar sintezi sifatida o'rganish, o'zlashtirish tamoyili kuchaydi. Tarixiy, qiyosiy, biografik tahlil metodi tobora ustuvor mavqe kasb etib bormoqda. Endi, kemptikliklar, yetishmovchiliklar haqida bir-ikki og'iz mulohaza. *Birinchidan*, yosh tadqiqotchi yoxud atoqli olim bo'ladimi, u yoki bu masala xususida ilmiy ish yozishga taraddudlanar ekan, izlanishni bibliografiya tuzishdan boshlaydi. Shu ma'noda, *bibliografiya ilmiy tadqiqotning bismilloi, deyish mumkin*. Taniqli adabiyotshunos Sherali Turdiyev bilan Boyis Qoriyev (Oltay) ning "O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi bibliografiyasi" (1900–1941-yillar) ning to'ldirilgan ikkinchi nashri yuzaga keldi. Albatta, u bibliografik ko'rsatkichlarga bo'lgan katta tashnalik oldida bir tomchi, xolos. Vaholanki, nasr, nazm, dramaturgiya va hokazo adabiyotning barcha tur hamda janrlari bo'yicha yaratilgan adabiyotshunoslik tadqiqotlariga, gazeta va jurnal maqolalari jamlangan bibliografiyalarga nisbatan ma'naviy-intellektual ehtiyoj hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. XX asr tongidan bugungi kungacha vaqtli matbuotda, davriy nashrlarda e'lon qilingan adabiyotshunoslik va tanqidchilik asarlari bibliografiyasini yaratish bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir. *Ikkinchidan*, Ninel Vladimirovaning "XX asr o'zbek nasri rivoji va badiiy tarjima muammolari" tadqiqoti bilan Ibrohim G'afurovning "Tarjimashunoslik asoslari" o'quv qo'llanmasi tarjimashunoslik tarixi va nazariyasini yaratishda nufuzli o'rin tutadi. "Jahon adabiyoti" jurnalining tashkil etilganiga ham yigirma yildan oshyapti. Shu orada, jahon klassikasining barkamol namunalari o'zbek kitobxonining ma'naviy mulkiga aylandi. Homerdan tortib Platon, Aristotel, Dante, Shekspir, Tolstoy, Dostoyevskiy kabi jahon badiiy so'z sehrarlarining, Konfutsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Rumi, Attor singari Sharq ma'naviyati gultojlari milliy madaniyatimizdan sobit o'rin oldi. Badiiy-ilmiy asarlar tarjimasining ulkan xirmoni ko'tarildi. Va, lekin, keyingi yillarda Ibrohim G'afurovning muqaddas "Qur'oni karim"ning to'rt muallif tomonidan amalga oshirilgan o'ziga xos tarjimalarining ma'nolar teranligiga bag'ishlangan muhtasham tadqiqotidan bo'lak, madaniy hayotimizda iz qoldirgan chiqishlar kuzatilmayapti. Asliyatlardan (ingliz, fransuz, nemis, ispan, arab, xitoy, yapon, hind tillaridan) tarjima qilayotgan tarjimonlarning yangi avlodi yetishdi. Bu mustaqillikning betimsol sharofatidir. Endilikda, tarjimashunoslarning yangi avlodini tarbiyalash, voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Ilmimizda tarjimashunoslikni mustaqil fan sifatida namoyon etish mas'uliyati ham bor. *Uchinchidan*, badiiy-estetik tafakkurning boshqa fan sohalari bilan aloqasi kuchayishi natijasida, ushbu yo'nalishlar bilan bog'liq ko'plab yangi terminlar paydo bo'ldi. Absurd, absurd san'at, avangardizm, aksiologiya, aleatorika, analitik estetika, antifazis, antropomorfizm, apokalipsis, assotsiatsiya, asteizm, astrofizim, atributsiya, attikizm va hokazo. Adabiyot nazariyasi, estetika, falsafa bilan bog'liq adabiyotshunoslik terminlarining qomusiy lug'atlarini yaratishdek g'oyat samarali va zavqli, mashaqqatli yumushlar ham adabiyotshunosligimiz zimmasida. Xullas, adabiyotshunoslik ilmini jahon andozalari darajasiga ko'tarish borasidagi sharaflil izlanishlar uning kelajagiga katta umid uyg'otadi.

Dars mashg'uloti davomida:

**HOZIRGI O'ZBEK ADABIYOTIGA BIR NAZAR
rukni asosida talabalar bilan dillashuv, fikr almashuv**



- *Keyingi paytlarda yozuvchi va shoirlarga "Siz nima deb o'ylaysiz: yaxshi asarlar oz yozilyaptimi yo kitobxonlar saviyasi pasayib ketganmi" qabilidagi savollar tez-tez beriladigan bo'lib qoldi...*
- *Albatta, bu kabi savollar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Nega o'quvchi o'zi yaxshi bilgan, asarlari bois hurmat etadigan ijodkorlarni bir qaraganda oddiy, lekin qaltis savolga tutmoqda?*
- *Nega O'zbekistonda yiliga ming-minglab kitoblar nashr etilayotgan bir paytda nozikta'b kitobxon o'z ko'ngil ehtiyojini qondira oladigan asar topa olmay, norozi bo'lmoqda?*
- *– Ba'zi tajribamizda:*

Xuddi shu savollarga javob toparmikanmiz, deya bir necha talabalarga murojaat qildik. Aksariyat talabalardan o'zlari qaysi ijodkorlarning asarlarini suyib o'qishlarini so'raganimizda qo'shiq yozuvchi bir necha shoir bilan kechinma-sarguzasht asarlari potirlab chiqib yotgan adibni tilga olishdi. Faqat bir suhbatdosh talaba Abdulla Qodiriy, Cho'lponlarning asarlarini qayta-qayta o'qishini, keyingi yillarda esa unga Erkin A'zamning "Shovqin" kitobi yoqqanligini ko'zlari porlay-porlay aytdi.

- **Bozor adabiyoti tantanasi boshlandimi? (MULOHAZA uchun)**
- **Ruhan begonalik va kitobxonning och qolishi... (FIKRLASH uchun)**

Fikrimizcha, saviyasi past kitoblar ko'payayotganini faqat ijodkor va kitobxonlardan qidirish unchalik to'g'ri emas. "Kitobxon bor asarni o'qiydi. Mustaqillik ta'sirida davr o'zgarishi, tabiiy ravishda, kitobxonning ham ruhiy ehtiyoj, talablari o'zgarishiga olib keldi. Shu paytgacha badiiy yuksak deb targ'ib etilgan asarlar bilan bu ehtiyojlarning orasi uzoqlashib qoldi. Sho'ro davrida yaratilgan asarlarda ular xoh yuksak, xoh o'rtacha saviyada bo'lsin, yo mafkura bosimi ostida yo u bilan hisoblashgan holda yaratilgan bo'lib, endi u kitobxonga ruhan begona, keraksiz edi. Va hatto baland saviyada yozilganlari ham. Yangi yangi asarlar dunyoga kelishi kerak edi, lekin nashriyot va kitob savdosi mutasaddilari bozor, bozor tamoyili deb, foydani o'ylab, ma'naviy foydani unutib, adabiyot rivojining tub ildizlaridan biri – moddiy ta'minoti qirqilib qoldi. Yozuvchi – nashr – kitobxon silsilasiga putur yetdi". Oldinlari 30-40 ming nusxada chop etilgan yaxshi kitoblar tezda tarqalib ketardi. Bir kitobni bir mahalla, bir qishloq o'qigandan uning muqovasigacha titilib ketardi. Lekin nega endi hozirda nari borsa 5-10 ming nusxada nashr etilayotgan kitoblarning tarqalishi ham qiyin kechmoqda? Lekin ayni bir paytda kitobxonlar badiiylikka unchalik daxldor kitoblarga o'ch bo'lib qolishdi? Kuzatishimizcha: "Kitobning tiraji bo'lgani bois yozuvchi qalam bilan kun ko'rishning uddasidan chiqqa olmadi va shu bois haqiqiy adabiyot namunalar juda kam yaratildi, yaratilgani ham kitobxonga yetib bormadi, kitobxon och qoldi, ochligidan to'g'ri kelgan narsalar bilan oziqlanishga o'tdi. Talab bor joyda shu talabni oldi-qochdilar qondira boshladi. Yuzada yaqqol ko'rinib turadigan sabablari shu deb o'ylaymiz. Lekin tafakkur nuqul cho'kib ketaveradigan jarayon emas, vaqti-vaqti bilan sayozlashib tursa-da, baribir, yana o'zini tiklaydi. Badiiy adabiyot uch-to'rt yildan beri shunday yaxshi o'zgarishlar tomon yuz burdi. Bozor oldi-qochdi sarguzashtlarga to'yingani sayin badiiy yuksak, jiddiy asarlarga talab ortib boryapti". Keyingi yillarda yaratilgan bir qator nasriy asarlar kechinma adabiyot kabi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lmasa-da, o'zining o'quvchisini topdi. Jumladan, chinakam badiiy adabiyot muxlislari yuqorida aytilgan Erkin A'zamning "Shovqin" kitobidan tashqari, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam kabi adiblarning asarlarini tashnalik bilan o'qiy boshlashdi. Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdamning asarlari faqat O'zbekistonda emas, balki undan tashqarida, Amerika va Ovrupoda ham o'qilmoqda, o'rganilmoqda, mukofotlarga sazovor bo'lmoqda. Iste'dodli adib va zukko adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam fikricha o'zbek adabiyotida mudom iste'dodlar bo'lib kelgan. "O'zbek millati – iste'dodli millat. Shunday ekan, u hech qachon kuniga yaraydigan iste'dodlarsiz qolmaydi. Iste'dodlar tug'ilaveradi, lekin ularning chinakam iste'dod yoki daho san'atkor bo'lib yetishmoqlari uchun muhit muvofiqligi kerak. Misol uchun, Navoiy yoki Pushkinning paydo bo'lishi

daho va tarixiy zarurat uyg'unligi bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, Navoiy madaniyat va adabiyot olamida amalga oshirgan buyuk turkona ishlar tarix taqozo etgan pallada yuz berdi. Pushkin, Shekspir, Qodiriy, Cho'lonlar haqda ham shuni aytish mumkin. Xuddi shunday, garchi ayrimlarining yoshlari qirqu ellikni qoralab qolganiga qaramay, bugungi kunda ham nasr, ham nazm bobida yarq etib ko'zga tashlanib turgan iste'dodlar bor. Aynan ana o'shalar chinakam adabiyot yukini dast ko'tarib yelkalariga olishlari mumkin: nasrda Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Rahimjon Rahmat, Abduqayum Yo'ldosh kabi, nazmda Abduvali Qutbiddin, Halima Ahmedova, Faxriyor, Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Go'zal Begim, Mehrinoz Abbosova, adabiyotshunoslik ilmida Dilmurod Qur'onov, Bahodir Karim, Uzoq Jo'raqul, Sa'dullo Qur'onov singari adib, shoir va olimlar o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligida ko'p ishlarni amalga oshirishdi va yana ko'piga qodir, deb bilamiz. Ularning asarlari bilan tanishar ekanmiz, o'zbek adabiyotining yangi ko'tarilish to'liqlinini kutamiz emas, o'z ko'zlarimiz bilan aniq-tiniq ko'ramiz ham"... deyishimiz mumkin.

O'zbek nasri Qodiriy va Cho'lonlardan juda katta potensial bilan boshlanishi hamono bir xillikka yuz tutdi. Albatta, "Sarob", "Qutlug' qon", "Ulug'bek xazinasi" kabi qator yaxshi romanlar yozildi. Biroq ularning bari o'sha yuqoridagi ikkita gigant yozuvchi yaratgan nasriy yo'llar an'anasi doirasida edi. Shuning uchun ham nasrda yaxshi asarlarning soni oz. Nihoyat, 80-yillardan e'tiboran o'zbek nasri chinakam yangilanishlar pallasiga kirdi. Va istiqlo'l davrida u o'zligini to'la namoyon etishga kirishdi. Bugun o'zbek nasrida tom ma'noda burilish hodisasi kechayapti. Nazmda bu 60- va 70-yillar avlodi she'riyatida yuz bergan edi. Saksoninchi yillar mahsuli bo'lgan Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanini, Erkin A'zam, Tog'ay Murod, Olim Otaxon, Xurshid Do'stmuhammad, Nurulla Otaxon, Hayriddin Sultonov, Sobir O'nar, Abulqosim Mamarasulov, Shodiqul Hamroyev kabi ijodkorlarning qissa va hikoyalarini eslaymiz. Bu mualliflarning asarlari bosiladigan "Sharq yulduzi", "Yoshlik", "Yosh kuch" jurnallari, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligi garchi o'sha paytlar yuz ming va undan ancha ko'p nusxada chiqsa-da, talash bo'lib ketardi.

• Adabiy tanqidchida bilim va tafakkur yetarlimi?

(Darsdan tashqari tahlillash uchun)

Adabiy doiralarda "Nega ayrim hollarda chinakam asarlar chetda qolib, bemaza qovun urug'iga o'xshash potirlab chiqayotgan kitoblar maqtaladi?" degan savol tez-tez takrorlanadigan bo'lib qoldi. Buning javobi savolning o'zidanda achchiqroqdir. Chunki bunday hol afsuski, hozirda butun dunyo san'atu adabiyotida bo'lganidek, o'zbek adabiyoti va ilmida ham mavjud. Demak, bitta gapni alohida urg'u bilan aytish lozimga o'xshaydi: bugun jiddiy, oqni oq, qorani qora deb aytishga bilim, tafakkur kuchi va jasorati yetadigan adabiy tanqid har qachongidanda zarurroq ekan. Uning tushuntiruvchi, qarashlarimizni tiniqlashtiruvchi, adabiy-ma'naviy o'zagimizga ozuqa berguvchi, unga yangi ruh hadya etguvchi kuchiga jamiyatda katta ehtiyoj paydo bo'lganiga ortiq shubha yo'q.

Ulug'bek Hamdam adabiy tanqidchidagi xolislik mezonini buzilsa, tahlil etilayotgan asarga hech qachon to'g'ri baho berib bo'lmazligi isbotlanganini aytadi. "Shu ma'noda badiiy asar qaysi mezonlardan turib baholanayapti: uning sifati, yangiligi, ilmiyligidan tashqari tanqidchining XOLISLIK darajasi qay ahvolda?... kabi haqli savollar tug'iladi. Chunki, ko'pincha, badiiy asarlar baholangan tanqidiy maqola, ilmiy tadqiqot va yoki taqrizni o'qib, o'zingga o'zing savol berib qolasan kishi: qaysi biri past, qaysi biri o'rtayu qaysisi baland asar va nima uchun?... Aksariyat hollarda hammasi birdek durdona o'laroq taqdim etiladi. (Va yoki ko'r-ko'rona "urib" tashlanadi). Nazarimizda bu o'rinda tanqidchilarimiz o'quvchilik muhabbati (yoki nafrati) izhoridan olim-mutaxassis munosabatini bildirish darajasiga o'sib borolmayapti. Ya'ni u o'zining u yoki bu asarga yoki uning muallifiga bo'lgan simpatiya (yoki antipatiya)sini olimning qarashi deb o'ylayapti. Adib va adabiyotshunos saviyasi yetarli bo'lmagan munaqqiddan teran tahlil kutish mumkin emas. "Tanish-bilishchilik, mahalliychilik degan illatlar ham badiiy asarni to'g'ri va halol baholash yo'lida to'siq bo'lmazligi kerak. Baland saviyadagi asar o'z vaqtida haqqoniy bahosini olishi

juda-juda zarur. ***Yanada muhimi, baland asarni munosib tahlil qilish uchun tanqidchining o'zi baland saviyaga ega bo'lishi shart...*** Yuqoridagi nuqsonlar bartaraf etilgandagina tanqidchilik o'z vazifasini bajarishga kirishadi". Xurshid Davron ham o'z navbatida "bozor adabiyoti" mavzusining zararlari haqida so'zlar ekan, adabiyotshunoslar, munaqqidlar adabiyot maydonini o'ziniki qilib olishga urinishlar oldini olishi mumkinligini ta'kidlaydi. "Albatta, "bozor adabiyoti" tantanasiga befarq qarab turmaslik kerak. Adiblar, eng avvalo, adabiyotshunoslar va "Qizil kitob"ga kiritilishiga bir bahya qolgan munaqqidlar faqat besh-o'n iste'dodli yozuvchi kitoblarini tahlilu madh etish bilangina shug'ullanmay (hatto asl adabiyotni targ'ib qilish ham saviyasizlikka nisbatan kurash bo'lgan taqdirdayam), adabiyotda paydo bo'layotgan har qanday qashshoq asarga xolis baho berishlari, ularning adabiyotga, kitobxonlikka ko'rsatayotgan zarari haqida haqqoniy fikru mulohazalarini aytishlari shart".

Tekshiruv savollari:

1. Adabiy jarayon tushunchasi haqida gapiring.
2. Adabiy jarayonni davrlashtirish?
3. Adabiy jarayon va adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlar va yo'nalishlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti, badiiy adabiyot va nazariy adabiyotning o'zaro aloqasi va bir-birini boyitishi?
5. Hozirgi kunda adabiy jarayonda ro'y berayotgan yangiliklar va yangi tamoyillar?

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Sulaymonova F. Sharq va g'arb. *Qadimiy adabiy aloqalar*, – T., 1997
2. Mirvaliyev S. *XX asr o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish muammolari // Til va adabiyot ta'limi*. 1995. – №5-6. – B.48-52
3. Karimov E. *XX asr boshida Turkistonda adabiy mushtarakliklar // O'zbek tili va adabiyoti*. 1994. – №4-6. – B.16-23
4. Turdiyev Sh. A. *Qodiriy va tatar adabiyoti // O'zbek tili va adabiyoti*. 1994. – №6. – B. 32-38
5. She'riyatda Fitrat va Cho'lpon an'analari *Guliston*. 1995. – №2. – B. 46-47
6. Al-Amin B. *Milliy adabiyotning ikki ildizi//Sharq yulduzi*. 1998. – №5. – B.156-158
7. Qur'onov D. *Jahon adabiyotiga yo'l.-Jahon adabiyoti*. 1997. – №6. – B.168-172
8. Karimov B. *"Tanqid kimga yoqadi?" // O'z AS*. 2015.
9. Qozoqboy Yo'ldoshev. *Yoniq so'z. T. Yangi asr avlodi*. 2006.
10. S.Mirzayev. *«Hayot va adabiyot». «Sharq» nashriyoti*. 2001
11. X.Doniyorov, S.Mirzayev. *Temur saltanatiga ochilgan darcha. «Zarafshon» gazetasi*, 1993-yil 28-sentabr.
12. N.Karimov. *XXI asr sari. «Xalq so'zi» gazetasi*. 1999
13. Aliev A. *Istiqol va adabiyot. T., «O'zbekiston», 1997*
14. Normatov U. *«Tafakkur yog'dusi». T., 2005*.

2- ma'ruza mashg'ulot mavzusi: BUGUNGI KUN SHE'RIYATI TAMOYILLARI

REJA:

1. Bugungi kun she'riyatining o'ziga xos xususiyati.
2. She'riyatda milliy g'oya va milliy mafkuraning ifodasi.
3. Bugungi kun she'riyatida poetik obraz va motiv.

Asosiy tushuncha va atamalar: So'z san'ati, o'zbek she'riyati, poetik obraz, motiv, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyeva, Jamol Kamol, Gulchehra Nurullayeva, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Farida Afro'z, Iqbol Mirzo, Mahmud Toirov, Halima Ahmedova,

Zebo Mirzayeva, Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Sayyid, Abduvali Qutbiddin, Guljamol Asqarova, Xurshid Davron, Azim Suyun, Yusuf Jumayev, Salim Ashur.

Istiqlol tufayli ma'naviy qadriyatlarga, madaniyatga, jumladan, so'z san'atiga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Yangi davr nafaqat adabiyotimiz tarixiga, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g'oyaviy - estetik mezon bilan yondoshishni taqozo qiladi. XX asr o'zbek she'riyatining erk uchun olib borgan kurashi e'tiborga loyiqdir. U ikki bosqichga egadir: birichisi, asrimizning ilk bosqichiga, ikkinchisi esa, oltmishinchi yillarga to'g'ri keladi. Hozirgi o'zbek she'riyatining ma'naviy miqyosi, badiiy, salohiyati kundan-kunga o'sib boryapti. Shu ma'noda hozirgi o'zbek adabiyotida lirika alohida o'ringa ega. Unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni aks ettirish barobarida, jamiyatimizning har bir a'zosida mustaqillikka shukronalik, porloq kelajakka bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat etmoqda.

Bu kun she'riyatining tabiati va uning zamiridagi falsafiy g'oyani ochib berish, uning yetakchi g'oyaviy-badiiy tamoyillarini aniqlash, o'zbek she'riyatining istiqboldagi taraqqiyotini ham oldindan belgilashga imkon beradi. Ma'lumki, ijtimoiy hayotda kechayotgan evrilishlar birinchi navbatda lirikada aks-sado beradi. Bu narsa uning tamoyillarini ham belgilaydi. Bugungi adabiy jarayonda to'rt tamoyil yetakchilik qiladi. Birinchi navbatda, O'zbekistonning mustaqil davlat maqomiga ega bo'lishi bilan milliy uygonish g'oyalari balqib turgan she'rlarga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Biz Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyeva, Jamol Kamol, Gulchehra Nurullayeva, Muhammad Yusuf, Xurshid Davron, Azim Suyun, Yusuf Jumayev kabi shoirlarning yangi she'rlarida kitobxonni yangi tarixiy voqelikni his qilishga; yangilanish va poklanishga chorlovchi g'oyalarni ko'ramiz. Bu g'oyalar avvalgidek hayqirishlar tarzida baland pardalarda aytilgan, ammo yurakka yetib bormaydigan so'zlar bilan tarannum etilgan emas. Aksincha, yurak qa'ridan, yurak qonlariga qo'shilib chiqqan, shuning uchun ular boshqa yuraklarga ham yetib bordi va bormoqda. Shu tarzda xalqni – mustaqillik yo'liga chiqib olgan xalqni uyg'otuvchi, unda milliy g'urur va e'tiqod, istiqbol va istiqbolga ishonch tuyg'ularni ardoqlovchi she'rlar bugungi adabiy jarayondagi birinchi va yetakchi tamoyil hisoblanadi. Totalitar tuzum va uning mafkurasi milliy respublikalar xalqlarining tarixidan, madaniyati ildizlaridan mahrum etibgina qolmay, diniy an'analari va urf-odatlarini ham payhon qilib tashladi. Diniy madaniyat o'rniga bu xalqlarga berilgan markscha-lenincha ta'limot esa ular imkonini salomat olib qololmadi. So'nggi yillarda dinga erkinlik berilishi, islom ta'limotiga oid ilmiy ommabop asarlarning paydo bo'lishi va boshqa tadbirlar natijasida o'zbek she'riyatida islom asotirlari va g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar paydo bo'ldi.

Abdulla Oripov "Haj daftari" va "Hikmat sadolari" turkumi bilan XX asr o'zbek she'riyatiga diniy-ma'rifiy g'oyalarni birinchi bo'lib olib kirdi. U Rabg'uziyni "Qissayi Rabg'uziy" asari na Ismoil Buxoriyning "Hadis"larini o'rganish, "Qur'oni karim"ni o'qish asosida ularda bayon qilingan diniy-ma'rifiy g'oyalar bugungi yosh avlodni yuksak insoniy madaniyat, imon va e'tiqod ruhida tarbiyalash mumkinligini zukkolik bilan sezdi. Shoir ellik she'riy hadisni o'z ichiga olgan "Hikmat sadolari" turkumida diniy manbalardan o'rin olgan sujetlar, hikmatlar va orzulardan samarali istifoda qilgan holda kishilarni poklikka da'vat etuvchi, ular qalbiga ezgulik urug'larini sepuvchi va hidoyat yo'liga yetaklovchi lirik qahramon, XX asr o'zbek she'riyatining yetakchi qahramonidan shu bilan farqlanadiki, u avvalo Tangri-taoloning mavjudligiga ishonadi, ishonibgina qolmay, bu dunyodagi barcha voqealar uning amri bilan yuz berayotganiga qanoat qiladi va har bir odam orttirgan gunohlari, sodir etgan jinoyatlari uchun oxiratda jazolanishiga shubha qilmaydi. U o'zidagi ana shu ishonchni boshqalar qalbiga ham singdirishni o'zining murod-maqsadi deb biladi:

U senga ko'rsatdi hidoyat yo'lin,
Yurgil yo yurmassan, o'zing bil, inson.
Balki sen tutgaysan Iblisning qo'lin
Yaratgan Xoliqqa barchasi ayon.
Pishqirgan daryoning sohilida gar,

Tashnayu zor qilsang, aybdor o‘zing.
Boshingga nogohon balolar yog‘ar,
Labingdan uchgali chog‘ jaholat so‘zing...

Bu borada Abduvali Qutbiddin ham samarali ijod qilayapti. U o‘z g‘oyasini g‘ayri-tabiiy g‘aroyib manzaralar, tasvirlar zamiriga singdiradi. Sirtidan qaraganda, uning tashbehtariga yuklangan fikr, tuyg‘ular ko‘ngil ko‘zida aks etgan mutlaqo noreal, tushdagi kabi tartibsizlikday ko‘rinadi. Lekin chuqurroq mushohada qilinsa, uning mohiyati anglashiladi. Chunki diniy qarash falsafa obyektini real hayot emas, inson ruhiyati, ruhiy hayot, boqiy dunyodir. Zeroki shunday ekan, tasvirning g‘ayri tabiiy bo‘lishi hayron qolarli hol emas. Biroq rang tasvir va tashbehtlarning realligida emas, uning zamirida yotgan fikr hamda uning mohiyati muhimdir. Bu holni A.Qutbiddinning “Imon” degan she‘rida kuzatish mumkin:

Tush ko‘rdim, zulmat o‘rmonni qahri.
Boyo‘g‘li qizlari terurlar chanoq.
Yo‘lbarsday sochadi tegraga qahrin,
Umr manzil ko‘rib bebosh, beadoq.
Tush ko‘rdim, ufqning ayollari o‘ynar,
Shamol siynasida entikar xayol.
Yalpiz beshiklarida tongmi tebratar,
Bo‘yrada yalpizlar undirgan ayol...

“Imon” so‘zi, tushunchasi, obrazi kabi mumtoz she‘riyatimizning boy merosiga Abduvalida havas kuchli. Buning quvontiradigan bir jihati ulkan va ulug‘ merosga shoirning munosib vorislikka intilishida, borliqni anglash va talqin qilishda tasodif bilan doimiylikni farqlab ish ko‘rishidir. Bugungi o‘zbek she‘riyatida ko‘zga tashlangan uchinchi tamoyil adabiyotning so‘z san‘atligi, uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Oybek yosh kitobxonlarga murojaat etib, ularga she‘riyatni sevish, undan bahramand bo‘lish lozimligini ta‘kidlar ekan, bunday yozgan edi: “She‘riyat dunyosi, muzikasining sehrli kuylari, bahor shabadasi kabi, sizning qalbingizga eng go‘zal inson husnini beradi, nafis zavq bag‘ishlaydi. She‘riyat va musiqa dunyosida xulqingiz nozik go‘zallik, chuqur hissiyot kashf etadi. Taassuflar bo‘lsinki, sovet davrida she‘riyat ana shu, bahor shabadasi kabi, inson qalbiga eng go‘zal inson tuyg‘ularini, hissiyotlarini ta‘riflash vazifasini ado etishga yaramadi. U “grajdanlik g‘oyalari” deb atalgan zolvorli yukni ko‘tarishdan nariga o‘tmadi. She‘riyat bunday og‘ir yuklardan bir qadar ozod bo‘lgan hozirgi davrda endi o‘zining birlamchi bajarishi zarur haqiqat kishilar qalbiga nazokat va nafasat gullarini sochishi tuyg‘ularini tarbiyalashi, zavq-shavq bag‘ishlashi lozim. Bu borada M.Yusufning “Ishq kemasi”, E.Shukurovning “Sochlari sumbula sumbul” H.Ahmedovning “Tungi marvarid gullar”, H.Asqarniing “Tongning bedor ko‘zlari” to‘plami va yoshlarning qator she‘rlari misol bo‘la oladi. To‘rtinchi tamoyil sof milliy xususiyatga, ya‘ni millat ruhiyatining bor ko‘rinishi, o‘z ifodasini topgan she‘riyatning yuzaga kelishi. Milliy mustaqillikning ijtimoiy-siyosiy ko‘rinishi bu milliy mafkura bilan xarakterlanadi. Milliy istiqbolning asosiy shartlaridan biri mafkuraviy mustaqillikdir. U o‘zida millat taraqqiyotining g‘oyaviy yo‘nalishini aks ettiradi, mafkura o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra ham yangilanayotgan jamiyatning yo‘nalishini, uning qiyofasini belgilab beradi. Milliy mafkura taraqqiyotida milliy an‘analarga, qadriyatlar, madaniy merosning ahamiyati katta. Chunki mafkuraning milliylik xususiyatlari xalqning an‘analari va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Mafkura konsepsiyasi esa xalqning tarixiy rivojlanishidagi tajribalarini asos sifatida qabul qiladi. Bu o‘rinda esa milliy an‘analar va qadriyatlar millat mafkurasiga ham mohiyat, yo‘nalish, mazmun va shakl beradi. Shu boisdan ham milliy mafkura taraqqiyotini milliy an‘analarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu borada lirika katta rol o‘ynaydi va o‘ynayapti. Bunga Shavkat Rahmonning she‘riyati yaqqol misol bo‘ladi. Uning “Bo‘sag‘a” she‘rida quyidagi satrlarni o‘qish mumkin:

Panoh so‘radimmi borimni yechib,
O‘zni urdimi yo biron eshikka?
Qaltis lahzalarda orimdan kechib,
Kirdimmi sichqonlar kirgan teshikka?!

Qaltis lahzalarda sinalar paytim
Dunyoning ko'ziga qaradim qattiq...

Bu o'rinda ajdodlarimizga xos bo'lgan insoniy g'urur jo'mardlikni anglab olish qiyin emas, ya'ni katta insoniy qadriyatni. Uning "Eski she'r", "Turkiylar", "Sharhi hol", "Tariqat ishi" shubhasiz, mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo'lsa-da, milliy shaklda namoyon bo'ladi. O'zida millatning ruhini ifodalaydi. Bu xususiyatlar she'riyatda, ayniqsa, yaqqolroq bo'y ko'rsatadi. Zamonlar o'rin almashaveradi, tafakkur, taxayyul evrilaveradi, she'riyatda surat – shakl yangilanaveradi... Bundan qat'i nazar, har qanday holda adabiyotning, she'riyatning darajasi ikki mezon – milliy ruh va mahoratga ko'ra belgilanadi. O'tgan 2013-yil ham she'riyatimiz uchun yutuqlarga boy bo'ldi, deyish mumkin. Besh jildli "Ozod Vatan saodati" antologiyasi nashrini yilning eng e'tiborli hodisasi sifatida baholash zarur. Antologiyaning birinchi jildi mustaqillik davri she'riyatiga bag'ishlandi. Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari adabiyotimizning ulkan namoyandalari asarlari bilan ochilgan antologiyadan 110 shoir ijodi namunalari o'rin oldi. Ushbu nashrga katta avlod shoirlar bilan bir qatorda Ikrom Iskandar, Xosiyat Rustamova, G'ayrat Majid, Guljamol Asqarova singari yosh ijodkorlar asarlari kirgani milliy she'riyatimiz rivojiga navqiron iste'dodlar ham munosib hissa qo'shayotganidan darak beradi. Tabiiyki, bu to'plamlarning barchasini tahlil etish imkoniga ega emasmiz. Shunga ko'ra, o'tgan yillar to'plamlar misolida she'riyatimizga xos yetakchi tamoyillarni ajratib ko'rsatishga, shu asosda fikr yuritishga harakat qilamiz.

Bu tamoyillar nimalarda ko'rinadi? Biz ularni shartli ravishda to'rt guruhga ajratdik: 1) milliylik; 2) poetik til me'yori; 3) obrazlilik; 4) tuyg'uning samimiyligi tamoyillari.

1. **Milliylik tamoyili.** Milliylikdan xoli bo'lgan tuyg'u ta'sir kuchidan ayriladi. Milliy ruhdan mosuvo tafakkur bamisoli qanotsiz qushga mengzaydi. Shunga ko'ra, milliylik she'riyatning asosiy tamoyilidir. Zero, ta'bir joiz bo'lsa, jahon adabiyoti ko'rigida o'zbek she'riyatini ajratib ko'rsatuvchi asosiy xususiyat, o'zgalardan farqini namoyon etadigan bosh belgi bu milliy ruhdir. Shuning uchun ham, "Xalqning o'lmas ruhiyatini, qadriyatlarini, milliy o'ziga xosligini, va nihoyat, bebaho til boyligini mujassam eta olgan haqiqiy ijod namunalarigina yashashga haqli", deganda Abdulla Oripov haq. Ushbu tamoyil she'riy to'plamlarda o'z ifodasini qay darajada topdi?

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov "Tanlangan asarlar" idagi har bir she'rni mazkur tamoyilga misol o'laroq keltirish mumkin. Jumladan, "Maydanak" she'rida ifoda ham, tasvir ham, obraz ham, tashbeh ham – barcha-barchasida milliylik yaqqol namoyon. G'alvali zaminga el bo'lolmay, osmonga uchmoqni orzu qilgan vatandoshini shoir Maydanakka taklif etadi. Zero, uning ta'biricha, bunda koinotning haramlariga durbin bilan nazar solmoq imkoni bor.

Ana, tong yulduzi – Zuhro nurafshon,
Dur taqib olibdi oppoq bo'yniga.
Oymomo poylaydi tun bo'yi giryon,
Kirib ketmasin deb yerning qo'yniga.

Bunda oymomo – ona timsoli, oppoq bo'yniga dur taqib olgan Zuhro esa – bo'y yetgan qiz. Oymomoning tun bo'yi giryon poylashidan muredd – Zuhroni yerning qo'yniga kirishdan asrash. Ana, onaning bedorligi sababi nimada?! Bo'y qizining iffatini, sha'nini himoya qilish – o'zbek onasi uchun hayot-mamot masalasi. She'riyatimizda shu kechgacha Oymomo va Zuhro obrazlari orqali millatimizga xos ushbu fazilatni bu qadar yorqin, bunchalik ta'sirchan ifodalagan boshqa she'r uchramaydi. She'rdagi mana bu misralar esa, shoirona taxayyul, shoirona tafakkur mahsuli ekani bilan alohida ajralib turadi. Tasavvuringizda shundoq gavdalangan tasvir jozibasidan hayratga tushmaslikning iloji yo'q: Somonchi yo'lida g'aflatda qolib, Molidan ayrilgan Mirrixga boq-chi. Bir suruv echkini oldiga solib Changitib ketmoqda yetti qaroqchi. Shoir fikricha, yulduzlar hayoti bag'oyat qiziq. Ular hayotining ma'nosi – samoviy parvoz.

"Biri kuylayverib ketgandir qizib,
Biri tinglayverib qotgandir muzlab"...

Tabiat haqida yozadimi yoki samoviy jismlar xususida fikr yuritadimi, inson kechinmalarini tasvirlaydimi yoki turfa tuyg'ularni qalamga oladimi, Abdulla Oripovning ko'z o'ngida har doim Vatan timsoli turadi. She'rlaridagi milliy ruh qalbingizga ko'chganini sezmay ham qolasiz. "Maydanak" she'ridagi mana bu misralar buning isbotidir:

Endi jiddiy turib bu yonga qara,
Falakda ko'rinar ikkita oq qand.
Biri "O'zbekiston" degan sayyora,
Birovining esa nomi – "Samarqand".

She'rning poetik xulosasida ham milliy ifoda, milliy ruh, milliy talqin mujassam. "*Agar mag'iz bo'lsang, olam bir danak*" tashbehi ana shu milliylikka yorqin bir dalildir. Bunday misralar shunchaki o'ylab topilishi mahol. Ular quyilib keladi; yaxlit holda, bir butun tarzda tug'iladi:

Mana shu tomosha yetar sen uchun,
Agar mag'iz bo'lsang, olam bir danak.
His et Ulug'bekni, xayolning kuchin,
Parvoz maydonidir senga Maydanak.

Eshqobil Shukurning "Ko'z yumib ko'rganlarim" kitobi nomidanoq rostakam poeziyani his etish mumkin. "*Ko'z ochib ko'rish*" shaklidagi xalqona iboradan xabardormiz. Ko'zni yumganda esa, Rumiya talqin bo'yicha, ko'ngil ko'zi bilan ko'rish imkoni kuchayadi. Shunga ko'ra, to'plamning topib qo'yilgan nomida teran falsafa mujassam. "Tong ila shom" she'ri milliy ruhning o'zgacha talqini bilan alohida ajralib turadi. Shoir "*momolarning tongdan uyalish, shomdan hayo qilish*" haqidagi o'gitlarini eslaydi. Sahar qushlari-la uyg'onib, shafaqlarga boqib o'ylangan kezlarini yodga oladi. Mana bu misralar esa, milliy ruhning chinakam ta'sirchan ifodasidir:

Quyoshdan uyalmoq, oydan uyalmoq
Qaysi nasabda bor, kimning naslida?..
Hayoga suyanmoq, orga tayanmoq
Xudo bergan davlat ekan, aslida.

O'zbekni boshqa millatlardan ajratib turadigan fazilatlaridan biri hayodir. U nainki atrofidagi odamlardan, hatto quyoshu oydan ham hayo qila biladi. Shoir ta'biri bilan aytganda, bu xalqimizga Xudo bergan davlat, Yaratganning marhamati. Shu bois, o'zbek yuvuqsiz qo'l bilan, kir-chir dil bilan oqshomga kirishdan hijolat chekadi; g'araz niyat bilan, egri yo'l bilan tonglarga borishdan o'zini tiyadi. Mana bu badiiy umumlashmada esa, momolar timsolida millatning nomusi, asl tabiati, ruhiyati tajassum topganini kuzatish mumkin:

Tongning o'z ruhi bor, ishonaman men,
Ufqlarda sezdim shomning ruhini.
Ko'rdim momolarim nomusida men
Osmon ustunini, Yerning o'qini.

Ya'ni shoir chiqargan poetik xulosaga ko'ra, mabodo, *nomus, hayo, or singari tuyg'ular zavol topadigan bo'lsa, Osmon qulaydi, Yer o'z mehvaridan chiqib ketadi*. Bu mukammal koinot ana shunday qadriyatlar evaziga barhayot va ustuvordir. She'rda bu fikrlar ochiq aytilmagan, ular tagmatndan anglashiladi. Zero, shoirning shoirliği ham shundaki, u aytmasdan aytadi, botin tili bilan so'zlaydi. She'r shuning uchun ham she'rki, unda bir vaqtning o'zida bir qancha ma'no ifodalanmog'i mumkin. Ularni anglab yetish, his etish esa o'quvchiga tan. O'tayotgan har bir damni qadrlashga, uni ne'mat deb bilishga, g'aflat bilan o'tkazmaslikka undash ulug' mutafakkir ajdodlarimiz eng ko'p e'tibor qaratgan mavzulardan.

Shoira Farida Afro'zning "O'sha kun bugundir" nomli saylanmasi sarlavhasiga chiqqan she'ri ana shu ruhda. Biroq bu she'r zinhor mumtoz shoirlarimiz asarlarini takrorlamaydi. Garchi mavzuda muayyan mutanosiblik bo'lsa-da, shoira she'rida shakl ham, talqin ham o'ziga xos, ohorli ekani bilan alohida ajralib turadi:

Ertani o'ylamoq sen uchun emas,

O'tganga yig'lamoq sen uchun emas,
Jazoni qo'llamoq sen uchun emas,
Umr asli bir kundir,
O'sha kun – bugundir.

Tanlangan yangi shakl (misralarning zinapoya tarzida kelishi), lahzalar shukri-la yashash, umrning har onini g'animat bilish haqidagi shoira badiiy umumlashmasi bag'oyat ta'sirchan. Tutilmagan tashbehlar, teran mazmun va sirli ruh uyg'unligi she'rning badiiy quvvatini, poetik jozibasini ta'minlagan. Shoiraning boshqa bir she'ridagi mana bu misralarida esa ruh – milliy, obraz – milliy, tashbeh – milliy:

Yoz chillasi doshqozonida,
qovurdoqdek qovurib, garmselda sovurib,
shimolga shaftoli tutgan bog'bon – mening Vatanim!
Bobosining belbog'in – Adolatning bayrog'i qilib,
“Halol, halol!” deya, raqibin,
Kuragini yerga bosgan polvon – mening Vatanim!

Shoira Vatanni quruq madh etish yo'lidan bormaydi. Uning jonli timsolini shundoq ko'z oldingizga keltirib qo'ya qoladi. Bu timsol – ko'ngilga naqadar yaqin: zahmatkash, qo'li gul, yoz chillasi doshqozonida qovurib, garmselda sovurib shimolga shaftoli tutgan bog'bon, bobomeros belbog'ini adolatning bayrog'i qilib ko'targan, raqibining kuragini yerga bosgan polvon. Demak, Vatan qandaydir mavhum tushuncha emas, u – siz, u – men, u – ona xalqimiz. Aslida, she'riyatning asl maqsadi ham, shoirlikdan murod ham ana shu tuyg'uni paydo qila bilishdir.

2. Poetik til me'yori tamoyili. Bu tamoyil she'rni she'r qiladigan asosiy shartlardan. Zero, so'zni his qilmasdan, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lmasdan, uni o'rinli va tejab qo'llamasdan turib she'r xususida so'zlash o'rinsiz. *Ko'pso'zlik adabiyotni siyqalashtiradi.* Muayyan voqeani qofiyaga solib nochor saviyada qayd etish hali she'r bo'lolmaydi. Poetik til badiiyatning yuqori darajasini ham, oz so'zga ko'p ma'no yuklash zaruratini ham, misralarning tabiiy ohangini ham – barcha-barchasini o'z ichiga oladi. Busiz she'rning saviyasi haqidagi har qanday so'z ortiqcha.

Abdulkarim Bahriddinning “Tomchidil” to'plamida mazkur tamoyilga misol bo'la oladigan she'rlar ko'p. Mana, shoirning ana shunday to'rtliklaridan biri:

Darveshga dedilar: “Ustingga qara,
Yirtiq-yamoq kiyim, janda xirqating!”
Darvesh dedi: “Dilni poklash-la bandman,
Ustimni bezashga yo'qdir fursatim”.

Darhaqiqat, barcha zamonlarda ham ahli dillar – ma'rifat ahli asosiy e'tiborni ko'ngil pokligiga qaratgan. Zohiriga zeb berish bilan ovora bo'lib, botinni xarob qilish jaholat belgisi sanalgan. Ana shu tuyg'uning betakror badiiy talqini she'rning yutug'ini ta'minlagan asosiy omildir. Yana bir muhim jihati, unda nainki so'z, hatto birorta tinish belgisi ham noo'rin qo'llanmagan.

Salim Ashurning “Titroq” nazmiy to'plami mutolaasidan ko'ngillarda toza she'r titrog'ini tuyasiz. Shoirning badiiy-estetik didi she'rdan she'rga o'sayotganini his etasiz. Jumladan, mana bu misralar aslo to'qilmagan, quyilib kelgan:

Shabboda bir patni tutib keltirdi,
Sevgining nomidan maktub keltirdi.
Har so'zda chiroyli barmoq izi bor,
Har so'zning yonida gul ildizi bor
So'z emas, lablarda taralgan nafas,
Lab emas, bir qalbda yaralgan nafas.
Nafasmas, bir dilning tubidagi uh,
Uh emas, ko'krakda erigan anduh...
Nuqramas, tomoqda tebrangan bir voh,
Voh emas, pardan ham yengilroq bir oh...

Bu satrlarni o‘qir ekansiz, shabboda sevgi maktubini shoirga emas, sizga keltirgandek, hayajonga tushasiz. Ko‘ngil dunyongizni nafis bir tuyg‘u egallaydi. Zero, asl she‘r ana shunday bo‘lishi kerak, o‘z muhibi qalbiga, shuuriga, ruhiyatiga nur olib kirishi kerak. Bunday nafis she‘rlar, tutilmagan tashbehlar, ohorli talqinlar ko‘p ekani to‘plamning asosiy yutug‘idir. Vafo Fayzulloning “Azaliy g‘ussa” she‘rlar to‘plamining nomidayoq chinakam poeziya mujassam. To‘g‘risi, undagi she‘rlarni mutolaa qilish anchayin og‘ir, g‘ussaning zo‘rligidan yuraklar ezilib ketadi. Biroq ayon bir haqiqat shundaki, she‘r faqat quvonchdangina tug‘ilmaydi. U o‘quvchi ko‘nglini goho iztirob va anduh oloviga tashlaydi, goho g‘amu anduh qozonida qovuradi. Ba‘zan qayg‘u buloqlari vositasi ila bo‘lsin, ko‘ngil kirlarini yuvadi. Mana bu misralar ham ana shunday iztirob hissi bilan yo‘g‘rilgan:

Issiz chechaklarning ko‘pini ko‘rdim,
Hayosiz g‘unchalar undan ziyoda.
Negadir keladir goho xo‘rligim,
Baxtsizliksiz yashab bo‘lmas dunyoda.

Muhimi, she‘rda teran mazmun va yuksak badiiyat uyg‘unligi kuzatiladi. Falsafiy tafakkur ustunlik qiladi. Ortiqcha biror so‘z uchramaydi. Hech bir o‘rinda tahrirga ehtiyoj sezilmaydi.

O‘roz Haydarning “Falak favvorasi” to‘plamidagi she‘rlarning aksari poetik til me‘yori jihatidan talab darajasida. Mana bu misralar mutolaasidan ko‘ngil yorishib ketadi. Sababi, obrazli tafakkur va xalqona ohang teran mazmunni go‘zal badiiy shaklda ifodalash imkonini bergan:

Quyoshning savatidan
Boychechaklar sochilsin.
Yurak yorug‘ sevgidan
Atirguldek ochilsin.
Shamol, kuyla ko‘zimda!

Shoirning “Tun haqida qo‘shiq” she‘ri ham poetik tasvirning quyuqligi, tashbehlarining ohorli ekani, o‘zga ijodkorlarni takrorlamasligi bilan alohida ajralib turadi:

Oy tangasin yo‘qotgan ko‘kda
So‘nib borar yulduzlar shami.
Tun qayg‘uli adashgan qizday,
Kelmas unga hech kimning rahmi...
Yo‘qotgandir ranglar libosin,
Dili siyoh soylar titrar jim.
Saf tortgancha daraxtlar sassiz,
Zulmat sari boshlaydi hujum.

Shodmonqul Salom poetik til me‘yorini, uning nazmdagi mavqeini teran his etadigan shoirlardan. “Borligini bilganlar” to‘plamidagi she‘rlar buning yorqin isbotidir. She‘riyat bu fantaziya demakdir. Chinakam shoirning xayolot olami keng bo‘ladi. U muayyan mavzuga hech kim o‘ylamagan rakursda yondasha biladi. Shu bois Shodmonqulning shoirlarning “nasab”i haqidagi mana bu misralari hech kimga malol kelmaydi. Shoir rostdan ham shunday ekaniga odamni ishontiradi:

Shoirlar shamolning avlodlaridir,
Iztirob tufayli yerga bog‘langan.
Mangu sog‘inchlarning qanotlaridir,
Hech kim kuymas o‘tda alar dog‘langan.

Bugina emas. Shoirlar: “ko‘p xirgoyi bo‘lgan esa-da, aytilmagan g‘ussa qo‘shig‘ining davomi”. Hayrat darchasidan boqqan ko‘zlarga muhrni ham ular bosgan. Kipriklarida osmonu zaminni ko‘tarib yurguvchilar ham ular. Dunyoni achchiq sevishlari sababi shunda. Eng achinarlisi, ular dunyoda yashayotganlari yo‘q, “O‘ng kelmas tushlarni ko‘rayotirlar”. Mana bu badiiy umumlashma esa, shoirlikning yuki naqadar zalvorli ekani haqidadir:

Shoirlar – olamning dilgir yuragi,
Dunyo – ko‘hna yupanch, turaveradi.

Shamol va shoirlar ruhi tirikdir,

Dunyoning yuragi uraveradi.

3. Obrazlilik tamoyili. Obrazlilik – she’riyatning muhim sharti. Zero, obraz tasvirga jon bag’ishlaydi, poetik joziba baxsh etadi. Obrazsiz she’r bamisoli ruhsiz tandir. Chinakam she’rda chuqur mazmun ohorli obraz vositasida ifodalanadi. Obraz timsolida namoyon bo’lmas ekan, she’rning oddiy xabardan farqi qolmaydi. Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar”i 7-jildidagi “Kema” she’ri obrazlilikka yorqin timsol bo’la oladi. Tasavvur qiling: dengiz ufqida goh qalqib, goh g’oyib bo’lib yuzayotgan; fursat-bafursat kattalashib, shakli-shamoyili aniqroq namoyon bo’layotgan kema sohilga tobora yaqinlashib kelayotir. Bu kema shunchalar ulkanki, vahshiy to’lqinlarni yengib o’tolgan, bo’ronlarga qarshi yelkan ko’targan, tumanlar qa’riga singib yo’l topa olgan. Shoirning asl muddaosi mana bu poetik xulosadan anglashiladi:

Biz ham kema yanglig’ suzgaymiz borho

Noayon erurmiz bizlar ham dastlab.

Yelkandek tortilsa tuyg’ular goho,

Jismimiz goh balqar, goh ketar pastlab.

Buyuk ummon erur o’zi bu olam,

Chorlar odamzodni sohillar vasli.

To’fonlarni yengib suzarkan har dam

Kemaga o’xshaydi Vatan ham asli.

Olam buyuk ummonga, ona Vatan esa ne-ne to’fonlarni – xatarli holatlarni yengib, orzu sohiliga yaqinlashayotgan kemaga tashbeh etilmoqda. Bu kemada goh balqib, goh noayon, goho tuyg’ulari yelkandek tortilib yuzayotganlar esa, siz bizmiz. Nurli istiqbolga, buyuk kelajak manziliga yo’l olgan Vatan timsolini bu qadar yorqin obrazda, bunchalar ta’sirchan tasvirlash har qanday ijodkorning ham haddi emasligi ayon. Badiiy jihatdan yuksak, yorqin obraz va teran falsafiy tafakkurga asoslangan bunday she’rlar har kuni ham yaratilavermasligi kunday ravshan. Shoirlar, ijodkorlar, adabiyotshunoslar eng ko’p fikr yuritadigan mavzu – ilhom. Ne-ne shoh asarlar yaratilishining bosh sababchisi bo’lgan bu ilhom deganlari nima o’zi? Uning satxi-sumbatini, qaddi qomatini biror marta bo’lsa ham ko’rgan odam bormi? Buning uchun yuksaklikka – fazoga uchish yoki uzoq dengiz safariga otlanish shart emas, *Farida Afro’zning “She’r kelyapti, po’sht, po’sht” she’rini o’qisangiz bo’ldi*, ilhomni ko’rasiz-qo’yasiz.

Ichimga...

ichimga...

ichimga zilzila kiryapti,

zilzila kiryapti, titroq beayov...

Vulqonning xavfi bor, bemavrid, bejo,

Bir toshqin kelyapti...

Ha, demak,

Ha, demak

She’r kelyapti, po’sht-po’sht!

Yo’ldan qoching, po’sht-po’sht!

Guldirak misol bir tovush kelib, tog’u toshlarni sel olish xavfi tug’ilsa, tomoqqa yig’i tiqilsa... Ijodkorning ichida bir olov yonsa, bir olovki, quyoshga egiz, odamzorlarda yong’in xavfi tug’ilsa... Shoirning ichiga osmondan oy tushsa, bir oyki, ishqday muloyim, yerlik g’amlarning tugash xavfi paydo bo’lsa... EHTIYOT BO’LING, SHE’R KELYAPTI!

Ana, ilhom deganlari qanday suratlarda namoyon bo’lishi mumkin. Obrazlilikning kuchi shundaki, u istalgan mavhum hodisani ham ko’z o’ngingizda namoyon etishga qodir.

Eshqobil Shukur nazmiy to’plamida yorqin obrazlarga boy bo’lmagan she’rni topish qiyin. Shoirning mana bu misralari ham ushbu fikrni quvvatlaydi:

Qizg’in qizg’aldoqlar kaftida o’sdim,

Yonayotgan muzning taftida o’sdim,

Bir juft kabutarning kiftida o'sdim...

Metaforalarga boy bunday misralar milliy she'riyatimizda poetik tafakkur o'sayotganidan, ona tilimizning ifoda imkoniyati kengayayotganidan darak beradi. Bunga hissa qo'sha olish ijodkorning salohiyatini ko'rsatuvchi o'ziga xos mezonidir. Ohorli fikr talqinida ma'ning poetik ko'chishiga asoslanilgan mana bu misralar ham badiiyatning baland namunalariidir:

Maxluqdan malaklik izladim ko'proq,
Qoshimda insonday gulladi tuproq,
Qo'lim qanot bo'ldi, ko'zlarim chiroq...

Ikrom Iskandarning "Fasllar ohangi" to'plamidagi "Kuzgi yaproqlar" turkumi obrazlilikka yorqin misol bo'la oladi. Turkumdagi she'rlar kuz manzarasini o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi. Kuz tuniday uzayib borayotgan firoq sababidan yo'lakda yaproqday sarg'aygan umid, shamol saltanatida ayriliq kuyiga o'yin tushayotgan yaproqlar... Bunday ta'sirchan manzaradan ko'ngilga hazinlik inadi. Mana bu misralar esa, so'zga ohorli poetik libos kiydirilgani, oz so'z zamiriga ko'p va zalvorli ma'no yuklangani bilan alohida ajralib turadi:

Qarang, manov yaproqqa,
mo'ysafiddek yonboshlar
issiq to'shak – tuproqqa...

Bunda shakl ham, mazmun ham mutanosib. Birgina "tuproqqa" so'zining bir misra quyidan o'rin olishida ham, mo'ysafiddek yonboshlagan yaproqning daraxt shoxidan – yuksaklikdan tubanga tushishiga nozik ishora bor:

Yo'lakda hijjalab o'qir shabada
yaproqlarning
uzuq-yuluq
xatini...

So'z orqali ham muayyan manzarani bamisoli rassomdek yaqqol tasvirlash mumkinligiga dalildir bu misralar. Mana bu satrlarda esa, teran hayot falsafasi ham, ohorli poetik obraz ham, aniq o'lchamli ritm ham mujassam ekanini kuzatish mumkin:

Boshida ko'tarib turgan edi u,
Allalab bag'rida parvarish etdi.
Yaproqlar jonini baxshida aylar –
tashlaydi o'zini daraxt poyiga...

Misralar tagmatnidan anglashilganidek, *shoir daraxtni onaga, yaproqlarni esa uning bolalariga* tashbeh etadi. *Daraxt – ona boshida ko'tarib, allalab parvarish etgani tufayli kuzgi yaproqlar – zurriyodlari uning poyiga bosh urayotir.* Hayot falsafasi va poetik joziba ana shunday uyg'unlashgan holdagina chinakam she'r dunyoga keladi. Bugun she'riyatda yangidan-yangi nazmiy shakllarga rag'bat ko'rsatilmoqda. Uchlik, beshlik; (tabiiyki, bu beshlik muxammas emas!), hatto geometrik shakllar ham she'riyatga dadil kirib kelayotir. Shunday bo'lishini hazrat Alisher Navoiy qariyb olti yuz yil muqaddam ham bilgan. Ulug' mutafakkirning aforizmga aylanib ketgan:

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,
Bo'lsun aning surati har ne durur,

– degan fikrlari buni tasdiqlaydi. Demak, ma'nidan ayri bo'lsa, har qanday go'zal shakl ham o'zini oqlay olmaydi. Boshqacha aytganda, jozibali badiiy libosning ichi bo'm-bo'sh bo'lmasligi kerak. Betakror shoirimiz Zokirjon Furqat ta'biri bilan aytganda: "Suxan ra'nosi nazm libosi birla zebo ko'runur bo'lg'ay".

Salim Ashurning uchliklari nainki shakl va ma'ni mutanosibligi bilan, obrazning yorqinligi bilan ham ajralib turadi. Bir-ikki misol:

Toshni yordi tar chechak,
Suvga bordi har chechak,
Sirlar gullar bu kecha.

Shoir bu turkumga “Qadim ohanglarda”, deya izoh beradi.

Tepaliklar pastida

Bahor hali rasida.

Qish izgʻiydi qasdida.

Shakliy izlanishlarning bunday muvaffaqiyatli namunalarini boshqa shoirlarimiz ijodida ham kuzatish mumkin. Bunday ijod namunalaridan ayrimlarining qadimiy, mustahkam poydevorlarimiz ustiga qurilayotgani, ayniqsa, eʼtiborga molikdir. Bu yoʻlga ragʻbat koʻrsatgan shoirlarimizga Abdulla Oripovning mana bu soʻzlarini esdan chiqarmaslik tavsiyasini bergan boʻlar edik: “Nega “eng yangi shakllar” jahon badiiy tafakkurida muhim zina boʻla olmayotir? Buning sababi oddiy va soddadir. Yaʼni oʻz-oʻzicha shakl hech narsani anglatmaydi. Libos nisbiydir, faqat ruh va maʼno mohiyatni belgilaydi. Adabiyotdagi shakliy izlanishlar nihoyatda zarur. Lekin u nechogʻlik zamonaviy va ilgʻor boʻlmasin, nochor isteʼdodni tanazzuldan asrab qololmaydi”.

4. Tuygʻuning samimiyligi tamoyili. Sheʼr texnikasining puxta egallangani, metafora va tashbehnlarni oʻrinli qoʻllay bilish ijod namunasining saviyasiga qoʻyladigan talablarning ayrimlari, xolos. Agar sheʼrda tuygʻular rost va samimiy boʻlmasa, koʻngillarga yetib bora olmaydi. Bu borada ham hazrat Navoiyning oʻgitlariga muhtojmiz. Buyuk mutafakkir:

Nuqta su yangligʻ eritur toshni,

Topsa haqiqat oʻtidin choshni...

– deganda, aynan tuygʻuning rost va samimiy boʻlishi zarurligini nazarda tutgan edi. Ana shu tamoyilga muvofiq keladigan sheʼrlar koʻp ekani sheʼriyatimizning mudom oʻsishda, rivojlanishda ekanidan dalolat beradi. *Oʻzbekiston xalq shoiri Oxunjon Hakimning* “Uyingizga sovchi boradi” toʻplamiga kirgan “Bahor ekan-da” sheʼrida ifodalangan tuygʻular samimiyligi oʻquvchi koʻngliga beixtiyor koʻchadi. Uning qalbida bahor shavqini, koʻklam sururini paydo qiladi:

Doʻstim, tongda turib bogʻlarga yoʻl ol,

Bir chimdim uyquning bahridan kechib, Qara,

Lola yuzi yonmoqda yal-yal –

Subhidam shudringdan sharobdek ichib...

Shoirning mahorati shundaki, u bahor tasvirini hayotiy misollar, taʼsirchan obrazlar, tutilmagan tashbehlar vositasida talqin etadi:

Borliqda gurkirash,

Borliqda yashnash.

Gul jamol koʻrsatdi hatto... tikanda!

Moviylikka choʻmib ketdi togʻu tosh,

Bahor deganlari bahor ekan-da.

Umida Abduazimovanning “Marvaridlarim” hamda “Oʻsha sizmi?” toʻplamlaridan oʻrin olgan sheʼrlar tuygʻularning samimiyligi, talqinning ohori bilan alohida ajralib turadi:

Menda vaqtdan boshqa hamma

Narsa yetarli.

Senda vaqtdan boshqa narsa

Yoʻqdir aytarli.

Inson birinchi navbatda qadrlashi zarur boʻlgan vaqt haqida juda koʻp sheʼrlar bitilgan. Umida Abduazimovanning sheʼri, ifodaning soddaligi (joʻnligi emas!), samimiyligi bilan koʻngillar toʻridan oʻrin oladi:

Menga sitam qilganni

kechirib yashay.

Yomonligin dilimdan oʻchirib yashay.

Bu sheʼr oʻzbekning asl tabiati, yomonlik qilgan kimsaga ham yaxshilik qila olish qudratiga ega ekani juda oz soʻz vositasida koʻngilga yaqin uslubda ifodalangani jihatidan ham qadrlidir.

Yusuf Ziyodning *“Ruhiyat manzaralari”* to‘plamidagi she‘rlar, asosan, muhabbat mavzuida. Mana bu samimiy izhorlar esa, inson va uning mohiyati haqidagi falsafa mushohadaning nazmiy talqini o‘laroq dunyoga kelgan:

Kun kelib uzilsa umr – jon yaproq,
Ko‘zim qarog‘idan joy olsa tuproq.
Bilmadim, ortimda nelar qoladi,
Gunohmi, savobmi, qay biri ko‘proq.

Fikrlaydigan har bir odam hayotining muayyan bosqichida o‘tayotgan umrini sarhisob qilishga ehtiyoj sezadi. Yaxshi nom qoldira olyapmanmi, qanday savob ishlar qildimu, qay xatolarga yo‘l qo‘ydim, deya o‘ylanadi. Bu tabiiy hol, albatta. Bunday samimiy tuyg‘u go‘zal badiiy shaklda misralarga ko‘chsa, ta’siri yanada kuchliroq bo‘ladi.

Mazkur yutuqlar barobarida, muayyan kamchiliklar borligidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Qofiyali so‘zlar tizmasidagina iborat, oddiy so‘zlashuv jarayonida ifodalanishi mumkin bo‘lgan sayoz, jo‘n fikrlarni jamlagan, badiiyatdan yiroq “shig‘ir”larni o‘z ichiga olgan to‘plamlar ham, afsuski, yo‘q emas. “Shou-biznes”da “qo‘shiq” matni o‘laroq didsizlikning urchishiga xizmat qilayotgan so‘zbozlik namunalari ham to‘plam o‘laroq taqdim etilayotgani, ayniqsa, achinarli holdir. Xulosa qilib aytganda, she‘riyatimizda milliy ruh talqini yetakchi tamoyil darajasiga ko‘tarilmoqda. Shoirларimiz nazmiy asarlarida so‘zga bo‘lgan mas’uliyat, uni isrof qilishdan saqlanish, oz so‘zga ko‘p ma’no yuklash singari fazilatlar yaqqolroq namoyon bo‘layotir.

Poetik obrazning ohorli, yorqin, ta’sirchan bo‘lishiga intilish hissi kuchaymoqda. She‘rni she‘r qiladigan, o‘quvchi ko‘ngil olamini nurlantiradigan muhim omil – tuyg‘uning samimiyligiga e’tibor tobora ortib borayotir. Bu tamoyillarning namoyon bo‘lishi yangi zamon o‘zbek she‘riyatining badiiyat jihatidan jahon adabiyotining yuksak bor namunalaridan qolishmasligini ko‘rsatadi. Milliy she‘riyatimiz istiqboliga katta umidlar bilan qarash uchun yetarli asos bor.

Tekshiruv savollari:

1. Bugungi kun talabi adabiyotda qay yo‘sinda yondoshishni taqozo qiladi?
2. Bugungi kun she‘riyatining tabiati qanday?
3. Ijtimoiy hayotdagi evrilishlar birinchi navbatda nimada (qaysi janrda) aks-sado beradi?
4. Totalitar tuzim mafkurasining salbiy ta’siri nimalarda ko‘rinadi?
5. Bugungi she‘riyatda nechta tamoyil yetakchilik qiladi?
6. Milliy g‘oya va milliy mafkura nima? Uning shakllanishida she‘riyat qanday rol o‘ynaydi?

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. A.Oripov. Biz ummon yuzini ko‘rdik. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2009-yil 22-iyul.
2. U.Normatov. Tafakkurning tozarishi. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati». 2006-yil 30-avgust.
3. Erkin Vohidov. Dunyoga ochiq ko‘z bilan qarash saodati. Xalq so‘zi, 1999-yil 26-avgust.
4. M.Yusuf. Saylanma. I-II jild. 2004-yil.
5. S.Sayyid. So‘z yo‘li. T.: Sharq. 2008.
6. Sh.Rahmon. Saylanma.T.: Sharq. 1997.
7. Zulfiya. “Xayollar... Tuyg‘ ular...”. Toshkent.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 2002.

3- ma'ruza mashg'ulot mavzusi: HOZIRGI O'ZBEK POEMACHILIGI (DOSTONCHILIGI) DA JANR VA SHAKL IZLANISHLARI

REJA:

1. Doston poema – liro-epik janr
2. XX asr o'zbek adabiyotida dostonchilik
3. Lirik va dramatik dostonlarning janr xususiyatlari (ba'zi dostonlar tahlili)

Asosiy tushuncha va atamalar: Doston, poema, liro-epik janr, yozma va og'zaki adabiyot, jahon mumtoz adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy muammolar, sujetining sertarmoqligi, Yunoniston, afsonaviy qahramonlar, jasorat, xudolar karomati, Gomerning “Iliada” va “Odiseya”, Dantening “Ilohiy komediya”, Firdavsiyning “Shohnoma” asarlari, qahramonlik “Alpomish”, “Farhod va Shirin”, sarguzasht-detektiv “Sabbai sayyor”, ishqiy-romantik “Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”, jangnoma “Yusuf va Ahmad”, “Saddi Iskandariy”, tarixiy-memuar “Shayboniynoma”, “Jizzax qo'zg'oloni”, falsafiy “Hayrat ul-abror”, fantastik-allegorik “Lison ut tayr”, didaktik “Qutadg'u bilig”, xalq, jamiyat.

Doston, poema – liro-epik janr; shu janrdagi badiiy asar. O'zbek xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan. Dostonda muayyan voqea liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko'lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko'p bo'ladi. Sujeti sertarmoq, rang-barang. Xalq og'zaki ijodidagi dostonlar nazm va nasr; yozma adabiyotdagi dostonlar nazmda bo'ladi, bunda nasr voqealarni bog'lovchi vazifasini o'taydi. Yozma adabiyotdagi dostonlarda lirizm kuchliroq, ayniqsa, hozirgi zamon dostonlarida lirik asos yanada salmoqliroqdir. Jahon mumtoz adabiyotidagi dostonlar keng qamrovligi va hajmining kattaligi, ko'tarib chiqqan ijtimoiy, siyosiy, axloqiy muammolari, sujetining sertarmoqligi va dramatzizmining o'tkirliigi, personajlarining ko'pligi bilan ajraladi. Bunday asarlar markazida jamiyat va xalq taqdiri turadi, jamiyat, xalq va qahramon yaxlit, bir butunlikda tasvirlanadi, ular o'rtasida ziddiyat bo'lmaydi, balki shu xalq, shu qahramon bilan tashqi dushmanlar o'rtasidagi kurash, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi. Ularda vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, do'stlik va sadoqat, mehnatsevarlik g'oyalari ilgari suriladi. Ilk dostonlar Yunonistonda paydo bo'ldi. Ularda afsonaviy qahramonlarning jasorati, xudolarning karomati haqida kuylangan. Gomerning “Iliada” va “Odiseya”, Dantening “Ilohiy komediya”, Firdavsiyning “Shohnoma” asarlari doston janrining qadimiy namunalaridir. Dostonlar, o'z mohiyatiga ko'ra:

- a) qahramonlik (“Alpomish”, “Farhod va Shirin”),
- b) sarguzasht-detektiv (“Sabbai sayyor”),
- c) ishqiy-romantik (“Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”),
- d) jangnoma (“Yusuf va Ahmad”, “Saddi Iskandariy”),
- e) tarixiy-memuar (“Shayboniynoma”, “Jizzax qo'zg'oloni”),
- f) falsafiy (“Hayrat ul abror”),
- g) fantastik-allegorik (“Lison ut tayr”),
- h) didaktik (“Qutadg'u bilig”); kabi turlarga bo'linadi. Qahramonlik dostonlarida xalq, jamiyat taqdiri tasvirlansa, ishqiy-romantik dostonlarda oshiq-ma'shuqlarning sarguzashti bosh o'rinda turadi. Tarixiy-memuar yoxud tarixiy-biografik dostonlarda biror tarixiy shaxslar ramziylashtirilib, bo'rttirib tasvirlanadi. Umuman, dostonlarda ideallashtirish, mubolag'ali tasvir ustun bo'ladi, ularda turli afsonalar, asotirlar, hikoyatlar, dev, parilar, xizr, ajdar, ajabto'vur otlar (“Alpomish”dagi Boychibor), sehr-jodu ko'p ishtirok etadi. Xalq dostonlari baxshi, dostonchi va xalq shoirlari tomonidan dutor, do'mbira va xalq cholg'u asboblari jo'rligida ijro etiladi. Folklordagi dostonlar bilan yozma adabiyotdagi dostonlar shakl-shamoyili jihatidan bir xil ko'rinishda bo'lsada, yozma adabiyotdagi dostonlar yozuvchining dunyoni o'ziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va o'z fikr-g'oyalari, orzu-armonlarini ifodalash tarzi, usulida farqlanadi. Garchand, Navoiyning aksar dostonlari, jumladan, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy”

asarlari asosida folklor mavzui turgan bo'lsada, shoir ularni o'z estetik qarashlari va badiiy niyatidan kelib chiqib tubdan qayta yaratgan.

O'zbek dostonchiligi asrlar davomida o'sib, kamol topib, shakli rang-baranglashib bordi. O'rxun-Yenisey yozuvida, Avestoda, "Devonu lug'ot-it turk" dagi qadimgi doston parchalarida, turkiy xalqlar mulki bo'lmish "Kitobi dodam Qo'rqu"da va ayniqsa, "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida o'zbek dostonchiligining taraqqiyot yo'llari, davrlarini ko'rish mumkin. Navoiy "Hamsa"si o'zbek dostonchiligi tarixida yuksak cho'qqi bo'ldi. "Hamsa"da, Gegel iborasi bilan aytganda, "dunyoning qahramonlik holati" ni tasvirlash kuchli, uning falsafiy-axloqiy mazmuni chuqur, unda shaxs barkamolligi, fozil inson va adolatli jamiyat targ'ib etiladi, yaxshilik va yomonlik ildizlari qidiriladi. XX asrga kelganda, o'zbek dostonlari hajman toraydi, lirizm kuchaydi. Dunyoni, voqelikni va inson ruhiy olamini, ruhiy kechinmalarini idrok etish va haqqoniy tasvirlash bosh fazilat bo'lib qoldi (Mirtemirning "Surat" dostoni). Hozirgi dostonlarga afsona, asotirlar ham faol kirib keldi. E.Vohidovning "Ruhlar isyoni", A.Oripovning "Jannatga yo'l" dostonlarida ana shu yangiliklar yaqqol ko'rinadi. Hozirgi zamon o'zbek dostonlarida drama janri belgilari (konflikt, dialog), ayniqsa epik tasvir unsurlari faollashdi. (E.Vohidov, "Istanbul fojiasi", O.Matjon, "Pahlavon Mahmud" va boshqalar).

Bundan tashqari, shoirning his-tuyg'ulari, taassurotlari, o'y-mushohadalari, kechinmalaridan iborat bo'lgan lirik dostonlar ham yaratilmoqda. XX asr o'zbek adabiyotida dostonlar kamayishini roman janri rivoji bilan izohlash mumkin. Voqelikni afsona, asotirlar va ertaklar asosida bayon etib, bolalarga mo'ljallangan yirik she'riy asarlar yozishda ham doston janridan foydalaniladi.

Doston barcha davrlarda adabiyotimizning faol janrlaridan bo'lib kelgan. Badiiy tasvir imkoniyatlari nihoyatda keng bo'lgan bu milliy janr istiqlol yillarida ham takomil topdi. Zulfiyaning "Xotiram siniqlari", A.Muxtorning "Dol qoya", A.Oripovning "Ranjkom" dostonlari bilan boshlangan jarayon adabiyotimizning navqiron vakillari ijodida davom etdi. I.Otamurodning "Sopol siniqlari", "Ichkari tashqari", "Tag'azzul", T.Nizomning "Avvalu oxir", "Suhbat", H.Sharipovning "Ming ikkinchi kecha", O.Hojiyevaning "Ziyorat", A.Suyunning "O'zbek davlati", M.Toirning "Otamning o'kinchi", "Ogoh bo'l, dunyo", A.Yo'ldoshevning "Qiyshiq poydevor qurbonlari", Faxriyorning "Ayolg'u", E.Shukurning "Naqshband" singari turli mavzu va yo'nalishdagi dostonlar dunyo yuzini ko'rdi. Xalq dostonchiligimizning eng yaxshi yutuqlari ruhida yozilgan bu dostonlar janrning yangi-yangi ko'rinishlarini vujudga keltirdi.

Birinchidan, o'zbek mumtoz she'riyati va dostonchiligi an'analaridan foydalanish lirik dostonning ifoda uslubini yangilanganligini aniqladik. Shoiralar mumtoz lirikaga xos murabba', muxammas, g'azal singari janrlarni poema matniga olib kirish va masnaviyning qofiyalanish shaklidan foydalanish adabiy vorisilikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi. Bunda mumtoz lirik janrlarning aynan poema badiiy strukturasiga olib kirilishi natijasida iqtibos san'atining yashovchanligini ta'minlashdan tashqari qahramonlar ruhiy kechinmalarini yorqin ifodalashga erishildi.

Ikkinchidan, dramatik dostonlarda ramziylik xususiyati S.Sayyidning "Tanazzul", M.Rahmonning "Abadiy nido" dostonlari bo'rtib ko'ringanki, bu dostonlarning boshqa davr poemachligining alohida ajralib turadigan xususiyati sifatida ko'zga tashlanganligini tahlil qildik. Mazkur usul orqali bugunning fojealari badiiy aks ettirilgan. Ayni paytda yuqorida tahlil etganimiz dostonlarda lirizm va dramatism uyg'unlashib ketganligi kuzatiladi. Shoiralarimiz tarixiy, zamonaviy mavzuni ochib berish barobarida voqelikka lirik munosabat bildirishga, qahramonlar ruhiy olamida kechadigan o'zgarishlarni aks ettirishga ham erishganlar. Bu esa poemaning adabiyotning deyarli barcha turlari bilan aloqadorlikda ish ko'rishini yana bir karra asoslaydi. Istiqlol davrida yaratilgan dramatik dostonlarining poetik ifoda tarzi she'riy shakl bo'lib, bu orqali ham lirik kechinmalar silsilasi, ham epik talqinni berishga erishildi. Ayni paytda an'anaviy dramatik dostonlarga xos nasriy shakldan ham foydalanilgani kuzatiladi.

Uchinchidan, lirik va dramatik dostonlar milliy tariximiz sahifalarini xolisona o'rganilishi natijasida adabiyotimizda tarixiy siymolar obrazlarini badiiy gavdalandirish sari yangi qadamlar tashlanganligini kuzatdik. Amir Temur siymosi A.Oripovning "Sohibqiron", A.Eshonovning "Samarqandda bir oydin kecha", T.Nizomning "Avvalu oxir" dostonlarida yaratildi. Mazkur asarlarining

sobiq tuzum davrida shu mavzu yozilgan asarlardan farqi shundaki, ularda Amir Temurning insoniy qiyofasini, qalb dunyosini ochib berishga alohida e'tibor qaratildi.

To'rtinchidan, bu davr tarixiy dostonlarining o'z salafalaridan farqi shundaki, ularda liro-epik tasvirdan ko'ra lirik tasvirga kengroq o'rin berilganligi ko'zga tashlanganligini aniqladik. Shoirilar tarixiy xronologiyadan ko'ra tarixiy shaxslarning insoniy qiyofasi, qalb dunyosini ochib berishga ko'proq e'tibor qaratdilar. Bunda ular tarixiy shaxs xarakteriga xos qaysidir ibratli fazilatini, ularning insoniy dunyosini ta'sirchan ifodalashda turli badiiy usullardan: monolog, qoliplash, liro-epik tasvir, ruhiy muloqot kabilardan samarali foydalanganliklari yorqin kuzatiladi. Bu istiqbol davri poemachiligida tarixiy shaxslar obrazlarining o'ziga xos badiiy tizimini vujudga keltirdi.

Beshinchidan, davr poemachiligida folklorizmlar turli shakl va ko'rinishlari namoyon bo'lganligini kuzatdik. Avvalo, xalq og'zaki ijodi janrlarining yozma adabiyot asarlar tarkibida yashab kelayotganligi natijasida an'anaviylikka vorisilik vujudga kelgan. Rivoyat, ertak singari folklor janrlari sujetlarini poema badiiy strukturasi olib kirish orqali ularning mazmuni va kompozitsiyasi boyitilib asar mazmuniga singdirib yuborilganligi (U.Qo'chqor "Shiroq") hamda shu yo'l bilan tarixiy va zamonaviy voqelikning o'zaro bog'liklikda tasvir etilganligi kuzatiladi. Shuningdek, Vatan mavzui talqinida xalq rivoyatlaridan foydalanish muhim xususiyat sifatida ko'zga tashlanadi. Agar X.Davron "Vatan haqida yetti rivoyat" dostonida bir-biriga mantiqan bog'langan yetti rivoyatni muayyan bir tizimga solgan bo'lsa, Y.Eshbekning "Ona Turkiston", "Umr malhami" dostonlarida xalqning birgina rivoyati asosida mavzuni teran yoritishga muvaffaq bo'lgan.

Oltinchidan, folklorning lirik janrlari: alla, xalqning lirik qo'shiqlarini asar matniga olib kirish, ular ohangida satrlar bitish dostonlarning liriklik xususiyati va milliy ruhi yanada yorqin ifodalanganligini aniqladik.

Dostonlarga maqolni olib kirish natijasida shoirilar asarning axloqiy-falsafiy mazmunini kuchaytirishga, lirik qahramon xarakter-xususiyatini yorqin ochib berishga erishdilar.

Mumtoz shoirilar g'azallariga muxammas bog'lash orqali dostonning ta'sirchan ruhini, lirikligini kuchaytirishga erishilgan. Bu T.Nizomning "Girya" dostonida yorqin kuzatiladi. Shoir Navoiyning "Rozi emasmen ko'ngul chokini payvand etsangiz", Boburning "Qaro zulfi firoqida parishon ro'zg'orim bor" matla'lari bilan boshlanuvchi g'azallariga xuddi shu bayt vazni, qofiyasiga mos muxammasalar bog'laydi va shu yo'l bilan ayriqliq, mangu hijrondagi holatini lirik ifoda etadi. Yoki shoirning "Cho'lpon" dostonida Abdulhamid Cho'lponning "Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar", deb boshlanuvchi g'azaliga muxammas bog'langan. Bu asarda lirik qahramon – Cho'lponning monologi yanglig' yangraydi. Shoir shu yo'l bilan uning ruhiy olamini, iztiroblarga to'la qayg'u-kechinmalarini hayotiy va jonli ifodalashga erishgan.

Davr dostonchiligida mumtoz dostonlarga xos masnaviy shaklidan foydalanish orqali epik tasvir imkoniyatlarining kengayishiga erishilgan. Buni T.Nizomning "Cho'lpon", "Girya", "Majnun to'li yig'isi", "Poyga", R.Fayzning "So'z", M.Toyirning "Ogoh bo'l, dunyo" kabi dostonlarida yorqin kuzatish mumkin. Chunki masnaviy "lirik-epik asarga ham o'ng'ay, shakli sodda, hashamsiz... yangi o'y va tuyg'ular ravon kuylanadigan" bo'lganligi uchun shoirilar liro-epik va lirik tasvir davomida unga ko'proq murojaat etganlar. T.Nizom "Cho'lpon" dostonining bir necha o'rinlarida masnaviy shaklidan foydalanadi. Xususan, asarning "Araz", "Soliha yig'isi" qismlari mulohazalarimizga oydinlik kiritadi:

Cho'lpon erta chiqib ketdi qayoqqa,
Soyguzarmi, choyxonami yo boqqa?
To tonggacha uxlamadi bolajon
Tatar domla qilgan edi ko'p fig'on
Qayon ketdi, deb hadikda onasi,
Yosh Cho'lpondan arazlagan otasi...

Lirik parchadagi *qayoqqa, boqqa; bolajon, fig'on; onasi, otasi* kabi so'zlar ohangdosh bo'lib, *a-a, b-b, v-v* tarzidagi qofiyalanish shaklini vujudga keltirgan. Mazkur satrlarda o'ziga xos voqeabandlik bo'lib, unda Cho'lponning isyonkorona kayfiyati aks ettirilgan.

“Poyga” dostonida sujetning bir necha o‘rinlarida masnaviy shakliga murojaat etilgan. Doston birinchi o‘zbek chempioni Hidoyat Inoyatov xotirasiga bag‘ishlangan. Nohaq qatag‘onga uchragan yosh sportchidan bitta Hurriyat ismli qiz qoladi. Asarning Hurriyatga bag‘ishlangan qismi masnaviyda yozilgan:

Hurriyat qiz, Hurriyat
Senda zo‘r toza niyat!
Ikki opang bor edi,
Otasiga zor edi.
Ochilmay so‘ldi Zumrad
Keyin o‘ldi Mamlakat
Qoshlari qunduz edi
Ko‘zlari yulduz edi...

Parchadagi *Hurriyat, niyat; bor, zor; so‘ldi, o‘ldi; qunduz, yulduz* kabi so‘zlar o‘zaro ohangdosh bo‘lib, asarga epik ruh olib kirgan. To‘g‘ri, ayrim satrlar oddiy gaplardan (Keyin o‘ldi Mamlakat) iborat bo‘lib qolgan. Bunday satrlarda emotsional bo‘yoqdorlik sezilmaydi va shoirning qay darajadadir qofiyabozlik ketidan quvganligi ko‘rinib turadi.

Ravshan Fayz “So‘z” dostonida masnaviyga ikki o‘rinda murojaat etgan: birinchisi, onaning Bolani ovutib aytgan qo‘shig‘ida va, ikkinchisi, uch kunlik chillani buzib daryoga intilgan bolani holatini tasvirlashda foydalanadi. Misol uchun:

Bu yurtlardan olislarda oqqan daryo,
Mening kenja botirimga yoqqan daryo.
Tingla, bir kun seni izlab ketgaymiz biz,
So‘ray-so‘ray qoshlaringga yetgaymiz biz.
Shamol bo‘lib yugurgaymiz, yelgaymiz biz,
Holing so‘rab, seni so‘rab kelgaymiz biz.

E‘tibor berilsa, istiqlol yillarida yaratilgan dostonlarning o‘ziga xos xususiyati, ulardagi lirik ifoda uslubi qasida orqali boyitilgan. Ya‘ni davr dostonlari “Toshkentnoma”, “Quyosh maskani”, “Buxoronoma” singari boshdan-oyoq qasida uslubida yaratilmay, balki lirik poema xarakteri va mavzuidan kelib chiqib, asarning xotimasida qasida mazmunidan foydalanilgan.

Shunday qilib, istiqlol davri o‘zbek dostonchiligi yaxlit poetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek shoirlari xalq dostonlaridan, mumtoz dostonchilik an‘analaridan muvaffaqiyatli foydalanish asosida uning mazmunini yangilashga va shakliy-uslubiy rang-baranglik kasb etishiga erishdilar. Ayniqsa, davr dostonchiligida folklorizmlarning turli tiplari qo‘llanilishi shoirlarning ko‘p yillik shakliy-uslubiy izlanishlari mevasi sifatida poema janri tipologiyasini boyitishga samarali ta‘sir ko‘rsatdi.

Demak, masnaviy shaklini qo‘llash lirik poemaga mazmun bag‘ishlab, uning epiklik xususiyatini kuchaytirgan. Bu davr dostonlarini shakl jihatidan mumtoz dostonlarga yaqinlashtirmoqda. Qasida ruhini olib kirish esa dostonlarning liriklik xususiyatini oshirishga, mavzuni yorqin ranglarda ifoda etishga ko‘mak berdi. Ko‘rinadiki, istiqlol davri o‘zbek dostonchiligi xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek mumtoz adabiyoti va zamonaviy dostonchilik yutuqlaridan, an‘analaridan foydalangan holda taraqqiy etdi. Agar folklor janrlari, obrazlari, motivlaridan foydalanish asosida dostonlarning epiklik xususiyati yorqin namoyon bo‘lgan bo‘lsa, xalq lirikasi va mumtoz she‘riyat namunalarini poemalar badiiy strukturasi olib kirish, xalq qo‘shiqlari ohangida satrlar bitish natijasida liriklik xususiyati bo‘rtib ko‘rinishiga erishildi. Ayni jarayon sof lirik poemalar yaratilishi uchun mustahkam zamin hozirladi. Shunigdek, mumtoz dostonchilikka xos masnaviyning qofiyalanish shaklidan foydalanish asosida dostonlarning epiklik jihati yorqin namoyon bo‘ldi.

80-yillarning o‘rtalarida Sho‘ro davlatida keskin siyosiy o‘zgarishlar yuzada keldi. O‘zbek adabiyotida o‘nlab ijodkorlar merosi qayta nashr etildi, ilmiy-estetik tahdidga tortildi. 80-90-yillar oralig‘ida A.Oripovning “Ranjkom”, Omon Matjonning “Qush yo‘li”, “Nega men?”, U.Azimning

“Oqpadar”, M.Yusufning “Qora quyosh”, I.Otamurodovning “Uzoqlashayotgan og‘riq”, M.Murodovning “Chaqmoq izidan”, E.Shukurning “Ibtido xatosi” kabi o‘nlab dostonlar, Abduqahhor Ibrohimovning “Puch”, Shukrulloning “Unsiz faryod”, Hamid G‘ulomning “Bir million fojiasi”, Haydar Muhammadning “Xotinlar ‘gapi’ dan chiqqan hangoma” kabi drama va komediyalari chop etildi.

Tarixiy mavzuda ham bir qator yangi asarlar yozildi. Turob To‘laning “Nodirabegim”, Salohiddin Sirojiddinovning “To‘maris”, Shukur Xolmirzayevning “Qora kamar”, Shuhrat Rizayevning Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni asosida yaratgan “Iskandar” pyesalari shular jumlasidandir.

Abduvali Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” nomli dostoni o‘zbek adabiyotida jiddiy hodisa bo‘lgan asardir. “Izohsiz lug‘at” dostoni o‘zida ijtimoiy va shaxsiy ruhiy kayfiyatni yaxlit, tabiiy sintez shaklida aks ettira olgani bilan ayniqsa qimmatlidir. Bunga shoir qanday erisha olgan? Bu savolga eng to‘g‘ri javob ham asarning o‘zida bor:

Ertadan kechgacha toatim-ibodatim so‘zga,

Itoat ko‘ngilga, muhabbatim gulga.

Xayolim farishtaday Kibriyo avjlari sari boshlaydi.

A.Qutbiddinning ushbu asari 80-90-yillar adabiyotida an‘anaviy dostonchilik namunalaridan barcha jihatlari bilan farq qiladigan, zohiriy voqealar tizimi sujet chizig‘ini tashkil qilmay, balki shoir tafakkuri va his-tuyg‘ulari almashuvidan paydo bo‘ladigan ruhoniylashtirilgan asardir.

Lirik va dramatik dostonlarning janriy xususiyatlari XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotida lirik dostonlar muhim o‘rin egallaydi. Mirtemirning “Surat”, Zulfiyaning “Quyoshli qalam” dostonlaridan boshlangan ijodiy jarayon E.Vohidov, H.Sharipov, M.Ali, O.Matjon, M.Yusuf, E.Shukur kabi shoirlar ijodida davom etdi. Ayniqsa, istiqlol davrida bu sezilarli bo‘ldi. XX asr o‘zbek poemasini o‘rgangan adabiyotshunos N.Rahimjonov lirik poemalarning muhim xususiyatlarini ochib beradi va ularni obyektiv ko‘rinishi jihatidan ikkiga bo‘ladi:

1. Monolog tipidagi sof lirik poemalar

2. Epik elementlar aralashgan lirik poemalar.

Hozirgi davr dostonchiligida har ikki ko‘rinishdagi poemalar yaratildi.

Jumladan, A.Mahkamning “Fotiha”, I.Otamurodovning “Ichkari...Tashqari”, “Tag‘azzul”, N.Jonuzoqning “Nilufar”, S.Ashurning “Atirgul” dostonlari lirik qahramonning monologi asosida qurilgan sof lirik dostonlar bo‘lsa, T.Nizomning “Girya”, “Avvalu oxir”, A.Eshonovning “Samarqandda bir oydin kecha” kabi dostonlari esa epik elementlar aralashgan dostonlarga kiradi.

Turg‘unlik yillari voqeligini aks ettiruvchi dostonlarga O.Matjonning “Nega men?”, A.Yo‘ldoshevning “Qiyshiq poydevor qurbonlari”, dostonlarini kiritish mumkin. Bu dostonlarda ko‘zga tashlanuvchi eng muhim xususiyat ramziylik, timsolli fikrlash bilan bog‘liq.

Ishqiy-intim mavzuda A.Sherning “Sevimagan sevgilim”, Humoyunning “Qalb qal‘asi”, S.Ashurning “Atirgul”, N.Jonuzoqning “Nilufar” kabi dostonlari yozildi. Mazkur dostonlar bir qator xususiyatlari bilan davr poemachiligini boyitdi. Ma‘lumki, lirik dostonlarning bosh qahramoni lirik “men”, ya‘ni shoirning o‘zidir. Yuqorida tilga olingan dostonlarda shu jihat yorqin kuzatiladi.

Lirik dostonlar orasida taniqli shoira Zulfiyaning “Xotiram siniqlari” asari alohida o‘rin egallaydi. Istiqloлга shukronalik ruhi bilan sug‘orilgan bu asarda Zulfiya o‘zining o‘tgan hayotiga nazar tashlaydi. Shoiraning sobiq tuzum davridagi hayoti, iztirobli kechinmalari, insoniy dardlari xotiralar tarzida yuzaga ciqadi. U hurriyatga, yurtning mustaqil kunlariga shukrona qilar ekan, ko‘z o‘ngida yaqin o‘tmish manzaralari jonlanadi. Ularning barchasini shoira “baxtu dard to‘la dengiz” – qalbida tuyadi, his etadi. Shulardan biri uning qatag‘onga uchragan akasi haqidagi yodnomalaridir. Millatning fojiasi bo‘lgan qatag‘on bitun oila a‘zolari qatori Zulfiyaga ham qattiq ta‘sir qilgan:

...Aka ko‘zingizda otash bor edi,

Aka, joningizda quyosh bor edi.

Sultonlikka loyiq kelbat, layoqat,

Sardorniki yanglig‘ bardosh bor edi.

Bu aslida millatning dardi. Chunki o'tgan asrning 30-yillarida asl farzandlar xalq orasidan yulib olindi. Shulardan biri Zulfiyaning akasi edi. Dastlabki ikki misradagi poetik fikr tarse' san'ati asosida shakllangan. Ko'zingizda-joningizda, otash-quyosh singari so'zlar parallel ravishda ohangdorlikni vujudga keltirib, shoiraning akasiga o'xshagan millat farzandlariga qaynoq mehrini ifoda etadi.

Shoira o'sha davrdagi qamoqxonalarda haqida yozadi:

Onam qo'llarida mushtday tugunchak,
Tosh shaharni kezar avaxta izlab.
Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamonni "sizlab"

Epik mazmun bilan yo'g'rilgan bu satrlarda shoiraning onasi timsolida davr onalarining holati aks etgan. Onaning tugunchak bilan shahardagi qamoqxonalarda sargardon bo'lishi, o'glining qaysi avaxtaga tashlanganligini bilish uchun soatlab navbatda turishi singari tasvirlarda bu xususiyat bo'rtib ko'rinadi. Sokin jussali, dili vayron, "mo'ldir-mo'ldir ko'zlarida qotgan yoshlar" kabi tasvirlar davr onalarining farzanddan ayro tushgan holatini o'zida aks ettiradi. Yoki:

Ota, bir ko'rmadik ko'zingizda yosh.
Yashab umidlarning pok sajdasi
Hatto yovingizga otmadingiz tosh.
Va faqat dedingiz: "Soldim xudoga",
Bu qirg'in doyasi xudosizlar-ku.
Sabr, qanoatdan yaralgan edim,
So'qir ham o'ziga so'qmoq izlarku...

Yuqoridagi satrlarda otalar qiyofasi gavdalanmoqda. Shoira o'z otasiga hos mustahkam iroda, sabru qanoatni ifoda etar ekan, o'sha davr otalarining qiyofasini chizadi. Onalarning ezilgan yuz-ko'zida aks ettiradi. Otalarda esa mazkur holat botinda namoyon bo'lgan. "Soldim xudoga" deyish orqali ota o'g'lini qatag'on etganlarni qarg'agan. Bu kabi hayotiy tasvirlarda millatning ijtimoiy dardlari qalamga olinadi, ko'klarga ko'tarilgan sobiq tuzumning shoira ko'z o'ngida sodir bo'lgan fojialari chiziladi. Binobarin, adabiyotshunos N.Rahimjonov "Xotiram siniqlari" dostonining XX asr oxiri XXI asr boshlari o'zbek poemachiligi takomilida ayricha ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, yozadi: "Gap asar mavzui milliy istiqbolga bag'shlanganligida emas. Hamma gap hurriyat uyg'otgan milliy g'urur tuyg'ularini ta'kidlash asnosida inson ruhiyati iqlimlariga teran kirib borilganligida, kechinmalar silsilasi asosida erkka intilib yozg'irgan ruhning suratini chiza olganligida ko'rinadi". O.Hojiyevaning "Ziyorat" dostonida ham lirik kechinmalar tasviri muhim o'rin tutadi. Shoira bugungi kunlarimizdan turib urush yillari voqealariga nazar tashlaydi. Urushda mardlarcha halok bo'lgan akasiga bag'ishlangan doston xotira mazmuniga ega:

Buyuk ziyoratga oshiqqan elim,
Mangulikka bitmish ehtiromini.
Zarhal yozuvlarda titraydi qo'lim,
O'qiyman akamning qutlug' nomini.

Ma'lumki, Xotira maydonida urush yillarida jon fido etgan xalq farzandlarining nomlari zarhal bilan bitilgan. Shoira u yerda akasining nomini o'qir ekan, urush yillari voqealari jonlanadi:

Po'lat sahifalar ochilib jim-jim,
Chimildiq ko'rmagan yigitlar chiqar.
Haykal poyidagi gullar tirilib,
Qirqin parilarday guring boshlaydi.

Boshdan-oyoq metaforik mazmunga ega bu satrlarda urush yillari yigitlari yodga olinadi. Po'lat sahifa – po'latdan yasalgan doska (taxta). Bu doskaning qatlari ochilsa, ularda mard jangchilarning nomlari chiqadi. Yoki askar haykali poyiga qo'yilgan gullar ertak qahramonlariga – qirqin parilarga qiyos etiladi. Gullarning tirilib, boshlashi tashxisni vujudga keltiradi.

Adabiyotimizda urush mavzuida bitilgan dostonlar bisyor. Mirtemirning "Surat", S.Zunnunovning "Ruh bilan suhbat", E.Vohidovning "Nido", "Istanbul fojeasi", J.Kamolning "Armon",

“Eshikda oy to‘qini”, “Quyosh chashmasi” singarilar shular jumlasidandir. “Ziyorat” dostonidagi badiiy usul “Quyosh chashmasi”ni, ba’zi lavhalari esa “Armon”ni yodga soladi. Chunki O.Hojiyeva asarda keyingi yillar poemachiligi an’anaviylasha borgan xotira usulini qo‘llaydi. Bu usulni biz 70-yillar o‘zbek poemachiligining betakror namunalaridan biri “Quyosh chashmasi”da yorqin kuzatamiz. Shoir Jamol Kamol Bulg‘oriya (Bolgariya) yurtini kezar ekan, u yerdagi gullar bilan hayolan suhbat quradi va shu asosda urushda vatan tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida jon bergan o‘zbek o‘g‘lonlarini eslaydi. “Ziyorat” da urush qurbonlarini shoira akasi Ne‘matjon timsolida xotirlaydi.

“Armon”da ta’bir joiz bo‘lsa nafaqat o‘zbek onasining, butun onalarning betakror timsoli yaratilgan. Undagi bir epizod nihoyatda ta’sirchan. Shirin buvi urushga ketgan uch o‘g‘lini kuta-kuta ostonada jon beradi:

...Ona jon berishin bilardi hamma,
Bundoq jon berishin bilmasdi faqat.
Onani topishdi, tongda ostonada,
So‘ngan ko‘zlarida muz qotgan hasrat.
Sho‘rlik jon bermishdi o‘sha ostonada.
Sovuq changalida - uchta “qoraxat!..”

Shirin buvi o‘g‘illaridan kelgan qora xatlarga ishonmaydi. U butun qalbi bilan baribir bittasi tirikdur-ku, deb o‘ylaydi. U to‘shakka mixlanib, hayotining so‘nggi lahzalarini kechirayotgan bo‘lsa ham, o‘g‘illarini kutishdan to‘xtamaydi. Haqiqatan, bunday onalarning hayotimizda yashab o‘tganligi haqiqatdir. Jamol Kamol hayotiy voqelikni nihoyatda tabiiy va kitobxoning qalb torlarini chertadigan darajada tasvir etgan. Shoir bunda lirik dostonning badiiy imkoniyatlaridan samarali foydalanib, Shirin kampirning iztirob, o‘kinch, armonlariga to‘la qalb dunyosini hassoslik bilan ifodalay oldi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, “Armon” poemachiligimizning o‘lmas namunasiga aylandi. “Ziyorat”da ham xuddi shunga yaqin lavha bor:

Bedarak nishon, deb ocholmay aza
Umidin uzmati ona mehribon.
Eng so‘nggi nafas ham ochib darvoza
Yo‘lda qarab turib ona berdi jon...

E’tibor berilsa, ikkalasidagi tasvirda mazmuniy mushtaraklik bor. Jamol Kamolning ham, Oydin Hojiyevaning ham lirik qahramoni o‘g‘illarining yo‘liga qarab turib, bu yorug‘ dunyoni tark etadi. Demak, faqat onalargagina hos bo‘lgan farzandga cheksiz mehr tuyg‘usini ikkala shoir tomonidan maromiga yetkazib ifoda etib berilgan. Mazkur holatning o‘xshashligi ham aslida aynan mana shu jihat bilan belgilanadi.

Istiqlol mavzuida T.Nizomning “Suhbat”, A.Suyunning “O‘zbek davlati”, N.Jonuzoqning “O‘n yetti lahza” dostonlari yaratildi.

“Suhbat” xalqimizning istiqloq yillaridagi bunyodkorona mehnatini kuylashga bag‘ishlangan. Dostonda shoir erkin vazn imkoniyatlaridan, barmoq vaznida samarali foydalangan. Asarda istiqloq mavzusi vatan mavzusi bilan uyg‘unlashib ketgan. Shoir dastlab o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtning manzaralarini chizadi:

Asaka adirlarin eng baland supasida
Sehrli keng bog‘larning xushhavo tepasida,
Zangor ko‘kka qurilgan
Roxatbaxsh shiyponda,
Chorpoyada o‘ltirib, zavqu shavq qaynab qonda,
Ilhomga cho‘mgan edim
Tabiat jamolini ko‘zimga ko‘mgan edim
Shoir shu asosda vatan kengliklari ta’rifiga o‘tadi:
Bunda har tup g‘o‘za – Muhabbat,
Har tup g‘o‘za – Ishq,

Mehnat va Mehnat!

Bo'y-basti – qo'shiq, kuy.

Shonalari – she'r!

Ilk ochilgan paxta – Andijon,

Tog'-tog' xirmon bu buyuk Vatan!

Shundan so'ng mustaqillik kishisi "egnida oq yaktak, qo'lida ketmon" nuroniy chol, fermer dehqon va hokim buvo timsollarida gavdalanadi. Ayni paytda shoir poetik sintaksisga xos elipsis usulidan foydalanish asosida poetik fikrni ixcham shaklda ifodalashga erishgan.

Dostonning muhim xususiyati, uning suhbat shaklida yaratilganligidir. Sababi, lirik qahramonning hokim buvo va dehqon Tilavoldijon bilan muloqoti jarayonida asar mazmuni ochila boradi. Shoir yurt odamlari bilan goh mashinada, goh piyoda vatan kengliklarini kezadi. Shu asosda vatanga mehru muhabbatini, istiqlool tarannumini samimiy satrlarga tizadi:

Yam-yashil maydonlar

Marmar dengizday

Jimmillar.

Erkin nihollarning

Nozik bargida

Oftob imillar...

Har qadamda qahqaha,

Har joyda shodlik,

Istiqlool baxsh etgan

Obodlik!

Shoir yashil maydonlarni marmar dengizlarga qiyoslaydi. Peyzaj yaratish jarayonida betakror tashxis qo'llaydi: nihollarning bargiga oftob shu'la sochishini oftob imillar tarzida ifoda etadi. Imillash esa insonga xosdir. Bu bilan shoir erkinlik shamolini hatto yurtning nihollari ham sezgan, demoqchi bo'ladi. Shoir mehnatkash dehqonlar, oqsoqollar davrasini tasvirlaydi. Suhbatdoshlar shu davraga tashrif buyuradilar:

Oqsoqollar jamuljam,

Shirin anjuman.

So'rilarga to'shalgan gilam,

Dasturxonda pechakqand,

Asaka pashmagi,

Eng asil novvot.

Qayroqi bug'doy non va yo'li shirmoy...

Yuqoridagi satrlarda milliy hayot manzaralari aks etgan. Chunki so'ri, gilam, dasturxon, pechakqand, pashmak, novvot, bug'doy non singarilar o'zbek xonadoni uchun hos bo'lgan narsalardir. Ularda milliy kolorit o'z ifodasini topgan.

Mustaqillik kishisi obrazi Tilavoldi timsolida badiiy gavdalanitirilgan:

– Mana, yoshim oltmishdan oshdi,

Oqarmoqqa sochim ham shoshdi.

Ammo bilagimda kuchim ko'p hali

El oldida burchim ko'p hali...

Ushbu satrlarda yashashdan, kurashdan tolman, jamiyatdagi turli nohaqliklardan qaddi bukilmagan, mehnat qilishni shara deb bilgan inson qiyofasi bo'y ko'satib turadi.

Lirik qahramon yaqin tariximiz sahifalarini eslar ekan, otasining namoz o'qigani uchun so'roqqa tutilganligi, "paxta ishi" tufayli ho'lu-quruqning barovar yonganligi voqealarni esga oladi va bugungi kunlarimizga, istiqloлга shukrona aytadi. Dostonning ba'zi o'rinlarida quruq "bayonchanlik" ruhi va ortiqcha tafsilotbozlik ko'zga tashlanadi. Buni o'tish fojealari aks etgan o'rinlarda yorqin kuztish mumkin:

...Ne-ne rahbarlaru
Ishchan boshliqlar...

Hozirgi adabiy jarayonda dostonchilik taraqqiyotining o'ziga xos janriy xususiyatlari.

Faxriyorning “Yoziq”, “Ayolg'u” dostonlarini so'nggi yillar dostonchiligining o'ziga xos namunalari sirasiga kiritish mumkin. “Ayolg'u” asarini shoirning o'zi “besh juft taxayyul sabog'i... va to'rt tanaffusdan iborat doston” deb ataydi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, shoir voqea-hodisalar ta'sirida ongda muhrlangan, ko'ngilda kechilgan, xayolotda jonlangan manzaralarga e'tibor qaratmoqchi. Xayolot olami esa cheksiz va chegarasizdir, tugal va notug'aldir.

Taxayyul sabog'i o'ldayin za'far
Dilimning hijrati qayg'uiga safar
Alam bor gunoh yo'q na hojat g'affor
Yo'q gunohga buncha mahfirat
Qaro tun qatida umidim falaj
O'ylarim o'yilar ko'zday na iloj
Men na osiydirman, na mansur xalloj
O'zim qolib senga sig'indim...

Komillikka yo'l-shodu xurramlikka, dili xandonlikka yo'l emas. Bu yo'l Faxriyor ta'biri bilan aytganda, “qayg'uiga safar”, mashaqqatlarga, iztiroblarga safar. Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, A.Navoiy kabi mutafakkirlar ijodida ham komillik shunday talqin etiladi. Faxriyorning dostonida ayolg'u chalib, turkular kuylayotgan baxshi siymosini ko'ramiz Bu baxshining sharqona dunyoqarashi modernistik ohanglar bilan uyg'unlashib ketadi.

Bugungi doston komillik masalasini falsafiy talqin etayotgan ekan, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy, Boyazid Bistomiy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy singari komillik martabasidagi shaxslar uning sujetidan qonuniy ravishda joy olmoqda. Ijodkor esa o'zining axloqiy, ma'rifiy qarashlarini shu obrazlarning shaxsiy sifat va fazilatlariga tayanib ro'yobga chiqarmoqda.

Abdulla Oripovning “Jannatga yo'l” dramatik dostoni fantastik va afsonaviy-mifologik mavzu asosida yaratilgan. Dostonda aks ettirilgan voqea-hodisalar “narigi dunyo”da sodir bo'ladi (Dante Aligerining “Ilohiy komediya”si va Fitratning “Qiyomat” (1923) hikoyasi qahramonlari ham “u dunyo” da harakat qiladilar). Asarda ota-ona hurmati nihoyatda ulug'lanadi. Masalan, bu dunyoda otasini bir martagina sansiragani uchun yetti marta hajga borgan mo'ysafidning jannatga tushmagani aytiladi. Shoir Yigit bir qizaloqni soydagi toshqindan qutqarib bevaqt vafot etgan. U tarozibon huzurida gunohini tan oladi. Taroziyon unga qarata:

Savob degan narsa axir tasodif emas,
Yetmish ikki tomirdan u oqib kelgusi,
Yaxshi odam yaxshiligini anglamay qolmas,
U vijdonni bir vazifa deya bilgusi

– deydi. Yigit arosat dashtini aylanadi, jannat darvozasi qoshiga boradi, ota -onasi bilan uchrashadi. Yigit hayot tajribasi oz bo'lgani bilan oq-qorani yaxshi tanuvchi, ayniqsa, hayot mashaqqatlarini obdon boshdan o'tkazgan odam. U do'zaxdan dahshatliroq hodisalarni, kunlarni, shaytondan dahshatliroq odamlarni ko'rgan va chidashga majbur bo'lgan. “Jannatga yo'l” dostonida Sado obrazi lirik qahramon tarzida berilgan bo'lib, ilohiy qudrat deb baholanuvchi haq va adolat kuchi timsolidir. Dostondagi Yigit obrazini ochishda Do'st, Do'st obrazini ochishda Yigit obrazi muhim ahamiyatga ega. Do'st “u dunyo”da ham odamlar haqidagi o'z fikrida qat'iy turadi. Shu Yigitning olijanob va insoniy qiyofasidagi yangi-yangi qirralar namoyon bo'ladi:

O'ylab qara, tarixda bor ibrat doimo:
Ne - ne zotlar gar o'zlari topsa ham to'zim.

Odamzotga ko‘rmaganlar yomonlik ravo.
Ezgulikning yo‘li og‘ir, serg‘alva garchand.
Yuksaklarga ko‘taradi sohibin biroq.
Mayli, mening ruhim siniq, xayolim parkand,
His qilurman, ezgulikning oftobi porloq.

Yigit Do‘stga yetishmaydigan ikki paysa savobni o‘z savoblari hisobidan berishga qaror qiladi. Do‘st ham shu fikrda edi. Yigit va Do‘st esa o‘zi jannatga kirib, qadrdonini uning tashqarisida qoldirib ketishni nomardlik deb biladi. Asarda kimsa, o‘spirin, qariya, hur qiz obrazlarida xuddi bu dunyodagidek, u dunyoda ham izg‘ib yurgan ig‘vogar, o‘z manfaati yo‘lida bir-biri bilan it-mushukdan beshbattar, beor janjalkashlar, o‘ylamay gapiruvchilar keskin tanqid qilingan. Doston nihoyasida Sado jannat eshiklari ochilganidan xabar berib, Do‘stga ham, Yigitga ham jannat ato etajagini ma‘lum qiladi.

Shoir ushbu asarida ezgulikni imkon borida yoxud imkon boricha ro‘yobga chiqariladigan xohish emas, amalga oshirilishi zarur ehtiyoj sifatida talqin etgan.

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning o‘zlikni anglash, milliy g‘urur-iftixor tuyg‘ulari yuksak pardalarda tarannum etilgan asarlari har birimizni tinchlik-xotirjamlikni qadrlashga, chin insoniy fazilatlar sohibi bo‘lishga undaydi. E.Vohidov *“Tong nafasi”, “Qo‘shig‘im sizga”, “Aql va yurak”, “Mening yulduzim”, “Yoshlik devoni”, “Tirik sayyoralar”, “Sharqiy qirg‘oq”, “Kelajakka maktub” kabi she‘riy to‘plamlari, “Nido”, “Quyosh maskani”, “Ruhlar isyoni”, “Ko‘hinur” kabi dostonlari, “Oltin devor”, “Istanbul fojiasi” singari sahna asarlari, “So‘z latofati” risolasi, jahon adabiyotining mumtoz namoyandalari merosidan qilgan tarjimalari bilan o‘ziga xos ijodiy maktab yaratgan.* Qahramon xarakterini, ruhiy olamini ochib berish uchun Ogahiyning bir necha mumtoz g‘azallari va ulardan ayrim baytlarni poema kompozitsiyasiga singdirgan. T.Nizomning *“Cho‘lpon”* dostonida Cho‘lponning *“Men va boshqalar”, “Xalq”, “Go‘zal”, “Ko‘ngil”* singari mashhur she‘rlaridan asar mazmuniga mos satrlarni olib kirgan. Shoir shu orqali Cho‘lponning erk va ozodlik kuychisi sifatidagi siymosini yorqin gavdalantirgan. Mazkur usul mumtoz adabiyotda an‘anaviylik bo‘lib, iqtibos san‘atini vujudga keltirgan va lirik dostonning badiiy strukturasini boyitgan.

Badiiy so‘z yaratilibdiki, unda Vatan madhi, Vatan qiyofasi bosh mavzu sifatida talqin etilib kelinyapti. Xomerning *“Iliada”*sidan tortib bugungi kungacha yaratilayotgan badiiy durdonalarda Vatan nafasi ufurib turadi. *Vatan manzaralari tasviri Asqar Mahkam dostonlarida alohida shukuh bag‘ishlaydi.*

Xususan, uning *“Tavajjuh”* dostoni shu jihatdan xarakterlidir. Bobur – Vatan sog‘inchiga aylangan timsol. Bobur haqda yozgan ijodkor uning yurtga bo‘lgan sog‘inchini chetlab o‘tolmaydi. Muhammad Rahmon *“Tilak”* she‘rida *“Senga musofirlik sog‘inmayman, yo‘q, Musofir sog‘ichni tilayman faqat”,* – deb yozadi va bu sog‘inch iztirobini Furqat timsolida ko‘radi. O‘zbekning buyuk farzandlari ko‘p. Biroq ularning hech biri Vatan sog‘inchini Bobur va Furqatchalik mantiqan ifoda etolmaydi. Garchi *“Tavajjuh”* dostonida Bobur iztiroblari tasvir etilgan bo‘lsa-da, biroq kitobxon ko‘z o‘ngida totalitar sho‘ro davrida harobaga aylangan O‘zbekiston namoyon bo‘ladi.

Vatan – xotirasi jizg‘anak tana
Vatan – tili kesib talangan oqin,
Vatan – go‘rlar uzra avaxtaxona,
Vatan – ajdodi haq, avlodi xoin...

“Ijodkor uchun tarixiy shaxs yo‘q. U o‘z davrining g‘oyalarini, muammolarini ko‘rsatish uchun tarixiy shaxslarga murojaat qiladi” deb yozadi V.G.Belinskiy. Chindanam, *“Tavajjuh”*da qizil imperiya asoratidagi Vatanni ko‘ramiz. *“Tavajjuh”*da alohida bob *“Bobur Mirzoning Vatanga marsiyasi* deb nomlanadi. Insoniyat tarixidan ma‘lumki, shohlik va shoirlik qismatlarini birlashtirish ko‘p hollarda ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqaradi. Bobur o‘ylaridagi g‘ussalar ana shu qismat daraxtinng ildizlaridan kuch oladi.

Boqdim zahri zaqqum yoshlarim tiyib,
Devor taglarida qolgandek tanim.
Naqshbandiylarning chorig‘in kiyib,

Yohu chekayotgan vayron vatanim!..

Dostonning eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, asarda ziddiyat Bobur va Shayboniyxon o'rtasida emas, Bobur va borliq o'rtasida kechadi.

Zamonoviy o'zbek adabiyotini kuzatib, unda yuksak sifat o'zgarishlari amalga oshayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Zamonaviy dostonda lirizmining kuchayganligi uning makon, tasvir vaqt chegaralarini kengaytirib yubordi.

Bugungi dostonning lirik qahramoni insoniyat tarixini markazida turgandek taassurot qoldiradi. Har bir tarixiy hodisaga o'z qalbining muhrini qoldiradi, har bir hodisa uning ishtirokida ro'y beradi, uning sezimlari tizimi barcha hodisalarni taftish qiladi. Bugungi doston markazida shaxs taqdiri qo'yilmaydi. Kechagi dostonlar uchun xos bo'lgan "tarixiy konkretlik" bugun falsafiy-simvolik, majoziy fikrlashga o'rin bo'shatib berdi. Kechagi doston qahramoni esa shakllangan yetuk shaxs, dunyoqarashi keng, fikrlari zalvorli, teran.

Xullas, A.Muxtor, Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, M.Yusuf, A.Mahkam, I.Otamurod, A.Qutbiddin, Faxriyor, S.Ashur kabi ijodkorlar o'zbek dostonchiligida sara asarlarlar taqdim etdi desak, xato qilmaymiz.

Tekshiruv savollari:

1. Bugungi poemachilikda qanday izlanish va yangilanish jarayoni kechmoqda?
2. Lirik poema obyektiv ko'rinish jihatidan necha turga bo'linadi?
3. Lirik qahramon xarakterini yaratishda nima bosh omilga aylangan?
4. So'nggi yillarda poemachilikda nimaga e'tibor kuchaydi?

Mustaqil o'qish uchun tavsiya qilingan adabiyotlar:

1. Adabiy turlar va janrlar. 1-jild, T., "Fan", 1991.
2. B.Norboyev. Istiqbol va iste'dod tarbiyasi. T., 1996.
3. Ergash Ochilov. Muborak sarchashmalari. T., 1997.
4. N.Rahimjonov. O'zbek adabiyotida poema. T. 1986.
5. N.Rahimjonov Ilmiy tafakkur jilolari. T., 1991.
6. O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. T., 1998.
7. Azimov U. Ko'zgu. She'rlar va dramatik doston. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
8. Ahmedov T. chorbakr. She'rlar. Dostonlar. -T.: Yangi asr avlodi, 2000.
9. S.Ashur. Siz ertaga kelasiz. She'rlar va dostonlar.T: O'qituvchi, 2000.
10. X.Davron.Uchib boraman qushlar bilan.-T:Adabiyot va san'at nashriyoti,1983.
11. Rahmon SH. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 1997.
12. Rahmon SH. Abadiyat oralab. -Toshkent: Movaraunnahr, 2012.
13. T.Jo'ra. Sanduvoch. She'rlar va dramatik doston. -T.: Yangi asr avlodi, 1999.
14. E.Vohidov. Saylanma. II. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
15. Zulfiya. Xotiram siniqlari. - T. "Sharq". 1995.
16. A.Mahkam. Ishq. -T.: Cho'lpon, 1993.
17. A.Oripov. Najot qal'asi. -T: Adabiyot va san'at, 1980.
18. I.Otamurod. Sen. -T: Qatortol-kamolot, 1999.
19. Faxriyor. Ayolg'u. She'rlar, dostonlar. -T: Sharq, 2000.
20. Qutbiddin. A. Baxtli yil. She'rlar va doston. -T.: 1999.
21. Yusuf.M. Saylanma. She'rlar va dostonlar. - T.: Sharq, 2004.

**4- ma'ruza mashg'ulot mavzusi: HOZIRGI O'ZBEK NASRINING JANR VA USLUB
XUSUSIYATLARI. HIKOYACHILIK
REJA:**

1. *Bugungi o'zbek hikoyachiligining janr va uslub xususiyatlari*
2. *Hikoyachilik taraqqiyotining yetakchi tendensiyalari*
3. *O'zbek nasriga xos yetakchi estetik tamoyillar.*

Asosiy tushuncha va atamalar: o'zbek nasri, hikoya, janr va uslub xususiyatlari, tasvir uslubilari, yetakchi tamoyillar, taraqqiyot tendensiyalari, xalq og'zaki ijodi ruhi, epik obraz va motiv, o'zbek hikoyalari, epik tafakkur, mavzu va g'oya, modern uslubi, ruhiyat tahlili.

Mustaqillik davrida yaratilgan hikoyalarni o'rganar ekanmiz, o'zbek hikoyanavisligi alohida shaxslar olamini, ularning o'ziga xos tuyg'ularini aks ettirish borasida qator yutuqlarni qo'lga kiritganligiga amin bo'lamiz. To'g'ri, har bir odamning o'zi alohida shaxs. Ayni chog'da, u o'zigagina xos olamga, intellektual – ruhiy holatga ega. Shu jihati yuksalgan sayin inson o'ziga xos xislatlarini, o'z individualligini yanada teranroq, yorqinroq aks ettiradi. O'zbek yozuvchilari ana shu hayot haqiqatini o'z ruhiyatini taftish etib, o'zligini anglashga intiladigan qahramonlar yaratish orqali badiiy haqiqatga aylantirishga erishayotganliklarini Erkin A'zam, Xayriddin Sultonov, Xurshid Do'stmuhammad, Nurillo Otaxonov, Olim Otaxonov, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi yaratgan hikoyalar orqali kuzatish mumkin.

Insonni kutilmagan holatlarga tushib qolishi va avval sira kechirmagan kechinmalarni his qilish kabi murakkab vaziyatlarni tasvirlash E.A'zamning *“Bizning tog'a”* va *“Ta'ziya”* hikoyalariga ham xos. Hikoyada bolaligidan izzattalab bo'lib o'sgan, hammani o'zi bilan hisoblashishga majbur qilishga urinadigan tog'a obrazi birda mehr, birda nimkulgu bilan tasvirlangan. Uning asl maqsadi noma'lum va tushunarsiz, uni to'la-to'kis anglash g'oyat mushkul. Tog'aning o'ziga yarasha fe'li, mol-holi, yashash tarzi mavjud. Shunday bo'lsa-da, jiyan Amir bilan bir umr kelisha olmaydi, uning alamini oshirish, qolaversa, jiyanidan bir pog'ona “yuqori” ekanini anglatib qo'yish maqsadida qasdma-qasdiga ko'shikli imorat tiklashga urinadi.

Kezi kelganda bor kibr-havosini, jiyaniga “raqiblik” tuyg'usini unutib, “jigarchilik” yo'lini tutadi. Amirning saroyiga o't tushganida o'g'liga atab qurayotgan imoratini ham chala qoldirib, jiyanining vayron bo'lgan joyini tiklashga kirishadi, unga ich-ichidan achinib mehribonlik ko'rsatadi. Bunday o'rinlarda, yozuvchi o'zbek xalqiga xos odamiylik, saxovat, bag'rikenglik kabi ulug' fazilatlarni ma'naviy qadriyat tarzida millat ongiga, ruhiyatiga singib ketganligini haqqoniy gavdalantirgan. Voqea – hodisalar silsilasida tog'a yana shuni anglab yetadiki, odam qadrini boshqa odamning anglashi g'oyat qiyin ekan, o'z qadringni o'zgalarga majburan anglatish esa undan mushkul. Odamlar hamisha bir-birlariga suyanib yashaydilar, o'zlari bilib – bilmagan holda bir-birlaridan madad, mehr-oqibat kutadilar. Faqat boshlariga fojea tushgan kezlardagina bu hayot haqiqati oldida bosh egadilar, o'zgalar mehriga zoriqishni his qiladilar. Asardagi tog'a va jiyan munosabatlari ayni shu haqiqatni ifoda qiladi. Muhimi, yozuvchi o'z qahramonlarini “g'oya tashuvchi” vositaga aylantirmagan, o'ziga xos xislatlari, fazilat-u nuqsonlari bilan Haqqoniy va tabiiy gavdalantirishga erishgan. Tog'aning har bir xatti-harakati o'z qiyofasi mantig'iga mos, tabiatidan kelib chiqadi. U barchani va barcha hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rib, o'ziga xos mushohada qiladi.

Hodisalarga, odamlarga ham boshqalar kabi emas, o'ziga xos munosabat bildiradi. Aynan shu betakror jihati bilan u kitobxon qalbidan joy oladi. Yozuvchi o'z qahramoni orqali atrofdagi odamlarni o'zimizga ma'qul kelish yo kelmasligiga qarab emas, balki boricha, qanday yaratilgan bo'lsa shundayligicha, ziddiyatli va murakkab inson sifatida qabul qilish zarurligini, muhimi, insonni anglash ekanini ta'kidlaydi. Zotan, bu xususiyat milliy mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotini ta'minlovchi muhim xususiyatdir. Shunisi ham borki, insonni tushunishga da'vat etish insonni anglash

falsafasini talab qiladi. Insonni tasvirlash orqali esa ana shu hayot falsafasi yaratiladi. Zotan, adabiy janr taraqqiyotining yangi davrida hodisalarga va inson shaxsiga yondoshish tamoyillarining o'zgarib, takomillashib borishi tabiiy va zaruriy jarayon hisoblanadi. Ammo, badiiy ijodning azaliy qonunlari barcha davrlar uchun o'zgarmasdir: yozuvchi voqeanavis emas, insonshunos sifatida ish ko'rib, inson qalbi haqida aytilmagan haqiqatlarni badiiy kashf etsagina, u yaratgan asar estetik qimmat kasb etadi.

“Ta’ziya” hikoyasida yozuvchi Erkin A’zam davr tazyiqlari ostida ichi boshqa-yu, surati boshqa, qo’rqoq odamga aylanib qolgan inson fojeasini butun dahshati bilan tasvirlashga erishgan. “Ta’ziya”² hikoyasida odam va u tushungan g’oya, zamona va uning yo’rig’iga yurish mashaqqatlari aks ettirilgan. O’zini hammadan ko’ra dahriyroq ko’rsatishga intiladigan Salim qarorning, aslida, xudojo’y va taqvodorligi, sirli hayoti, nomunosib o’limi kabi holatlar asarda ota-bola suhbatdoshlar hamda ovul kishilari munosabati asnosida ko’rsatiladi. Shunisi borki, garchi Salim qaror hikoyachining xotirasi orqali o’quvchilarga yuzma-yuz keltirilsa-da unga xos jihatlar bir muncha ta’sirli tasvirlangan.

Said Ahmad ham hikoyanavis sifatida tanilgan. Uning “Cho’l burguti”, “Lochin”, “Bo’ston”, “To’yboshi”, “Turnalar”, “Hayqiriq”, “Alla”, “Muhabbatning tug’ilishi”, “Qorako’z Majnun” singari o’nlab hikoyalarida sadoqat, mehr, odamgarchilik, ishonch, e’tiqod singari ma’naviy qadriyatlar ta’sirchan aks ettirilgan. Adib hikoyalarida inson ruhiyati tovlanishlarini ko’rsatishga katta e’tibor berganligi uchun ham bitganlari zavq bilan o’qiladi va u nasrning shoiri hisoblanadi. Yozuvchi hajviy hikoyalar yaratish bo’yicha Qahhor an’analarini davom ettirgan ijodkordir. Uning “Sobiq”, “Qoplon”, “O’rik domla”, “Mening do’stim Babayev”, “Muzei”, “Bo’ri ovi”, “Xandonpista” kabi ko’plab hajviyalarida inson tabiatidagi qusurlar badiiy tadqiq etiladi. Said Ahmad hajviy so’z jilolarini nozik payqaydi va undan mohirona foydalanadi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan hikoyalar orasida *Xurshid Do’stmuhammadning “Jimjitxonaga yo’l” asari ham e’tiborga sazovar.* Bu asar o’zbek hikoyachiligida nazira sifatida bitilgan birinchi asardir. Hikoya orqali inson tuyg’ulariga xos jilvalarni nozik ilg’aydigan mohir yozuvchining qalb harakatlari sezilib turadi. “Nusxakashning merosxo’ri” hikoyasida hayoti fojeali burilish pallasini kechirayotgan shaxsning murakkab, tahlikali holati mahorat bilan aks ettirilgan. Badiiy ijod – bu nusxa ko’chirish ham, yashash vositasi ham emas, balki yurakdagi dardni ifodalash ekanligi asardagi murakkab taqdirli qahramonlar misolida ko’rsatilgan.

Yozuvchi Xurshid Do’stmuhammad o’z hikoyalari orqali xilma-xil epik tafakkur namunalarini yaratishga erishayotgan iste’dodli ijodkorlardan biridir. Uning “Jajman” nomli hikoya va qissalar to’plamiga kirgan “Mahzuna” sidagi o’zbek ayoli obrazi milliy qiyofasi fikrlash tarzi xususiyatlari bilan tom ma’nodagi pokizalik ramzi oyoq osti qilinayotgan, yuz o’girilayotgan tabiiylik, halollik, poklik, ayol sha’ni, qadru qimmat haqida o’ylashga undaydi.

Erining “kollektivi” bilan ziyofatda uchrashgan Mahzuna zamonaviy ayollarning behayolarcha o’yin tushishi-yu, kap-katta erkaklarning yoshiga nomunosib yengiltakliklarini ko’rib hushidan ayrilayozdi. Bo’ri Sobitovichning bezbetlarcha tikilishi, ayollarga yaltoqlanib, takalluf ko’rsatishi, ayolu erkaklarning mast-alast gap so’zlari Mahzunaning ko’z oldini qorong’ulashtiradi. “Bu orada u paltoni kiyib ulgurdi. Mahzuna chap yelkasida qo’lansa isni tuydi, paltoni kiyib ulgurmay, ikki kaft ikki yelkasidan qisib ushlaganini, boyagi qo’lansa is purkayotgan og’iz yonog’iga tekkudek yaqinlashib, “qo’ng’iroqlashamiz” deganini eshitdi... Mahzuna orqasida o’lim sharpasi qoyadek turganini, u sovuq barmoqlari bilan hademay bo’g’a boshlashini oldindan bilganday va taqdirga tan berganday ilkis bo’shashdi – qo’l-oyog’idan mador ketdi, boshidan xushi uchdi”¹.

Xo’sh, nima sababdan Mahzuna bunday ruhiy iztirobni boshdan kechirdi? Boshqa ayollar kabi befarq, loqayd holda atrofdagilarga sirdan xushmuomalalik, takalluf ko’rsatib, indamay ketaversa bo’lmasmidi? Yoki ziyofatdagilarning o’zlarini tutishlari hali “yosh, hayot ko’rmagan” ayolga botmadimi? Balki Bo’ri Sobitovich yoki uning rafiqasi aytganiday, bunday o’tirishlarga tez-tez kelib tursa, ko’nikib ketar? Ular kabi bezbetlashib, behayo lo’ttibozlarning, andishasiz laganbardorlarning biriga aylanar? Balki shu ma’noda yoshi ulug’ bo’lsa-da, suyuq ongli rahbar unga “telefonlashamiz”

²[1] Аъзам Э. Таъзия.

degan taklifni shipshigandir? “O’shandagina Mahzunaning miyasida yashin chaqnagandek bo’ldi, indamay-netmay hiring-hiringlab qo’lini unga tutayotgan ayollardan nafratlandi, o’zini Maqsudjon akasining panasiga oldi”..., “...sharillab oqayotgan suv ostiga boshini, yuzini, yelkasini, chap yonog’ini tutgunga qadar chidadi... ichidan qattiq o’qchiq keldi, yo’taldan va chiroq nurida simobdek yiltirab tushayotgan suvga, oppoq vannaga, oppoq devorga... oppoq badaniga qarashdan uyalib kaftlarini yuziga bosgancha o’ksib-o’ksib, xo’ngrab yubordi... “Kelishganmish!.. Turqing qursin, sovuq!.. Suyuq!.. o’lganim yaxshimasmi!. E!..”².

Yo’q, Mahzuna singari ayollar hayo pardasidan nariga chiqmaydi, o’lsa ham o’z sha’nini, ayollik or-nomusini bulg’amaydi. Agar aksincha holat yuz bersa-chi? Barcha ayollar erkaklarga taqlid qilib kiyinsa, ziyofatlarda xushiga kelganicha cho’qishtirib ichsa, istagan erkak bilan hech bir tortinmay, seskanmay raqs tushsa, begona erkakka yelka tutsa, qo’l cho’zsa va bularni “zamonaviylik” pardasiga o’rab, loqayd erga bepisand xotin bo’lib yashayversa?! Yozuvchi kitobxonni xushyor torttiruvchi savollarni Mahzunaning iztirobli xo’ngrab yig’lashlari tarzida ko’ndalang qo’ydi, uning alamli xayollari orqali ifoda etadi. Ogoh bo’l, inson! O’zligingni unutma, diyonatdan, poklikdan yuz o’girma, bu mo’tabar tushunchalarni xatlab o’tma!

Ezgulikni mahv etishga uringan mahluq – Jajman haqidagi hikoyasida esa yozuvchi Xurshid Do’stmuhammad uzoq o’tmish va bugungi kunni bog’lovchi nuqtalarda turib tasvir yaratganga o’xshaydi. Zardo’sht bobo bilan uning atrofidagi olomon, tekinxo’r balo Jajman go’yo biz yashaydigan davr illatlarining, ezgulik va yovuzlikning ramziy timsollari. Keksa Zardo’sht bobo yuz berayotgan hodisalarni kuzatar, xudolarga iltijo qilib ogohlik tilar, Jajmanning xiylalari esa kundan-kun ortar edi.

Yozuvchi ramzlashtirish san’atidan foydalanib, xalollikka aralashgan xaromdan qutilish, uning oqibatlarini daf qilish nechog’lik mushkul ekanini ro’y-rost tasvirlaydi. Jajmanni tutish va o’ldirishga chog’langan olomonning holati, mahluqning uddaburonligi, Zardo’sht boboning anduhli o’y-kechinmalari hikoyada nihoyatda ta’sirchan manzaralar orqali tasvirlangan. Ming mashaqqat bilan butun bir olamon bitta mahluqni arang o’ldirdi! Ammo olamonning o’pishgan, yig’lashgan holdagi sevinchi uzoqqa cho’zilmadi. “Shu ko’zlar, shu nigohlar o’ngida to’zon bosildi, bosildi va devorning tepasida o’raning og’zidek qora tuynuk ko’rindi... qanday hodisa yuz berayotganiga fahmi yetmagan olamon hang-mang bo’lganicha qotib turar, biron zot qilt etishga jur’at topolmasdi o’zida... Ana shunda qora tuynukdan bir juft bahaybat hovuch ko’rindi... hovuchlar ichkariga suqilib kirdi-yu, ulardan hozirgina bazo’r, ming bir azobda o’ldirilgan Jajmanga ikki tomchi suvdek o’xshash boshqa bir Jajman sakrab yerga tushdi”¹.

Hayotimizga aralashib, sezdirib, sezdirib kirib kelayotgan Jajmanlar – tekinxo’rlik, balo, ofat, xaromxo’rlik timsolidir. Ular juda tezlik bilan odamlarni o’z domiga ilintirib, o’zi kabi tekinxo’r va xaromxo’rga aylantirib qo’yadi. Eng dahshatlisi, odamlar orasidan ularni quvib solish yoki mahv etish g’oyat mushkul. Bu yovuzlik zurriyotlari asrlar, davrlar osha ezgulik farzandlari bilan kurashib, ular orasiga vahima, ishonchsizlik kabi turli xil nifoqlar solib kelmoqda. Bugungi kunda esa ular odamlarni halol va xaromni ajrata olmaydigan qilib qo’yishganday. Zardo’sht bobo kabi “har daqiqada: Ogoh bo’l, inson!” – deya bong urishi darkor, chunki bir muddat ogohlikni unutsak, o’nlab Jajmanlar bizni haq yo’lidan adashtirishi mumkin!

Demak, shaxsiyatning mohiyatini yangicha uslub va talqinda berish tendensiyasi bugungi nasrimiz, xususan, o’zbek hikoyalarida bor bo’y-basti bilan namoyon bo’lmoqda. Bugungi kun hikoyalari qahramoni o’z-o’zini taftish etib, o’z borliqini rang-barang jihatlaridan namoyon qilmoqda. (D.Saidovanning “Kunlarning birida” hikoyasi qahramoni Munira) hayotning o’ta chigal jumboqlariga o’zgacha munosabat bildirish, ilohiy-falsafiy haqiqatlarga qaytish, “muhabbatsiz”, “tutqun” turmushga ko’nikish, o’z manfaatlaridan yuksakroq insoniy burch hamda mas’uliyat oldida, aziz rishtalar qarshisida, binobarin, taqdirga bosh egish, hayot hamisha chigalliklar, ziddiyatlar, kam-ko’stlari”, kemptiklari bilan hayot ekanini tan olish – hikoyalarda yangicha yechimning yuzaga kelishi insonga yangicha yondashuv natijasi ekanini anglaymiz.

¹ Ўша асар. 275-бет.

Mustaqillik davri hikoyalarini o'rganar ekanmiz, F.Kafka, A.Kamyu singari XX asr jahon adabiyotining buyuk yozuvchilari ijodidan ta'sirlanish, ayrim hollarda ularga taqlid natijasida o'zbek nasrida yangicha uslubdagi hikoyalar dunyoga kelayotganligini kuzatamiz. Xususan, Nazar Eshonqulning "Muolaja" hikoyasi Kafkaning "Jazo kaloniyasi"ni esga soladi; "Bevaqt chalingan bong", "Istilo", "Tobut" hikoyalari esa ifoda tarzi va talqini jihatidan o'zbek nasrida yangi hodisa bo'ldi. Milliy adabiyotdagi bu kabi jiddiy hodisalarning sabablari-yu ildizlarini qayerdan izlamoq kerak? – degan savolga adabiyotshunos va munaqqid U.Normatov quyidagi javobni berganlarida tamomila xaq edilar: "Milliy adabiyotdagi har bir jiddiy hodisaning sababini tashqi omillardan emas, avvalo shu milliy zaminning o'zidan, real voqelikdan, zamona ehtiyojlaridan izlamoq darkor. Absurd adabiyotining bir muhim xususiyati shundaki, unda aql-idrok etish, taftish qilish ustuvor, shuning uchun ham unda fojiaiylik kuchli. Inson zoti o'zining haqiqiy ahvolini anglab yetmasa, uning uchun hech qanaqa fojia yo'q. Inson o'z mehnatining ma'nisiz ekani, ahvol-holati va hayoti absurddan iborat ekanini anglab yetgan daqiqalardan uning uchun fojia boshlanadi. 80-yillar oxiri, 90-yillarning boshlaridagi vaziyat bizda absurd adabiyotining absurd inson obrazining tug'ilishi uchun zamin tayyorladi. Yetmish yillik va'da, orzu-umidlarning puchga chiqishi, jahonda eng adolatli, baxtli boqiy tuzum deb jar solingan tuzumning istiqbolsiz, eng ilg'or, birdan-bir to'g'ri qarash sanalgan markscha-lenincha ta'limotning yaroqsiz bo'lib chiqishi ko'plarni sarosimaga solib qo'ydi. Bu hol hayotni, bor zakovatini shu ma'nisiz ta'limotga, yo'lga tikkan, adashgan, endilikda aqlini tanib mudroq vujudi uyg'ongan odamlar uchun mislsiz fojia bo'ldi. To'g'ri, avvallari, chunonchi turg'unlik yillarida ham sovet davri hayotining salbiy jihatlarini, adolatsizlik va shavqatsizliklarini ko'rsatuvchi, fosh etuvchi asarlar yaratilgan edi. Biroq butun boshli ijtimoiy tuzumning, shu tuzum uchun hayotini tikkan shaxs faoliyatining bema'niligini izchil tarzda tag-tugi bilan ochib beruvchi asarlarning paydo bo'lishi uchun mana endi sharoit yetildi. Hatto ijodiy yo'nalishi mohiyat-e'tibori bilan hayotbaxsh, tasdiqlovchi ruhda bo'lgan yozuvchi, shoirlar bisotida ham absurdni eslatuvchi asarlar ko'rinda boshladi. A.Oripovning "Fojia", E.Vohidovning "Vatan umidi" she'rlari shular jumlasidan. Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar", Sh.Xolmirzayevning "Olabo'ji", O.Muxtorning "Ming bir qiyofa" romanlarida personajlar umri faoliyatining, ular amal qilgan aqidalarning, yashagan muhitning bema'niligiga alohida urg'u berilgan. Bu tamoyillar ayniqsa Nazar Eshonqul ijodida yaqqol namoyon bo'lmoqda"¹. Olimning o'zbek nasrida absurd tamoyili mavjudligi haqidagi fikrlarini munozarali deb hisoblagan holda bugungi nasrdagi yangicha uslubiy izlanishlarni realizm bag'ridagi yangi uslubiy yo'nalish sifatida baholash zarur deb hisoblaymiz.

Darhaqiqat, xodisalarga salbiy munosabat, inkor ruhi kuchli, xodisaning dahshatli manzarasini keskin, qabariq tarzda chizib berish, xodisa mohiyatini bor ziddiyatlari bilan kitobxonga his qildirish aynan ana shunday uslubdagi asarlarda yetakchilik qiladi. Bunday asarlarga xos xususiyatlarni, fazilatlarini tilga olish bilan birga ulardagi tasviriy bo'yoqlar, o'zgarmas ohang, ayrim hollarda serjilo, rang-barang hayot haqiqati va alohida inson dunyosini to'la-to'kis gavdalanitirib berolmaganday taassurot tug'diradi. Shunday bo'lsa-da, shaxs tabiatining ayrim jihatlarinigina qalamga oluvchi asarlar bilan bir qatorda inson ruhiyati, borlig'iga xos umumiy xususiyatlardan alohida chizgilarga o'tuvchi tasvir uslubini namoyon qiluvchi yo'nalish inson ruhiyatining hech bir qolip-u andozalarga tushmaydigan, chegara bilmas turfa holatlarini badiiy kashf etishga urinish singari ijodiy intilishlar har jihatdan qo'llab-quvvatlanishga va ilmiy tadqiqu tahlilga sazovor, degan xulosaga olib keladi. Zero, san'at va adabiyot ravnaqini belgilovchi asosiy estetik tamoyillardan biri – hayot hodisalari va inson shaxsini yangi tomonlardan, rang-barang jihatlardan kashf etish hisoblanadi. Ijodkor mahorati esa hayot va inson haqida yaratgan yangi badiiy konsepsiya timsolida, uni ifodalash tarzida namoyon bo'ladi. Mustaqillik yillarida hayotga, inson shaxsiga munosabatning o'zgarganligi sabab an'anaviy realizmga mansub asarlar ifoda tarzida, shaklida ham qator yangiliklar, xususan, modernizm alomatlari ko'zga tashlanmoqda. Shukur Xolmirzayev, Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod yaratgan hikoya va qissalar orqali ayni shu

¹ У.Норматов. Умидбахш тамойиллар. Т.: "Маънавият", 2000. 6-7-бетлар.

xususiyatni ko'ramiz. Ular qatorida yozuvchi Nazar Eshonqul ijodi shu uslubdagi izlanishlar hamda ularning natijalarini, bu yo'nalish istiqbollarini o'rganishda boy manba bo'lib xizmat qiladi.

Yaxshi bilamizki, so'z san'ati rivojida yaratilgan asarlarning soni emas, sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda bugungi nasrimizning ichki rivojida ham hayot, inson va uning qalbi haqidagi haqiqatni kashf etish, yangi tasviriy ifodalarni ixtiro qilish bobida ham qator yangi alomatlarni kuzatish mumkin. Adabiyotdagi ushbu yangilik va xodisalar yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalarida o'zgacha ma'no-mazmun kashf etgan holda namoyon bo'layotganini adabiyotshunos olimlar, adabiy jamoatchilik va munaqqidlar allaqachon sezishgan.

Professorlar U.Normatov, N.Xudoyberganov, K.Yo'ldoshev, munaqqidlar A.Rasulov, R.Qo'chqorov, A.Ulug'ov, M.Mansur, B.Ahmedov; ijodkorlardan Xurshid Do'stmuhammad yozuvchi yaratgan hikoyalarni tadqiq etuvchi maqolalar, ilmiy tadqiqotlar yaratganlar. "Jahon adabiyoti" jurnali sahifalarida mazkur muammo tevaragida jiddiy bahs-munozaralar ham bo'lib o'tdi. Shunday bo'lsada, ijodkorning "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Maymun yetaklagan odam", "Hayot tuzog'i", "Tobut", "To'zon", "Og'riq lazzi" kabi hikoyalarni har jihatdan ilmiy-estetik tahlil va tadqiq qilish, ular orqali o'zbek hikoyachiligida g'arb modern adabiyotiga xos xususiyatlarning shakllanishi va o'ziga munosib o'rin egallash jarayonini o'rganish mumkin. Yozuvchi asarlaridagi qahramonlarga xos milliylik, voqealarning sirli tarzda vositalar orqali, ba'zan sahna ortida imo-ishoralar bilan ko'rsatilishi, eng asosiysi, asarlardagi voqealar "men" tilidan hikoya qilinishi va doimo o'zini-o'zi taftishu-tahlil etib borishi, o'z gunohlariga iqrorligi adabiyotdagi, nainki milliy mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligi, balki butunicha nasrimizdagi yangicha uslubiy yo'nalish sifatida o'rganishga sazovordir.

Atoqli ingliz adibi Jorj Oruell o'zining 1941-yilda yozilgan "Adabiyot va totalitarizm" maqolasida shunday fikr bildiradi: "Totalitarizm bizni bu tasavvurimiz tumandek tarqab ketishini tan olishga majbur etayotir. Totalitarizm fikr erkinligi shunaqa hamla qildiki, buni hech qachon xayolga keltira olmasdik. Tan olish kerakki, uning fikrni nazorat qilishi faqat ta'qiqlash maqsadlari emas, balki nimalar haqida o'ylash lozimligini uqtirib turadi; shaxs qabul qilishi lozim bo'lgan mafkura yaratiladi. Uning his-tuyg'ularini boshqarishga tirishadi va axloq namunasini belgilab beradi. Mafkura shaxsni iloji boricha sun'iy muhitga solish, taqqoslash imkonidan mahrum etish uchun tashqi olamdan ajratib, o'rab tashlaydi. Totalitar davlat, albatta, o'z fuqarolarining fikr va tuyg'ularini xuddi ularning hatti-harakatlarini nazorat qilgandek nazorat ostiga olishga urinadi"¹.

Adib maqolasini davom ettirib, o'z oldiga "Biz uchun muhimi, ana shunday muhitda adabiyot yashay oladimi, degan muammodir", deya haqli savol qo'yadi va oddiy qilib "nazarimda javob lo'nda va aniq bo'lishi lozim: yo'q! Agar totalitarizm umumbashariy hodisaga aylansa, uzluksiz davom etsa, biz bilgan adabiyot yashashdan to'xtaydi", degan qat'iy qarorga kelgan edi.

Inson yoki biron jonot jisman tutqunlikka ko'nikishi mumkin. Biroq uning eng inja tuyg'ulari, o'ziga va faqat o'ziga tushunarli o'y-hayollari, orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, uni asirlikdan, do'zoxiy azoblardan ozod, erkin va baxtli his qildiradi oladigan fikrdan, orzu qilish tuyg'usidan mahrum qilishsa, bunga ham chegara yoki devor tiklashsa, unda bu – insonning, insoniyatning, tanazzuli. J.Oruell buning natijasini quyidagicha izohlaydi: "Axir ijod bu eng avvalo tuyg'u, tuyg'uni esa abadiy nazorat qilish mumkin emas. Ayni daqiqada uchun ko'rsatmalarni tushunish oson. Lekin qandaydir qadr-qimmatga ega bo'lgan adabiyot, yozuvchi yozayotgan narsasi haqqoniyligini his etgan sharoitdagina mavjud bo'ladi; agar bunga imkon bo'lmasa ijodiy instink yo'qoladi. To'plangan barcha tajribalar ko'rsatadiki, totalitarizm o'z tarafdorlaridan talab etuvchi keskin ehtirosli o'zgarishlar psixologik jihatdan amalga oshirib bo'lmaydigan ishlarki, avvalo ana shu sababdan, menimcha, biz bilgan adabiyotning, agar dunyoning hamma joyida totalitarizm o'rnatiladigan bo'lsa, kuni bitadi".

Darvoqe, sarobga qurilgan imoratning qulashi, cho'qqida quyosh nuridan oltin misol tovlangan yaltiroq shishaning oddiy shishaligi hammaga ayon bo'lgach, unga hech kimning e'tibor bermasligi tayin. Kuch va yolg'on va'dalar bilan tiklangan sobiq Ittifoq davlati ham tanazzulga uchradi. Bu davr adabiyoti haqida o'z fikrini bildirgan professor Q.Yo'ldoshev shunday deydi: "XX asrdagi adabiyotimizda qiyofasizlik keng yoyildi. Chunki undan muayyan shaxs tabiatini har jihatdan tasvirlash emas, shaxsni

muayyan ijtimoiy qatlamning vakili sifatida ko'rsatish talab etildi. Badiiy adabiyot konkret insondagi o'ziga xoslik, alohidalikni emas, balki odamning qaysi bir ijtimoiy qatlamga mansub belgilarini eks ettirishi kerak edi. Shu sababli adabiyotda tip yaratishga e'tibor kamayib, tipik obrazlarni tasvirlash, ommadan ajralib turmaydigan, olomonga singishib ketadigan qiyofasiz kimsani aks ettirish tajribasi keng yoyildi. XX asring qariyb yetmish besh yili adabiyotni qoliplarga tiqishtirish davri bo'ldi. Natijada adabiyotda qiyofasizlik, bir xillik avj oldi"¹.

Yetmish yil davomida bo'g'zidan bo'g'ilib, oyoqlari kishanlangan adabiyot ham barcha qoliplardan ozod bo'ldi. Shundan so'ng, respublikamizda ma'naviy-adabiy hayotni sog'lomlashtirish yuzasidan muhim tadbirlar amalga oshirila boshlandi.

80-yillar oxirlariga, xususan, istiqloq davriga kelib ahvol tubdan o'zgardi. Yetmish yillik zug'umlardan so'ng bizda ham falsafiy-mafkuraviy, asos jihatdan xilma-xil yo'nalishga mansub asarlar paydo bo'la boshladi. Realizm bilan barobar deyarli barcha adabiyot turi, janrlarda diniy, ruhoniy-islomiy talqin ustuvor asarlar ko'payib bormoqda. Shaxsni faqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida emas, ko'proq ilohiy, tug'ma-tabiiy, sirli-sehrli mavjudot tarzida ko'rsatuvchi, uning ijtimoiy tarixi, sharoit-tuzum, davlat, siyosat, mafkuraga bo'ysunmaydigan g'aroyib tuyg'u, hislatlarini ong-idrokidan tashqaridagi anglab yetilmagan holatlarini badiiy tadqiq etuvchi asarlar ham yaratilayotir. Omonat, tagi puch g'oyalarga aldangan shaxs umrining, mehnatining bema'niligini qabariq tarzda, ko'pincha ramziy-majoziy timsollar vositasida keskinligi-yu fojeasi bilan ko'rsatuvchi asarlar, qahramonlar ham yaratilmoqda.

Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar", Sh.Xolmirzayevning "Olabo'ji", O.Muxtorning "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanlarida, Xurshid Do'stmuhammadning "Orom kursi", Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagani odam", "Tobut" hikoyalaridagi personajlar unda yashagan muhitning bema'niligiga alohida urg'u beradi.

Nazar Eshonqul ijodi bilan yaqindan tanishib borar ekansiz, beixtiyor yozuvchi tug'ilib o'sgan makon, u yerning odamlari, ularning xarakterlari, o'y-fikrlari bilan tanishib borasiz. Masalan, Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida Tersota qishlog'ining nomi keltirib o'tiladi. Bundan tashqari adibning "Yalpiz hidi" turkumidagi "Bahor gullari", "Xazonrez" hamda "Yalpiz hidi" hikoyalarida qishloqning toza va beg'ubor tabiati quchog'ida tug'ilib, hasharga kelib yashayotgan asar qahramoni Samandar tilidan qishloq manzaralari mahorat bilan gavdalanitiriladiki, o'quvchi beixtiyor o'zini ona-tabi'atning ajralmas bir bo'lagi ekanligini anglab boradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, adib xali talabalik yillaridayoq kichik-kichik hikoyalar, qissalar mashq etib turdi. Bu esa uning adabiyot maydoniga kirib borishi va o'z o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etdi. Uning dastlabki asari "Urush odamlari" qissasi hisoblanib, u 1986-yilda, yani N.Eshonqulov endi 23 bahorni qarshi olgan chog'ida "Yoshlik" jurnalida e'lon qilingan edi. Albatta, mazkur qissa yozuvchining keyingi asarlari darajasida bo'lmasa-da, yosh iste'dodning adabiyot maydoniga yanada puxta, mukammal bir qator hikoya va qissalari dunyo yuzini ko'ra boshladi. E'tiborlisi, yozuvchining 1989-yili "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilingan dastlabki hikoyasi "Maymun yetaklagan odam"ning chop etilishi o'zbek nasrida unutilmas voqea bo'ldi. Hikoyaning avvalgi davrlar o'zbek hikoyachiligidan butunlay farq qiladigan o'zgacha ohang, tarovat kasb etganligi, shakl-mazmunining yangiligi, asar sujeti va obrazlarning yangicha talqin va ruhda namoyon bo'lganligi barchani birdek hayajonga soldi. Bu o'zbek adabiyotida yangi buloq ko'z ochganidan darak berdi. Mazkur hikoya to'g'risida adabiyotshunos, tanqidchi U.Normatov quyidagicha fikr bildirgan edi: "80-yillarning oxirlarida adabiyotimizda "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi paydo bo'ldi. Unda asrga tengdosh, umri asrning alg'ov-dalg'ovlari, bema'ni maqsadlar yo'lida o'tgan, adashgan odamning fojeaviy qismati betakror tarzda ifoda etilgan edi.

Bu hikoya zamondosh-asrdosh obrazini yaratish yo'lidagi yetmish yillik tajribalarning muayyan intihosi ayni zamonda yangi bosqichning boshlanishi bo'ldi"¹.

Nazar Eshonqul hikoyalarini o'qigan o'quvchi asar qahramonlarini shunchaki yo'ldan ozgan, "axloq normalaridan chekingan" yoki "ulug' maqsadlar yo'lida" katta to'siqlarga duch kelgan odamlar

deb bo'lmashligini anglab yetadi. Yozuvchining ilk hikoyasi "Maymun yetaklagan odam" qahramonini oladigan bo'lsak, u o'z umrini, hayotining bor zakovatini asrimizning "ulug' ishlari"ga tikkan, bu borada o'zini ham, o'zgalarni ham ayamagan, qolaversa jamiyat ham uni mehnatiga yarasha siylagan, nafaqaga chiqqunga qadar turli lavozimlarda ishlagan. Uni faqat ilohiy qismat jazolagan. Xotini o'lib, farzandlari nobop bo'lib chiqqan, qariganda tanho, qarovsiz, ayanchli holga tushib qolgan. U ish, prinsip deb qarindosh-urug'idan judo bo'lgan, unda do'stu birodarlar ham yo'q. Eng yomoni, uning qalbida qarigan chog'ida bu foni dunyodan boqiy dunyoga rixlat qilish yaqinlashgan damlarda ruhan dillashadigan, ko'ngliga taskin beradigan ilohiy e'tiqod yo'q. Bu odam umr bo'yi tayangan mafkura uni mana shu ilohiy ne'matdan, ko'ngil xazinasidan mahrum etgan. Bu asarda qanchadan-qancha odamlar shu taqlit aldovlarga uchib, imyon-e'tiqodsiz bu dunyodan o'tib ketdi, degan xulosa kelib chiqadi. Hikoya qahramoni hayotini tikkan tuzum, jamiyat, mafkura shitob bilan yemirilib bormoqda. Unga qo'shilib o'sha kimsa bisoti ham yemirilib bormoqda. Dunyoni larzaga solgan inqilobiy o'zgarishlar, odamlarni chalg'itgan, halokat choxiga tortgan qudratli tuzum va mafkura o'tkinchi, kuni bitganча o'z-o'zidan to'kilib, nom-nishonsiz yo'qolib ketdi. Ammo inson zotiga ato etilgan insof, vijdon, aql-zakovat boqiy. Tashqi va ichki tazyiqlar, shayton vasvasasi har qancha yo'ldan ozdirmasin, baribir ertadir-kechdir bu mo'ttabar xislatlar inson tanida yana qayta tiriladi. Uni o'zligiga qaytaradi. Garchi kechikib bo'lsa-da, u o'zining ma'nisiz o'tgan yo'lini mardona, shavqatsizlarcha taftish etib, so'nggi chizgan surati orqali avlodlar uchun saboq tarzida muhrlab qoldirishga erishadi.

Hikoyada muallif yosh yigit tilidan so'zlar ekan, asar qahramonini yolg'onga qurilgan mafkura tuzog'iga ilingan, avlodning go'yoki cho'lda chanqagan yo'lovchining qulog'iga tepalik ortidan daryoning mavjlanishi kabi eshtilgan sasdan mast holda bor holicha shu tomonga intilgan, biroq tepalikka chiqib, shovqinning cho'lda ungan o't-o'lanlarni ham supurib o'tayotgan shamolligini sezgach, hayotdan, yashashdan hafsalasi pir bo'lgan, bor umidi so'ngan inson holatini o'ziga xos tarzda ifodalay olgan. Asar "Bu voqea uch yillar oldin bo'lgan edi"³ deya sirli tarzda boshlangan bo'lib, u xalqimizning og'zaki ijod namunalari – ertak, afsona hikoya qilinayotgandek bir tarzda boshlanadi.

"Shu ko'chadagi uyni ijaraga olib, ko'chib kelganimda, cholning sharti ketib, parti qolgandi. U ko'chaning muyulishida, men egallagan uyga qo'shni hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyning oldidagi eski o'rindiқda chuqur o'ygа tolgan holda ko'rgan edim. U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi nohush bir hisdan orqaga tortar edi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz. Egnida 50-yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi. Mashinadan kitoblarni katta etakda tashib kiritayotganimda – go'yo atrofdagi olamdan endi hech qanday iltifot kutmay qo'ygandek, hech narsaning qizig'i qolmagandek, mengа e'tiborsiz bir ko'z tashladi-da, so'ng yana o'sha holatda yergа qarab o'tiraverdi".

Bu – asar tuguni. Yozuvchining hikoyani bayon qilishdagi mazkur usuli o'quvchi nigohini asarga yanada mustahkamroq mixlaydi va uni davomini bilishga, asarda ta'kidlangan cholning bu holatda o'tirishi, uni hayotdan bezish, insonlarga ishonchsizligining sababini anglashga qiziqish uyg'otadi. Zero, bu xolat inson tanazzulidangina darak beradi.

Asar voqealari rivojida yigitning chol ustaxonasiga kirishi va u yerdagi manzara, albatta, har kimni xayol ummoniga g'arq qilishi bilan ahamiyatlidir.

"Bu yerda har xil keraksiz ashqol-dashqollar – sun'iy gullar, tuvaklar, turfa rangdagi yog'ochlar, kitoblar, olov ko'tarib borayotgan yigitning yirtiq surati, sinib yotgan arzon ganch haykal, toshdan yasalgan turli qurollar, turlar, zanjirlar qalashib yotar va bu yerdan ham shilta hidi kelar, ayvondan ko'ra allanechuk besarishta g'aznoqqa o'xshab ketar edi".

Avvalo shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, buyuk hikoyanavis A.P.Chexov aytganidek, "Adabiyotda hech bir narsa bekorgа yozilmaydi. Agar birinchi ko'rinishda miltiq bo'lsa, shu miltiq uchinchi yoki to'rtinchi ko'rinishda albatta, otilishi kerak, yo'qsa miltiq to'g'risida so'zlashning hojati yo'q". E'tibor bergan bo'lsangiz, yozuvchi N.Eshonqul hikoyasida ham yuqorida keltirilgan tasvir, sujet bekorgа keltirib

³Эшонқулов Н. Маймун етаклаган одам // ЎзАС газетаси, 1989.

o'tilmagan. Nazarimizda, adib bu detallar orqali birinchidan yo'qlik, zulmat sari yuz burayotgan xonadon sohibining tanazzulini ko'rsatayotgan bo'lsa, sun'iy gullar, olov ko'tarib borayotgan yigitning yirtiq surati, sinib yotgan arzon ganch haykal, toshdan yasalgan turli qurollar, to'rlar, qalashib yotgan zanjirlar majoziy ma'noda ishlatilgan bo'lib, o'sha zamon mafkurasini olov ko'tarib borayotgan yigitning yirtiq surati orqali, sinib yotgan arzon ganch haykal va qalashib yotgan zanjirni esa davr dohiysi va u qo'llarga solgan zanjirning qalashib, shilta hidiga burkanganligidan darak beradi. Asar muallifining hikoyaning yana bir joziba kashf etishida o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan fikrni lo'nda, imo-ishoralar bilan o'xshatish va tashbehtar orqali tasvirlashga uringanligi quyidagi matnda ham o'zgacha mazmun kashf etgan.

“Ayvon uzun bo'lib, suratlar chizilgan yillarga qarab ko'rgazmaga qo'yilgandek terib qo'yilgan, to'g'rirog'i, bor-yo'g'i 40 ga yaqin surat va eskizlar “1957”, “1947”, “1937”, “1928”, “1926” va hakazo tartibda terib qo'yilgan edi. Suratlarni oralab borar ekanman, qandaydir zinalardan cholning umr tilsimoti yashiringan qo'rg'on tomon ko'tarilib borayotgandek his etdim o'zimni. Oxirgi, ayvonning burchagiga osib qo'yilgan suratning tagiga “1921” sanasi yozib qo'yilgan edi: chol shu yildan boshlab rasm chiza boshlagan bo'lsa-da, ranglar yorqin va tiniq edi. Yigitning ko'zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo'yniga solingan kishan tarang tortilgan edi. Rasmda chol nima demoqchi bo'lganini tushunmasam-da, lekin yigitning yuzidagi ishonchdan xayratga tushdim; qizg'ish va javdari bo'yoq yigitning ko'nglidagi xissiyotni to'la aks ettira olgan edi. Keyingi suratlarda cholning qo'li ancha kelishib, bo'yoqlar tiniq, o'z o'rnini topgan, tabiat manzaralari tobora go'zallashib borardi. Ranglar ham turfa xil edi. Biroq bir lahzada osmonu falakni qoplagan kuzgi qarg'alar kabi suratlarga qandaydir mavhumlik yopirilib kirayotgan edi, bu mavhumlik suratma-surat ortib borishi meni hayratga soldi.

Mavhumlik tasvirida ham, bo'yoqda ham sezilardi. Men har bir manzarada boshqa ranglar o'rnini qora ranglar olayotganini guvohi bo'ldim. O'ttizinchi yillarda chizilgan suratlar esa yana ham mavhumroq edi, endi bu yillardagi suratlarni pala-partish chizgan bo'lsa kerak, deb o'ylagandim, chunki cholning mas'ul xizmat davri mana shu yillarga to'g'ri kelardi”.

Albatta, bu tasvir vositalari yozuvchidan yuksak mahorat talab etganki, bu kabi so'z va fikr o'ynoqiligi, uning jozibasi orqali o'quvchi o'sha, yangi mafkura zaminimizga kirib kelishi, uning asar qahramoni, kabi o'sha davr insonlarining ishonchi suratda tasvirlangan maymunni qorong'u o'rmondan olib chiqayotgan yigitning ko'zlarida aks etgan qat'iy va ishonchda ifoda etilgan. Darhaqiqat, davrning aldoqlari qancha-qancha yoshlarni o'zining sovuq bag'riga oldi. Bu sujet yozuvchi Sh.Xolmirzayevning “Qora kamar” asari qahramoni Abdulla Nabiye'vning ham uning domiga tushishi va bu yo'lda uchragan har qanday to'siqli dushman bilib, unga qarshi kurashishi, alaloqibat, mag'lubiyati tasvirini yodga soladi.

Zamonning sovuq bag'ri dastlabki yillarda suratdagi maymun yetaklayotgan kabi qancha-qancha nav-nihollarning shijoati, uyg'oq qalbi tafti ta'sirida o'zida biroz ilqlik, ishonch uyg'ota oldi. Bu yozuvchining “Keyingi suratlarda cholning qo'li ancha kelishib, bo'yoqlar tiniq, o'z o'rnini topgan. Tabiat manzaralari tobora go'zallashib borardi, ranglar ham turfa xil edi” jumlasida ishora qilinadi. Toki ijodkor uning ayni damdagi ichki kechinmalari, o'y-xayollari ko'tarinki bo'lgan daqiqalardagina hayotning tiniq ranglari ko'zga ilg'anadi. Tushkun kayfiyat, o'z-o'zidan amalga oshirilayotgan ishlardan qoniqmagan, omadi chopmagan, hayotning mashaqqat atalmish tuzog'iga ilingan kishining esa ijodida qora ranglar, mavhumlik aks eta boradi. Bu kabi qahramon holatlari ham yozuvchi tomonidan yuksak mahorat, tasvirlar bilan ochib berilgan. “Biroq bir lahzada osmonu falakni qoplagan kuzgi qarg'alar kabi suratlarda qandaydir mavhumlik yopirilib kirayotgan edi, bu mavhumlikni suratma-surat ortib borishi meni hayratga soldi. Mavhumlik tasvirda ham, bo'yoqda ham sezilardi. Men har bir manzaradan boshqa ranglar o'rnini qora ranglar olayotganini guvohi bo'ldim. O'ttizinchi yillarda chizilgan suratlar yanada ham mavhumroq edi. Endi bu yillardagi suratlarni qora rang butkul qoplab olgandi. Chol suratlarni pala-partish chizgan bo'lsa kerak deb o'ylagandim, chunki cholning mas'ul xizmat davri mana shu yillarga to'g'ri kelardi”.

E'tibor bergan bo'lsangiz, xalq og'zaki ijodiyoti mif va ertaklarda “Qora” rang yovuzlik, qabohat, qorong'ulik, yo'qlik saltanati deb ta'riflanadi. Ularda uchraydigan “Qora dev”, “Qora botir” kabi

timsollar qabohat va jaholatning eng tuban ko‘rinishi mujassam bo‘lgan obrazlarga nisbatan ishlatiladi. N.Eshonqul hikoyasida ham “qora” so‘ziga ko‘proq urg‘u berilishi o‘sha davrning zulmatga chulg‘angan paytlariga ishora bo‘lsa ajabmas. Zotan, 30-yillar qatag‘onlari, ochlik hukmron bo‘lgan paytlarda mas‘ul lavozimda ishlash bu qon tomgan qamchinning dastagidan ushlash, o‘sha zulmatga sirdosh, rangdosh bo‘lish demakdir.

Hikoyada bu davr suratlari yigit tomonidan quyidagicha keltiriladi: “...bu yillardagi suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko‘chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o‘ziga chorlab turgan qabristonlar, o‘lim isi kelib turgan har xil qurollar, yig‘layotgan ayollar va bolalar, biyday dalani bosib ketgan o‘laksaxo‘r quzg‘unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar, yonib yotgan qishloq, qandaydir qo‘rquvdan (xuddi “Pompeya”ning so‘nggi kuni” kabi) dong qotib qolgan olomon, sirli mahluqlar, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlarning niqobini kiyib olgan odamlar (karnaval bo‘lsa kerak deb o‘ylagandim), bazmu-jamshid qilib o‘tirgan shotirlar, aroq navlari, turli xil taomlar, yalang‘och ayollar, ma’suma qizlar, qovjirab qolgan gullarning suratlari aks etgan edi”.

Zamon va inson... **“Maymun yetaklagan odam”** ni o‘qib turib bu ikki tushuncha o‘rtasida o‘tib bo‘lmas ulkan jar paydo bo‘lganligini anglab yetadi kishi. Asar yangicha ruhda yozilgan bo‘lib, hayotning bama‘niligi ya‘ni, absurddan iboratligini ko‘rsatib o‘tgan. Absurd adabiyoti nazariyachilarining fikricha, absurd voqelik absurd insonni, va absurd ijodkorni yetishtiradi, shunga ko‘ra absurd asari birinchi navbatda salbiy xususiyat kasb etadi.

Bugungi adabiyotimizda tendensiyaga aylangan “modern” asarlar yoki unga xos talqinlar katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bu hodisani ayrim adabiyotshunolarimiz G‘arb adabiyotining F.Kafka, A.Kamyu singari XX asr buyuk yozuvchilarining ta’siri yoki ularga taqlid deb atashmoqdalar. Bu gapda jon bor. So‘nggi yillarda yosh ijodkorlar avlodi orasida o‘sha adiblar ijodiga qiziqish benihoya kuchaydi, “modern” uslubidagi ayrim asarlar o‘zbek tiliga ayni shu avlod vakillari tomonidan tarjima ham qilindi. Shu kabi misollarga asoslanib, bu tamoyilni faqat G‘arb ta’siriga bog‘lash, uni taqlidchilikdan iborat deb qarash to‘g‘ri emas. Milliy adabiyotdagi har bir hodisaning sababini tashqi omillardan emas, avvalo ona zaminning o‘zidan, real voqelikdan, zamona ehtiyojidan izlamoq darkor. Bu xususda yozuvchi N.Eshonqulning o‘zi shunday fikr bildiradi: “Adabiyot hech qachon yakka holda taraqqiy etgan emas. Jahon adabiyoti dunyodagi yuzlab xalqlarning adabiyoti, shu jumladan bizning ham. U bizga begona adabiyot emas. Shuning uchun jahon adabiyoti tushunchasiga cho‘chib, havotirlanib qarash noo‘rin. An‘analar adabiyotdan adabiyotga o‘tadi. Kimda nimaga ehtiyoj bo‘lsa, o‘shani oladi. Men ham o‘z ehtiyojimga yarasha olganman. Kimga kerak bo‘lsa bizdan oladi. Men ta’sirni juda oddiy tushunaman, shu sababli cho‘chimayman. “Boshqacha yozish” agar o‘ziga xos yozish bo‘lsa bu muqarrar xodisa. Agar u chiranish, oliftachilik bo‘lsa, u hech narsa, xatto taqlid ham emas. Taqlid ham taqlid qilinayotgan narsaga mos bo‘lishi kerak. Bo‘lmasa u karnay bo‘laman deb chirangan surnayning xoliga tushadi. Gap taqlid yoki ta’sirda emas: gap iste’dodda. Yozilgan asarda iste’dod seziladimi, yo‘qmi? Agar sezilsa xavotir noo‘rin. U baribir ta’sir doirasini yorib chiqadi”¹.

Yozuvchi haq. Zero, adabiyot umuminsoniydir. Nazar Eshonqul o‘z fikrini davom ettirib: “Men o‘ta milliy asar Murod Muhammad Do‘st qalamiga mansub “Dashtu dalalarda” hikoyasi ham Folknerning “Uosh”i ham birdek qadrli. Bularda men na xususiylikni, na umumiylikni ko‘raman: bu hikoyalar iste’dod mahsuli bo‘lgani uchun jozibalidir. Milliylik chegara emas. Aksincha bepoyonlik va so‘zga zuhr etilgan millatparvarlikdir”, – deb yozgan edi.

Aslida san‘atning, jumladan, adabiyotning ham milliylikdan ko‘ra umuminsoniy xususiyati teranroq bo‘ladi. U irq, din, til kabi kishilarni ajratib turuvchi tabiiy-ijtimoiy to‘siqlardan yuksakda turadi. Mamlakatlar, siyosiy tuzumlar, chegaralarni butkul inkor etadi. Haqiqat shuki, hozirgi G‘arb qadimgi Sharqdan o‘rganib ulg‘aydi. Endilikda Sharqning G‘arbdan ta’sirlanishiga ham tabiiy xodisa sifatida qarash kerak. Hayotimizdagi ijtimoiy-ma‘naviy burilishlar tufayli o‘zgarayotgan adabiyotimizda G‘arb adabiyoti ta’sirida mavjud an‘analar ijodiy yangilanib bormoqda. Bu o‘zgarish, ayniqsa, xodisalarni ifoda qilish tarzida aniqroq sezilmoqda. Xususan, avvallari voqealarni qahramon tilidan bayon qilishga xushlamayroq qaralardi. Bunday usul qo‘llansa, albatta qahramon o‘ziga yon bosadi, xodisalar xolis

yoritilmaydi, deya tushuniladi. **“Hatto”, “Mening bolalik yillarim...”** deya birinchi shaxs tilidan **“O‘tmishdan ertaklar”** singari ajoyib asar yaratgan Abdulla Qahhordek ulug‘ san’atkor ham “Asarning birinchi shaxs tilidan yozish ijodkorni cheklab qo‘yadi” deb yoshlarga maslahatlar bergan edi” deb xotirlagan yosh adabiyotshunos Abdulla Ulug‘ov “Aslida esa asarning san’at darajasini xodisalarning kim tarafidan hikoya qilinishi emas, balki yozuvchining badiiy mahorati belgilar ekan” degan xaqli xulosaga kelgan¹. Nazar Eshonqul asarlaridagi qahramonlar hayotda odamlararo qanday gapirsa, shu tarzda so‘zlatilmaydi. Balki kishilar qanday gapirishni istasa, ko‘nglida qanday o‘ylasa, shu tarzda gapirtiriladi. Yozuvchi bu orqali ularning tasdiq va inkor iskanjasidagi “men”ning ta’sirchan qiyofasini gavdalantiradi. To‘g‘risini aytmoq lozim, sovet davrida “men” xususida bu tarzda chuqur mulohaza yuritishga, uning qalbidagi inkoru isyonlarni ochib ko‘rsatishga to‘siqlar mavjud edi. Azal-azaldan tasdiq va inkor iskanjasida o‘z “men”ini izlagan qahramon ko‘rsatilgan asarlarga haqiqiy san’at namunasi sanalgan. Qadim Sharqning mumtoz adabiyotida ham, hozirgi G‘arbning zamonaviy adabiyotida ham shaxsning o‘z fe‘l-atvorini taftishlar hayot mohiyatini, inson umri ma’nosini anglashga eltadigan yo‘l ekanligi ko‘rsatilgan. N.Eshonqulning **“Xayol tuzog‘I”, “Tobut”, “Yalpiz hidi”** turkumidagi bir necha hikoyalari, **“To‘zon”, “Lazzat ortida qolgan yurak”, “Og‘riq lazzati”, “Zulmat saltanatiga sayohat”** hikoyalaridagi **“Qora kitob”, “Tun panjaralari”** qissalaridagi “men”, **“Maymun yetaklagan odam”** va **“Shamolni tutib bo‘lmaydi”** hikoyalaridagi chol va Bayna momo obrazlari Abdulla Qahhor ta’riflagan “men” emas. Ular qilmish-qidirmishlariga iqror bo‘ladigan, o‘zini taftishu tahlil qilib, azoblanadigan, tasdiq-inkor iskanjasida turgan qahramonlar.

Biroq, **“Qora kitob”** qissasi, shunigdek, **“Xayol tuzog‘I”, “To‘zon”, “Lazzat ortida qolgan yurak”, “Zulmat saltanatiga sayohat”** hikoyalari an’anaviy asarlar singari bir kishi taqdiri tafsilotlari tavsifidan iborat emas. Ular mislsiz azobda o‘rtanayotgan bor bisotidan, o‘zligidan ajralgan dunyoga qo‘l siltagan inson ichki olamining so‘zda chizilgan suratiday bo‘lib ko‘rinadi. Bu surat buyuk rassomlar asarlari singari qabariq va ta’sirchandir. Undan o‘z xotiralarini yengolgan, taqdir so‘qmoqlarida adashgan alamzada odam so‘zlab turganday ko‘rinadi. Bu qahramonlar o‘zini-o‘zi inkor qilgan g‘alayonlarning mo‘‘jaz umumlashmasi sanaladi. **“Qora kitob”** qissasida o‘z “men”ini taftish qilayotgan qahramon o‘ziga-o‘zi... **“meni hech kim o‘zimdek sud qilolmaydi. Jazo nima u?”** degan savol qo‘yadi va **“Shunchaki rasmiy marosim. Aslida eng oliy jazoni ko‘ngilning o‘zi chiqaradi”**, deydi.

Haqiqatan ham inson o‘z qilgan aybini, xatosini qalbining tub-tubidan anglab yetsa, unda insonga sud tomonidan berilgan jazoning vijdon oldidagi jazodan o‘n chandon, yuz chandon yengil ekanligini his etadi. Bu jihatni ochishda, hayotning, zamonning turfa o‘yinlari, insonning qilmishlari to‘g‘risida fikr yuritgan mazkur asarlar katta ahamiyat kasb etadi.

“Xaroba shahar surati” (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1989-yil, 10-noyabr) hikoyasi ham yozuvchining mahorati, iste’dodidan darak beradi. Parishon yigitning o‘y-xayollari, fikrlari, ichki kechinmalari, o‘zligini anglash yo‘lidagi mashaqqatlari bayon etilgan mazkur hikoya insoniyat ong-shuurining naqadar qotib qolganligi, uning yozuvchi Ch.Aytmatov **“Asrga tatigulik kun”** asari qahramoni Elomon misoli manqurtga aylanib ulgurmaganini xaroba shahar surati orqali badiiy timsollar bilan ochib bergan. E’tibor beradigan bo‘lsak, yozuvchi asardagi shahar nomini Tursoriya deb ataydi va uning vayron bo‘lishdan avvalgi go‘zalligini odamlarga uqtirishga, uni qaytadan qurishga chaqirib, quyidagicha tasvirlaydi: **“Tursoriya meni qanchalik qiziqтира, boshqalarni shunchalik ajablantirardi. Ular tayinsiz bir rassomning fazli-irodasi bilan vayron etilgan qandaydir Tursoriyani deb tashvish chekib yurish sababini tushunmasdilar va buni shunchaki oliftagarchilik deb o‘ylashar yohud g‘irt safsataga yo‘yishardi. Men ularga Tursoriya haqida, uning yashil bog‘lari, zangori osmoni, tuman qoplagan tosh ko‘chalari, odamzotning qudratini namoyish etish uchun qurilgan minoralari, shahardan uzoqlarda ham hidi ufurib turadigan xuddi qizlar kabi durkun va nafis gullari, qirmizi tulporlar minib yuradigan yigitlari, xayoldan ko‘ylak tikib kiygan qizlari, hilol bilan birga xilpiraydigan cho‘g‘lari, sahar chog‘lari xo‘rozlaridan ham oldin uyg‘otadigan azonlari hamda bolaning ko‘zlari kabi tiniq va ma’sum daryolari haqida gapirib berar va bularni Tursoriya boshqalarning ham e’tiborini tortsin, deya ko‘pincha o‘zim to‘qirdim. Biroq mening bu tajribasiz va tarqoq qo‘shnim – bolalarcha cho‘pchaklarim bilan odamlarning befahmlik va loqaydlik**

devorlari o‘rab olgan, hech narsa bilan zabt etib bo‘lmas, toshdek qotib qolgan qalb qo‘rg‘onlarini hech qachon zabt etolmasdim, aksincha, mening yuragimdan so‘zlarga quyilib chopib chiqqan hayajon va umid oxulari ularning befarqlik ko‘pchigan ko‘zlarining to‘yqo‘y qoyalaridan sakrab o‘tolmay, bir-bir qulab tushardi. Hamisha gaplarim ularning ensasini qotirardi”.

Beparvolik va loqaydlik inson tanazzuli. Uning tuyg‘ularsiz yashashi, kimligini va nima uchun bu dunyoga kelganligini anglamaslik, misoli hayvondek faqat qorin g‘amini, o‘z tinchini o‘ylashi insoniylikdan yiroqlashish degani. “Xaroba shahar surati” hikoyasi insoniyatning o‘sha tanazzuliga, zulmatga singish jarayonini ko‘rsatganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ko‘p yillar aldov odamzotni shunday ko‘yga soldi. Uni jirkanch mahluqdan ajratib bo‘lmas holda tarbiya qildi. Natijada inson “Xayol tuzog‘i” hikoyasidagi kabi odamkushlikka ruju qo‘ydi. Yonida har kun bir-birini chopish maqsadida bolta olib yurar holga tushdi. Bu uning kasbiga aylanib bordi. Yozuvchi yana bir o‘rinda shunday izoh beradi:

“Ularning hammasi menda Tursoriyani bilmay o‘tayotganliklari uchun ham butun umri g‘aflat o‘rmonini sargashta kezib yurgan sarson odamlardek taassurot qoldirardi. Men ularning ko‘zlarida, yuzlarida g‘ofil va tushkun yashashga mahkum etganliklarini ko‘rardim. Ular tiriklikning mangu va abadiy qaroqchilaridan qocha-qocha mana shu loqaydlik va tanballik saltanatidan panoh topgandilar va ular qochib kirgan boshpanalarida o‘zlari kabi omonatlik va xarobalik anqirdi”. Insoniyat tarixi o‘tmish davrlaridan iborat. O‘tmaydigan davrning o‘zi yo‘q. Badiiy tafakkur ham shu. U tinimsiz o‘zgaradi, o‘zgargani sayin badiiy tasvir imkoniyatlari kengayadi, torayadi, tinch turmaydi. Shu tariqa har qanday milliy-badiiy tafakkur biridan keyingisiga o‘tuvchi bosqichlar evolyutsiyasidan tashkil topa boradi. Ana shu tadrijiy davomiylik ilg‘ab olinsa, milliy-badiiy tafakkurning yaxlit bir jarayon ekanligini tasavvur etish oson ko‘rinadi. Mazkur yaxlit jarayon ichidagi badiiy tafakkur evolyutsiyasi bosqichlarini aniqlash uchun esa qo‘llanilayotgan badiiy tasvir vositalari tadrijini o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Chunki ijodkor shaxs dunyoni, insonni qanday idrok etsa, shunga yarasha badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi, yangilarini kashf etadi.

Asl kasbi insonshunoslik bo‘lgan adabiyot hamma davrlarda ham insonni e‘zozlagan. O‘zbek realistik nasri bundan mustasno emas, albatta. Biroq bugungi davr adabiyoti va san‘atining bosh xususiyati insonparvarlik tuyg‘usining har qachongidan chuqurroq, kengroq va yuksakroq darajalarga chiqishi bilan ifodalanadi. 80-yillarning avvalida o‘zbek hikoyachiligida xuddi shunday ko‘tarilish kuzatildi. Tasvirlanayotgan qahramonga shaxs sifatida e‘tibor kuchaydi, ya‘ni insonning shaxslik a‘moli badiiy tadqiq obyektiga aylana boshladi. Insonparvarlik, shaxsparvarlikda namoyon bo‘ldi. Shaxs fenomenini tadqiq etishga urinish intellektual qahramon obrazlarining yaratilishiga, shuning barobarida badiiy tasvir vositalari doirasining kengayishiga olib keldi. Tabiiy, realistik milliy badiiy tafakkur bunday miqyosga dabdurdustdan erishmadi, albatta, balki yetuk shaxslik martabasining ibtidosi bo‘lmish oddiy insoniyat qadr-qimmatni, nafsoniyatni anglashga urinishlardan boshlandi. Yozuvchi N.Eshonqul hikoyalarida esa bu ko‘rinish o‘ziga xos tarzda bo‘y-bast ko‘rsatib borayotir. “Uyg‘onish badiiyati insonni jo‘n va yuzaki tushunishdan, uni bir yoqlama talqin etishdan voz kechdi”¹, – deb yozadi filologiya fanlari nomzodi Xurshid Do‘stmuhammad, – o‘zbek hikoyachiligida bu o‘ziga xoslik nasihatbozlikdan qutulishda o‘z ifodasini topdi. Misol uchun “oqpadarlik – yomon”, ichkilikbozlik, poraxo‘rlik – illat” singari “g‘oya”lar hikoyalar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotadi. Ishlab chiqarish mavzusidagi jasoratlar madhi o‘rnini qahramonning shaxs sifatidagi kamolini izlash tasviri egalladi. Qahramonlarning ijobiy yoki salbiyligini belgilovchi mezonlar o‘zgardi. Qahramon shaxsi, ruhiy olami, shuuri tasviriga moyillikning kuchayishi hikoyaning sujet qurilishini, tasvir maromini, konfliktlar tabiatini yangiladi”.

Bu esa o‘zbek adabiyoti yangicha uslubiy yo‘nalishning kirib kelishiga turtki berdi. So‘nggi yillarda jahon modern adabiyoti va uning milliy adabiyotlarga daxldorligi borasidagi mulohazalar tez-tez og‘izga tushmoqda. Albatta, mazkur fikr bejiz emas. Gap shundaki, biz yuqorida qisman tahlil etishga harakat qilgan N.Eshonqul hikoyalarida xalqning teran ildiziga ega bo‘lgan, inson tafakkurining ilk badiiy mevalari hisoblangan miflar, uning tasvir vositalari, an‘anaviy shakl bilan bir qatorda jahon adabiyotining modern oqimi ham uyg‘un holda o‘ziga xos tarzda mujassam bo‘ldi. Adib nasrida dastavval Qodiriyning va Cho‘lponning ijodiga taqlid; Tolstoy va Dostoevskiy asarlaridagi mushohada, yapon Y.Kavabata,

avstriyalik F.Kafka, argentinalik X.Kortasar, fransuz A.Kamyu, meksikalik L.Borxes va K.Fuentes tajribalarining ta'siri sezilishini ta'kidlab, yozuvchi X.Do'stmuxammad o'zining **“Uyg'onish jozibasi”** maqolasida bu to'g'rida fikr bildirarkan quyidagicha ta'rif keltiradi: “Adabiyot ta'sir jug'rofiyasining bu qadar kengayib borayotganiga juda tabiiy va qonuniy hol sifatida qaramoq lozim. Zero, bu, o'zbek badiiy tafakkurining umumbashariy badiiy tafakkur simfoniyasiga qo'shila olishidan, shunga ma'naviy huquq borligidan dalolat beradi. Bordi-yu, ushbu ta'sir taqlid darajasidan nariga o'tmasa hikoyalarimizdagi yangilanishlarga katta umidlar bog'lash qiyin edi. Ishonch bilan aytish mumkinki, uyg'onish davrida yashayotgan o'zbek hikoyachiligi dunyo badiiy tafakkurining eng ilg'or tamoyillari xazinasini boyitishga hissa qo'shmoqda”¹.

Shu o'rinda talabalarga mavzuga xos “modernizm” atamasiga izoh berib o'tmoq joiz.

“Modernizm” (fransuzcha – moderne – eng yangi, zamonaviy) atamasining XX asr avvalida G'arbiy Yevropada paydo bo'la boshlagan futurizm, ekspressionizm, imajinizm, unanizm kabi badiiy oqim va guruhlarning yuzaga kelishi bilan bog'lashadi². “Modernizm”ni ayrim adabiyotshunoslar aniq topib ishlatilgan atama emas, deyishadi. Ularning fikricha, “modernizm”ning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqanda, har qanday davr o'zining “eng yangi”, “zamonaviy” badiiy oqim va guruhlarni paydo qilishi mumkin. Markscha adabiyotshunoslikda “modernizm” – “dekadans” atamasi bilan bir ma'noda qo'llanib kelinadi. Aslida esa “dekadans” (fransuzcha – denadence – tushkunlik) o'tgan XIX asrning 80-yillarida yuzaga kelgan: o'sha yillar Parijda “Dekadans” nomli jurnal chiqa boshlagan, “dekadant” atamasi ham ayni shu yillari bo'lib o'tgan adabiy munozaralarda qo'llanilgan”³. Bu atamalarning asosiy farqi shundaki, “dekadant”lar o'zlaridan oldin o'tgan adabiy oqimlar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lsa, “modern”chilar o'tmish bilan aloqani uzib, yangi zamonga mos “modern” san'atini yaratishga kirishishgan. Shu boisdan ham “modern”ni “eng yangi”, “zamonaviy”dan ko'ra kengroq ma'noda, butkul yangi, g'ayri'anaviy, oldingilardan farqli hodisa sifatida olib qarash o'rinli.

“Modernizm” atamasi hozirgi zamon G'arb san'atiga nisbatan bimalol qo'llanib kelinadi. Bu san'atning yuzaga chiqishi esa, aslida bir-biri bilan aloqada bo'lmagan, Yevropaning turli mamlakatlarida yashagan, har xil millatga mansub yozuvchi, shoir, musavvirlar tomonidan turli vaqtlarda tashkil etilgan, uyushtirilgan, harakatga keltirilgan oqimlar, to'garaklar, guruhlarning intilishlari samarasidir. Masalan, kubizm Fransiyada, futurizm Italiyada, dadaizm Shvetsariyada paydo bo'ldi. Ularning barchasiga xos yetakchi jihatlardan biri g'ayrirealistik ijod usulidir. Barchasini umumlashtiruvchi yagona atama esa “modernizm”. Bu atamaning nazariy, umumfalsafiy asoslarini A.Shopengauer, M.Shtirner, S.Kerkoger, F.Nitsshe, A.Bergson kabi faylasuflarning ijodiy merosi bilan bog'lashadi¹.

Modernizm oqimining o'zbek adabiyotida kirib kelishini shoir Bahrom Ro'zimuhammad quyidagicha izohlaydi: “Modernizm”ni realizmga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Modernizmga realizm suvratidagi sotsial realizm oqimigina qarshi qo'yilgan. Endilikda asta-sekin adabiyot siyosatdan holi bo'lmoqda. Chunonchi, adabiyotning o'z “siyosati” mavjud. Adabiyot inson ruhiy olami uzra siyosat yurgizadi – ruh olamidagi jismlar orasida intizom o'rnatiladi. Qadim-qadimdan shunday bo'lib kelgan. So'fiylarning ko'ngil parvarishi ta'limoti bejiz kun tartibiga chiqmagan bir mahallar. Biz shu yo'ldan yurmog'imiz lozim. Bu yo'l ma'naviyatimizni yuksaklikka olib chiqadi, bu yo'l millatimiz yuragini, sharqona kechinmalarini bobolarimiz ma'naviyatiga omuxta etgan holda jahon ilm ahliga ko'z-ko'z qiladi”.

Darhaqiqat, shoir ta'kidlaganidek, inson ruhiy holatini taftish etuvchi, uning o'zligini, “men”ini kashf etishga qaratilgan modern adabiyoti Sharqning ulkan tafakkur qudrati bilan yaratilgan. Bu borada yozuvchi N.Eshonqul fikr bildirar ekan, xalqimizning qadimiy ijod namunalarini yuqori baholab: “Turkiy xalqlar asotir va eposining ta'sir ko'lamini shu darajada kengki, biz xatto buni tasavvur ham qilolmaymiz.

² “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. 1996 йил, 2 февраль.

³ Шарафуддинов О. Модернизм – жўн ҳодиса эмас. // ЎзАС. 2002 йил 7 июнь.

¹ Расулов А. Тинч оқар дарё. // ЎзАС. 2003 йил, 9 июль.

Agar biz ana shu merosni o'zlashtira olsak, G'arb adabiyoti nimadan "ozuqlangan"ini ham, chinakam ma'nodagi adabiyot o'zi nimadan iborat ekanligini ham tezda tushunib yetamiz"².

Nazar Eshonqul asarlarini o'qib turib yozuvchi ijodidagi bo'tiq jihatlar asosan xalq mifologiyasi asosida, uning o'zagidan ruh olib yaratilganligiga amin bo'lasiz. "Shamolni tutib bo'lmaydi"dagi Bayna momodek matonatli insonlar, "Haroba shahar surati"dagi parishon yigit, o'z tanazzulini sezmagani saylovga nomzodi qo'yilgan shoir, unga qarama-qarshi tarzda o'z mag'lubiyatini seza turib, bunga ko'nikkan professor, "Xayol tuzog'i"dagi aldov va maqsadsizlik ustiga qurilgan bu dunyodan voz kechgan Voqif, inson miyasini taomilga aylantirgan "To'zon"dagi maxluqlarga urush ochib, o'zi ham uning domiga tushgan yozuvchi yigit, "Lazzat ortida qolgan yurak"dagi kabi yo'qlik va noma'lumlik, puch g'oyalarga berilgan talabalarning o'y-xayollari, orzu-armonlari, kechinmalari, his-tuyg'ulari aks etgan bir qator hikoyalar dunyoga keldiki, ular Xurshid Do'stmuhammadning tabiri bilan aytganda bugungi "uyg'onish badiyatining" nodir namunolari sirasiga kiradi.

"Har bir millat o'z uyg'onish davrini o'ziga xos yo'sinda boshdan kechirgan" deb yozadi taniqli badiyatshunos faylasuf A.Losev va uyg'onish badiyatining bosh alomatlaridan biri qadimgi qadriyatlarga tashnalikning kuchayishi ekanini ta'kidlaydi. Insoniyat tarixidagi eng ko'hna qadriyatlar tabiat qonunlariga uyg'unlashib ketishi bilan farqlanadi. Bu ulkan haqiqat N.Eshonqul hikoyalarida o'ziga xos tarzda o'z talqinini topdi. Ayniqsa, o'zbek xalqi tabiatidagi eng qadimiy va eng tabiiy tuyg'u kindik qoni to'kilgan ona zaminga muhabbat tuyg'usi hisoblanadi. N.Eshonquling "Ozod qushlar", "Maymun yetaklagan odam", "Tobut", "Xayol tuzog'i" kabi ko'plab hikoyalarida ozod vatanning ozod sohibi obrazlari turkumi yaratildi.

Vatanparvarlik o'zbek adabiyoti uchun yangilik yoki favqulodda mavzu emas, lekin shuni aytish kerakki biz nazarda tutayotgan bugungi davr o'zbek hikoyachiligida ona Vatanga sadoqat tuyg'usi aql-idrok bilan anglangan, tahlildan o'tkazilgan intellektual salohiyat darajasiga ko'tarildi. "Chin Vatan" tushunchasi davr talablaridan kelib chiqqan holda qayta idrok etildi, bu tushunchani har kim o'zicha kashf etmay turib kishini tom ma'nodagi insonlik martabasiga ham, vatanparvarlik salohiyatiga yetisha olmasligi ham ayon bo'ldi. Sanab o'tilgan N.Eshonqulning hikoyalarida psixologik tahlilning, o'z-o'zini taftish etishining – murosasiz ruhiy kolliziya kuchliligining bosh sabablaridan biri ham shunda edi.

O'tmishni, Vatanni, jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni tahliliy idrok etish darajasiga ko'tarilishi uchun sermushohada tafakkur zarur. Adib hikoyalarining ikkinchi kashfiyoti ana shunda, ya'ni tafakkurli kishilar obrazini yaratishga urinishda ko'rinadi. Ayni paytda inson fojeasining tub ildizi fikrsizlikda ekani, o'zligini anglamagan banda na dunyoni, na davlatni anglamoqqa qodir ekani tesh tegmagan timsollar orqali tasvirlanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, qahramon shuurini tahlil etishga kirishgan hikoyanavis zamondosh inson botinida ham yozuvchi "qadami" yetmagan hududlarning mavjudligini ko'ra olgani va uni zabt etishga chog'langanligi bilan e'tiborlidir. N.Eshonqul hikoyalarida dunyoni, insonni qayta nazardan o'tkazar ekan, shaxs ehtiyojlari va manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Har qanday qadriyat shaxs manfaati nutqayi nazaridan baholanadi. Bunday hollarda insonning, shaxsning eng nozik, eng bokira kechinmalari ham tarixiy hodisa ahamiyatiga teng ko'rinadi. Zero, dunyoni va insonni qayta tahlil etishga kirishgan lirik qahramon inson shuuri va qalbidagi eng xususiy xilqatlarga ham tap tortmay kirib boraveradi. Bu eng erka tuyg'u va istaklarni oshkora qilish joizmi? Yo nojoiz deb ikkilanmaydi, balki nima mavjud ekan, hammasini ko'rsatishga harakat qiladi. Ya'ni mavjudmi, bas, ular rad etilmaydi. Balki badiiy mushohada, mulohaza mavzuiga aylantiriladi. Bundan tashqari shuni e'tirof etish kerakki, Nazar Eshonqul hikoyalari tili o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda asar qahramonlarining ijobiy yoki salbiy qahramon ekanligi yozuvchi tilidan e'tirof etilmaydi. Aksincha, bu yumushni o'quvchining o'ziga qoldiradi, uni mushohadaga chorlaydi. Umuman olganda, asarda kimlar ulug'lanayotgani, qoralanayotgani ko'pincha bevosita emas, bilvosita ifodalanadi. Majoziy, ko'chma ma'noli tasvirlar ta'rifu tavsiflarga tez-tez murojaat etilib, ularning ustuvorligi ta'minlanadi. Eng muhimi,

² «Миллий тикланиш» газетаси, 1998 йил, 19-май.

tasvirlardagi majozlar ko'chma ma'noli vositalar qahramonlarning betakror ruhiy dunyosini yoritishga xizmat qiladi. Filologiya fanlari doktori, professor N.Xudoyberganov yozuvchining "Xayol tuzog'i" hikoyasi haqida fikr bildirar ekan, uning quyidagi jihatlariga urg'u berib o'tadi: "hikoyani sinchiklab o'qiganda, Voqif haqiqatparvar, cho'rtkesar, betga chopar qalamkash bo'lgani uchun ko'p joylarda qoqilib-surilib, nuqul pand yeb yurgani, nihoyat qalbi-yu ruhiningmas, balki faqatgina qorin ehtiyojini qondirishdan boshqa iloji qolmagani tufayli o'zining emas, boshqalarning ihtiyoriga ko'ra amallab kun kechirganiga alohida urg'u berilganligini sezasiz. Uning xayol tuzog'iga tushib qolishi bamisoli aqlidan ozganday yurish-turishlari, nihoyat qandaydir fojeaga duch kelib, bedarak yo'qolishi tasodifiy xol emas...»¹. Agar hikoyaga e'tibor beradigan bo'lsangiz, bu jihatlar quyidagicha imo-ishoralar bilan o'quvchiga yetkazilgan: "Faqat ba'zi tanishlar bedarak ketishdan oldin Voqifning qandaydir bino, qon, bolta haqida gapirib yurganini g'ira-shira eslashdi va o'sha paytdayoq aqlidan oza boshlagan edi, degan taxminni ro'kach qilishdi"² tarzida ko'rsatib o'tiladi. Asar o'quvchini mushohadaga tortadi, sobiq tuzumning jirkanch ekanligi, odamkushlikni kasb qilib olganini oddiy uchta so'z – **"bino"**, **"qon"**, **"bolta"** kabi betakror timsollar orqali o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Asarda ana shu narsa ko'rinadiki, Voqif bu tuzumning, jamiyatning jirkanchligini ko'ra olganligi bois ham u bu hayotda qiynaladi, turli to'siqlarga duchor etiladi. Shu jihati bilan asar yozuvchi Tohir Malikning "Shaytanat" asaridagi shoir Asqar Qosim obrazini, uning taqdirini eslatadi.

Voqea-hodisalarni, asar mohiyatini turli ramzlar, timsollar orqali ochib berish yozuvchidan yuksak mahorat, iste'dod va bilim talab qiladi. Shu jihatdan N.Eshonqul hikoyalari yuksak cho'qqini zabt etgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yozuvchining o'zi bu jihatga to'xtalar ekan, shunday deydi: "Miflar inson tafakkurining ilk badiiy mevalari. Olamni ramzlar, timsollar orqali tasavvur qilish bu ijodning boshlanishi edi. Inson tabiati tashqi olamni ramzlar orqali qabul qilishga moslashgan. Odam hissiyoti har qanday hodisaning o'zini emas, uning ramzini qabul qiladi. Miflar yaratilgan davrda shuuri-idrok birinchi o'rinda edi va ularning tili ham ramzlar tili bo'lib qoldi. Biroq insoniyat taraqqiyoti aqliy idrokni birinchi o'ringa olib chiqdi, shuuriy hissiy idrok ong osti hislariga aylandi. Freyd ijodkorlik – aynan aqliy idrokdan emas, dastlab hissiy, shuuriy idrokdan paydo bo'ladi, shoirlik hissiy idrokning ong yuziga qalqib chiqishidir, deb tushuntiradi. Shu ma'noda Freyd ham Yung, Xaydegan, Fromm ham inson "men"i miflar yaratilgan davrdagi "men"dan farq qilmaydi, deyishadi"¹.

Bugungi nasrdagi yangi jarayonlar, ma'naviy, shakliy-uslubiy izlanishlar ko'proq N.Eshonqul hikoyalarida o'ziga xos tarzda aks etmoqdaki, u yozuvchi ta'kidlaganidek, o'tmish ajdodlarimiz yaratgan qadimiy adabiyotdan kuch olayotgan bo'lsa, ajab emas. Bu yozuvchining ilk hikoyasi "Maymun yetaklagan odam"dayoq o'z ifodasini topgan edi. Mazkur asar zamondosh, asrdosh obrazini yaratish yo'lidagi yetmish yillik tajribalarning muayyan intixosi va ayni zamonda yangi bosqichning boshlanishi bo'ldi, deya adabiyotshunoslarimiz tomonidan yuqori baholangan edi. Hikoya muallifi N.Eshonqul keyingi o'n yil mobaynida yozgan talay hikoyalarida asosan o'sha asrdagi g'oyani turli ko'rinishda davom ettirdi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida 1996-iyul (30-soni)da e'lon qilingan "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi esa o'zbek hikoyachiligida muhim yangilik bo'ldi. U jamoatchilik e'tiborini o'ziga tortdi. Yozuvchilar uyushmasining maxsus mukofoti bilan taqdirlandi.

Yozuvchi mazkur asar qahramoni Bayna momoning uzoq davom etgan fojeaviy, motamsaro, ayni paytda mardona hayot yo'lini o'ziga xos yo'sin, ohangda hikoya qiladi. Unda momo qismati bilan bog'liq ibratli voqealar, chunonchi u bilan qishloq ahli, olomon orasidagi ziddiyat bir-ikki detallar, chizgilar, ixcham lavhalar orqali eslatiladi. Masalan, asardagi quyidagi jumlagi e'tibor qaratsak: "Bayna momo tirikligida, garchi bu ayolni, erining polvonlik lash-lushlari va kiyim-kechaklari yotgan, o'lgandan so'ng hech qachon yonmagan, tuynugi shuvab tashlangan ana u hujra kabi qorong'u, musibat to'la uyi ichkarisiga kirmagan bo'lsa-da, ular qahr va g'azabni sitam bilan ichiga yutib kelgan bu kampirni hurmat bilan eslashardi"¹. Mazkur jumlaning o'ziyoq, Bayna momoning hayoti, uning ayollik sadoqati haqida o'quvchiga tushuncha beradi. Inson yashayotgan xonadonning tuynugi qachon suvaladi, qachonki, unda hech kim yashamagan taqdirda. Yozuvchi shu jumlarlar orqali Bayna momoning umri ham eri va o'g'li

¹ Худойберганов Н. Мехру мухаббат йилларида. –Т.: Янги аср авлоди. 2001. 98-99-бетлар.

bilan birga so‘nganligiga ishora qiladi. Bundan tashqari hatto hikoyadagi eng jiddiy to‘qnashuv-olishuv – momoning eri va o‘g‘lining qotili Zamon otboqardan qasos olishi, uni chavaqlab qonli barmoqlaridan judo etish voqeasi sahna ortida yuz beradi. Bu mudhish voqeani ham muallif imo-ishora, detallar orqali ayon etadi. Asarni mutolaa qilayotganda g‘am-g‘ussaga to‘la va ayni paytda mardonavor og‘ir bir kuyni tinglayotganday bo‘lasiz. Momoning ruhiy holati va hayoti go‘yo shu kuy pardalari orqali tarannum etiladi.

Bayna momo bir paytlar faqat qishloq emas, butun tog‘li xalqning obro‘cini ko‘tarib nom chiqargan eri Rayim polvonni quloq deya taqib qilish, mol-mulkini tortib olish, so‘ng itday xor qilib otib tashlashga yo‘l qo‘ygan va o‘g‘li bilan erini yangi zamonning egalari – Zamon otboqlarlar ihtiyoriga berib qo‘ygani uchun hamqishloqlarini aslo kechirolmaydi. Uning ruhiy olami yolg‘izlikda o‘tgan mashaqqatli hayoti yozuvchi tomonidan mahorat bilan gavdalanitiriladi. *“Bayna momo o‘z yolg‘izligi musibatini hayotning badbo‘y, zabun, xor etilgan hidlari anqib yotgan yillar dahlizidan yetaklab o‘tdi. Qishloqdoshlari bahor kelishi bilan eski yaylovlarga ko‘chib chiqishar va yer shudgorlar, har kim o‘z tashvishiga berilib ketardi. Qishloqda qolgan Bayna momo esa bu paytda yolg‘izlik dashtini shudgorlar, u yerga har yili Zamon otboqar bilan kelib eri va o‘g‘lini otib tashlagan oqshomni ekar va so‘ng yolg‘iz o‘zi hosilini ham yig‘ib olardi...”* Yana bir misol: *“qish paytlari g‘amlab qo‘ygan o‘tini yetmagan kunlari u ko‘rpaga oyog‘ini tiqqancha xotirasiga isinib jon saqlardi”, “...uning shu turishi azob-uqubatning bir to‘plam uyumiga o‘xshardi”*. Qahratonda *“xotirasiga isinib jon saqlash”,* motamsaro ayolning holatini *“azob-uqubatning bir to‘plam uyumi”ga o‘xshatish* sahifalarga chizilgan dramatik sahnalar, ohu faryodlardan ko‘ra qahramon ruhiy holatini aniqroq va ta’sirchanroq ifodalashi bilan yuqori baholandi.

Hikoya qahramoni shu xil iztirob, g‘am-alamlarga qaramay o‘z g‘ururini, sha’nini baland tutadi. Bu holat o‘quvchiga quyidagicha bayon etiladi: *“Bayna momo qishloqdoshlariga ko‘z-ko‘z qilmoqchiday va bu uyning erkagi va oriyati o‘lmagan deya ta’kidlayotganday eri va o‘g‘lining polvonlik yaktaklarini har oyning oxirida shusiz ham hammaning ko‘ziga tashlanib turadigan uyning shapatgayiga osib qo‘yadi”*.

Professor U.Normatov ta’kidlaganidek: *“Shamolni tutib bo‘lmaydi”* hikoyasida yangicha sujet tuzish va ruhiy tahlil yo‘llari yaqqol seziladi. Bu asar *“Maymun yetaklagan odam”* kabi yangi jahon adabiyotida keng tarqalgan real hayot xodisalarini mifologik model asosida gavdalanitirishning yaxshi milliy namunasidir”.

Adabiyot – so‘z san’ati. **“Adabiyot, undagi so‘z bamisoli cho‘g‘”** deb ta’riflaydi adabiyotshunos A.Ulug‘ov. *“Darhaqiqat, haqiqiy san’at asari so‘zning qudrati, uning jozibasi bilan dunyoga keladi. So‘z ilohiy, unga hiyonat qilib bo‘lmaydi. Yozuvchi N.Eshonqul yaratgan hikoyalarga voqealar talqini vajidan emas, so‘zning salmog‘i nuqtayi nazaridan yondashadigan bo‘lsak, adibning barcha hikoyalaridagi so‘zlar o‘quvchiga qahramonlarning turfa xolatini, yashayotgan muhitini, kechinmalarini murakkab o‘zgarish, tebranishlari bilan tasavvur etishga imkon beradi. Hikoyalarda “dedi-dedi” suhbatlari voqealar bayoni yo‘q. Aksincha, odamni o‘ylashga undaydigan, har bir so‘zning ortidan katta bir manzilu makon, tirik odam taqdiri, uning qalbi borligini ko‘rishga da’vat qiladigan mushohada talablik bor”*². Birgina *“Xayol tuzog‘i”* hikoyasini oladigan bo‘lsak, unda hikoya qahramoni o‘zi yashab qo‘ygan umrni afsus-nadomat-la eslab shunday deydi: *“U paytlar hikmatli gaplar aytishni, bashorat qilishni shunchalar sevardikki, go‘yo insoniyat kelajakka biz qurib bergan xayol ko‘prigidan o‘tgandek tuyular, har bir narsa bizga porloq istiqbolimizdan darak berar, garchi endi umid gullarimizni uzib tashlagan bo‘lsa ham, ma’shuqalarimizning eshigini tonggacha poylab chiqardik; uni ko‘rishimiz bilan xazonlikka yuz tutgan dunyoga yasharish fasli kirib kelayotgandek ko‘ngillarimiz nurafshon bo‘lib ketar, unga kitoblardan iqtiboslar keltirib, muhabbat va vafo haqida erinmasdan safsata sotardik; ko‘pincha uzun jumlarimizga ma’shuqalarimiz tugul o‘zimiz ham tushunmasdik, lekin vaqt bamisoli bir gulu uni bag‘rimizga ekib qo‘yish juda ham jo‘n, osonday tuyulardi va biz bir kuni umrimiz gulzorida shunday hayot davrlari bizga chikora edi, biz uni kutib olishga va yengishga o‘zimizni tayyor deb hisoblar,*

² А.Улугов. Ўзгараётган адабиёт манзаралари. // Шарқ юлдузи. 1998 йил. 4-сон. 138-бет.

ruhimiz ham shunchalar tetik va ko'tarinki bo'lardi. Ba'zi-ba'zida o'sha do'stlar uchrashib qolsak, yuzimizdagi umid xarobalarini, orzularimizning vayron bo'lgan imoratlarini boshliqlarimizga yoqish uchun o'rgangan shirinsuxanligimizni oharlangan ko'ylak hamda bo'yimizda bo'g'ma ilondek osilib turadigan xushbichim bo'yinbog'larimiz bilan yashirgancha tezroq hayrlashib jo'nab qoladigan bo'lganimizni nima bilan izohlash mumkin?!"

O'ylayotgan, o'tgan kunlarni bir-bir hayoldan o'tkazib sharhlayotgan ko'ngilda jonlanayotgan manzaralarga e'tibor bering. Umidni – vayron xarobalar, orzularning buzilgan imoratlari: Yozuvchi umrining yuzida akslangan aftodaxolligini so'z bilan mana shunday gap bilan gavdalandirib beradi. Shuningdek, hikoyada uchraydigan «Eski tanishlarimizdan kim bilan uchrashmay, beparvo yelka qisishlarga qarab turib xuddi tashlandik va xaroba go'shadan kechib ketganday, ular allaqachon Voqifni unutishganiga amin bo'ldim», "...yo'limda haykal yanglig' qad kerib turgan noma'lumlik va yo'qlikka duch kelaverdim, shunda ko'nglim saltanatiga makkor va ayyor josus misoli, ehtimol Voqifni ham mana shu ma'lumlik va yo'qlik ayiqlari yutib qo'ygandir degan bir shubha o'rmlab kirdi" kabi betakror o'xshatishlaru yashirish timsollardan iboratligi hikoyaning yanada o'qishli bo'lishini ta'minlayotgandek.

"Xayol tuzog'i"da Nazar Eshonqul roviylik qilmaydi. Ro'y berayotgan voqea-xodisalarni bizga tanish hikoyalardagidek, masalan, "chol inqillab-sinqillab o'rnidan turdi va sekin-sekin yurib ketdi" tarzida bayon etmaydi. N.Eshonqul xayolning oddiy suhbatda ifoda etib bo'lmaydigan so'zlab berib bo'lmaydigan kechinmalarini ohista va bosiqlik bilan suvratlantiradi. Siyrat suratini chizgan bu so'zlar esa o'z domiga tortadigan darajada salobatli, rangli quyuq, e'tibortalab».

«Ramz hayolning va hayotning shartli ifodasidir», – deydi N.Eshonqul, – Adabiyotning ilohiy kuchi, qudrati shu ramzlarning qay darajada ifoda etilganligiga bog'liq, ya'ni ramzlar insonning tasavvur hududini, go'zallikka ehtiyojini qondira oladimi-yo'qmi? Insonning go'zallikka bo'lgan ehtiyojini faqat ilohiy narsalar qondira oladi. Ramzlarga zuhur etilgan go'zallik ilohiydir. Navoiydagi ramzlarni, o'xshatishlarni o'qisangiz, adabiyotni ilohiy kuch ekanligini his etasiz. Sharqu G'arbdagi shoiru adiblar ramzlardan qay tariqa foydalana olishiga qarab dunyo shoxsupasidan joy olganlar. Nasr ham, nazm ham asl ramz, metafora, voqelikning timsolidir. Voqelikning aynan o'zi go'zal emas, uning timsoli go'zal".

“O'lik mavsum” hikoyasi yozuvchining o'z uslubini saqlab qolgan holda yaratgan keyingi kashfiyoti bo'ldi. “O'lik mavsum” hikoyasi odam uchun eng sirli xodisa – o'lim va undan keyingi hayot haqida fikrlaydi. “Axir odam uchun o'limdan sirliroq narsa bormi dunyoda?” hikoya: **“Biz o'qituvchimizni juda sevardik. Unga bo'lgan muhabbatimiz beg'araz va pok ekanligiga sira shubha qilmasdik”¹**, deb boshlanadi. Talabalar domlalaridan birining darsiga juda qiziqib qolishadi. Ular domlarning gap-so'zlari va shaklu tamoyilini benuqson deb bila boshlashadi... Bu orada domlarning shuhrati ortgandan ortib borardi. Domlarning o'z talabalaridan boshqa talabalar ham uning darslarini tinglashga qatnay boshlashadi. “Uning ovozi eshitish va so'zlari sangalida yana bir bor ezg'ilanish, tafakkur va hayolot gumbazlari qad kerib turgan saltanatlarini sayr etish uchun ertalablari daftarimizni qo'ltiqlab, nonushtaga ham kelmasdan saboqqa yugurar; ...insoniyatga xayoldan kelajak sari xaloskorlik kemalari yasab berish uchun birin-ketin, biroq bir paytning o'zida saboqxonaga yig'ilardik”. Vaqt o'tgan sari domlarning obro' e'tibori ham o'sib borar, u endi o'zi dars berayotgan talabalar o'rtasida balki boshqa sohalarda ta'lim olayotgan talabalar o'rtasida ham mashhur edi. Domlarning shuhrati daqiqa sayin ortadi, u endi barcha talabalar uchun komillikning timsoli bo'lib qolgan edi. Darslarni eshitish to'g'rirog'i, domlani ko'rish istagi bilan kelgan talabalarning ko'pligidan darsxonalar torlik qilib, katta bayram o'tkazish uchun mo'ljallangan xona uning dars o'tishi uchun bo'shatib berilgandi. Boshqacha aytganda, domlarning darslari bayramga aylangan edi. Ular darslardan bo'sh vaqtlari ham domlarning ixtiyoriga o'ta boshladi, ya'ni ular darslardan bo'sh pallalarida ham domlaga, uning ma'ruzalariga taqlid qilib bahslashishardi. Eng sara talabalar pivoxonalarda yig'ilishib domlarning ma'ruzalarini tahlil qilishardi. Ularning shoirlari o'z ustozlariga atab she'rlar yozishardi. Shunday kunlarning birida, ta'tilga yaqin qolgan bir paytda talabalar domlani o'z davralariga taklif qilmoqchi bo'lishadi. Ularning biri domlarning manzilgohini qiyinchilik bilan aniqlab, uni izlab yo'lga tushadi. Talaba manzilni topgach hushidan ayrilganday bo'lib ortga yuguribdi. Sababi ko'rsatilgan manzilgohda qabriston joylashgan edi. Ertasi kuni

bu mudhish xabardan hamma xabar topadi. “Bizga o‘lik ustozlik qilibdi... Biz o‘likka muhabbat qo‘yibmiz...”.

Hikoya haqidagi ilk fikr adabiyotshunoslar tomonidan aytiladi. Bu fikr quyidagicha: “Odamning qonini so‘radigan o‘likni vampir deyishadi. Ammo Nazar Eshonqul tasvirlagan vampir pakana emas, o‘ta zamonaviy vampir! U qon so‘rmaydi. Qon so‘rish o‘rta asrlarda qolib ketgan. U odamning mehrini, e‘tiborini, umidini, ishonchini, orzu o‘ylarini so‘radi. Eng dahshatli vaqtini, umrini so‘radi... Lekin hikoya shundayki, uni yuzta odam o‘qisa yuz xil fikr bildirishi mumkin”.

Haqiqatdan ham hikoyani polifonik asarlar sirasiga kiritish mumkin. Shunga ko‘ra undagi mavjud ramzlar turlicha tahlil etilishi tabiiy hol. Biz hikoyada mavjud ramzlarga asoslangan holda quyidagicha fikrga keldik. Ma‘lumki, hikoya Lotin Amerikasi hikoyachilik maktablaridan, aniqrog‘i, ilohiy realizm oqimidan ta‘sir lanib yaratilgan. Lotin Amerika adabiyoti, jumladan, mazkur oqim ham ramziy-majoziy tasvirlarga tayanadi. Ulardagi ramzlar asos va manba qilib esa o‘sha xalq tarixi madaniyatida chuqur iz qoldirgan voqea-hodisa hamda ba‘zi urf-odatlariga maishiy va ma‘naviy hayotdagi turg‘un, ilohiylashtirilgan tushunchalar, predmetlar olinadi. Xuddi shuningdek, Nazar Eshonqulning “O‘lik mavsum” hikoyasi ham musulmonlarda, shu jumladan o‘zbeklarda mavjud bo‘lgan o‘limdan keyingi hayot degan tushuncha tahlilidan iborat. Hikoya aynan mana shu tushunchaga asoslangan, yohud shu tushunchani obrazlar va ramzlar yordamida badiiy shaklda jonlantirgan. Fikrimizcha, o‘likning ayni ustoz timsolida tasvir etilishi ham dalil bo‘la oladi. Talabalar esa haqiqat va mohiyat sirlarini anglashga intiluvchilardir. Shu sababli bo‘lsa kerak, hikoyaning biron yerida talabalar qaysi sohani o‘rganishayotganini, ustoz esa nimadan dars berayotgani qayd etilmaydi. Zero, ustoz haq ilmini, haqiqiy hayot sirlarini o‘rgatuvchi edi. U aynan shu sohani talabalarga o‘rgatardi. Fikrimizga quyidagi parcha misol bo‘la olishi mumkin:

“Yo‘q, – dedi o‘qituvchimiz biroz pisanda ohangda; u har birimizning qalbimizda o‘zining haykalini yasab ulgurgan qiyofasiga zaharxanda tus berdi. – Tana o‘lib ketaveradi. G‘oya yangi avlod bilan birga yangidan tug‘ilaveradi. Uni ko‘mib bo‘lmaydi – uni ko‘mishgan taqdir da ham u qabrdan chiqib yana dunyoni boshqaraveradi. – U shunday deb sirli tirjaydi...”. Zukko o‘quvchi o‘qituvchi ta‘kidlayotgan “g‘oya”ning nimaligini osonlik bilan anglab olishi mumkin. “G‘oya” – bu ruh. Haqiqiy hayotda yashash ruhlarga nasib etadi. O‘qituvchi aytayotgan g‘oyaning yangi avlod bilan qayta tug‘ilishi inson farzandiga ato etilishi ruhga bir ishora. Zotan, har bir go‘dak dunyo yuzini ko‘rar ekan unga jon va ruh ato etiladi. Bu yolg‘on dunyoda makon ham zamon ham, barcha tushunchalar chegaralangan. Shundan kelib chiqib, talabalar, ya‘ni haq talabalar o‘zlari cheksiz ishonishni istagan obyekt ni topishlari mahol edi. Binobarin, ta‘kidlaganimizdek bu yolg‘on dunyodagi har bir narsa uchun chegaralangan. Demakki, unga muhabbat ham cheksiz bo‘lmog‘i mumkin emas. Talabalar cheksiz sevish uchun aynan o‘likni tanlaganlari ham shu boisdan bo‘lishi mumkin. Chunki, bu yolg‘on dunyodan farqli o‘laroq huquqiy dunyoda xech narsa chek va chegaraga ega emas. “O‘lik mavsum” hikoyasi Nazar Eshonqul ijodining eng yaxshi namunalari dan biri bo‘lib, hikoyada til ham, tasvir ham, qolaversa ravon falsafiy mushohada ham kitobxonda qiziqish uyg‘otadi¹. “Og‘riq lazzati” ham yuqoridagi hikoya bilan bir jurnalda bosilib chiqqan.

“Og‘riq lazzati”dagi yo‘nalish ham “O‘lik mavsum”dagidek ramziy – taxayyumiy yo‘nalishdir. Yozuvchi dunyo, uning mohiyati, undagi hodisotlar sir sinoatini ma‘lum bir timsollari va falsafiy qarashni ilgari surmoqchi bo‘ladi. Yozuvchining qarashlari, go‘yoki qorong‘u xonani yulduz qurt bilan yoritgani kabi aniq ravshan xulosalar shaklida emas, o‘sha xulosalarga turtki shaklida berilgan. Binobarin, yulduz yoritgan xonada ko‘rish uchun kishining o‘zida tiyrak ko‘z bo‘lmog‘i lozimligidek, Nazar Eshonqulning bu hikoyasini tushunmoq uchun o‘tkir aql lozim. Biroq bu hikoya o‘quvchilari cheklangan degan fikrni keltirib chiqarmasligi lozim. Zotan, “O‘lik mavsum”, “Og‘riq lazzati” kabi yo‘nalishda yaratilgan asarlar o‘quvchiga hech qanday majburiyat yuklamaydi. Ularda muayyan bir fikr ilgari surilmaydi, balki o‘sha fikr tomon yo‘nalish beriladi, xolos. Mazkur asarlardagi taxayyumiy tasvir ertak va afsonalardagiga yaqin bo‘lib, o‘quvchining asar bilan zerikmasdan tanishib chiqishga asos bo‘ladi.

¹ Б.А Умедов. Дунё ниманинг атрофида айланади. // Миллий тикланиш. -1996й, 38-сон.

Asarni o'qib, fikr tomon yo'nalishini topgan o'quvchining qanday xulosaga kelishi muhim emas, muhimi, u o'zining aqliy imkoniyatlari va tasavvurini ishga soladi, hamda shunga yarasha xulosaga keladi. "Og'riq lazzati" ham "O'lik mavsum" kabi talabalar tilidan hikoya qilinadi. Ikki talaba har kuni shahar o'rtasidagi maydonga kelib g'alati tomoshaga guvoh bo'lishardi. Bu yerda o'z – o'zini qiynab lazzatlanuvchi kishilar o'z san'atlarini namoyish qilishardi. San'atkorlar "tanlari chok-chokidan gezargan, azbaroyi og'riq va azobdan deyarli shilini tushgan yelkalardagi yag'irga quyosh shula'lari tushganda yaltirab ketar, oyoqlarini oldinga cho'zgancha turishga ham madorlari kelmay nestu zabun bo'lib o'tirishardi"¹. Ularning bu xolatlari tomosha qilishga ko'plab odamlar to'planishardi. Tomoshabinlar hattoki kechalari ham maydonga kelishar va cheksiz azoblanayotgan mahkumlarni ko'rib ba'zan befarq, ba'zan qiziqish bilan og'riq lazzatidan titrayotganlarni kuzatishardi. Maydondagilarni maxsus nazoratchilar kuzatishardi. Bu nazoratchilarning vazifalari maydondagilarning ishorasiga ko'ra ularni qiynash edi. Asarda azoblanayotganlar – mahkumlar deb ataladi". Gazetalar har kuni mahkumlarning yangi-yangi muvaffaqiyatlari to'g'risida sahifa-sahifa maqola, xabarlar berishar, tomoshabinlar esa ertasiga mahkumlar bilan bo'ladigan yangi tomoshani orziqib kutgancha tong ottirishar, sal bo'sh vaqt topilsa, maydonga qarab chopishardi". "Biz shaharning qaysi burchagiga bormaylik, mo'jizaviy san'atkorlikka va uni olqishlayotgan muxlislar olomoniga duch kelardik".

Mahkumlar orasida "to'rtinchi" deb atalmish g'aroyib bir mahkum bor edi. Uning g'aroyibliigi o'z san'atini hammadan ko'ra chiroyliroq va fidokorona namoyish etish bilan izohlanardi. O'sha "to'rtinchi" o'z san'atini eng yuqori nuqtaga ko'tara olishga qodir edi. Buning isboti sifatida "to'rtinchi" o'z yuragini sug'urnib olishlariga ruxsat beradi. Butun olomon "to'rtinchi"ning bu fidokorligini olqish bilan kutib oladi. Nihoyat o'sha kuni yetib keladi. "Nazoratchilar tomoshabinlarning hayqirig'i ostida ishga kirishdilar: ular mahkumning yuzi maydonga yaxshi ko'rinib turishi uchun yurakni orqa tomondan chiqarib olishga qaror qildilar". Nazoratchilar mahkum "to'rtinchi"ning ko'krak qafaslarini arralar, kesar, chopar edilar. Bu vaqtda mahbusning yuzi og'riq lazzatidan yorishib ketar, unda tabassum jilvalanib turar edi. Bu tabassum eng so'nggi nafasgacha uning yuzini tark etmay turadi. Nihoyat, nazoratchi mahkumning yuragini sug'urib oladi. Mahkum "to'rtinchi" yuzida tabassum qotib qolgan kuyi gursillab yerga qulaydi. Tomoshabinlar xayratomuz voqea ta'sirida terilariga sig'may quvonishar, mahkumning jasadini gullarga ko'mgancha uni olqishlashardi. Nazoratchi ham "to'rtinchi"ning jasadiga ta'zim qilgancha yurakni uning ko'kragi ustiga qo'yadi. "Shundagina biz og'riq farog'atidan so'ng ham, o'zimiz turgan zaminga tushmaganini angladik – u narigi, ya'ni lazzat yurtida qolgan edi, uning jonsiz tanasi ham san'at asariga aylangan va yashnoq gullarga ko'milib yotardi".

Hikoyani o'qib chiqqan o'quvchida og'riq – "azob san'ati" – bu yashash, hayot san'atidir, degan xulosaga keldik. Binobarin, mazkur san'atni amalga oshiruvchilarning mahkumlar deb atalishi ham fikrimizni tasdiqlashi mumkin. Zero, inson bu hayotda yashashga mahkum etilgan. Ya'ni u o'zining inon-ixtiyori bilan bu dunyoga kelgan emas, shuningdek ushbu hayotda mavjudlik ham uning istaklari chegarasidan tashqarida. Yirik faylasuflar, mutafakkirlar hayotni hamisha o'zlari uchun bitmas azob manbayi deb bilishgan. Balki shu tufayli ularning o'y fikrlarida, ijodlarida badbinlik ruhi kuchli. Ammo bu badbinlik ularni butunlay boshqargan desak xato bo'ladi. Zotan ular yashagan, ijod qilishgan va hayotga, yashashga chorlashgan. Nazar Eshonqulning "Og'riq lazzati" hikoyasi ham yashashga chorlaydi, azoblarga mardonavor bardosh berishga undaydi. Asarda tasvir etilgan nazoratchilar ham insonlarni tashkil etadi. Zero, bu dunyoda insonga azob beruvchi, uni qiynovchi mavjudot, hech shubhasiz insonning o'zidir. Nazoratchilar ta'bir joiz bo'lsa, amaldorlarning, byurokrat xo'jalarning timsolidir. Og'riq va azoblar esa dunyoni anglash, uning mohiyatiga yetish timsolidir.

Bugun inson ongi-shuuri o'zgardi. Uning dunyoqarashi, mushohadasi, hayot tarzi ham yangilandi. Bu jarayon adabiyotda ham o'ziga xos ko'rinish oldi. Badiiy tafakkurda yuz berayotgan o'zgarishlar hikoya tarziga mutlaqo yangi islohlarni kiritdi. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanish imkoni ko'paydi. Natijada batafsil tasvir, bayon, hajmning ortishi kuzatildi. Hikoya sujeti va to'qimasini voqea-hodisalar emas, balki timsollar, ramzlar, tashbehlar tashkil eta boshladi. Muayyan ohang, ritmlar uyg'unligi vositasi bilan kayfiyat uyg'otuvchi – musiqa asarlariga monand hikoyalar yaratila boshlangani

o'zbek realistik nasri binobarin, o'zbek hikoyachiligi uchun yangi xodisadir. Bunday izlanishlar o'zbek hikoyachiligi badiiy tafakkurining yuzaga kelishi, shakllanishida ayni jahon adabiyoti ilg'or namunalari ta'siri beqiyosligidan darak beradi.

Demak, o'zbek hikoyachiligi o'ziga xos uslublar orqali rivojlanmoqda, bu umumbashariy badiiy tafakkur simfoniyasiga qo'shila oladigan milliy va umuminsoniy ohanglarga egaligidan dalolat beradi. Ayni chog'da o'zbek yozuvchilarining modern adabiyoti an'alaridan foydalanishlari orqali o'zbek milliy badiiy tafakkuri imkoniyatlari hisobiga jahon adabiyoti ham boyimoqda. Aniqrog'i, Sharq va G'arbning uyg'un jihatlari adabiyotda ham estetik uyg'unlik kashf etilishiga asos bo'ldi. Nazar Eshonqul kabi o'zbek hikoyanavislari ijodi shu jihatlari bilan adabiyotimizda o'z o'rnini va mavqeiga ega.

Tekshiruv savollari:

1. Bugungi kun hikoyachiligining o'ziga xosligi nimada?
2. Hikoyanavislik o'z ijodlarida asosiy nuqtani nimaga qaratyapti?
3. Ma'naviy-axloqiy masalalar hikoyachilikda qanday o'z ifodasini topgan?
4. Tarixiy voqelik bugungi kun hikoyachiligida qandan yoritilyapti?
5. Bugungi kun hikoyalari totalitar tuzum davridagi hikoyalardan nimasi bilan farq qiladi?

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. N.Karimov. *Janrmi yoki uslub?* –T.: Fan. 1991.
2. N.Karimov. *Davr va inson* –T.: Fan. 1992.
3. N.Karimov. *Shukur Xolmirzayev* –T.: 1999.
4. I.Mirzayev. *Nasrimiz badiiy olami.* –T.: 1991.
5. U.Normatov. *Umidbaxsh tamoyillar.* –T.: 2001.
6. Q.Yo'ldosh. *Yoniq so'z.* – T.: 2007.
7. O. SHarofiddinov. *Ijodni anglash baxti.*–T.: 2012.
8. S.Matyakupov. *Hozirgi o'zbek hikoyalarida inson va shaxs konsepsiyasi (Monografiya)* – T. Fan.: 2007.

ESLATMA! Qiyos va tadrij talqinida. A.Qahhor, A.Cho'lpon, G'.G'ulom, S.Ahmad, S.Zunnunova, M.Osim, O'.Hoshimov', S.Vafo, E.A'zam, U.Hamdham, Sh.Xolmirzayev, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqulov, Sh.Bo'tayev, A.Yo'ldosh, A.Obidjon, Murod Muhammad Do'st, Ibrohim Rahim, Nosir Fozilov hikoyalari talqini haqida amaliy darslarda taqvimiy diskus dars jarayoni tashkillashtiriladi.(Jahon adabiyotidan: A.Chexov, L.Tolstoy, Gi De Mopassan, F.Kafka, A.Kamyu, Omer Seyfettin, Yaraslov Gashek, Ivan Bunin va b.)

5- ma'ruza mashg'ulot mavzusi: HOZIRGI O'ZBEK QISSACHILIGI-NING QIRRALARI

REJA:

1. Bugungi o'zbek qissachiligining janr va uslub xususiyatlari
2. O'zbek qissalariga xos yetakchi estetik tamoyillar
3. Ijtimoiy muammolar va milliy qadriyatlar aks etgan qissalar.

Asosiy tushuncha va atamalar: milliy qadriyatlar aks etgan qissalar, ijtimoiy muammolar, millatning ma'naviy va intellektual salohiyati, komil inson, kahramon, badiiy adabiyot, Abdulla Qahhor, Erkin A'zamov, Baxodir Murod Ali, O'lmas Umarbekov, SH.Bo'tayev, M.Boboyev, X.Do'stmuhammad, N.Norqobilov, Sh.Hamro, N.Eshonqul, Jamila Ergasheva, Said Ravshan, Omon Muxtor, Fayzulla Qilichev, Botir Nosirov, o'zbek nasri, tasvir uslublari, yetakchi tamoyillar, taraqqiyot tendensiyalari, xalq og'zaki ijodi ruhi, epik obraz va motiv, o'zbek qissalari, epik tafakkur.

Qissa janri hikoyaga nisbatan badiiy fikr harakati uchun keng imkon beradi. Ana shu imkoniyatdan foydalangan yozuvchilar inson fojiasining yangicha badiiy talqinini yaratishga erishmoqdalar. Qissa epik tur janrlari orasida imkoniyatlari hikoyaga qaraganda kengligi, shaklining rang-barangligi, mazmunining ko‘lamdorligi bilan ham ajralib turadi. Mana shu xususiyatlariga ko‘ra bu janrni ummonga qiyoslash mumkin. Badiyat olami esa kashfiyotlar manbayidir. Xususan, mustaqillik davrida ko‘plab ijodkorlar qissachilik janrida barkamol ijod qilmoqdalar: Sh.Bo‘tayev, M.Boboyev, X.Do‘stmuhammad, N.Norqobilov, Sh.Hamro, N.Eshonqul yaratgan asarlar kitobxonlar e‘tiborini jalb qildi. Chunki, bugungi adabiyot – alohida, ayni chog‘da turli-tuman shaxslarning tuyg‘ulari, qiyofalari aks etgan adabiyot sifatida qad rostlagan.

Mustaqillik davri o‘zbek qissalarida o‘zbekning o‘ziga xos tabiatini, ko‘nglidagi sezimlar va mayllarini aks ettirishga intilishning kuchayganligi ham kitobxon e‘tiboridan chetda qolmayapti. Bunday o‘ziga xoslik qahramon ruhiyati timsolida uning surati va siyrati orqali tasvirlanmoqda, bunday uslub tasvirning teranligini, badiiy nigohning o‘tkiriligini taqozo etmoqda.

Ayni shunday harakatning xayrli samaralaridan yozuvchi Shoyim Bo‘tayevning *“Kunbotardagi bog”*, *“Eski arava”*, *“Sho‘rodan qolgan odamlar”*, *“Bir kunlik mehmon”* qissalaridir.

*“Kunbotardagi bog”*¹ qissasida yozuvchi qaynarbuloq bag‘ridagi Yakkatepa qishlog‘i odamlari hayotini qalamga olgan. Soddalik, samimiyat, urf-odatlar va an‘analarga sodiqlik, insonparvarlik, g‘amxo‘rlik kabi xususiyatlar ularga xos. Ulg‘ay ena bilan Ruqiya bibining hayot tarzi, xatti-harakatlari, o‘y-kechinmalari ana shu muqaddas ezguliklar ruhiga evrilgan. Ruqiya kelinbibi sal narsaga duv-duv yosh to‘kaveradigan ko‘ngli bo‘sh ayol bo‘lsa, Ulg‘ay ena ne-ne hayot sinovlariga dosh berib, so‘ng qoyaga aylangan, bardoshli, mehrli inson. Ruqiya kelinbibiga Ulg‘ay ena uch-to‘rt hovli naridagi qo‘shni. Ammo ularni, Ruqiya bibining o‘g‘illari Elyor bilan Ilyosni mehr-muhabbat, oqibat rishtalari bog‘lab turadi. Ruqiyaning goh o‘zi, goh o‘g‘illari kampirning issiq-sovug‘idan xabar olib turishadi. Kampir esa yolg‘izgina o‘g‘li – shaharda rassomlikka o‘qiyotgan To‘xtasinini kutib yashaydi, eshikka termulib, uning qishloqqa, ona bag‘riga qaytishini intizorlik bilan kutadi. Ota-bobolaridan qolgan yolg‘iz yodgorlik – ana shu bog‘ni qo‘shqo‘llab yolg‘iziga tutqazsa, o‘g‘lining bolalari bog‘da yayrab o‘ssa, uni obod qilishsa... kampirning yagona orzusi shu.

Asarda Ruqiya bibining toshbag‘ir eri Safarov, Ulg‘ay enaning tezroq o‘lib, bog‘ini o‘ziniki qilib olish xayolidagi Nu‘mon qirtish, to‘g‘riso‘z, imonli Gulmurod bilan brigadir, manfaat yo‘lida har qanday ezgulik va halollikni bosib-yanchib o‘tadigan rais, Nosir cho‘tir, Hayit malla singari xilma-xil qiyofadagi insonlar obrazlari yaratilgan. Ular bir butun qishloq hayotini, shu zaminning dardu quvonchlarini aks ettirishga xizmat qilganlar. “Nu‘monjon, uzumlardan olib ketaver, o‘riklarni qoqib-terib ol. Manga indama. Bu bog‘da ko‘p yaxshi odamlarni ko‘rganman. Sharofat acha, Karim bobo, Xotam bobo, Kumush momo... Har biri bir olam edi, dunyoday keng edi. Endi ular tuproqni tabarruk qilib yotishibdi. Boqqa kelganimda esa ular tirilishadi, ko‘z oldimda paydo bo‘lishadi, men bilan suhbatlashib, dilimga madad berishadi...”¹ – deya Ulg‘ay ena necha marta aytdi.

Nu‘mon qirtish esa yuragini parmalayotgan narsadan qutilmadi, xayolida shu o‘y: “o‘zimga bo‘lsin, o‘zimga! Bog‘da o‘zimning uyim bo‘lsa, devor qursam, kimning bog‘i, deb so‘rashsa, Nu‘monniki, deyishsa...”

Ota-bobolarimizning kengligi, borini el-yurtniki deb bilishlari oqibatida odamlar o‘rtasida mehr-oqibat shu bog‘ kabi ildiz otib, qudratli kuchga aylangandir, balki bog‘ning mevalari orqali avlodlardan avlodlarga shu ezgu tuyg‘u ko‘chib o‘tgandir, rivoyatlar, hikmatlar inson bolasini ezgulik sari yetaklab borgandir? Asardagi Ulg‘ay enaning qabristonga salom berib kirib borishi, Toshmozor haqidagi rivoyatlarni eslashi kitobxonga ham hayajonli kechinmalarni yuqtiradi. Hamma tuproq – bir tuproq. Ammo qay ulug‘ his kichkina tepalikni yurtga aylantirgan? Qay ulug‘ tuyg‘u – odamlarning vijdon, imon, oqibat tomirlarini zaminga bog‘lagan?! Kitobxon Ulg‘ay ena timsolida ona yurtga mehr qo‘ygan, tomirlari ona zaminga chatishib ketgan ulug‘ ayni chog‘da oddiy va kamtarin insonlarni tasavvur qiladi.

¹ Бўтаев Ш. Кутботардаги бог. Қиссалар ва ҳикоялар. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997.

¹ Бўтаев Ш. Кутботардаги бог. Қиссалар ва ҳикоялар. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. - 40-бет.

Ulg'ay ena kabi bog' ham yaxshi odamga o'xshaydi, ming yilda dunyoga bir keladi. Daraxtlar odamlarning qolgan umrini yashaydi, shuning uchun daraxtlargayam, odamlargayam, ona zaminga ham mehr kerak! – deya bong urging keladi.

*Yozuvchining "Bir kunlik mehmon"*² qissasida ham tog' odamlarining hayoti tasvirlangan. Voqealar sobiq kursdoshlardan Saidning qishloqqa, Xolmo'min xonadoniga mehmon bo'lib borishi bilan boshlanadi. Qishloq hayoti, odamlari Saidning nigohi orqali kuzatiladi. Voqealarga eng birinchi Do'xtir bova kirib keladi. Qishloqda kimning uyiga mehmon kelsa, qo'ni-qo'shni, yoru birodarlarga xabar beriladi, bir necha soatdan keyin mehmon "qo'lma-qo'l" bo'lib ketadi. Do'xtir bova qishloqning aptekachisi. Mehmon kelganda qishloq ahli birinchi "kattalar"ga xabar beradi. Xolmo'min Do'xtir bovaga xabar berdirgach, ular uchovlashib, yalanglikda dam oladilar, "anovi"dan otishib, yayrashadi, kechga tomon mehmonni to'yga taklif qilishadi. To'y tasviri orqali yozuvchi urf-odatlariga munosabat masalasini yoritishga harakat qiladi. To'ydan keyingi urishish-do'pposlashuvlarda kuyovga ziyon yetmasin, deb uni tepaga, shoxsupaga o'tkazilgani, kelinni ehtiyotlab, chimildiqda saqlashgani, elning "kattalari": raisning muovini, brigadir, ombor mudiri va boshqalar o'tirgan xona tasviri, har bir shaxs qiyofasini chizib beruvchi tasvirlar mehmon nigohi orqali gavdalanitirilgan. Shahardan kelgan artistlarning ma'nisiz qo'shiqlarini pisand qilmay, el hurmatlagan hofizlarni qo'shiq aytishga chorlash, polvonlarning yengiltaklikni or bilib, sukut saqlashlari, Abdugalil tog'aning davrani sehrlagan ovozi tog' odamlari hayotidan bilinib-bilinmay uzoqlashayotgan an'analar, tabiiylik, beg'uborlik haqida o'ylatadi. Hofizlar ustidan pul sochilganda "zamonaviy artistlar" terib oladi, ular esa mag'rur yurib to'yxonadan uzoqlashadilar. Ana shu manzara tasviri haqiqiy iste'dodni Olloh in'om etishi, buni anglay olgan iste'dod sohibi esa o'z iste'dodi mevasini xalqiga hech bir manfaatni ko'zlamay tortiq etishi lozimligini o'z e'tiqodiga aylantiradi. Bunday imon egasi bo'lmaganlar esa hamma narsani pullaydilar. Said voqealarni kuzatar ekan, o'z ayblari yo nuqsonlarini bekitish uchun "niqob" topadilar, shu niqobni kiyib, haqiqiy basharalarini bema'ni, qimmatini yo'q matohday his qildi: necha yillardan beri bir bo'limda ishlaydi, erta ketadi, qosh qorayganda qaytadi. Xo'sh, undan, u umrini tikkan ishidan kimga nima naf tegayapti? Uning o'zi kim? Nega hech qachon ichiga, ichidagi to'lib yotgan hasratlariga quloq tutmadi? Odam – kar – qing'ir ishlarga ichida bo'layotgan g'alayonlarga quloq tutmaydi; odam – ko'r – ichidagi dahshatli manzaralarni hech vaqt ko'rolmaydi, odam – shol – o'z ichiga borolmay, keraksiz joylarda takabburona odimlab yuraveradi. So'pining uyiga o't ketdi. O't o'chiruvchi mashinalar yetib keldi, qishloq ahli ham qo'ldan kelgancha yordam berishga harakat qildi. Ammo so'pining bor xonumoni yonib kul bo'ldi. Aytishlaricha, u kelini bilan til biriktirib soddadil cho'ponga tuhmat qilgan va podadan o'margan; ikki mardikor yigitga tuhmat qilib, ularning haqqiga xiyonat qilgan, ular "uying kuysin", – deb qarg'aganlar. Eng qizig'i, qishloqning o'rtasidagi katta chinor avval qushlar uchun shahar bo'lgan ekan. Uch-to'rt yil odin ikki olahakka paydo bo'lib, tinmay qag'illabdi. Hammaning joniga teggach, bolalar roгатka bilan ikkalasini urib tushirishibdi. Kundan-kun negadir qushlarning sayrashlari ham kamaya boshlabdi. Bir kuni chinordan kattakon ilon sirg'alib tushayotganda odamlar ko'rib qolib, toshbo'ron qilib uni o'ldirishibdi. Olahakkalar ilondan xabar berishganini odamlar keyin anglab yetishibdi.

Insonlar aslida tabiatning bir bo'lagi, afsuski, buni doim ham yodda tutmaymiz. O'zligimizga, odamlarga qilgan xiyonatimiz, Ona yerga, Ona tabiatga ham xiyonatdir! Saidmurod shularni anglagan holda uyg'onadi, ketishga ishtiyoq sezadi, yo'lga o'tlanadi. U endi anglagan hayot yo'liga oshiqar edi.

"Bir kunlik mehmon" qissasi bizni hayot hodisalari zamiridagi haqiqatlarni idrok etishga yo'llaydi, o'zimiz uzoqlashayotgan tabiiylikka, ezgulikka qaytishga chorlaydi. Qissa voqealari ayrim o'rinlarda yaxlit kompozitsion butunlikni hosil qilmaganday tasavvur uyg'otadi, mast-alast holdagi Xolmo'min bilan Do'xtir bovaning jiddiy falsafiy fikr-mulohaza yuritishlari kishini ishontirmaydi, asosiy voqealarning muallif tilidan hikoya qilinishi esa bir qadar kitobxonni zeriktiradi.

² Бўтаев III. Ҳаёт. Қиссалар. Бир кунлик меҳмон . – Т.: Шарқ, 1997. – 445 б.

Yozuvchi SH.Bo'tayev "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida xalqimiz ongida mutelik psixologiyasini ildiz otirgan jamiyat va u yetishtirgan odamlar qiyofasini ruhiy tahlil usulidan foydalanib ochib bergan. Ayni shu usulda "Sho'rodan qolgan odamlar"¹ qissasidagi amaki qiyofasini jonlantirishga erishganki, natijada, kitobxon qahramonlarning o'ziga xos dunyosiga duch keladi. Asar voqealari davomida qondosh aka-ukalarning bir-biridan uzoqlashib, yotlashib ketishi oqibatida ular dunyosida sodir bo'lgan ma'naviy-ruhiy buzilishlar haqqoniy tasvirlangan. Yozuvchi ularni go'yo zimdan kuzatadi va barcha xatti-harakatlari, kechinmalarini tabiiyligicha ifodalaydi.

Qissa qahramonlarining nomlari ularning laqablari bilan aytiladi. Qissadagi Akaning ismi biror o'rinda tilga olinmaydi. Asarda Amaki, Nazoratchi, Go'rkov kabi qahramonlar ham bor-ki, ularning timsolida kitobxon yaqin o'tmish kishilarining qiyofasini ko'radi. Toshmurod alam achchig'ida hamda bemehrligi tufayli Amakining buzog'ini o'g'irlab qamaladi. Qishloq odamlarining bu voqeaga o'ziga xos munosabati orqali ularning ichki dunyosi eks ettirilgan: "Qo'ni-qo'shnilardan hech qaysisi o'g'rilardan negadir nafratlanishmas, qaytaga ularga ichlari achishib, oh-voh qilishar, ezilishar, go'yoki o'g'irlanganlar emas, o'g'irlatganlar aybdordek: go'yoki pashshadek narsani fildek qilib melisagacha ko'tarib borgan amakidan yozg'irishardi; chunki, amaki da'vosidan voz kechsa ham, melisalar voz kechmasligi oldida bir jondor xuni hech narsa emasligini aytishardi. Hech birining gunohi yo'q, deyishardi; hamma gunoh ularni o'g'irlikka majbur qilganlarda, deyishardi-yu, bu majbur qilganlar kim ekan, degan savolga jo'yali javob aytisholmasdi; hammasiniyam nazarida, u katta kuch ko'zga ko'rinmas, u qandaydir uzoqda, juda uzoqda bo'lib tuyular, u hammani ko'rib-bilib, hol-ahvolidan xabardor bo'lishi kerak holda hech kimni ko'rmayotganligi, hech kimning hol-ahvolidan xabar olmayotganligi odamlarni ajablantirardi, xolos".⁴ Bu keltirilgan parchadan soddadil qishloq odamlarining ruhiyatini his qilish mumkin. Qissada Nazoratchi obrazi g'oyat chuqur badiiy tahlil etilgan, chunki u sho'rodan qolgan odamlarning tipik vakili, manqurtga aylanayotgan notavon kimsa: "Mels nazoratchining ismi edi. O'z nomini eshitib u g'alati bo'lib ketdi. Bu nomni u o'ziga yigirma yoshida, askarlikda ekanligida tanlagan edi. Keyin qulog'iga azon aytib qo'yilgan ismini ana shu nom bilan alishtirib olmoqchi bo'lganini komandirlariga aytganida, ular bu shovvoz askarning topqirligiga; zamon bilan billa-billa nafas ola bilishiga qoyil qolishib, uni muborakbod etishgandi. Uni ana shu nom bilan atashib, shu nom bilan yangi hujjat olib berishgandi. Hujjatni polk komandirining shaxsan o'zi topshirgan, polkning barcha zobit askarlari oldida uni tabriklab, quchoqlab o'pgandi. Odamda sobit e'tiqod bo'lsa, yigirma yoshida ham ismini o'zgartira oladi, degandi. Keyin polk orkestri jo'rligida batalonlar, rotalar, vzvodlar shaxdam qadamlar bilan "Shiroka strana moya rodnaya..." degan qo'shiqni aytib o'tishgan, nazoratchining qalbi quvonchga, ko'zi yoshlarga to'lib polk komandirining qabatida turgandi"¹.

Bundan ko'rinadiki, Nazoratchining ongida sho'ro davrining zo'ravonlik, o'zgalarni mute qilish g'oyasi chuqur ildiz otgan. U ushbu ong bilan yashab kelayapti. Qamoqxona boshlig'i ham sho'ro davrining mustabid siyosatini zo'rlik bilan o'zgalarga singdirayotgan kimsa. U Toshmurod nazoratchining o'g'li ekanligini biladi, ammo unga zarracha achinmaydi, xatti-harakatlari bilan tosh qalbini oshkor etib qo'yadi:

"Ikkinchidan, – davom etdi boshliq hamon bosh barmog'ini bukib turarkan, – konvoyning aytganlaridan chiqilmasin, uning nazoratisiz hech qayerga borilmasin, pretenziya bildirilmasin, uning senga qarindosh, ya'ni ota ekanligi suiste'mol qilinmasin. Uchinchidan, – bosh barmog'ini qattiqroq bukib oldi, – aholi orasida uchragan odam bilan har xil mavzularda gaplashib ketilavermaydi. To'rtinchidan, – boshliqning bosh barmog'ini qiynalganidan qasirlab ketdi, – uch sutkadan biron soat ham kechikilmasin"².

Bu meshchanlashib ketgan bir ziyolinamo odamning qiyofasidir. Yozuvchi shu qiyofani ichdan va sirdan yoritib, bu tip odamlarning ma'naviy hayotimizga yetkazayotgan zararini ro'yi-rost ochib

¹ Бўтаев Ш. Қиссалар. – Т., 2000. – 314-бет.

⁴ Бўтаев Ш. Ҳаёт. Қиссалар. – Т.: Шарқ, 2000. 235-бет.

¹ Бўтаев Ш. Ҳаёт. Қиссалар. – Т.: Шарқ, 2000. 408-бет.

² Ўша асар. – 412-413-бетлар.

bergan. Qissadagi voqealar kechagina ko‘z oldimizda sodir bo‘lgan. Shuning uchun ham kitobxon asar qahramonlarining fojialari, kechmishlari, iztiroblarini chuqur his qiladi, tushunadi. Asar qahramonlari o‘zligini unutgan, kechagi kundan bexabar, g‘arib kimsalardir. Yozuvchi ana shu g‘ariblik mohiyatini yoritishga bor mahoratini safarbar etgan. Adabiyotshunos olim Abdug‘afur Rasulov bu haqda shunday deb yozgan edi: “Shoyim Bo‘tayevo sho‘ro odamlarini, kechagi kunni chuqurroq o‘rgana bordi, ruhiy-ma‘naviy tanazzul sirlarini aniqlashga intildi. Imon-e‘tiqod, fayz-tarovat, murod-maqсадlilik qalbi uyg‘oq, tavallud topgan ko‘ngillardagina bo‘lar ekan. Sho‘ro mafkurasi, siyosati insoniylikning jon tomiri – yaratganni tanigan, unga talpingan, undagina qo‘rqqan ko‘ngillarga tajovuz qildi. Masjido madrasalar buzib tashlandi, yaroqsiz holga keltirildi; imomu ulamolar, ahli ilm mahv etildi. Minglab qishloqlardan, Kentu shaharlardan imon ko‘tarilib, fayz keta boshladi. “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasida mana shunday qishloqlardan biri tasvirlangan”¹.

Darhaqiqat, yozuvchi tasvirlagan hayot haqiqati shuki, yetmish yildan ko‘proq hukm surgan sho‘ro mafkurasi vijdotsiz, imonsiz kishilarning ko‘payishiga xizmat qilganligini kitobxon chuqur his qiladi. Sh.Bo‘tayevo o‘z qissalarida kechagi kunimiz yetishtirgan bunday toshbag‘ir kishilarning qiyofasini mahorat bilan chizib bergan, ular tufayli ma‘naviy hayotimizga yetkazilgan talofotlar, ruhiy iztiroblar va falokatlarining sabablari-yu oqibatlarini epiklik talabiga ko‘ra keng ko‘lamda tadqiqu tahlil qilishga erishgan.

So‘nggi yillarda yaratilgan qissalarning ko‘pchiligiga timsollarning atay individuallashtirilmaganligi va tilning allegorik-kinoyaviyligi xosdir. Bu qissalarga xos umumiylik ularda yozuvchilar alohida inson qiyofasini chizishdan ko‘ra qiyofasiz ijtimoiy qatlam, “men”siz odamlarni tasvirlash asnosida ommaviy qiyofasizlik oqibatlarini yoritishga, ko‘pchilikning ma‘naviy tanazzulini davr fojiasi sifatida aks ettirganliklarida ko‘rinadi.

Erkin A‘zamning “Shoirning to‘yi” va “Chapaklar va chalpapaklar mamlakati” tarzida nomlangan ikki qissasiga nazar tashlasak. “Shoirning to‘yi”² qissasi qatag‘on qilingan buyuk shoir haqida bitilgan asar. Ammo unda aniq bir shoir ismi tilga olinmaydi. Qatag‘on qilingan va endilikda to‘yi o‘tkazilayotgan shoir – Otashqalb shoir, uning raqibi bo‘lgan shoir – Oqsoqol shoir. Ular yoshlikda talashishgan sohibjamol – Moviy ko‘z dilbar yoki Alvastixonim, Oqsoqol shoirning fatvosi bilan yuradigan olim – Ajoyib domla. Yuvindixo‘rlarning barchasiga rahnamo ayol – Mafkuraxonim. Yana Tepakal, Zahmatkash, Ma‘shuqaxonim, Fan arbobi, Jiyanbeka, Temiryo‘lchi, Yosh shoir, Musofir kabi obrazlar qissadan o‘rin olgan. Yozuvchi butun boshli bir millat, uning ziyolilari orasidan hech kimga ot qo‘ymaydi. Chunki ot “men”ni, o‘zlikni talab qiladi. Shoir aytmoqchi: “nom nomusga egadir”. Qissaning ko‘pchilik qahramonlariga esa aynan nomus degandan nishona yo‘q. Shaxslik yo‘qolgan, odam qulga, xalq olomonga aylangan joyda ot emas, sifat muhim bo‘lib qoladi. Shaxsligidan ayrilgan ot – odam o‘z hosilasi – sifatga aylanadi. Qissa o‘qilganda kitobxonda qiyofasidan ajralgan, otini yo‘qotgan, bir-birining yuziga qarab yolg‘on gapiradigan, talantli farzandlarini qobiliyatsizlarga qurbon qilib, ularga bo‘ysunadigan ommaga nafrat hissi paydo bo‘ladi.

Erkin A‘zamning mahorati shundaki, u tashqaridan qaraganda hammasi ham qiyofasiz bo‘lgan qahramonlarning har biriga xos jihatlarni g‘oyat ustalik bilan aks ettira olgan. Mana shu jihat ularning qiyofasiz qiyofasini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Chunonchi, Oqsoqol shoir qanchalar xudbin, olchoq bo‘lmasin qachondir iqtidorli bo‘lgani va qachonlardir yirik odam bo‘lganligi sabab o‘z ko‘nglida haqiqatni tan oladi. Uning davrdoshi bo‘lgan ajoyib domlada bunday tuyg‘u mutlaqo yo‘q. U – faqat manfaatni, har bir gapi, xatti-harakatidan foyda chiqarishnigina o‘ylaydigan, xijolat bo‘lishdan mahrum tuyg‘usiz bir kimsa. Otashqalb bilan birga o‘qiganmiz deb da‘vo qilgan, aslida, shoirning otini ham tuzukroq eslay olmaydigan fan arbobi – turli bahonada o‘zini ko‘z-ko‘z qilib, e‘tiborga tushish ilinjidagi foydaxo‘r kimsa. Mafkuraxonim o‘zi mutasaddi sanalgan sohalardagi muammolarni hal qilish bobida

¹ Расулов А. Таваллуд топаётган кўнгил муждалари. III. Бўтаевнинг “Хаёт” китобига ёзилган сўнгги сўз. – Т.: Шарқ, 2000. – 433-бет.

² Аъзам Э. Кечикаётган одам. Қиссалар. – Т.: Шарқ, 2002. – 311-бет.

mutlaqo avom bo'lsa-da, siyosiy manfaatni ilg'ash, haq gapni aytadiganlarning yo'lini to'sish borasida ustomon.

Muallif odamlarni emas, balki ularning yaxshi-yomon xatti-harakatlarini tasvirlash yo'li bilan ularning insoniy qiyofalarini namoyon eta olgan.

Fojia bilan kulgi omuxta bo'lib ketgan bu asarning o'qishligini, yuqumligini ta'minlagan asosiy omil roviyning tilidir. E.A'zam tilning tovlanish imkoniyatlarini g'oyat puxta biladi. Uni inson tabiatining eng yashirin, ichki jihatlarini ham ocha biladigan tarzda ishlatadi.

E.A'zamning "Chapaklar va chalpapaklar mamlakati" qissasi¹ kechagi kunimizni, o'shandagi sezimlarimizni taftish etishi jihatidan e'tiborga loyiqdir. Asarda Bo'riyo nomli afsonaviy mamlakatning afsonaviy bo'lmagan hayoti jurnalist Baxtiyor va ikki kishilik "delegatsiya rahbari" – Erkin obrazlari nigohi orqali aks ettirilgan.

Bo'riyoning dohiysi Xon Man Men, uning inisi va yordamchisi Xon Men Manning rahbarligida "nurafshon kelajak" sari dadil borayotgan tilsiz – zabonsiz xalq, uning ma'naviyatini parchalash bilan shug'ullanayotgan qudratli yolg'onchilik mashinasi – mafkura qissada juda esda qolarli qilib hajviy yo'sinda tasvirlangan. Asardagi hajviy yo'nalish qahramonlar tabiatidan emas, muallifning munosabat tarzidan kelib chiqadi-ki, bu xol tilimizning kulgi imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanish natijasidir.

Qissada Tovarish Yak, Mayda Xon, Xon Man Men, Xon Men Man Nikolay Fedorovich, Baxtiyor, Saida singari obrazlar aks ettirilgan bo'lsa-da, ularning birortasi individuallashtirilmagan. Chunki muallifning maqsadi yolg'on e'tiqodlar asosida yashagan mustabid mamlakat ahlida o'zlikning mahv etilib, qiyofasizlanish jarayonini butun murakkabligi va dahshati bilan tasvirlash edi. Aytish joizki, yozuvchi buning uddasidan chiqqan.

Demak, mustaqillik yillarida yaratilgan o'zbek qissalariga xos yetakchi tamoyillaridan yana biri bu an'anaviy realizm yo'nalishidan bir oz farq qiluvchi ijtimoiy hayot oqimining shaxs tabiati, ruhiyatiga ta'sirini badiiy tadqiq va tahlil qilishdagi yangicha yondashuv orqali namoyon bo'lmoqda. Yozuvchilar ijtimoiy hayot muammolari yoki ma'naviy-axloqiy yo maishiy hayotga oid muammolarni ko'tarib, ularning inson hayotiga, ruhiyatiga ta'sirini badiiy tadqiq etishdan ko'ra odamlar qismatining fojiaiy nuqtalarini tadqiq qilishga bor imkoniyatlarini safarbar etayotirlar va o'ziga xos badiiy kashfiyotlar yaratmoqdalar.

Hayot hodisalari va inson ruhiyatini xolis kuzatish, taftish etish orqali yozuvchilar davrimizning muhim jarayonlari mohiyatini yoritishga erishmoqdalar, yohud o'tmish davr – mustabid tuzum va uning mafkurasi yetkazgan fojialarni insonlar ongu tafakkuri hamda ruhdagi inqirozga, ziddiyatga bog'lab yoritmoqdalar. Demak, nasrimiz o'z taraqqiyotining yangi davrini davom ettirmoqda. Ma'rifatli jamiyatdagi inson haqidagi haqiqatni aytish, zamondoshimiz qiyofasining "konseptual inson"dan farqli qirralarini tasvirlash, yuksak milliy va umuminsoniy qadriyatlarini e'zozlashga da'vat ruhi mustaqillik davri o'zbek qissalariga xos muhim estetik xususiyatdir. Tanqidchi Abdulla Ulug'ov o'zining "Dardmand dil iltijolari" maqolasida: "Ruhimizning hech bir qonun, farmoyishlarga sig'ishmaydigan quvonch, qayg'udek turfa bisotlari bisyor. Endilikda esa iste'dodli ijodkorlarimiz ana shu izohsiz olam ranglarini chizishga intilishmoqda. Ular murodlantirayotgan manzaralarda insonning har lahzada ming bir qiyofa kasb etadigan bezovta ichki olami namoyon bo'lyapti", – deb yozganida biz tilga olgan tamoyil haqida so'z yuritgan edi.¹

To'g'ri, *O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev, Hayriddin Sultonov, Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Omon Muxtor kabi o'z iste'dodini an'anaviy realizm uslubida namoyon etgan adiblar o'zbek nasrida talaygina*. Ayni paytda, aynan shu ijodkorlar yaratgan qahramonlar qismati, shaxsiyati, ruhiyati tasviri-yu tahlilida ko'plab ramziy ishoralar, kinoya-kesatiqlar, ba'zan yumor yo satira unsurlaridan foydalanish kabi xususiyatlar ko'zga tashlanadiki, bu kitobxonni o'yga toldiradi, manzaralar tasviriga singdirilgan rang-barang ma'nolar mag'zini chaqishga undaydi. Xususan, yosh qalamkash *Said Anvarning "Uch kun xo'roz bo'lganim"* nomli qissasi adabiyotimizdagi

¹ Аъзам Э. Пакананинг ошиқ кўнгли. Қисса ва ҳикоялар. – Т.: Маънавият, 2001. - 108-бет.

¹ Улугов А. Дардман дил илтижолари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1993. - 26 февр.

mashhur yumoristik personajlarni yodga tushiradi. Muhiddinning shumligi orqasida bemahal qichqirgan xo‘roz tovushi tufayli qishloqda yuz bergan qiziq hangomalar, soddadil qishloq odamlarining bemahal uyg‘onib, kundalik mashg‘ulotlarini boshlab yuborishlari natijasida noqulay – kulgili ahvolga tushib qolishlari; ikki beva qariya: Razzoq buva bilan Rohila xola o‘rtasidagi munosabatlar, Muhiddinning ular orasida “pochtachilik” qilishi kabi xodisalar yumoristik lavhalarda chizilgan. Bunday o‘rinlar kitobxonda zavq-shavq, kulgu uyg‘otadi.

Voqealar Muhiddin tilidan kulgili tarzda, sho‘x-shodon hikoya qilinadi. Kulgu orqali qahramon o‘z-o‘zini va o‘zgalarni “fosh qiladi”. Bu asar haqida adabiyotshunos olim va tanqidchi U.Normatov quyidagi asosli fikrlarni bildirgan edilar: “Muhiddin ichak uzdi kulgilar orqali faqat o‘zgalarni emas, o‘zini ham “fosh etish”dan tap tortmagan, o‘z ojizliklari, shumliklari, goho qaltis “gunohlari” qanchalar qimmatga tushganligini tortinmay aytadi, ifodalaydi. Bu narsa asarga yanada o‘zgacha fayz, ilqlik, samimiyat bahsh etadi... Birgina istak shuki, san’atda, adabiyotda noyob soha-hajvchilik boshida turgan, kulgi tili bilan so‘zlash iste’dodini ilk asaridayoq ko‘z-ko‘z qila olgan bu ukamiz bundan buyon hajviy xarakterlarning ko‘lamdorligi, mazmunning teranligi, ilmiy ibora bilan aytadigan bo‘lsak, qahramonlarning konseptualligi ustida bosh qotirsa, shunda u hajviy nasrimizni yangi bosqichga ko‘tara oladigan asarlar yarata olishga shubha yo‘q...”².

Demak, o‘zbek nasrining qissachilik janri ham mazmun ham shakl jihatdan izlanish, yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda, yangi badiiy kashfiyotlar yaratilishiga imkon bermoqda. Bor gap ijodkorlar mahoratida, so‘z san’atining sehrli qudratini ishga sola bilishlarida: millat dardi, o‘y-xayollari, orzu-tilaklari, iztirobu quvonchlarini, kurashchan ruhini, go‘zal hislatlarini namoyon etuvchi badiiy baquvvat asarlar yarata olishlarida! Bu tamoyil shubhasiz, mustaqillik davri o‘zbek qissachiligining yetakchi tamoyili bo‘lib qoladi.

Bugungi kun qissalari qahramoni o‘z-o‘zini taftish etib, o‘z borlig‘ini rang-barang jihatlaridan namoyon qilmoqda. Hayotning o‘ta chigal jumboqlariga o‘zgacha munosabat bildirish, ilohiy-falsafiy haqiqatlarga qaytish, “muhabbatsiz”, “tutqun” turmushga ko‘nikish, o‘z manfaatlaridan yuksakroq insoniy burch hamda mas’uliyat oldida, aziz rishtalar qarshisida, binobarin o‘zi ishongan ezgulik, poklik, samimiy tuyg‘ularga bosh egish; hayot hamisha chigalliklari, ziddiyatlari, kam-ko‘stlari, kemptiklari bilan hayot ekanini tan olish – yangicha yechimning yuzaga kelishi o‘zbek qissalaridan insonga yangicha yondashuv tamoyili o‘rin egallaganligini anglatadi.

Yozuvchi Nazar Eshonqulning “Momoqo‘shiq” qissasi qahramoni Muazzam kitobxonda aynan shunday tasavvur uyg‘otadi. Qishloqqa paxta terimi xashariga kelgan bir guruh “san’at ahli” daraxtzorlar oralab aylanib yurib, qamish chayla qarshisidan chiqib qolishadi. “Chayla bilan daraxtzor oralig‘i yigirma qadam ham chiqmas, supada ularga orqa o‘girib, so‘ta sitgancha qandaydir qiz qo‘shiq aytardi. Qizning ovozi tiniq, xatto juda tiniq, ta’sirchan, shirali va maroqli edi. U qo‘shiqning eng yuqori pardasini ham qiynalmay, zo‘rlanmay, tabiiy va samimiy kuylardi... Bu juda go‘zal manzara edi, buni faqat usta rassomlarning suratlaridagina ko‘rish mumkin, biroq eng zo‘r musavvir ham uning qo‘shig‘iga bo‘yoq topolmagan bo‘lardi. Qizning ovozida bani dunyo o‘zaro uyg‘unlashib jaranglar, go‘yo xayol ham, go‘zallik ham, orzu ham qizning qiyofasiga kirib qo‘shiq aytardi. Qo‘shiqni tinglayotgan odam bahorni, yasharish faslini, sollanib turgan gullarni, shabadadan to‘kilay-to‘kilay deyayotgan qizg‘aldoq bargidagi shudringni, tuman qoplab olgan bog‘ni, varrak uchirayotgan bolalarni, yuksak-yuksaklarda parvoz qilayotgan, jilvalanayotgan bolalik xayolini ko‘z oldiga keltirish mumkin edi. Bolalik kabi go‘zal, tiniq va orzumand bu ovoz quyoshning issiq taftidek o‘z ohangi bilan odamni eritib yuborar, ko‘ngilga yoqimli shabadaday esib kirardi...”¹.

Ana shu tuyg‘ularni his qilgan Shamsi Saloh tund, biroz oliftaroq, jimjima narsaga o‘ch, biroz kibirliroq, hamma narsaning go‘zal bo‘lishini istovchi va hamisha shunga intiluvchi, hashamli va jilvali

² Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: Маънавият, 2000. - 50-51-бетлар.

¹ Эшонкул Н. Уфқ ортидаги кўёш . Қиссалар. “Момоқўшиқ” / Тўплам. . – Т., 1994. - 29-30-бетлар.

narsalarni sevuvchi, har bir manzaraning nihoyatda zebo tomonlarini ko'ra oluvchi, nafis tashbehlar ustasi farang, yashashi va kiyinishida ham o'ta ziyolilik barq urib turuvchi kishi edi; u hayotga ham, tevarak-atrofga ham mana shu ziyolilik "ko'zoynagi" bilan qarardi. U Muazzamni uch kundan so'ng o'sha qamish chayla oldida uchratdi. Yozuvchi Muazzam bilan kitobxonni quyidagicha tanishtiradi: "...u endigina yigirma birga kirgan, muallimlar bilim yurtini tugatgan, lekin orada bola bo'lib qolgani va Otaqulni sovxozning chekkasiga brigadir qilib tayinlanganliklari uchun ishga o'rnasha olmagan, mana ikki yildan beri olti-yetti oyi shu yerda, ko'rimsiz chaylada o'tar edi. U bir oz mustarlikka moyil, ta'sirchan, ancha ziyrak kelinchak edi. Otaqul haftalab uyga bormay, shiyponda yotib qolavergach, issiq-sovug'idan xabar olib turish uchun u maktabda dars berish istagini ham tashlab, mana shu chaylaga ko'chib kelgan edi. Bu yil bolasi uch yashar bo'lib qolgani tufayli uni qishloqqa, qaynonasining qo'liga tashlab kelgan, o'zi esa eri bilan besh oydan beri dalada edi. Xo'sh, u haqda yana nima deyish mumkin, darvoqe, u rostdan ham juda suluv edi"². Muazzamning suluvligini qayta-qayta ta'kidlagan yozuvchi "u suluv juvonlarga ato etadigan barcha fazilatga ega edi – o'ta sodda va ko'ngli bo'sh edi, vujudidan qishloq kesagining isi kelib turardi", – deya ta'rifu tavsifni tugatgan. Ammo "vujudidan qishloq kesagining isi kelib turishi" muallifning suluv juvon haqidagi avvalgi nozik ta'riflarini bir qadar dag'allashtirmaydimi? Agar chuqurroq fikr qilinsa, bu o'rinda yozuvchi ayolning suluvligi ustiga undan ona zamin isi kelib turishi yanada yoqimli, tarovatli kayfiyat uyg'otishini, bil'aks, suluvlik mohiyatini ham ayolning ayni ona zamin isi-yu ranglariga mos tabiiy go'zalligi tashkil etishini ta'kidlash maqsadida qo'llaganligiga amin bo'lamiz. Afsuski, cho'kayotgan tun, qizargan shafaq, churalay aytib, sigir sog'ayotgan suluv ayol, dala uzra yugurib yurgan kuzgi shabada... bular hammasi naqadar uyg'un, naqadar go'zal va betakror ediki, Shamsi Saloh bularning bariga yot, begona odam edi. Shu bois Momo qo'shiq ham, bu manzara, atrofdagi tabiiy go'zallik – bari uniki emas edi, uning tasavvuriga zid o'ta jo'n va sodda, ayni chog'da go'zal edi! Shamsi Saloh uni hayratga solgan go'zallik ana shu jo'nlik, soddalik, samimiylikka uyg'un ekanini idrok eta olmaydi. Muazzam uning nazarida boshqa dunyo va boshqa hayot uchun tug'ilganday edi. Chaylada hamma narsa betartib sochilib yotar, u odam yashaydigan joydan ko'ra ko'proq tovuq katagiga o'xshardi, bu yerda hamma narsa qo'pol, ko'rimsiz, hunuk edi. U mana shu qora turmushning baxtsiz asoratini izlab Muazzamning ko'zlariga tikildi, biroq bu ko'zlar Shamsi Salohga noma'lum bo'lgan baxtdan yayrab turar, o'zidan baxtsizlik izlayotgan sovuq ko'zlarga yal-yal yashnab boqardi. Shamsi Saloh qanchalik urinmasin, bu ko'zlarning sirlarini anglay olmadi, bu juvon nigohlari ortidagi baxtsizlik alomatlarining asl sabablarini idrok eta olmadi. "U o'z baxtsizligini odamlardan ustalik bilan yashirishga urinyapti", – deb o'yladi. "Ha, u baxtsiz, ammo unga bu og'ir va zahmatli sharoitdan qutilib, o'z baxtini topish yo'lini ko'rsatish kerak", – deb o'yladi va Muazzamni shaharga olib ketish rejalarini tuzdi. Go'yo bu ayolning chinakam baxtga erishishida Shamsi Saloh kabi tushungan, qo'li uzun, san'atni, iste'dodni qadriga yetadigan homiy zarurday.

Bugun inson ongi-shuuri o'zgardi. Uning dunyoqarashi, mushohadasi, hayot tarzi ham yangilandi. Bu jarayon adabiyotda ham o'ziga xos ko'rinish oldi. Badiiy tafakkurda yuz berayotgan o'zgarishlar hikoya tarziga mutlaqo yangi islohlarni kiritdi. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanish imkonini ko'paytdi. Natijada, batafsil tasvir, bayon hajmining ortishi kuzatildi. Hikoya sujeti va to'qimasini voqea-hodisalar emas, balki badiiy timsollar, ramzlar, tashbehlar tashkil eta boshladi. Muayyan ohang, ritmlar uyg'unligi vositasi bilan kayfiyat uyg'otuvchi – musiqa asarlariga monand asarlar yaratila boshlangani o'zbek realistlik nasri binobarin, o'zbek qissachiligi uchun yangi hodisadir. Bunday izlanishlar o'zbek qissachiligi badiiy tafakkurining yuzaga kelishi, shakllanishida ayni jahon adabiyoti ilg'or namunalari bilan ta'siri beqiyosligidan darak beradi.

Demak, o'zbek qissachiligi o'ziga xos uslublar orqali rivojlanmoqda, bu o'zbek nasrining umumbashariy badiiy tafakkur simfoniyasiga qo'shila oladigan milliy va umuminsoniy ohanglarga egaligidan dalolat beradi. Ayni chog'da, o'zbek yozuvchilarining modern adabiyoti an'alaridan foydalanishlari orqali o'zbek milliy badiiy tafakkuri imkoniyatlari hisobiga jahon adabiyoti ham boyib borayotganligini ko'rsatadi. Aniqrog'i, Sharq va G'arbning uyg'un jihatlarini adabiyotda ham estetik uyg'unlik kashf etilishiga asos bo'ldi. Milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligidan

yuzaga kelgan o'zbek qissalariga xos epik tafakkur tarzi esa yangi hayotiy qahramonlarning badiiy kashf etilishiga ta'sir ko'rsatdi. Ayni shu xususiyat qissachilikka xos yetakchi taraqqiyot tendensiyasiga aylandi. Badiiyat ehtirosli fikrdan tug'iladi, ijodkor esa o'z tasavvuridagi go'zallikni badiiy kashf etadi – yaratadi.

Yozuvchi Shodiqul Hamroning “Qora kun”, “Qaqnus qanotidagi umr” qissalarini ham mustaqillik davri o'zbek nasrida yaratilgan yaxshi asarlar sirasiga kiritish mumkin. Mazkur qissalar ham o'zbek adabiyotiga saksoninchi yillarning ikkinchi yarmidan kirib kela boshlagan ramziy-tahayyuliy tasvir uslubiga mansub. Bugungi kunda Shodiqul Hamro ham Nazar Eshonqul, Olim Otaxon, Xurshid Do'stmuhammad kabi bir qator yozuvchilarimiz safida turib ushbu oqimning talab va mezonlaridan kelib chiqqan holda asarlar bitmoqda. Shodiqul Hamroning “Qora kun” qissasida ko'proq bugungi Lotin Amerikasi adabiyoti an'analarining ta'siri sezilib turadi. Hatto, asarning ba'zi o'rinlari Nobel mukofoti sovrindori G.G.Markesning “Yolg'izlikning yuz yili” asarini eslatadi. Shodiqul Hamroning bu qissasidagi voqealar tasviri reallikdan yiroq. Asar sujeti taxayyuliy voqealar ustiga qurilgan. Asarning g'oyasi ham ganj kabi yashirin. Bu qissada ham ko'p ma'nolilik nuqtasi kuchli. Shuni nazarda tutgan holda, uning quyidagi tahlili ham nisbiydir. Zero, polifonik asardan nimadir olish, uni tushunish o'quvchining quvvati hofizasiga bog'liq.

Qissada voqealar tizimining uch silsilasi mavjud. Birinchisi, bir yil avvalgi qahraton va ocharchilik. Ikkinchisi, tobutning yo'qolishi bilan bog'liq voqealar. Uchinchisi, jinni qizning hayoti. Har uchala chiziq bir-birini yoritadi, to'ldiradi. Ular alohida-alohida holda o'z ma'nosiga ega bo'lgandek, umumlashgan holda ham o'zgacha bir ma'no kasb etadi. Asosiy sujet chizig'i tobutning yo'qolishi bilan bog'liq voqealar tizimidan tashkil topgan. Chekka tog' qishloqlarining birida tobut yo'qoladi. Bu qishloq dunyodan uzilib qolgandek chekkada va dunyodan deyarli bexabar edi. Qishloqda hech qanday g'ayrioddiy hodisalar bo'lmagan hisob. Faqat, ancha oldin o'z-o'zidan o't chiqib tegirmon yonib ketgan va yana o'sha yo'qolgan tobut turgan masjidning yetti ustunidan biri o'z-o'zidan qulab tushgan. Endi esa tobut yo'qoldi. Tobutning yo'qolishi butun qishloqni sarosimaga solib qo'ydi. Hamma tobutni kimdir o'g'irlab ketgan deb o'ylaydi. Biroq: “Shu kun qishloq har doimgidek tinch va osuda edi. Odatdan tashqari, ko'ngilga shubha va g'ulg'ula soladigan biron voqea sodir bo'lmagan, chetdan ham qandaydir notanish kishilar kelib ketganiga hech kimning ko'zi tushmagan edi”¹.

Xo'sh, yozuvchi bu voqealarni keltirish bilan nima demoqchi? Keling, bu savolga javob berish uchun ramzlarning tagida qanday ma'nolar yashirin ekanligini bilib olishga harakat qilamiz. Tegirmon – bu un chiqaradigan, ya'ni nafs ehtiyojlarini qondiradigan vosita, uning yonib ketishi nimani ifodalaydi? Shu o'rinda xalqimizning “nafsingga o't tushgur” va “nafsingga o't ketganmi?” kabi iboralarini eslash lozim. Nafsga o't ketishi, nafsning Hakalak otishi – nafsni jilovlay olmaslik demakdir. Yuqoridagi xalq iboralaridan aynan shu ma'no anglashiniladi. Demak-ki, qishloqning odamlari “nafsiga o't ketgan”. Ikkinchi ramz bevosita bu ramzni to'ldiradi, ya'ni masjid Ollohning uyi, ko'ngil ham Ollohning uyi. Masjid ustunining yiqilishi ko'ngildagi imonning qulashi. Zero, ko'ngil imoratining ustuni – iymon va e'tiqoddir. Yuqoridagi ikkala ramz yechimi topilganidan so'ng uchinchi ramz o'z-o'zidan yechiladi. Nafsga hirs qo'yish imonning sustlashishiga olib keladi, oqibatda, oxirat kuyib kul bo'ladi. Tobut bu oxirat timsolidir. Qissadagi keyingi voqealar tizimi go'yoki, bu haqiqatlarni izohlaydi. Tobut yo'qolishidan oldingi yil qishda juda qattiq qahraton bo'lib, ocharchilik hukm surgan edi. Odamlar ochlikdan harom va halolning farqiga bormay qo'yishadi. Sartaroshning o'lgan eshagi bilan bog'liq hodisalar bu fikrni to'ldiradi. Qolaversa, ikki o'smir va ularning o'limi, dafn etilishi ham qishloq odamlarining ahvol-ruhiyatidan darak berar edi. Nafsga hirs qo'yishning yana bir misoli somsachi timsolida berilgan. Qahraton qishdagi ocharchilikda odamlar majburan o'laksa yeyishgan bo'lsa, somsachi nafs uchun boylik orttirish maqsadida kishilarga o'laksadan somsa pishirib beradi. Odamlar esa o'laksaning go'shtini maqtab-maqtab yeyishadi.

Qissada nafsning hakalak otib, imonning sustlashuvi, jinni qiz va uning tog'asi o'rtasidagi munosabat tasviri orqali yoritilgan. O'zbeklarda, umuman, musulmonchilikda qiz bola faqatgina tog'aga mahram hisoblanadi. Qiz bola tug'ishgan akasiga va hatto otasiga ham nomahramdir. Shuning uchun xalqimiz: "Bir tog'a – yetti otadan ulug'", – deyishadi. Qissada tog'a o'zining jiyanini zo'rlaydi. Qishloq hayoti kundan-kun g'ayriinsoniy harakatlar bilan to'lib boradi. Juvozchi yog' sotishda qalloblik qiladi, tobutkash tobut yasashni obro' deb biladi. Bolalarning harakatlari esa hammasidan o'tib tushadi. Ular Oqtepa deb nomlangan tepalikka chiqib hamma qushlarning tuxumlarini yig'ib olishadi. So'ngra qushlarni o'z tuxumlari bilan urishadi. Oqibatda qushlar bu qishloqni tark etadilar.

Qishloqdagilar yangitdan tobut yasashadi. Biroq bu tobut o'lik solingach, parcha-parcha bo'lib ketadi. Uni kim parchalaganligi esa sirligicha qolaveradi. Bu voqealarni qishloqdagi folbin xotin sezgan edi. U hammasini avvaldan aytib beradi. Ofat somsapazning to'yidan so'ng boshlanadi. Somsapazning to'yi ommaning poklikdan yuz o'girishi edi. Biroq, Shodiqul Hamro qissaning ana shu nuqtasini, nazarimizda, ko'ngildagidek yarata olmagan. Go'rkovni bosib qolgan tuproqning kitobga aylanishi va bu kitobda qishloqning butun tarixi va kelajagi ayon bo'lishi "Yolg'izlikning yuz yili" da qo'llangan uslub. U asarda ham Makonda shahri va Buendialar avlodi tarixi shu tahlid ma'lum qilinadi. Qolaversa, *Shodiqul Hamro "Qora kun"ning ilk satrlaridanoq o'quvchini fikrlatadi, ammo ayni kulminatsion nuqtada fikrning jadallashuvi yo'qolgan. Qissadagi jinni qiz bilan bog'liq voqealar ta'sirchan yoritilgan. Shodiqul Hamro jinni qiz orqali qishloqning fojiasini ko'rsatib bergan.* Qishloqda yolg'iz jinni qizgina e'tiqodi va ruhiyatini pok saqlay olgan. U bunga sof insoniy muhabbat orqali erishgan. Jinni qiz cheksiz mehr va muhabbat bilan yashardi. Qishloqning bolalari odam suyaklarini xor qilishganda, odamzodning bosh chanog'ini yoqishganda, jinni qiz o'z sigirining to'lg'oq azoblariga qarab iztirobga tushadi, hattoki o'zining nomusini poymol qilgan kishiga muhabbat qo'yadi. Hamma qishloqni tashlab ketganda ham jinni qiz qishloqda qoladi. Chunki ofatga qishloqning hech qanday aloqasi yo'q edi. Hamma balo odamlarning o'zida, ularning qalblarida yashiringan tubanlikda edi. Qissa oxirida hamma qishloqni tark etadi. Birinchi bo'lib mulla, murdasha'y va folbin ketadi. Bunda ham o'ziga xos ma'no yashiringan bo'lib, mulla – e'tiqod va imon, murdasha'y – poklik, folbin – aql timsolidir. Ular qishloqni tunda tark etishadi. Qissa nihoyasidagi oqsoqol va xotinining holati ham ta'sirchan manzaralarda tasvirlangan. Qishloqni hammadan keyin oqsoqol tark etadi. Oqsoqol qishloqdagi eng yaxshi kishilardan biri. Tobutning yo'qolishi bejiz emasligi, bunda qandaydir ilohiy bir hislat borligini birinchi bo'lib oqsoqol tahmin qiladi. Qolaversa, tobutning yo'qolganini ham birinchi bo'lib u sezadi. "Ammo oqsoqol bu gal unga (xotiniga) lom-mim deb javob bermadi, zero, uning o'zi ham qayoqni qora tortib borishini bilmasdi. U chuqur xo'rsinib qo'ydi-da, boshini ham qilib kunchiqar tomonga qarab imillab yo'lga tushdi. Xotini ham chor-nochor uning izidan yurdi".¹ Shodiqul Hamroning "Qora kun" qissasi qator fazilatlar bilan kitobxonlar e'tiboriga tushdi, ayni chog'da asarning kamchiliklari haqida ham fikrlar bildirildi. Masalan, qissada sujet qurilishi aytarlicha muvaffaqiyatli chiqmagan. Aniqrog'i, qahraton qishdagi ocharchilik voqeasi asosiy voqea bilan yetarlicha bog'lanmagan. Natijada bu qusur asarning ravon o'qilishiga halaqit beradi. Qolaversa, qissa bu o'rinda ham "Yolg'izlikning yuz yili"ni yodga soladi. Shuningdek, asarning ba'zi o'rinlarida ramzlar yetarlicha badiiy sayqal topmagan.

Bugunning qissalari rang-barang uslubiy izlanishlar natijasida epik ko'lam miqyoslarini kengaytirib, o'zbek nasri taraqqiyotini ta'minlamoqda. Mustaqillik davrida yaratilgan qissalar ijtimoiy voqelikni tasdiqlash yoki inkor qilish emas, uni bor ziddiyatlari bilan haqqoniy tasvirlash tendensiyasi o'zbek nasrida barqaror ijodiy tamoyilga aylanganligini ko'rsatmoqda.

Qaysiki asarda insoniy kechinmalar jarayoni iztiroblari, mazmun-mohiyati, o'zining falsafiy talqinini topsa, voqealar tarixdan chekinilmaydi. Yoritilsa, o'sha asar har qanday jamiyat o'zgarishlarida ham umrini tugatmay yashab qoladi. Hayriddin Sultonovning "Saodat sohili" qissasi ana shunday fazilatga egaligi bilan kitobxon qalbini zabt etadi, va ma'naviy olamini boyitish orqali o'z xayot yo'lini to'g'ri belgilashga imkon tug'diradi. Bu narsa esa o'z navbatida, jamiyatning insoniylashuviga, demokratiyaning yanada kuchayishiga ko'mak beradi va asos ham bo'ladi. Chunki

¹ Ҳамро Ш. Қора кун. Қисса // Ёшлик. – 1995. – 5-сон.

xalqi komil bo'lgan jamiyatdagina adolat va inson manfaatlariga yo'naltirilgan qonun hukm suradi. Demak, asar inson kelajagi uchun xizmat qiladi.

Qissa Bobur Mirzo umrining so'nggi kunlari voqeasiga bag'ishlangan. Asarda voqelik emas, insoniy kechinmalar, ya'ni insonning o'zi bosib o'tgan hayot yo'lini fikr elagidan o'tkazganda yuzaga keladigan iztirob, armon yetakchilik qiladi. Bu xolatlarda Toshkentdan Bobur kutubxonasidagi nodir kitoblar bilan tanishish istagida kelgan tarixchi olim Hofiz Kuykiy bilan bo'lgan muloqotda o'z ifodasini topadi. Bu muloqotda bildirilgan fikrlar Bobur Mirzoning qalbiga tinchlik bermay kelayotgan iztiroblarining mohiyatini, ruhiy dunyosini inkishof qilish bilan birga, juda katta ma'rifiy kuch ham kasb etadi.

Kuykiy Bobur Mirzoning oldiga dastlab kirganda va uning "Ona yurtidan ko'p salom keltirdim, yurtimizning tabarruk yodi xotiralaridan ko'tarilmagan bo'lsa", – degan so'ziga u shunday javob beradi: "Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutgay? – deydi Bobur ohista. Ovozi titrar edi. Unutgan kishining ko'zlariga tiriklayin tuproq to'lmasmu?" Bunday so'zni Vatan sog'inchi bir daqiqa ham qalbini tark etmaganki ayta oladi. Ularning o'zaro suhbatlari asnosida Bobur Mirzo shoir, davlat arbobi bo'lish bilan birga, zukko tarixchi va faylasuf olim, kamtarin insonligi bo'y ko'rsatadi.

Bobur Mirzo keyingi paytda tushida ko'p dengiz ko'rishini, "Na dengizning poyoni bor, na yo'limning, vahm ichra qaro terga botib tentib yuramen..," munjimplardan so'rasam, "ul kanora, inshoolloh, saodat soxili bo'lur deydi, u qayerda o'zi", – deganda, Kuykiy beixtiyor "Saodat soxili – Vatanda, olampanoh", – deydi. Bu javobdan Boburning ko'zlari yalt etib, katta ochilib ketadi, chunki Kuykiy uning dilidagini tiliga chiqargan edi. Uning ichki iztiroblarining mohiyati ana shundadir.

Erkin A'zamovning "Javob" qissasida ham inson ma'naviyati masalasi hayot xodisalariga o'ziga xos yondashish orkani ochib berish tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Unda hayotdan o'z o'rnini topish va maqsadga erishish uchun kurashish va intilish kerak degan g'oya ilgari suriladi. Qissa qahramoni Elchiyev – shahar idoralaridan birida iqtisodchi bo'lib ishlaydi. U kamtar odam. Oilasida, ishxonasida hurmat qilishadi, ishonishadi. Elchiyevning institutni tugatgan qizi harbiy xizmatdan kelib, oliy o'quv yurtida o'qiyotgan o'g'li bor. U sevib uylangan, Oilasida hech bir kamchilik, yetishmovchilik yo'q, Ro'zg'ori oddiy. Lekin shu odam bir xodisa sabab bo'lib o'zgarib qoladi. O'zining joniga qasd qiladi. Ammo bu uni bezorilar kaltaklagani-yu, kasalxonada yotib chiqqani va shundan keyingi g'alvali mojarolar tufayli emas, balki o'zining "turish-turmushini, atrofidagi odamlarning unga munosabatini chuqurroq o'ylab ko'rganidandir. O'zidan, yashash tarzidan noroziligi oqibati shunday kamsuqum, beozor xalol odamni o'zgartiradi. U o'ziga qarshi o'zi isyon qiladi. Ana shu o'zgarishning ildizini ochish qissaning mohiyatini tashkil qiladi". Bu borada yozuvchi shunday yozadi: "Elchiyev bu hisobda alam-nadomat bilan shunga amin bo'ladiki, qashshoq, zavqdan bebahra yashadi. Jo'ngina ro'zguzorlik! Oddiy qumursqacha tirikchilik g'ami! Kunim o'tib turibdi-ku, qornim to'q, ustim but-ku, deb yuraveribdi-ko'ngil to'qligini o'ylab ham ko'rmabdi. Axir odam kun sanamoq uchun keladimi bu dunyoga? Essiz umr! Bunday g'aribgina g'imirsib kun kechirgandan kechirmagan afzal!

Yana shunga iqrar bo'ldiki, hayotdan qo'rqib yashaydi... Avvaliga xotinini, topgan baxtini o'ylab qo'rqibdi, keyin bola-chaqasini o'ylab qo'rqibdi, kattaroq, bir ishga bel bog'lagani jur'ati yetmabdi, ikkilanibdi, hadiksirabdi. Boriga shukur qilib, qanoat qilib yashayveribdi, intilmabdi". Elchiyev o'z-o'zi bilan kurashlardan, uzoq qiynalishlaridan so'ng shu falsafani tushunib yetadi.

Birinchidan, asarda voqelik emas, inson qismati, taqdiri, uning dard va alami tasviri yetakchilik qilishi; ikkinchidan, insonning ruhiy olami tuyg'usi, tortgan iztirobi, dunyoqarashi samimiylik va katta insoniy dard bilan inkishof qilinishi; uchinchidan, insonga sinfiy yondoshishdan xoli inson sifatida qarashi bor nuqson hamda fazilatlarini ila tasvirlanishi; to'rtinchidan, asar mohiyati tarixiy nuqtayi nazardan to'g'ri yoritilishida ko'rinadi.

Qissa voqealari uchta yetakchi qahramon faoliyati, qismati asosiga qurilgan. Bular milliy-ozodlik kurashchilarining rahbarlari – Asqaralibek, Shomirzabek va qizillar yo‘lini tutgan mulla Jaloliddin. Bu uch obraz faoliyati va ular bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar xatti-harakati uch olamni tashkil qiladi. Lekin shunga qaramay bu olamlar yaxlitlikka ega. Qissa voqeasi Asqaralibekni hiyonati tufayli qo‘lga olinib, to‘laga tashlanganidan boshlanadi. Asar sujeti esa Asqaralibek xotirasi asosiga qurilgan, Xotira quruq bayon qilinmaydi, balki tasvirlanadi. Tasvir voqealari esa Asqaralibekning ruhiy dunyosini inkishof qilishga, qismati va fojiasining mohiyatini ochishga yo‘naltirilgan. Oqibatda sujet rivojida Asqaralibek kishi ko‘z oldida ulug‘lashib boradi. Chunki uning o‘z xatti-harakati va hayotiy xodisalar hamda jarayondan chiqargan xulosalari katta falsafiy umumlasmaga ega bo‘lib, vatan taqdiri va milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga imkon beradi.

O‘zbek sarguzasht qissalaridan biri O‘lmas Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” qissasi sujeti bir qotillik izlarini aniqlash tasviri asosida qurilgan. Unda voqealar Munisaning o‘ldirib ketilishi tasviridan boshlanib, qotillikning fosh etilishi bilan tugaydi. Asar sujeti qizg‘in. Yozuvchi ikki yo‘nalish voqealarini – tergov xodimlari tezkor harakati va qotillikning izlanishida yordam beruvchi muhit hayotini navbatmanavbat tasvirlash yo‘lidan boradi. Qahramonlari ham ikki toifadir. Munisaning eri Rahim Saidovning o‘y xotira fazilatlarini ancha teran talqin etiladi. Militsiya kapitani Sobir Aliyev, leytenant Sultonov kabi qonun himoyachilarining tezkor harakatlari batafsil chiziladi. Asar sarguzasht adabiyotining umumiy an’anaviy xususiyatlari o‘zida to‘la mujassam etgan, sarguzasht ruhi asarning boshidan oxirigacha badiiy to‘qimani zabt etgan. Qahramonlar ruhiyati ko‘pincha suhbatlarga, harakatlarning o‘ziga singdirilgan. Bu xol asarni milliylikdan uzoqlashtirmaydi. Ayniqsa, Rahim Saidov va Sobir Aliyevlar o‘y – mushohadalari, oilaviy muammolari, orzu-intilishlari bilan milliy muhit xosliklarini ifoda etadi.

O‘lmas Umarbekov qissasida sarguzasht adabiyotning eng asosiy xosliklari san’atkorona yuzaga chiqdi. Yozuvchi realistik tasvir yo‘riqlariga amal qiladi. Jinoyat qidiruvchilarining faktlar tahlilidagi ziyrakliklarini va kasbkorlarining mashaqqatli tomonlarini ham ochishga intiladi. Yana Said Ravshanning “Chordoqdan otilgan o‘q” (1980) qissasi jinoyat qidiruv xodimlarining sarguzashtga boy, lekin xavf-xatarga to‘la faoliyatlarini tasvirlashga qaratiladi. Omon Muxtorning “Mo‘jiza”, Fayzulla Qilichevning “Zanjir”, Botir Nosirovning “Oltin qasr fojeasi” qissalarida ham ana shu umumiy xosliklar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Albatta, bular va yana talay shu kabi asarlarning g‘oyaviy badiiy saviyalari bir xil emas. Shuningdek, bu qissalarni O‘lmas Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” qissasiga va, ayniqsa uning so‘nggi asari “Fotima va Zuhra” sarguzasht romaniga tenglashtirib bo‘lmaydi. Yozuvchi qissalaridagi fojeaviylikni inson ma’naviyatining manzara – mohiyatini chuqurlashtirib ochib berishda katta mahorati ko‘zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, biz tahlil qilgan asarlarning janr xususiyatlariga tayanib quyidagilarni ta’kidlash joiz:

– o‘zbek qissanavislari alohida shaxslar olamini, ularning o‘ziga xos tuyg‘ularini, intim olamini tabiiyligicha, bor ziddiyatlari bilan haqqoniy tasvirlashga harakat qilmoqdalar. Natijada o‘zbek qissachiligida insonni yangi jihatlardan anglash tendensiyasi qaror topdi. O‘zbek yozuvchilari o‘z ruhiyatini taftish etib, o‘zligini anglashga intilgan qahramonlar hayot hodisalari va odamlarga ham o‘ziga xos munosabatda bo‘lishlari tabiiy hol ekanini diqqat markazida tutgan holda ziddiyatli va murakkab insonlar obrazini yaratishga erishdilar;

– insonni tasvirlash orqali insonni anglashning o‘ziga xos falsafasi ham yaratiladi. O‘zbek qissanavislari janr taraqqiyotining yangi davrida hodisalarga va inson shaxsiga yangi jihatlardan yondashish bilan birga real hayot hodisalari mantiqiga, xarakterlar mohiyatiga mos miflar va afsona-yu rivoyatlardan foydalanib, ularning ma’no-mazmuniga singdirilgan hayotiy falsafasini tasvirlanayotgan hodisalar mohiyatiga uyg‘unlashtirish vositasida epik tafakkurning serma’no serohangligini, mazmunning ko‘lamdorligini ta’minlaganlar. Natijada badiiy fikr harakati uchun keng makon yaratilgan, janr imkoniyatlari yanada kengaygan;

– yozuvchilar ayrim soʻzlar yoki soʻz birikmalarining koʻpmaʼnolilik yo koʻpohanglilik xususiyatidan mahorat bilan foydalanib, asar qahramonlari dunyosining, ruhiyatining yashirin nuqtalariga yetib bora olganlar va inson dunyosidagi fojialarni butun dahshati bilan ichdan yoritishga erishganlar;

– qissa epik tur janrlari orasida hikoyaga qaraganda mazmunining koʻlamdorligi bilan ajralib turadi. Oʻzbek qissalarida oʻzbekning oʻziga xos tabiatini, koʻnglidagi sezimlar va mayllarni tabiiyligicha tasvirlashga intilish kuchayganligini Sh.Boʻtayevning “Kunbotardagi bogʻ”, “Bir kunlik mehmon” singari qissalari misolida aniq kuzatish mumkin. Togʻliklarning hayot tarzi, urf-odatlar, orzu-intilishlari bugungi kunda barcha insonlar uchun nihoyatda zarur, ammo bilinib-bilinmay uzoqlashilayotgan anʼanalar, tabiiylik, ajdodlar xotirasi va merosi haqida oʻylatadi, ezgulikka qaytishga chorlaydi;

– Hayot hodisalari va inson ruhiyatini xolis kuzatish hamda badiiy tadqiq tahlil qilish orqali yozuvchilar oʻtmishdagi mustabid tuzum va uning mafkurasi yetkazgan fojialarni insonlar dunyosidagi inqirozga, ziddiyatga bogʻlab yoritmoqdalar. Natijada, insonning har lahzada ming bir qiyofa kasb etuvchi rango-rang ichki olami namoyon boʻlmoqda. Natijada, xayolot bilan ruhiyat, hayotiy xodisalar bilan inson borligʻi uzviylikda, bor koʻlami va turfa ranglari ila tasvirlanmoqda, sharqona milliy ruhni, oʻziga xos hayot falsafasini ifoda qilmoqda.

Tekshiruv savollari:

1. Milliy qadriyatlarning tiklanishida qanday omillar rol oʻynadi?
2. Inson komilligini yuksalishida qaysi ijodkorlarning asarlari muhim rol oʻynayapti va nimaga?
3. Milliy ozodlik kurashchilari obrazlari istiqldan avvalgi adabiyotlarda qanday yoritilgan? Istiqldai keyin bu borada qanday asarlar yaratildi va qanday baho berildi?
4. Bugungi kun qissalarida qanday mavzu yetakchilik qilyapti?
5. Bugungi kun qissalarining oʻziga xosligi nimada?

Mustaqil oʻqish uchun tavsiya qilinadigan adabiyotlar:

1. H.Karimov. Janrmi yoki uslub?. –T.: Fan. 1991.
2. H.Karimov. Davr va inson –T.: Fan. 1992.
3. U.Normatov. Umdbaxsh tamoyillar. –T.: 2001.
4. I.Mirzayev. Nasrimiz badiiy olami. –T.: 1991.
5. M.Rustamova. Oʻzbek qissalarining taraqqiyot tendensiyalari.–T.:Fan. 2006.
6. Adabiy turlar va janrlar. T., «Fan», 1991.
7. X.Karimov. Inson va davr. T., «Fan», 1992.
8. A.Kattabekov. Tarix saboqlari. T., 1985.
9. U.Normatov. Romanning yangi yoʻllari. «Yozuvchi» gazetasi, 1997-y 4-iyun.

ESLATMA! Tahlil va talqin. Gʻafur Gʻulom “Shum bola”, Oybek “Bolalik”, Odil Yoqubov “Muqaddas”, “Matluba”, Saʼdulla Karamatov “Eʼtiqod”, Tohir Malik “Alvido bolalik”, Said Ahmad “Kiprikda qolgan tong”, Oʻtkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”, Togʻay Murod “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”, Luqmon Boʻrixon “Quyosh hali botmagan”...

(Jahon adabiyoti: Albert Kamyu “Begona”, E.Xeminguey “Chol va dengiz” Chingiz Aytmatov “Jamila”, “Birinch muallim”, “Oq kema” va b.) kabi qissalarni mustaqil oʻqish va taqriz yozishga hozirlanish. Savollar tuzish, asar mohiyatini anglash.

“Men oʻqigan eng sara qissalar” mavzusida kichik adabiy-badiiy tadbir (diskus davra suhbat) tashkillashtirish) ga tayyorgarlik koʻrish.

**6- ma'ruza mashg'ulot mavzusi: BUGUNGI O'ZBEK ROMANIDA DAVR, TARIX, ZAMON
MASALALARI
REJA:**

1. Bugungi o'zbek romanlarining janr va uslub xususiyatlari
2. O'zbek romanlarida shaxs fojeasining badiiy talqini
3. O'zbek romanlariga xos yetakchi estetik tamoyillar

Asosiy tushuncha va atamalar: *O'zbek romannavislari, shaxs fojeasi, yetakchi estetik tamoyillar, analitik obrazlar, Ulug'bek Hamdam, Luqmon Bo'rixon, Tog'ay Murod, A.Muxtor, O'.Hoshimov, M.Do'st, A.Ibrohimov, N.Qobul, iste'dodli ijodkorlar, epik obraz, prozaik bayon, yozma uslub.*

O'zbek romannavislari zamondoshimiz obrazini yaratish orqali o'z xatti-harakatlarini, faoliyatini hatto his-tuyg'ularini ham aql-idroki ila mulohaza qilib, o'z-o'zini taftish etuvchi – analitik obrazlar vositasida bugunning dardu iztiroblari mohiyatini ochishga harakat qilayotirlar.

Inson ko'nglini anglashning yangi shakl va vositalaridan foydalanishga intilishni biz iste'dodli ijodkorlardan biri – *Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" nomli qissa va hikoyalar to'plami (1998), "Tangriga eltuvchi isyon" she'riy to'plami, "Muvozanat" va "Isyon va Itoat" romanlari* misolida ham kuzatamiz. Yozuvchining har bir asari qatidagi mohiyat uning sarlavhasidanoq anglanadi. Inson hamisha o'z ehtiyojlarini qondirish uchun intiladi. Butun hayoti shu ehtiyojlarga "qul" qilinganday. Munosabatlariga zid holatlar yuzaga kelganda u yaratgandan ham, hayotdan, umridan ham noliydi. O'z istaklari qamrovi toru keng bo'lishidan qat'i nazar, istak va ehtiyojlar nuqtayi nazaridan shukur qilish o'rniga hamisha norozilik ustunlik qiladi. Kamdan kam odamlargina hayotning asl ma'nosini, insonlikning ma'nosi imon, e'tiqod orqali o'zlikni anglash va o'zligini topish ekanini tushunadilar. "Isyon va itoat" romanida yozuvchi ayni shu jarayon, ya'ni har bir insonning o'z hayoti davomida o'zligini va yaratuvchisi bo'lmish Ollohni anglash jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan Isyon va bu isyonning intihosi Itoatning mazmun-mohiyatini yoritishga harakat qilgan. Bu asarga adabiy jamoatchilik o'z munosabatini bildirdi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasining 2005-yil 20-maydagi sonida mustaqillik davri o'zbek nasri tahlil qilinib, davra suhbatlari ishtirokchilari "...bugungi nasriy asarlarning qahramonlari faqat faoliyat odamigina emas, balki o'y va mushohada kishisi sifatida ham tasvirlanadigan bo'ldi. Odamning asl mohiyatini faoliyatidagina emas, balki tin olib turgan yoki o'ylayotganda ham namoyon etishi mumkinligi badiiy tasvir tajribasiga kirib kela boshladi. Shuning uchun ham Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanidagi "... qachonki uning bag'rida gurillab yongan isyon gulxani o'chgan, g'ofillik ham uni qiynamay qo'ydi... qaytaga, isyon o'rnida tug'ilgan o'sha kayfiyat – o'sha itoat... ruhida qandaydir ma'rifat bor edi. Ma'rifatki, g'ofillikni, uning olamini yuvib yuborishga qodir... Endi uning ko'zlarida, bag'rida, butun borlig'ida itoat nuri hokim, itoatki, mislsiz isyondan so'nggina "to'qiladigan, itoatki, isyondan ming karra, million karra yuksakroqqa eltadigan!" "tarzidagi falsafiy mushohadalar o'quvchiga o'rinsiz donolik bo'lib tuyulmaydi, balki o'z mohiyatini anglamoqchi, o'zini topmoqchi bo'lgan insonning ruhiy to'lg'onishlari tarzida ta'sir qiladi" – kabi asosli fikrlarni ilgari surdilar, bu qarashga biz ham qo'shilamiz.

Darhaqiqat, romanda insoniyat paydo bo'lgandan beri uning qalbida yashab kelayotgan Isyon va Itoat, imonu e'tiqod masalalari tahlil va tadqiq qilingan. Bilamizki, Shayton Allohga itoat etmagani uchun farishtalar safidan chiqarilib, jannatdan quvilgan. Allohning habibi inson-chi? Inson yaratgan parvardigorining og'ir va mashaqqatli sinovlariga bardosh berolmay, uning amriga qarshi bordi, natijada unga Isyon qildi. Holbuki, inson Isyondan Itoatga yetib borguncha behisob yo'l bosib, xilma-xil sinovlardan o'tishi darkor. Itoat maydoniga yetib borgandagina inson barcha azoblardan forig' bo'lib, insonlik qismatining mohiyatini anglaydi va Itoatga tomon yuz tutadi. Bu jarayon asardagi Akbar qismatida ham, ustozi tabib taqdirida ham takrorlanadi. Yozuvchi xilma-xil taqdirli qahramonlar hayotidan so'zlab, odamlarning taqdiri, dunyoqarashi betakror, barmoq izlari kabi farqli bo'lgani bilan

ularning Isyondan Itoatga tomon borish yo'llari bir xil ekanini ta'kidlaydi. Ana shu haqiqatni go'yo hayotning ma'nisi, insonlikning ma'nisi nimada? – degan savolni o'z-o'ziga berib yashaydigan, qalbida adolatsizliklar, noxaqligu zo'ravonliklarga qarshi isyon tuyg'usini tuya olgan odamgina tushunadi. Shunday odamgina odamlikning, unga berilgan hayotning va sinovlarning, yana ko'p narsaning asl mohiyatini anglab yetadi. Romandagi tabib obrazi ana shunday insonlarning biri bo'lsa, Nurmat faqat o'z manfaati uchungina yashovchi kishilar timsoli. Ayni chog'da shuni alohida ta'kidlash lozimki, yozuvchi bu obrazni badiiylilik va hayotiylik mezonlari asosida maromiga yetkazib tasvirlay olmagan. Asarning g'oyasini muallif publitsistik uslubda yoritishga berilgan. Tursunboy taqdiri bilan bog'liq fojia ham asarning g'oyaviy-estetik tasvir qamroviga, epik tafakkuriga singishib ketmagan.

Yozuvchi Luqmon Bo'rixonning «Jaziramadagi odamlar» romani ham badiiy tilining jozibadorligi bilan kitobxon diqqatini tortadi. Romanda yozuvchi kichik hayotiy hodisani tasvirlash orqali katta ijtimoiy ma'naviy muammoni badiiy tadqiq qilgan. Bu borada yozuvchi o'ziga xos yo'ldan borgan: asar voqealari qahramon tilidan hikoya qilinadi, hodisalar Samad nazaridan o'tkazilib, tahlil qilinadi, hukm chiqarish esa kitobxonga havola qilinadi. Asar voqealari tugundan – Ashurning qamoqdan chiqqanligi haqidagi xabar bilan boshlanadi. Asarga qamrab olingan voqealar tabiiylilikni bo'g'ib bo'lmaslikni, tabiatning tabiiy muvozanatini buzish og'ir fojiaga olib kelishni tasvirlashga yo'naltirilgan. Cho'lni o'rinsiz o'zlashtirishning ayanchli oqibatlari insonlar hayotiga ham chang solganligini asar qahramonlaridan Lolaxon taqdiri misolida ham kuzatish mumkin. Jazirama cho'lga Lola guli yot bo'lgani kabi, cho'lquvarlar ichida "Faxriy deputat" Lolaxonning umri, ayollik nazokati-yu latofati ham cho'ldagi qumga tushgan suv tomchisi kabi izziz, qadr topmay yo'qoladi. Yigirma uch yoshli beva Lolaxonning umri xilma-xil majlislarda o'tadi, mavqei va amali tufayli u hamisha jiddiy qiyofada bo'lishga, tabiiy his-tuyg'ularini jilovlab, omma ko'z oldida "faxriy deputat" qiyofasiga mos ko'rinishda yurishga majbur. "Jonli qo'g'irchoq"qa aylanib qolgan bu baxtsiz ayol o'z taqdiriga ko'nikib yasholmaydi, tabiiy ravishda baxtga, visolga, insoniy tuyg'ularga intiladi. Ulash agronomning o'ziga atalgan she'rini eshitganda "bir seskanib" ketadi. Unga majburlab yopishtirilayotgan shon-shuhratning oqibati fojia ekanligini deputat – kampirni ko'rganda anglab, dahshatga tushadi. Bir umr bevalik yukini ko'tarishga bardoshi yetmagan Lolaxon Samad bilan tuyg'udosh bo'lishni istaydi, ammo yashirin xirsning qurboniga aylanadi. Bu o'rinda yozuvchi ijtimoiy-ma'naviy illatga e'tiborni tortadi. Shaxs fojiasining yuzaga kelishiga olamonning ta'siri: mish-mishlar, fisqu fasodlar, insonni tahqirlovchi "aybnomalar" ayni olamon qo'lidagi mudhish qurol ekanini ayovsiz fosh etadi. Lolaxonning ayanchli qismati yolg'onlarga, soxtaliklarga to'la hayotning fojiali xotimasidir.

Xo'sh, asar cho'lquvarlar hayotini tasvirlash orqali tabiatning tabiiy muvozanatini buzish og'ir ekologik fojialarga olib kelishini tasvirlashga yo'naltirilgan bo'lsa, Lolaxonning taqdiri bilan bog'liq manzaralar, hayotiy tasvirlar bu muammoga qaysi jihatdan bog'lanadi? Gap shundaki, yozuvchi Lolaxon obrazi orqali ham tabiiylilikni bo'g'ish yoki unga qarshi turish, tabiiy his-tuyg'ularni "soxtalashtirish" ham insonga bitmas tuganmas musibatu fojialar keltirishini haqqoniy tasvirlash orqali asarning yaxlit epik tafakkur tarzini yaratgan. Ayni chog'da, yozuvchi Lolaxon, Ergash, Samad kabi o'z taqdiriga ega insonlarning ruhiy olamlari ham betakror ekanini, ayni "o'ziga xos olam"i bilangina odamlar shaxslik darajasini zabt etishlari mumkinligini yozuvchi Luqmon Bo'rixon "Jaziramadagi odamlar"ning ruhiyati tahlili va tasviri orqali (garchi asarda Zumrad kabi qiyomiga yetmagan, faxriy kampir kabi sxematik obrazlar uchrasa-da...) yoritib bera olgan. Shu jihatlari bilan ushbu roman o'zbek romannavislari shaxs fojiasining badiiy tasvirida mahoratning alohida bosqichiga ko'tarilib borayotganliklaridan darak beradi. So'nggi yillarda yaratilayotgan o'zbek adiblarining xilma-xil mavzudagi romanlarini tahlil qilish orqali kitobxonlar millatning dili va tilida aks etgan quvonchu iztiroblarni his qilishlari aniq. Milliy ruh, o'zbekona bag'rikenglik, mardlik, o'zlikni anglab millat istiqloli uchun kurash mustaqillik davri adabiyotining bosh mavzusidir.

Milliy ongni, o'zlikni anglatuvchi asarlar yaratgan ijodkorlar orasida Tog'ay Murod o'ziga xos ovozi bilan ajralib turadi. Tog'ay Murod jahon adabiyoti durdonalarini o'qib-o'rganib milliy adabiyotimiz an'analarida shaklanib ildiz otgan zabardast yozuvchidir. Yozuvchi ijodida umumbashariy adabiyotga xos

bo'lgan talqin o'zbek milliy ruhi bilan uyg'unlashtirib yuborilganining shohidi bo'lar ekanmiz, nazarimizda bunday uslub go'yo faqat o'zbeklarga yoki faqat Tog'ay Murod qalamigagina mansubdek tuyuladi. Yozuvchi qalamga olgan har bir voqea, obraz orqasida millat taqdiri, oddiy xalq qiyofasi jonlanadi. G'oyaviy pishiq, betakror qissalari bilan 80-yillar o'zbek nasri rivojiga katta hissa qo'shgan Tog'ay Murod o'z ijodida romanga xos tafakkurni shakllantirdi va o'ziga xos uslubda "Otamdan qolgan dalalar" romanini yaratdi. Bo'ri polvon, Ziyodulla chavandoz, Qoplon bobo, Oymomo kabi ko'p qiralli go'zal obrazlarni yaratib qalami charxlangan Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar" romanidan o'zbek dehqonining tipik obrazini yaratdi. O'zbek millatining taqdiri, o'tmish va kelajagi Dehqonqul obrazi timsolida badiiy jonlantirilgan bo'lib, talqin sodda, baxshiyona uslubning qo'llanilishi romandagi obrazlilikni oshiradi va xalq tilining rang-barang nozik qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tog'ay Murod avvalgi qissalarida davlat olib borgan mafkuraviy siyosatning ayrim salbiy oqibatlari, turg'unlik davrida avj olgan buzulqilik va munofiqlikni qalamga olgan bo'lsa ("Yulduzlar mangu yonadi"da raisning nafs yo'lga kirishi, "Ot kishnagan oqshom" da zotdor otlarning go'shtga topshirilishi, "Oydinda yurgan odamlar"da kotib olamdan o'tgan odamlarning nafaqasini olishi va h.k.). "Otamdan qolgan dalalar" romanidan sobiq sho'rolar tuzimi tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatining illatlari, milliy ozodlik kurashining parokandalikka uchrash sabablari, paxta yakkahokimligining oqibatlari, millatning qatag'on qilinishi o'zbek xalqi taqdiri misolida ochib beradi.

"Otamdan qolgan dalalar" asari zamonaviy romanga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, yangi o'zbek romani mezonlarini ham birmuncha oydinlashtirdi.

Tog'ay Murod qahramonlari zaminni, zilol suvlarni jannatmakon bog'-rog'larni yaratgan egamning tuhfasini suyuq ardoqlagan, qadrlagan oddiy odamlar bo'lib, ular har bir qarich yerga mehrini beradi, bolasiday avaylab asraydi, padari buzrukvoriday, validai-muhtaramasiday e'zozlaydi. Romanda tasvirlangan Jamoliddin ketmon yurt notinchlangach, sharqona an'analarning yevropacha ma'naviy-ruhiy muhit bilan almashtirilishiga, mavjud tartiblarga putur yetishiga befarq qarab tura olmaydi. Farg'onadan Denovga ko'chib ketadi Jamoliddindagi go'zallik mehnatkashlikda, soddadillikda, xudojo'ylikda, dunyo voqealariga bee'tiborlikda, taqdirga rizolikda ko'rinadi. Biroq shu mo'min chol zolimdan nechog'lik nafratlanmasin, undan yiroqroq yurishga urunmasin, noilojlikdan pichoqni qinidan sug'urishgacha borib yetadi.

Yoshligidanoq Chor hukumati siyosatidan qoniqmay, zo'rayib borayotgan militarizmdan nafratlanish ruhida o'sgan to'ng'ich o'g'il Aqrab o'z-o'zini ichki bir tuyg'u bilan bosqinchilar to'ldasidan qasos olishga chog'laydi. "Botar tunning o'tar tonggi bo'ladi", – deb bilgani bois yurtini yog'iy bosib yotganida muqaddas zamin, din-diyonatni asrash adolatni tiklashdek oliy maqsadlar yo'lida kurashga kiradi. Aqrab qo'rboshi ba'zan ehtiroslarga beriladi. Bunday damlarda u hayotdagi norasoliliklar, xalqi boshiga bosqinchilar tomonidan yog'dirilgan balolar ollohning irodasi bilangina sodir etilganiga ishongisi kelmaydi. "Xudodan-da o'tdi, bandadan – da o'tdi" qabilida fikrlagan qahramon ko'p o'tmay, No'g'ay Chanishevga qarata: "Ayb senda-da bo'lmadi, ayb menda-da bo'lmadi. Bari xudodan bo'ldi"- deya taqdirga tan berishga majbur bo'ladi. Darhaqiqat, mo'min-musulmon Sharq odami hamisha taqdir kishisidir. Aqrab ham itoatkor musulim. Shunga qaramasdan, so'zsiz, harakatsiz, taqdir hukmiga bosh egib ketaveruvchi qo'yday yuvvosh ham emas. U ko'ksi baland, g'ururi yuksak o'zbek o'g'loni. Aqrab qo'rboshi bor haqiqatni mardona tan ola biladi. U o'z o'ligining-da beqadr bo'lishini, begona yerlarda qolib ketishini istamaydi. Aqrabdagi jur'at, jasorat, vatanparvarlik, g'urur o'zini ajabtovur jasur deb bilgan, o'ziga bino qo'ygan polkovnikni ham shoshirib qo'yadi. Polkovnik Chanishevda bu mulzamlik roman salmog'i va ta'sir kuchini yanada oshirib yuboradi.

Qo'rquv va hadiksirash ruhida, og'ir mehnat ostida o'sgan, bolaligi o'g'irlangan Dehqonqul qalbida ham tizginsiz nafrat mujassam. Ma'naviy – marifiy inqirozning yangi davrdagi qurboniga aylangan avlod fojeasi ulardagi shijoatning so'ndirilishi, itoatkorlikning teranlashuviga borib taqaladi. Itoatkorlikka qo'rqitish orqali erishiladi. Ziyod Cho'liboyev kabi yoshlar xudbinlik va loqaydlik, milliy qiyofasizlikning qurboni bo'ladilar. So'z va ijro birligiga amal qilmaydigan Mavlonov, firqa ishiga sadoqatli bo'lishga intilgan maktab direktori, fizika, geografiya, adabiyot muallimlari Chingiz Aytmatov

ta'kidlagan "manqurt" lashgan: mehr-muruvvatdan, insoniy his-tuyg'ulardan, o'y-fikr va andishadan yiroq kimsalardir. Ular xatto g'amli kunda bir mo'min o'z dindoshiga qanday tasalli berish kerakligini-da bilishmaydi, balki buni unutishadi, qo'rquv ularni vijdonan cho'ltoq qilib qo'ygan.

Tog'ay Murod talqinidagi inson o'zligining yo'qolishida, e'tiqodi asoslarining chok-chokidan so'kilishida paxta yakka hokimligi yetakchi sabablardan biridir. Halol mehnati bilan ilg'or brigadir darajasiga ko'tarilgan Dehqonqul tuhmat balosiga uchrab, bir yildan ortiq xo'rliklar ko'rgach sakkiz yilga qamaladi. O'sha og'ir kunlarda qahramon ayanchli hayotining sabab va mohiyatini izlab, o'ziga, kechmishiga baho beradi. Bu o'rinda adib qahramonni o'z-o'zini ruhiy badiiy tahlil etish usulidan nihoyatda unumli foydalanadi. Kelajakka ishonch, yorug' kunlarga umid tuyg'ulari bilan romanga nuqta qo'yiladi. Muallif ko'proq e'tiborini insonning real hayotiga, tajribalardan so'ng yetib kelgan hayotiy xulosalariga, yaratuvchanlik, bunyodkorlik faoliyatiga qaratadi.

"Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida esa T.Murod Esonov (Botir firqa) ni o'liklar va tiriklar shiori o'rtasiga qo'yib, o'zining so'nggi manziliga hozirlik ko'rayotgan vaziyatda tasvirlaydi. Vijdon qarshisida tanho qolgan qahramon nafaqat o'z-o'zining, balki butun bir avlodning hayot yo'lini xayolidan o'tkazadi, idrok etadi, tahlil qiladi. Iymon musaffoligi, e'tiqod teranligi, insoniy samimiyat, yaratish va bunyod etish baxti, umuman, insoniy qadriyat va inson qadri masalalariga teran nigoh tashlaydi. Botir firqa ham ma'naviy ruhiy poklanish umididagi inson. Yorug' olamdan ketar chog'ida qanday g'oya uchun yashagani, butun hayoti, kuch-quvvatiyu iqtidorini nimaga bag'ishlaganligini muhokama qilar ekan, alal-oqibat o'zini qanday poklanishni bilmagan, adashgan avlod vakili deb bilaadi. Adib uning qiyofasida adashgan avlod siymosini gavdalandirishga muvaffaq bo'ladi.

Muallif insoniyatga cheksiz mehr bilan boqadi. Hayot go'zalligini, yashash zavqini, yaratuvchanlik shkuhini, insoniy mehr-oqibatni, e'tiqodga sadoqatni ulug'laydi. Yozuvchining bosh poetik niyati mute'lik va tobelik falsafasining paydo bo'lish sabablarini teran tahlil etishga qaratiladi. Natijada, zaminga muhabbat qadriyatlarga sadoqat, iroda, bardosh tuyg'ularining e'zozlanishi yanada kuchliroq ahamiyat kasb etadi.

XX asrning oxirgi 20-yillaridagi o'zbek badiiy nasri favqulodda o'ziga xos va original hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. Undagi yangiliklar dastavval badiiy nutq shakllarining rang-barangligida ko'rinadi. Xalq jonli so'zlashuv tilining mo'l-ko'l qo'llanilishi, muallif va personaj ovozlarning o'zaro chatishuvi, polifonik (ko'p ovozli) nutqning o'ziga xos ko'rinishlari hamda ohanglar rang-barangligi bu davr nasrining asosiy belgilariga aylandi. Yozuvchining tilga munosabati o'zgarayotganligi tufayli badiiy tasvirda jiddiy ijobiy siljishlar ro'y berdi, asarda til, nutq muammosi oldingi o'riga chiqdi. Zero, nutqda adibning o'ziga xos uslubi, materialdan foydalanish mahorati, uni ma'lum shaklga sola bilish qobiliyati ochiq namoyon bo'ladi. Endilikda so'zga faqat tadqiqot sifatidagina emas, balki voqelikni vujudga keltiruvchi, uni tushunarli bayon qiluvchi, badiiy asar imoratini bunyod etuvchi qurilish materiali sifatida qarash istagi ham paydo bo'ldi.

Hozirgi zamon nasri nutqi nazm bilan yaqinlashdi (bu usul, ayniqsa, Tog'ay Murod ijodida yaqqol ko'rinadi), ayni chog'da, folklorlarga xos ko'p ma'nolilik, xalq qo'shiqlari ohanglaridan foydalanish kuchaydi. Yozuvchilarimiz endilikda nasriy asarlariga ongli ravishda she'riyatga xos tamoyillar – ritm, turoq, vazn va lirik takrorlarni ham kiritmoqdalar (bu usul Omon Muxtor ijodida ko'p uchraydi).

Ho'zirgi adabiy jarayonda ritm prozaik nutqning eng muhim stixiyasi bo'lib qoldi. Shu bilan birga, rivoyat, afsona va miflardan unumli foydalanilyapti.

O'zbek nasri olamga yuz tutdi, dunyo tafakkuridan oziqlana boshladi, jahon adabiyoti bilan bellasha oladigan asarlar paydo bo'ldi. A.Muxtorning "Chinor", O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi", M.Do'stning "Lolazor", O.Muxtorning "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba" kabi asarlarini bemalol dunyo xazinasidan o'rin oladigan durdonalar qatoriga qo'shgimiz keladi. Chunki bu yozuvchilarning asarlarida so'zning o'zi gapiradi, turli ohanglarda kuylaydi, rang-barang bo'yoqlar bilan jilvalanadi, bayon kitobiylikdan mutlaqo xoli.

Istiqlol davri adabiyotining nutqiy jarayonlarini quyidagicha tasnif etish va o'rganish maqsadga muvofiq:

- 1) monologik qissaxonlik uslubi;
- 2) ikki ovozli hikoyanavislik uslubi;
- 3) ko'povozli (polifonik) bayonchilik uslubi;
- 4) ohangning har xilligi – patetik, oratorlik, qo'shiq, deklamatsiya uslubi;
- 5) iboralarning qurilishi jihatidan – kesik, zarbli, yoyiq va ritmik uslub;
- 6) leksik jihatdan arxaizm va neologizm bilan to'yingan avtor nutqi uslubi va hokazo.

Monologik qissaxonlik uslubi O'.Hoshimovning "Dunyoning ishlari", T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar", A.Ibrohimovning "Uyqu kelmas kechalar", N.Qobulning "Unutilgan sohillar" asarlariga xos. M.Do'stning "Lolazor", O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", O.Muxtorning "Tepalikdagi xaroba" romanlari birato'la yuqoridagi uslublarning to'rttasi talablariga javob bera oladi. Ularda monologik-qissaxonlik ham, ikki ovozli hikoya qilish usuli ham, polifonik bayon ham, ohanglar xilma-xilligi ham, hatto muallif nutqining leksik jihatdan arxaik va neologik so'zlar bilan to'yinganligi holatlari ham uchraydi.

"Otamdan qolgan dalalar" ijtimoiy-publitsistik romanini o'zbek xalqi 120 yillik og'ir taqdirining mungli dostoni, deb atash mumkin. Bu taqdir yaxlit tarix emas, balki xalq boshidan o'tgan qattiq sinovlarning bir necha muhim va qonli sahifalaridan iborat. Ular bosh qahramon Dehqonqul tilidan hikoya qilinadi. Asarda tabiatan erkin yashashga orzumand o'zbek xalqining o'ziga xos insoniy o'y-kechinmalari umumxalq tuyg'usi sifatida kuchliroq va chuqurroq namoyon bo'ladi. Agar mazkur romanda o'zi guvoh bo'lgan yoki bo'lmagan voqealarni hikoya qiluvchi bitta "men"ga duch kelsak, O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida bir voqeaga guvoh bo'lgan uch-to'rt kishining hikoyasini tinglaymiz. Bunda munosabat shakli birinchi o'ringa chiqadi. U orqali kitobxon turli tomondan go'yo proyektor nurlari kabi yoritilgan voqelik mohiyatiningina emas, ayni paytda, ana shu voqelikda harakat qilayotgan insonni ham kashf etadi. Bu jarayonda yozuvchi o'zini mutlaqo namoyon qilmaydi, kerakli xulosani o'quvchining o'zi chiqarib oladi.

M.Do'stning *"Lolazor" romanida* hikoya qilishning yangicha shakllariga duch kelamiz. Unda birato'la uchta hikoyachi namoyon bo'ladi: muallif, Nazar Yaxshiboyev va Saidqul Mardon. Agar ularning roman voqealarini bayon qilish nuqtayi nazaridan tutgan mavqeini belgilaydigan bo'lsak, qissanavis Saidqul Mardon birinchi o'ringa chiqadi. Chunki uning bayoniga muallif mutlaqo aralashmaydi. Zero, Saidqul Mardon ham xuddi M.Do'st singari yozuvchi va u romanda mustaqil fikrlash, munosabat bildirish, muhokama qilish huquqiga ega. Buning ustiga, yozuvchi o'zi hikoya qilayotgan voqea-hodisalarning bevosita guvohi ham.

Romanda ikkinchi hikoyachi – Nazar Yaxshiboyev. Asarning "Bemor" deb nomlangan yetti bobida Nazar Yaxshiboyev o'quvchiga o'zini o'zi tanishtiradi, uning ong oqimi beriladi. To'g'ri, Nazar Yaxshiboyevning ana shu o'ylari orasiga ba'zan izohlovchi, sharhlovchi sifatida muallif ham kirib keladi. Nazar Yaxshiboyev bemor bo'lganligidan vaqti bimalol, shuning uchun ko'p xotiraga beriladi, o'zgalar bilan suhbatlashadi. Bularning barchasida u o'zini baholaydi, taftish qiladi, munosabat bildiradi.

"Ikki eshik orasi" va "Lolazor" romanlarida xarakterning ichki dunyosi va tashqi ko'rinishini ishonarli yoritib beruvchi kuchli va o'ziga xos psixologik tahlil mavjud. Unda yozuvchilar har bir qahramonning faqat ijtimoiy tomonlarinigina emas, balki shaxsiy, to'la ma'nodagi ichki kechinmalarini ham batafsilroq yoritishga urindilar. "Lolazor" da adib Nazar Yaxshiboyev yoki unga suhbatdosh bo'lgan personajning holati, ruhiyati, hatto so'zlarining rost yoki yolg'onligini isbotlash orqali ham ularning ichki va tashqi olamini biryo'la yoritishga erishadi.

"Lolazor"da badiiy nutqning retrospektiv shaklidan ham unumli foydalanilgan. Asarda aks ettirilgan real vaqt Saidqul Mardon nutqida ma'lum uzluksizlikka, qat'iy chegaraga ega bo'lsa ham Nazar Yaxshiboyev o'ylarida u ko'pincha cheklanib qoladi. Ya'ni voqealar tasvirlanayotgan vaqtning ko'lami bilan doim ham mos kelavermaydi. Shu sababdan bayonning uzluksizligi "buzilib", ayni paytda retrospektiv bayon roli oshadi. Retrospektiv bayonda xotiradagi voqealar qahramon ongidan qalqib chiqib, ayni paytdagi hodisalar bilan assotsiatsiya (birlashma)ga kirishadi, ular o'rtasida ichki bog'liqlik

vujudga keladi. Retrospektiv bayonda muallif kichik bir maydonda ko'p yillik voqealarni personaj xarakterining rivojlanishi bilan bog'liq suratda markazlashtiradi.

Lekin asarga retrospektiv bayonni haddan ziyod kiritish unda ifodalanayotgan voqelik va harakatlar izchilligini buzishi, bayonda "zigzag" shaklini vujudga keltirish ham mumkin. "Bemor" boblarida xuddi shunday holat ko'zga tashlanadi. Nazar Yaxshiboyev hozirgina suhbatlashib o'tirgan xotini, o'g'li yoki biror shogirdi qolib, uzoq o'tmish xotirasiga beriladi. Bunday xotiraga berilish jarayoni uzoq vaqtga cho'ziladi va natijada suhbatdosh Nazar Yaxshiboyevning ham, yozuvchining ham, o'qituvchining ham esidan chiqadi. Albatta, bunda yozuvchi retrospektiv bayon bilan perspektiv bayon o'rtasidagi meyorini buzmaslikka, ular o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ta'minlashga alohida e'tibor beradi. Lekin ayrim boblarda xotiraga asoslangan bayon bilan ayni paytdagi voqea bayoni o'rtasida biroz uzilish ro'y berganligi seziladi. Bu kamchilikni qissanavis Saidqul Mardon hikoyasi to'ldirib ketadi.

"Ikki eshik orasi" romanida esa birgina shaxsga yoki hodisaga turli personajlarning nuqtayi nazarini ifodalashi bilan yozuvchi nutqiy jarayonga chorrahali xarakteristikani olib kirdi. Masalan, birgina Ra'noning Umar Zakunchi bilan o'ynash tutinishi hodisasi bir yo'la to'rt personaj – Robiya, Olimxon, Umar Zakunchi va Ra'noning nuqtayi nazari orqali yoritilishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Odatda boshdan-oxirigacha to'la muallif bayoniga asoslangan asarlarda xilma-xil nuqtayi nazarlar beriladi. Ular mualliflikiga yaqin, qarama-qarshi, o'zaro to'ldiruvchi yoki mustasno etuvchi bo'lishi mumkin. Natijada turlicha baholarning o'zaro kesishuvi va taqqoslanishi tufayli voqelik mohiyati to'laroq ochiladi. *"Ikki eshik orasi" romanida* asosiy mavqeni personajning nutqi egallaganligidan muallif munosabati har doim ham aniq ko'zga tashlanavermaydi. Binobarin, personaj nutqining ohangi, uslubiy qurilishi, hikoyachi o'zining haqligiga ishonitirish uchun chiranishi, bayonning zo'rma-zo'rakiligi Ra'no va Umar Zakunchiga nisbatan muallif munosabatining qandayligini isbotlab turadi.

Xullas, hozirgi o'zbek nasri nafaqat o'zining mazmundagi yangiliklari, balki shakli, xususan, badiiy adabiyotning birinchi unsuri hisoblangan til xususiyatlari bilan ham tamomila yangilikka yuz tutdi. Bu o'ziga xos jarayon jiddiy tadqiqotlarni kutmoqda.

Biron bir millatni adabiyotsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, har qanday milliy adabiyotni janrsiz tasavvur qilish ham mumkin emas. Janr badiiy adabiyotning konkret ko'rinishidir.

Ana shunday janrlardan biri roman bo'lib, uning tarixiy taraqqiyoti, o'ziga xos xususiyatining ayrim tomonlari to'g'risida o'tgan mashg'ulotda (oz-moz) suhbatlashdik. Ammo roman epik turning eng yirik, imkoniyatlari g'oyat keng janri bo'lganligidan uning poetik olamiga chuqurroq kirib borganimiz sari hali kashf etilmagan fazilatlarini anglab boraveramiz.

Roman, eng avvalo, epik obraz yaratuvchi prozaik bayondir. Ana shu epik obraz yozuvchining dunyoqarashini, romanning g'oyaviy-estetik tabiatini belgilab beradi. Epik obrazni ifodalash jarayonida hayot haqiqatiga qat'iy amal qilish talab etiladi. Zero, raelizm (ya'ni hayotiylik) romanning asosiy qon tomiridir. Roman qanday shaklda, qaysi usulda yozilmasin, ya'ni u fantastik-sarguzasht bo'ladimi, rivoyat yoki mif va afsonalarga asoslanadimi, oxir oqibatda reallikka intiladi. Asarning janr tabiati unda aks ettirilgan g'oyaviy niyatning qaysi yoki qanday badiiy shaklda, uslubda berilishi bilan belgilanadi.

Romanning eng muhim xususiyatlari:

- a) Epik obraz;
- b) Prozaik bayon;
- s) Yozma uslub.

Romanda o'quvchining esida qoladigan yaxlit, ko'lamli, o'z qiyofasiga ega bo'lgan epik obrazlarni ko'p uchratganmiz. Bular: Yusufbek hoji, Otabek, Yo'lchi, Mirzakarimboy, Navoiy, Ochil buva, Orif oqsoqol, Nazar Yaxshiboyev, Mirza G'olib, Yusuf, Fozilbek va hokazo. Chunki ularni eslashimiz bilan ko'z oldimizda yashagan davri, shart-sharoit, o'zaro to'qnashuvlar namoyon bo'ladi. Atrofida barcha personajlar u yoki bu darajada ana shu epik obrazlar bilan bog'langanligini his qilamiz.

Hozirgi paytda nasriy bayonsiz romanni tasavvur etib bo'lmaydi. Rus adabiyotshunosi V.Kojinov o'zining *"Proisxojenie romana"* ("Romanning kelib chiqishi") kitobida yozishicha, "Shu narsa e'tirof qilinganki, roman, birinchidan, kishilarning, narsa-hodisalarning, kechinmalarning o'zaro bog'langan

holdagi mustaqil realligini to'la-to'kis ko'z oldimizda gavdalantiruvchi, epik obrazni yaratuvchi bayon-hikoyadir. Ikkinchidan, roman "epik" so'zining ikkinchi ma'nosiga yaqin asardir. Yanada aniqroq qilib aytganda, u hayotiy haqiqatni kengroq qamrab olishga, o'z ichiga singdirishga intiluvchi epopeya ruhidagi bayondir. Va nihoyat, uchinchidan, roman prozaik bayondir. Romanning bu xususiyati unda nutqning tashqi shakllanishi bilangina to'la-to'kis xarakterlanmaydi, albatta. Balki bu xususiyat roman janrining bir qator xossalari – nasrning umumiy estetik koloritidan tortib to uning yozma tabiatigacha bo'lgan hamma xossalari belgilab beradi".

Endi ana shu nuqtayi nazardan o'zbek adabiyotida so'nggi yillarda yaratilgan tarixiy va zamonaviy mavzudagi romanlarga nazar tashlaylik. O'tgan darsimizda tarixiy romanlar taraqqiyoti, uning bir asr davomida qancha to'liqini (bosqichi) dunyoga kelganligi haqida aytib o'tgandik. Bugungi darsimizda asosan tarixnavis adiblarning 4, 5 – avlodi yaratgan asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalamiz. Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan bu avlod vakillaridan M.Ali, S.Siyoyev, A.Dilmurod, Z.Begmatov, S.Vafo kabilardir. Albatta, ularning har biri to'g'risida to'xtalishga vaqt yetmaydi, shuning uchun ularning ayrimlariga murojaat qilamiz, xolos.

Eng muhimi, mustaqillik o'zbek adiblari uchun tarixiy mavzulardagi cheklanganlikka barham berdi. Yozuvchi endi xohlagan tarixiy shaxs, tarixiy mavzu, voqelik haqida emin-erkin yozish imkoniyatiga ega bo'ldi. To'g'ri, sovet davrida ham tarixiy mavzuda xohlagancha asar yaratish mumkin edi. Faqat sharti shuki, tarixiy roman g'oyasi kommunistik mafkura, sovet voqeligi nuqtayi nazaridan yoritilsin. Ana shu tamoyilga amal qilishga majbur bo'lgan tarixnavis adiblarning 2, 3-avlodi vakillari – Oybek, O.Yoqubov, Mirmuhsin, P.Qodirovlar ayrim tarixiy faktlarni "buzdilar", o'zgartirdilar, tarixiy shaxslarning qiyofasiga qora bo'yoqni mo'ltiq chapladilar. Birgina P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" tarixiy romani boshidan kechirgan ko'rguliklar uning keyingi "Avlodlar dovoni" romani strukturasiga, bayon usullariga salbiy ta'sir ko'rsatganini eslash kifoya.

Yoki Amir Temur mavzusining ishlanishini olib ko'raylik. Sovet davrida u johil, zolim, bosqinchi, qonxo'r, savodsiz, axloqsiz shaxs sifatida tasvirlangan bo'lsa (masalan, S.Borodinning "Samarqand osmonida yulduzlar" dialogiyasi), endi butunlay buning aksi. Qisqa fursatda Amir Temur haqida o'nlab dostonlar (A.Oripov, M.Jalil, O.Bo'riyev) dramalar, romanlar dunyoga keldi. Bular orasida O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali g'oyat izchil va samarali ijod qilmoqda. U dastlab "Sarbadorlar" romani bilan ulkan va tuganmas mavzu dargohiga qadam qo'ydi. Keyin "Ulug' saltanat" degan umumiy nom ostida romanlar yozishga kirishdi. Amir Temur va uning avlodi to'g'risida tetralogiya yaratishni niyat qilgan adib hozir uning uchinchi kitobini yozib tugatdi. "Ulug' saltanat" tetralogiyasining 1-kitobi Sohibqironning eng suyuqli farzandiga bag'ishlangan bo'lib, "Jahongir Mirzo" deb atalgan. 23 bobdan iborat bo'lgan bu roman Amir Temurning rahbarlik va lashkarboshilik salohiyati, oilasiga, farzandlariga g'oyat mehribon ota ekanligiga bag'ishlanadi. Romanda Amir Temurning dolg'ali, keskin kurashlarga boy hayoti Amir Muso, Amir Husayn, shoirtabiat Axiy Jabbor ("Sarbadorlar" ni eslang), Jahongir Mirzo va boshqa beklar bilan munosabatlarida to'la ochila boradi.

Romanda Jahongir Mirzo 13-14 yoshlaridan ko'rinadi, u g'oyat jasoratli, botir yigit edi. Afsuski, 20 yoshida og'ir xastalik tufayli olamdan o'tadi va bu musibat Amir Temurning qaddini bukadi. Tetralogiyaning 2-kitobi "Umarshayx Mirzo", 3-kitobi "Mironshoh Mirzo" deb nomlangan. M.Alining yutug'i shundaki, bu asarlarida shu nomlari bitilgan temuriyzodalar hayoti va faoliyati to'g'risida o'quvchilar kam bilardi. M.Ali bu tetralogiyasi bilan qariyb uch asrdan ko'proq turli hududlarda hukmronlik qilgan Temuriylar sulolasining mukammal badiiy solnomasini yaratib bera oldi deb o'ylaymiz. Mustaqillik yana XII asrda yashab o'tgan mashoyixlar sarvari "shayxul-ra'is" Ahmad Yassaviy to'g'risida ham erkin fikr bildirish imkonini berdi. Yozuvchi Sa'dulla Siyoyev bu ulug' zot to'g'risida "Yassaviyning so'nggi safari" deb nomlangan asar yaratdi. Roman 2 kitobdan iborat. Ularda hazrat Yassaviyning o'z muridlari, sahobalari, shogirdlari, Samarqand podshosi Sulton Mahmud, amiru beklar, oddiy fuqarolar bilan uchrashuvlari, muomalasi, avliyo sifat qobiliyati, karomatlar haqida hikoya qilinadi. Mana, shayx ul-mashoyixning karomatlaridan biri: Yassaviyning sodiq muridlaridan biri Shahobiddin hoji bora-bora ochko'zlik, boylik, shuhrat ortidan quvib, piriga hiyonat qila boshladi.

Kechira-kechira sabri tugagan hazrat bir yig'inda uning ayblarini ochib tashlaydi, haloyiq oldida uni fosh qiladi. Ammo hoji ayblarini tan olmaydi. Shunda shayx ul-ra'is uning qo'liga Qur'on berib ont ichishni so'raydi. Hoji tap tortmay, uyalmay-netmay Qur'oni Karimni ko'ksiga bosib qasam ichadi. Oradan ko'p o'tmay jazosini oladi: Eshakdan yiqilib, oyog'i sinadi, og'zi qiyshayib qoladi. Hazratning karomatpeshaligi shundaki, Shahobiddin hoji piridan uzr so'rash niyatida yo'lga tushadi va yarim yo'lda jag'i to'g'rilanib, ortiga qaytadi. Uyiga kelgach, yana og'zi qiyshayib qolaveradi.

Yoki Samarqand hokimi Sulton Mahmudning yakka-yu yagona o'g'li Qutbiddin otasining taxtidan, cheksiz boylik, shon-shuhratdan voz kechib darveshlikni, shayx Yassaviyga xizmat qilishni afzal ko'radi va kamolga yetadi. 1-kitob haj safariga otlangan Yassaviyning Samarqandga qo'nishi, Sulton Mahmud bilan uchrashuvi, Qutbiddin taqdirining hal etilishi bilan tugaydi. 2-kitobda Samarqanddan hajga borish yo'lidagi voqealar, oddiy xalq ommasining Yassaviyga izzat-hurmatini ifodalashga bag'ishlangan.

Yozuvchi A.Dilmurod *"Mahmud Tarobiy"*, *"Pahlavon Muhammad"* nomli tarixiy romanlarini yaratdi. Ikki qismdan iborat *"Mahmud Tarobiy"* romanida Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi Chig'atoy ulusini isyonga boshlagan vatanparvar shaxsning faoliyati asos qilib olingan. Uning pahlavonligi, xalqparvarligi, odamoxunligi, tabibliigi, hunarmand inson ekanligi ishonarli ko'rsatilgan. Uning atrofiga uyushgan piri Shamsuddin Mahmudiy, shayx Ibrohim, jasur ukalari Muhammad, Ali, xalq qahramonlari Vafo Xo'jandiy, Navro'z polvon kabilar ham esda qolarlidir. Keyingi romani Navoiyning do'sti, hamkori, ixlosmandi Pahlavon Muhammadga bag'ishlangan. U orqali yosh Alisherning o'ziga xos xarakteri ham ochiladi.

Nihoyat, tariximizning yana bir yorug' yulduzi Alisher Navoiy haqida ham yangi tarixiy roman dunyoga keldi. Qariyb yarim asrdan so'ng iste'dodli yozuvchi Omon Muxtor Oybek panjasiga panja urib "Navoiy va rassom Abulxayr" deb atalgan roman-dilogiyasini (1. *"Ishq ahli"*, 2. *"Buyuk farrosh"*) yaratdi va bu asari uchun 2009-yilda mustaqillikning 19 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Bu asarida adib o'ziga xos yangi yo'ldan boradi, Oybekdan farqli o'laroq O.Muxtor Alisher Navoiyning hayot yo'lini, amaliy-ijtimoiy faoliyatini tasvirlash yo'lidan bormadi. Asar markaziga o'quvchiga tanish bo'lgan, ulug' mutafakkir shoir Navoiyni anglash masalasi qo'yiladi. Bu g'oyaviy niyatini ifodalash uchun yozuvchi bayonning yangicha usullarini, sujet va kompozitsiyaning o'zgacha shakllarini qo'llaydi.

Romanda rassom Abulxayrning Navoiy portretini yaratish oldidan uning mukammal qiyofasini ifodalash uchun olib borgan izlanishlari, iztiroblari, anglash qiyinchiliklari kundaliklari orqali ochiladi. Rassom Abulxayr shoir Navoiyning suratini uning siyratini anglamay turib chizolmasligiga aqli yetadi va mutafakkir shoirning lirik merosini chuqur o'rganishga kirishadi. Xulosa shuki, *"Navoiy bu – tubsiz osmon! Navoiy bu – ulkan ummon! Uni qamrab bo'lmaydi!"*. Muallif hikoyachi – qahramoni rassom Abulxayr nigohi orqali ulug' shoirning she'riyati qa'riga chuqur kirib boradi va shubhasiz, uning bayoniga ham nazm usuli kirib keladi. Nasriy bayonda nazm imkoniyatlaridan foydalanishning afzalliklari to'g'risida Vyetnam adabiyotshunosi To Xaoy shunday yozadi: *"Roman o'zga janrlarning eng yaxshi sifatlari va imkoniyatlarini o'zida qamrab oladi. Biz pyesa, ocherk, hikoya, qissa usullarini romanga olib kira olamiz. Bunda nazmdan ham foydalanish, uni har bir bobiga, har bir qismiga, har bir jumlasiga singdirish mumkin. Bu usullardan bevosita yoki ularni roman personajlarining fikr va harakatlarini ifodalaydigan darajada o'zgartirgan holda foydalansa ham bo'ladi"*.

Ajabki, O.Muxtorning ushbu tarixiy romanigina emas, balki ko'plab zamonaviy romanlari ham nazm bilan qorishiq usulda bayon qilingani bilan xarakterlidir.


Endi zamonaviy mavzudagi romanlar xususida gaplashsak. Aslini olganda, mavzu va muammosidan qat'iy nazar barcha adabiy asarlar zamonaviy ruh bilan sug'orilgan bo'lishi shart. Masalan, yozuvchi tarixiy mavzuga murojaat qilar ekan, shubhasiz, o'zi yashab turgan zamoni nuqtayi-nazaridan yondashuvi talab etiladi. Faqat asar zamonasozlikdan xoli bo'lsa bas.

Istiqlol davri adabiyotida ko'plab zamonaviy mavzuda yaratilgan asarlar adabiy jamoatchilikning yaxshi bahosini oldi. Bular orasida U.Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar", L.Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar", "Bu

dunyoda o'lib bo'lmaydi", T.Jo'rayevning "Arvohlar tunda izg'iydi", "Bozor dunyo" romanlari alohida ajralib turadi. Bunday deyaётganimizning sabablari bor. Mustaqillik tufayli badiiy adabiyotda ijodiy erkinlik vujudga kelgandan keyin uni suiiste'mol qilib, yengil-elpi mavzularda, oldi-qochdi, ur-yiqit voqealariga asoslangan, axloqiy buzqlik, fohishabozlik, o'g'rilikka bag'ishlangan "romanlar" nihoyatda ko'payib ketdi. Eng yomoni "bozor adabiyoti" paydo bo'ldi.

Nuriddin Ismoilov, Muhammad Ismoilov, Solih Qahhor, To'xtamurod Rustam, Habib Temirov kabilarning "usti yaltiroq, ichi qaltiroq" "roman"lari zamondoshlarimizning fikrini chalg'itdi, adabiyotning tarbiyaviy vazifasini chetga surib qo'ydi. Afsuski, aksar o'quvchilar ana shunday asarlarni o'qish bilan ovoralar. Yaxshiki, bunday asarlar adabiyotning umumiy saviyasini belgilamaydi.

Biz, yaxshisi, Ulug'bek Hamdam, Luqmon Bo'rixon, Tilavoldi Jo'rayevlarning yuqorida tilga olingan romanlari to'g'risida gaplasha qolaylik.



Saidning xotini – Oygul – Mirolimning xotini. Bular barchasi hayot tarozisining pallalari, muvozanatni talab qiladi.

II. "BOZOR DUNYO" Nozima ↔ Salima ↔ Kaniza

Mansur ↔ Nozima ↔ Kaniza

Kanizaning traktorchi eri ↔ Kaniza ↔ Mansur

Akasi Zokir ↔ Mansur ↔ otasi

Mansur ↔ hokim Zokir ↔ prokuror Qodir Aliyevich

Mansur ↔ Q.Aliyevich ↔ Nozima

Qishloq ↔ bozor ↔ shahar

Ma'naviyat ↔ adolat ↔ savdo

"Jaziramadagi odamlar" romani bilan yozuvchi birdaniga adabiy jamoatchilikning e'tiborini tortdi. Adabiyotshunoslarning davra suhbatlarida, kitob annotatsiyasida, yozuvchi E.A'zam esa "O'zAS"dagi maxsus maqolasida muallif L.Bo'rixon to'g'risida iliq gaplar aytili. Romanga Toshbibi chechaning xalq topishmoqlarida aytilgan "Bir otim bor – ajabgina, Dumlari gajakkina. Hali kelsa... Kula-kula o'lasiz" degan satrlar epigraf qilib olingan. Roman voqealari oliy o'quv yurtining ruhshunoslik fakultetida o'qiydigan talaba yigit tilidan hikoya qiladi. Unda Safarmurod chavandozning tashviqoti bilan Mirzacho'lga kelib, shahar qiyofasiga o'xshash posyolka bunyod qilgan mehnatsevar odamlar hayoti ifodalanadi. Sovxoz direktori Chinor Mengliyev, Safarmurod chavandoz, Ulash agronom, hikoyachi talabaning otasi Ergash (bular uchovi sinfdosh), Fayzulla bug'oltir, uning shaharlik kelini Lolaxon kabilarning har biri o'ziga xos taqdir va tasvirga egaligi bilan ajralib turadi. Roman tabiiyligi bilan e'tiborni tortadi.

Eslatma! Siz, Salomat Vafoning "Ovoraning ko'rgan-kechirganlari"; zamonaviy adabiyot (roman)imiz namunalari U.Hamdamning "Sabo va Samandar", I.Mirzoning "Bonu" ... nomli asarlarini mustaqil ravishda o'qiysiz va amaliy mashg'ulotda tahlil qilaisiz. Shuning uchun bu haqda to'xtalmaymiz.

Tekshiruv savollari:

1. Roman janrida nasrimizning qanday izlanishlari o'z ifodasini topyapti?
2. Bugungi kun romanining yangi tamoyili nimadan iborat?
3. Modernistik yo'nalishdagi romanlar qanday xususiyatga ega?
4. Keyingi yillarda qanday tarixiy shaxslar obrazi yaratilgan romanlar yuzaga keldi va ularning badiiy xususiyatlari nimada?
5. Romanning jamiyat ma'naviy taraqqiyotida, inson kamolotida tutgan o'rni. Analitik qahramonga ega bo'lgan romanlar?
6. Tarixiy va ijtimoiy voqyelik o'zining haqiqiy ifodasini topgan romanlar?
7. Totalitar tuzum illatlari tub mohiyati ochib berilgai romanlar?

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. *Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. T., "Fan", 1978-1979.*
2. *Adabiy turlar va janrlar. 3 tomlik. 1-tom T., "Fan", 1991.*
3. *Aristotel'. Poetika. Axloqi kabir. T., "Yangi asr avlodi", 2004.*
4. *S.Mirvaliev. O'zbek romani. T., "Fan", 1969.*
5. *O'zME. 7-t., T., 2004.*
6. *I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T., "O'qituvchi", 2005.*
7. *U.Normatov. Ijod sehri. T., "Sharq" NMAK. 2007.*
8. *Q.Yo'ldoshev. Yoniq so'z. T., "Yangi asr avlodi", 2006.*
9. *A.Rasulov. Badiiylilik – bezavol yangilik. T., "Sharq" NMAK. 2007.*
10. *Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. T., 2009.*
11. *D.Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. T., "Akademnashr", 2010.*

7- ma'ruza mashg'ulot mavzusi: ADABIY JARAYON

VA TARJIMA ADABIYOTI

REJA:

1. Adabiy jarayon milliy va madaniy merosning ajralmas qismi sifatida.
2. Adabiy jarayon va adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlar va yo'nalishlar.
3. Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti, badiiy adabiyot va nazariy adabiyotning o'zaro aloqasi va bir-birini boyitishi.

Asosiy tushuncha va atamalar: *adabiy jarayon, tarjimonlar millat va elat madaniyatining kuychilari, mamlakatlararo adabiyot, tadqiqotchi olimlar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, xorijiy tillar, urf-odatlar, marosimlar, tilning go'zalligi, maftunkorligi va jozibasi, insonshunoslik, Adabiyot yashasa millat yashaydi, tarjima nazariyasi, yuksak did va mahorat egasi, xalq va millat ahli.*

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganish tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatini, tarixi va adabiyotini, urf-odatlar, marosimlari va boshqa qirralarini o'rganish bilan uzviy ravishda qaralmoqda, chunki ana shu qirralar tilda o'z aksini topadi. Ma'lumki, adabiyot fani inson dunyoqarashini fikr doirasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tilning go'zalligi, maftunkorligi va jozibasi o'sha tilning adabiyotida namoyon bo'ladi.

Adabiy jarayonda adabiy aloqa va badiiy tarjima juda qadim tarixga ega. To'maris, Shiroq haqidagi ko'hna afsonalar eramizdan avvalgi V-II asrlarda yashagan yunon muarrixlari Herodot va Polien asarlarida uchrami, "Zariadr va Odatida", "Zarina va Striangiya" qissalari Diodor va Xares Milenskiy kitoblari orqali yetib kelganining o'ziyoq buning yorqin dalilidir. "Avesto"ning nafaqat ilmga, tabobatga,

dehqonchilikka, balki falsafa va adabiyotga oid qismlari ham yunon tiliga tarjima qilingan va Fales, Anaksimandr, Anaksimen, Geraklit va boshqa yunon olimlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Mashhur hind eposi "Panchatantra" ("Besh kitob"), arab ertaklari asosida yaratilgan "Ming bir kecha", "To'tinoma" kabi asar Sharqdagina emas, G'arbda ham mashhur bo'lgan. Jahon adabiyotini bu asarlar ta'siridan ayro tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Ularning ispan va italyan tillariga tarjima qilinishi va shu orqali yevropaga tarqalishi G'arb adabiyotida "didaktik kitoblarning yaratilishiga, novella janrining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Dastlabki G'arb romanlaridagi qiziqarli sarguzashtlarni hikoya qilish usuli bevosita Sharq adabiyoti ta'sirida bunyod topgandir. Bunda, birinchi navbatda, arab dunyosiga yondosh Andalusiya katta rol o'ynadi. Dastlab arab-ispan madaniyati shakllangan o'lka ana shu Andalusiya edi"⁵.

"Yevropa shoirlari Sharqdan rasman ohang va shaklnigina olishga intilsalar-da, baribir tasviriy vositalar, ibora va ifodalar, ba'zan ma'no va mavzuni qabul qilganlar. Gilyom IX, shuningdek, Markbryun she'rlarida "pardador" (hojib – haram og'asi), "raqib" so'zlarining tez-tez uchrashi, aynan bizning g'azallarimizdagidek, ularning salbiy ma'nolarda qo'llanilishi trubadurlar she'riyatiga Sharq ruhi naqadar chuqur singib borganidan nishonadir. Arab va fors-tojik tilida hamda turkiy she'riyatda keng ishlatilib kelingan "nosih", "g'iybatchi", "hosid", "muhtasib" singari umumlashma atamalar, umuman, Sharq ruhi Yevropa adabiyoti sahifalarida to hanuzgacha kezib yuribdi"⁶.

G'arb mumtoz adabiyoti durdonalarining aksariyati Sharq so'z san'ati ta'siridan xoli emas. Buyuk italyan shoiri Aligyeri Dantening "Ilohiy komediya" sidagi ishq talqini Ibn Sinoning "Risolai ishq" asari, osmon jismlari bilan bog'liq tasvirlar esa Ahmad Farg'oniyning samoviy jismlar harakati haqidagi tadqiqotiga asoslangani ilmda o'z isbotini topgan. Bokkachcho esa "Dekameron"dagi 100 ta novelladan 87 tasini Sharqdan olgan. Ispan shoiri Garsia Lorkaning "Tamarit devoni", nemis adibi I.V.Gyotening "G'arbu Sharq devoni" -ku bevosita Sharq adabiyoti va shoirlari ta'sirida yaratilgan.

Albatta, bu ta'sir ikkiyoqlama bo'lgan. Avval Sharq ta'sirida G'arb adabiyoti yuksalgan bo'lsa, keyingi asrlarda G'arbnig Sharqqa kuchli ta'sirini ko'ramiz. Biror-bir xalq o'z qobig'ida rivojlanmagani kabi, uning adabiyoti ham tashqi ta'sirlarsiz taraqqiy etishi mumkin emas. Adabiyotlar bir-birini ham mazmun, ham shakl jihatidan boyitadi.

Bu masalaning mazmun jihati – mushtarak mavzularda qalam tebratishni o'z ichiga oladi. Masalan, Sharqdagi xamsanavislik an'alarini olaylik. Bu an'ana mushtarak mavzularning yangidan-yangi talqinlarini vujudga keltirgan. Ayni paytda, bu shakl jihatidan ham adabiyotni yangiladi, boyitdi. Navoiygacha turkiy adabiyotda "Xamsa" bo'lmagan. Yusuf Xos Hojib zabardast fors dostonnavisi Abulqosim Firdavsiy bilan ijodiy bellashib, "Shohnoma" muqobilida o'zining "Qutadg'u bilig" asarini yaratgan. Bu asarning turkiy "Shohnoma" nomi bilan shuhrat topgani bejiz emas.

Turkiy she'riyat qadimda asosan alliteratsiyaga asoslangan, hatto unda qofiya ham bo'lmagan. Keyinchalik to'rtliklar paydo bo'ldi. Tuyuq ham turkiy she'riyatda vujudga keldi. Lekin qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, fard, muxammas, musaddas, mustazod, murabba', tarje'band, soqiynoma kabi she'riy janrlar arab va fors adabiyotidan kirib keldi.

Ma'lum bo'ladiki, tarjima vositasida adabiyotlar yangi janrlar bilan ham boyiydi. Roman, drama kabi janrlar ham keyinchalik bizga rus adabiyoti orqali G'arbdan kirib keldi.

Atab o'tganimizdek, (qarang: 1-ma'ruza mashg'ulotida) adabiyotshunoslikda "adabiy jarayon" atamasi tor va keng ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda qo'llanganda adabiy jarayon atamasi badiiy adabiyotning eng qadimgi davrlaridan to hozirgi kunga qadar davom qilib kelayotgan uzluksiz taraqqiyot jarayonini bildiradi. Tor ma'noda esa ushbu atama ostida muayyan bir davr adabiy jarayoni, undagi badiiy adabiyotning mavjudligi va rivoji bilan bog'liq barcha narsa-hodisalar, jarayonlar tushuniladi. Masalan, XX asr boshlaridagi Turkiston adabiy jarayoni deganda o'sha davr adabiy-ijtimoiy hayoti

⁵ Комилов Н. Ибн Сино ва Данте. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. 74-бет.

⁶ Ўша ерда. 74–75-бетлар.

(ya'ni, unda faoliyat ko'rsatgan ijodkorlar, ularning o'zaro munosabatlari; jamiyat hayotida yetakchilik qilayotgan g'oyalar, ijtimoiy maqsad va intilishlar va h.), davrning xarakterli adabiy-estetik hodisalari (badiiy adabiyotdagi yangiliklar, yangi adabiy-estetik tamoyillarning vujudga kelishi, yangi janrlarning paydo bo'lishi, adabiyotning real hayotga yaqinlashuvi, uning ijtimoiylashuvi va h.), adabiyotning u yoki bu yo'nalishda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar (ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, madaniy-ma'rifiy sharoit, adabiy aloqalar, adabiy an'ana va yangilik munosabati) ... – qisqasi, badiiy adabiyotga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan barcha narsa-hodisalar, jarayonlar nazarda tutiladi.

Agar badiiy adabiyotning eng qadimgi davrlardan to hozirgacha kechayotgan uzluksiz rivojlanish jarayoniga nazar solinsa, bu jarayon kishilik jamiyatining taraqqiysi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, umummadaniy va umumma'rifiy rivojlanishi bilan baqamti kechayotgani ko'riladi. Shu bois ham adabiyotshunos muayyan davr adabiy hodisalarini o'rganganda ijtimoiy-tarixiy sharoitni albatta e'tiborga oladi, chunki har bir davr adabiyotining rivojlanish darajasi, undagi turfa adabiy hodisalar ko'p jihatdan ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy-tarixiy sharoit deganda, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, umummadaniy va umumma'rifiy holati tushuniladiki, bular bari badiiy adabiyot taraqqiyotining tashqi omili sanaladi. Ma'lumki, jahon hamjamiyatiga kiruvchi turli millatlarning ijtimoiy taraqqiyot darajasi turlicha bo'lib, bu narsa milliy adabiyotlar taraqqiy darajasida ham o'z aksini topgan. E'tiborli jihati shundaki, umuman kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bosqichlariga xos ijtimoiy-tarixiy sharoit har bir konkret jamiyat rivojida mohiyatan o'xshashdir. Shunga ko'ra milliy adabiyotlar taraqqiyot bosqichlarida ham muayyan o'xshashliklar kuzatiladiki, ularni milliy adabiyotlar taraqqiyotidagi stadial umumiylik deb yuritiladi. Fikrimizni oydinlashtirish uchun konkret misolga murojaat qilaylik. Masalan, asrimiz boshidagi Turkiston ijtimoiy-tarixiy sharoitining milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga ta'sirini yorqinroq tasavvur qilish uchun, fikrimizcha, uni Yevropa adabiyoti tarixi bilan muqoyasa qilish foydalidir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati o'zining ko'p jihatlari bilan XVIII asrda Yevropada keng quloch yoygan ma'rifatchilik harakatiga o'xshashdir. Har ikki harakatga xos mushtarak nuqtalarga bir qur nazar solinsayoq, bizningcha, bu fikrimizda jon borligi anglashiladi. Avvalo shuki, har ikki harakat ham feodal asoslar yemirilib, ularning o'rnida kapitalistik munosabatlar qaror topa boshlagan paytda maydonga kelgan. Ya'ni, har ikki harakatning yuzaga kelishini zaruratga aylantirgan ijtimoiy tarixiy sharoitning o'xshashligi ulardagi o'xshashlikni keltirib chiqargan. Feodal ijtimoiy munosabatlardan farqi o'laroq, kapitalistik munosabatlar jamiyatning har bir a'zosi uchun teng imkoniyatlar ochishi bilan xarakterlanadi. Yangi sharoitda endi insonning ijtimoiy kelib chiqishi emas, aqlu zakovati, tadbirkorligiyu omilkorligi uning taqdirini va jamiyatdagi o'rnini belgilaydi. Ko'rinadiki, yangicha ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy maqomini o'zgartirdi, shaxs endi o'zini ijtimoiy shaxs sifatida – jamiyatning va o'zining hayotiga faol ta'sir ko'rsata oladigan unsur sifatida anglay boshlaydi. Shaxs maqomining o'zgarishi bilan feodal-monarxik tartiblarning eskirgani, jamiyat hayotini isloh etish zarurati tobora ravshan ko'zga tashlana boradi. Yevropaning qator mamlakatlarida ayni shu xil sharoit yuzaga kelganida maydonga chiqqan harakat ma'rifatchilik harakatidir.

Yevropada ma'rifatchilik g'oyalari ta'sirida yangicha estetik tamoyillarga tayangan adabiyot shakllandiki, uning asosida *“dunyoni va insonni o'zgartirishga qodir g'oyaviy adabiyot kerak”*, degan aqida yotadi. Ya'ni, boshqacha aytsak, ma'rifatchilarning ijtimoiy ideali — *“inson tabiati va “aql”ga muvofiq jamiyat qurish*” ma'rifatchilik adabiyotining estetik idealiga aylandi. Bu esa adabiyotning-da shunga muvofiq holda o'zgarishini taqozo qildi. Mazkur o'zgarishlar orasida eng muhimi — idealning *“yerga tushgani”* dirki, buning natijasi o'laroq badiyat, go'zallik tushunchalariga ham jiddiy tahrirlar kiritildi.

Jadidchilar kabi ma'rifatchilar ham adabiyotda avvalo o'quvchilarni tarbiyalash asosida ijtimoiy hayotni isloh qilish vositasini ko'rganlar. Shu bois ham ma'rifatchilik adabiyotidagi qator jihatlar jadid adabiyotidagi tamoyillarni esga soladi. Badiiy adabiyotga konkret maqsadga erishish vositalaridan biri sifatida qaraganlari uchun ham ma'rifatchilarning asarlarida ko'pincha qahramonlar orasida ochiq g'oyaviy kurash kechadi, qahramonlar tilidan muayyan g'oyalar aytiladi, qisqasi, g'oya asarning butun

to'qimasiga singdirib yuboriladi. Ayrim adabiyotshunoslarning "ma'rifatchilik realizmi" atamasidan ko'ra "didaktik realizm" atamasini ma'qul ko'rishlari bejiz emas, albatta. Zero, ma'rifatchilik adabiyoti, bir tomondan, adabiyotni hayotga yaqinlashtirdi, ikkinchi tomondan, uni tarbiya vositasi deb bildi.

Ma'lumigizki, ayni shu ikki tamoyil jadid adabiyotining ham mohiyatini belgilovchi xos xususiyatlar sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Masalan, fransuz adibi Monteskyening "Fors xatlari", ingliz yozuvchisi Goldsmitning "Dunyo fuqarosi yoki xitoylik kishi xatlari" nomli asarlarida Yevropa voqeligi chet elliklar – birida fors, ikkinchisida xitoylik kishi nigohi orqali beriladi. Bu xil badiiy-kompozitsion usulga murojaat qilinishining sabablarini qo'ya turaylik-da, Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi" asarlarida ham shu yo'ldan borilganini eslaylik. Yoki "Munozara"ning dialog shaklida qurilganini olaylik. Qadimgi yunon faylasuflari foydalangan bu shakl XVIII asrda ma'rifatchilar tomonidan tiriltirilgan, Didro, Lessing, Gerderlarning falsafiy-publitsistik asarlari (hatto Didroning "Ramo jiyan" romani) dan ayrimlari ayni shu shaklda yozilgan edi. Tabiiyki, mazkur masala maxsus o'rganilsa, bulardan boshqa ham mushtarak o'rinlar topilishi, ehtimol.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, tabiatning eng buyuk mo'jizasi inson ekanligi hech kimga sir emas. U dunyoni mukammallashtiruvchi, insonlar hayotini asrab qolishga hissa qo'shuvchi kashfiyotlar qiladi. Insoniyatning qadami yetmagan, u o'rganmagan soha, u zabt etmagan cho'qqi, u yetmagan sayyora qolmagan. Shunday ekan, insoniyatning qilgan ishlari mangulikka muhrlanadi. **Agar uning ijodi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, uning buyuk tarjimalari haqida ta'kidlasak bas. Madaniyatlararo aloqalarning barqarorligi ham, shubhasiz, inson ijodining mahsuli bo'lgan tarjima orqali namoyon bo'ladi. Shunday ekan, tarjima-millatlar va elatlarning, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, madaniyatidan bilinadi. Demakki, tarjimonlar bu millat va elat madaniyatining kuychilari hisoblanadi.** Mashhur rus yozuvchisi A.S.Pushkin: "Tarjimonlar – ma'naviyatning pochta otlaridir", – degan so'zlari, yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol dalilidir. Mamlakatlararo o'zaro madaniy, ma'rifiy hamda iqtisodiy aloqalar mamlakat rivojini va taraqqiyot cho'qqisini belgilab beradi. Shunday ekan, madaniy hamda ma'rifiy merosning negizi, shak-shubhasiz adabiyot hisoblanadi. Mamlakatlararo adabiyotning ahamiyati juda yuksak bo'lib, ulur asosan tadqiqotchi olimlar, adabiyotshunolar, tilshunolar va albatta tarjimonlar orqali boyitiladi va tarqatiladi. Shu xususda gap ketar ekan, barcha sohalarning yo'lboshchisi bo'lgan, mashhur rus adibining ta'biri bilan aytganda, madaniyatlarning pochta otlari bo'lgan, tarjimonlar xususida so'z yuritishni lozim deb bilamiz. Tarjimon so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, uning ildizi o'tmishga, tarixga borib tarqalishi hech kimga sir emas. Tarjimon so'zi, forscha "tarzabon" so'zidan olingan bo'lib, "shirin suhan", "chiroyli so'zlovchi", "chiroyli nutqqa ega kishi" degan ma'nolarni anglatadi. Tarjimonlarning faoliyati qadim-qadimdan o'z samarasini berib kelgan. Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy hamda ilmiy salohiyatini yanada boyitish maqsadida, boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti, siyosati va ilm-fanidan andoza olish uchun ham, tarjimonlarning harakati beqiyos bo'lgan. Agar buni ilm-fan miqyosida oladigan bo'lsak, unga adabiyotni yaqqol misol deb bilamiz. Chunki adabiyot xalq va muallifning hayoti, ichki kechinmalari, yohud inqirozi sabablarini yoritib beruvchi, unga aniqlik kirituvchi va xalqni taraqqiyot sari boshlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu o'rinda atoqli o'zbek adibi Cho'lponning "Adabiyot yashasa millat yashaydi", – degan so'zlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Zeroki yer yuzidagi ko'plab adiblarning asarlari tarjimonlar orqali yer yuzini ko'radi. Bu asarlarda dunyo xalqlarining hayot yo'li, umr guzaronligi, an'ana va qadriyatlarini, fikrimizni lo'nda qilib aytganda – millatning tarjimai holini ko'rishimiz mumkin. Bunday izlanishlar o'z navbatida tarjimonlarning faoliyatida o'z ifodasini topgan desak, o'ylaymizki, yanglishmagan bo'lamiz. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash joizki, tarjima jarayoni faqatgina aloqa munosabat vositasi emas, balki u madaniyatlar, ma'naviyatlar kuychisi desak xato bo'lmaydi. Tarjimonlar haqiqatdan ham yuksak did va mahorat egasi bo'lib, muallif ijodini yanada takomillashtirib, uni ilmiy-nazariy jihatdan boyitib, so'z yuritadilar.

Tarjima nazariyasi taxminan 1960-yillarda alohida fan sifatida tan olinib, turli xil universitet va pedagogika institutlarida fan sifatida o'tilgan. Hozirda mavjud bo'lgan tarjima va tarjima nazariyasi tushunchalarining mustaqillikdan ilgari ham keng miqyosda o'rganilganligini quyidagilarda ko'rishimiz

mumkin: Turli xil universitet, xususan, roman-german filologiyasida tarjima nazariyasi va amaliyoti umumiy-majburiy fan sifatida o'tilishi; – Universitetni bitiruvchi talabalar o'zlarining asosiy mutaxassisliklaridan tashqari qo'shimcha ravishda tarjimon degan mutaxassislikka ega bo'lishlari; – Jurnalistika fakultetlarida yangi tarjimachilik ixtisosining paydo bo'lishi, shular jumlasidandir. Demak, **O'zbekistonda tarjimaga oid tushunchalar va ularni tadqiq etish, mustaqillikdan oldin boshlangan, shunday ekan, tarjima qilish san'ati bizga nafaqat bir tushuncha, balki, bir darslik sifatida ham o'tilib, taraqqiyotga erishgan. Biz chet tilini, shu jumladan ingliz (va b. yaqin qardosh tillarni) tilini o'rganar ekanmiz, bunda nafaqat tilni, balki uning adabiyotini ham o'rganmog'imiz zarur. Bu bilan o'sha millat hayotini, tarixini, bosib o'tgan taraqqiyot davrini o'rganamiz, millat ruhiyati bilan, urf-odat va an'anlari bilan tanishamiz va bu bilan o'sha xalqqa yanada yaqinroq bo'lamiz.** Bu esa kishi qalbida nafaqat ona xalqini sevish va e'zozlashga, balki boshqa xalq va millat ahlini ham hurmat qilishga va qadrlashga o'rgatadi.

(Biz mashg'ulotimizni yaqin qardosh xalqlar adabiyoti tarixida atoqli turkman so'z san'atkori Maxtumduli ijodidagi o'ziga xoslik, tarjima nazariyasi va amaliyotidagi ba'zi mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashgan xolda davom etamiz).

Qardosh xalqlar adabiyoti tarixida atoqli turkman so'z san'atkori Maxtumduli o'ziga xos o'rin tutadi. Uning asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Zero, Maxtumduli o'zbek xalqi qalbiga yaqin bo'lgani uchun ham o'zbekning o'z milliy shoiriga aylanib ketdi. Shoir Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida tahsil oldi; umrining muayyan qismi Xorazmda o'tdi. Maxtumdulining xalq ichida mashhur bo'lgani bois u haqida ko'plab rivoyatlar to'qildi, she'rlari tildan tilga o'tib, qo'shiqchilar repertuaridan mustahkam o'rin oldi. Shu bilan birga shoirning she'rlari keng ommaga yetkazilishi uchun qo'lyozmalari ko'plab kotiblar tomonidan ko'chirildi. Iste'dodli hofiz Komiljon Otaniyozov: "Xorazmni shoirning ikkinchi yurti" deb bemalol aytish mumkin", degan fikri bag'oyat o'rinlidir⁷. Aslida bu ta'rif miqyosini kengaytirib: "O'zbekiston – Maxtumdulining ikkinchi vatani" deyishda ham aslo mubolag'a yo'q. Keyingi davrda shoir ijodiga qiziqish yanada kuchayib, uning she'rlari o'n besh nafar tarjimon tomonidan o'zbek tiliga o'girildi. Bu holat, birinchidan, o'zbek o'quvchilari orasida Maxtumduli she'rlariga ma'naviy ehtiyojning naqadar katta ekanini, ikkinchidan esa, she'riyat ixlosmandlari butun borlig'ini xalq diliga yaqin ohanglarda doston qilgan shoirni qanchalar o'zlariga yaqin olishlarini ko'rsatadi.

Maxtumduli qadimdan o'zbek xalqi orasida mashhur bo'lgan. Adabiyotshunos olim Hamdam Abdullayevning ma'lumot berishicha, shoir Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida tahsil olgan XVIII asrning 60-70-yillaridan uning asarlari xalq orasida keng tarqalgan edi⁸. Maxtumduli she'rlarining ilk o'zbekcha tarjimalari u hayotligi paytidayoq Xorazmdan xalq baxshilari va hofizlari tomonidan ijodiy ravishda o'zbekchalashtirish shaklida yuzaga kelgan⁹. Umuman olganda esa, XX asr o'rtalarigacha ham "Maxtumdulining xalqona uslub va soddada tildagi she'rlari o'zbeklarga ham tushunarli bo'lganidan ularni tarjima qilishga ehtiyoj sezilmagan, hatto 1960-yili nashr etilgan "O'zbek adabiyoti" majmuasining to'rtinchi jildi ikkinchi kitobida ham Maxtumduli asarlari asl nusxasida berilgan"¹⁰. 1958-yili bosilgan "Chorak asr devoni"da Maqsud Shayxzoda Maxtumdulining "Qoni bordir" degan barmoq vaznidagi she'rini "Majnun kabi" nomi bilan o'zbekchaga o'girib e'lon qilgan¹¹. Lekin tarjimon she'r matnini tarjima jarayonida shunchalik erkin talqin qilganki, uning ayrim baytlari asliyatga umuman to'g'ri kelmaydi. Bizningcha, Maqsud Shayxzoda ushbu g'azalni A.S.Pushkin va M.Yu.Lermontov asarlarini

⁷ Курамбоев К. Махтумқули шеърляри Ўзбекистонда. – Т.: Фан, 1984. – Б. 40.

⁸ Абдуллаев Ҳ. Махтумқули ва ўзбек адабий муҳити. – Т.: Фан, 1983. – Б. 30.

⁹ Тайлакова М., Сапаров М. Махтумқули асарлари тилининг ўзбекча таржимасига баъзи бир қайдлар. Ўзбек филологияси масалалари (Илмий асарлар тўплами). – Т.: Фан, 1990. – Б. 46.

¹⁰ Очилов Э. Ўзбекистонда Махтумқули ҳаёти ва ижодининг ўрганилиши // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари (Илмий мақолалар тўплами). – Наманган, 2009. – Б. 59.

¹¹ Шайхзода М. Чорак аср девони. Танланган асарлар. – Т.: Давлат Бадий адабиёт, 1958. – Б. 425.

tarjima qilib, o‘sha rus shoirlari ta’sirida yurgan paytlari tarjima qilgan. Chunki ayrim baytlar tarjimasida aynan g‘arbona ruh yaqqol sezilib turadi.

Masalan, *asliyatda*:

Ko‘yse o‘mrým jebr ishkina, izinda Mejnuni bardir,
Yyzleri xandan eylese, cheshimide xuni bardir...
Magtimguli, bu vatani, sen terk kiliban yormegil,
Xyur-u peri, gulman-besher, ancha-ki janani bardir.

Tarjimada:

Majnun kabi ishq ko‘yida o‘rtanurman shu zamon,
Shoyad o‘lsam, mazaq qilib, mendan kular ko‘r shayton.
Lekin yurtni, Maxtumluli, tashlab ketma! G‘urbatda –
Hur qizining bo‘salari zaqqumdan ham ko‘p yomon¹².

G‘azal matlaining mazmuni: *Umrin ishq hajrida kuysa-da, izida Majnuni bordir, yuzlari kulib tursa-da, ko‘zlari qonga to‘la bo‘lib, unda ko‘r shayton haqida gap yo‘q. Maqta esa Maxtumluli, sen bu vatanni tark etib yurmagilki, huru pari, g‘ilmonu inson kabi ko‘plab jononi bordir* ma’nosini o‘zida ifoda etib, unda *hur qizining bo‘salari zaqqumdan ham ko‘p yomonligi* xususida so‘z bormaydi. Bunday motivlar G‘arb she’riyati, jumladan, A.S.Pushkin va M.Yu.Lermontov she’rlari uchun xosligi ma’lum.

Maxtumlulining diniy mavzu-mazmundagi she’rlari tarjimasini asliyat bilan qiyoslaganimizda, barcha tarjimonlar diniy istilohlar, e’tiqodiy tushunchalar, islomiy urf-odat va marosimlar, payg‘ambar va avliyolar nomi, ular bilan bog‘liq mo‘‘jiza va voqealarga ishoralar tarjimasida ko‘plab xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yganlari ma’lum bo‘ladi. M.Ahmad tarjimalari misolida E.Ochilov ham bunga e’tibor qaratgan edi¹³. Maxtumlulining diniy-ma’rifiy mavzu-mazmundagi she’rlari tarjimalari tahlili bu borada tarjimonlar tomonidan quyidagi xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganini ko‘rsatadi¹⁴:

1. Mafkura ta’sirida diniy mazmundagi bandu baytlarni tarjima jarayonida qisqartirib ketish. Bu hol J.Sharipov tarjimalariga xos bo‘lib o‘ttizdan ortiq she’rlar tarjimasida u shunday yo‘l tutgan. Masalan, “Bilinar” she’ridan diniy mazmundagi uch band, “Kerakdir” she’ridan – ikki band, “Ketuvchi bo‘lma” she’ridan esa yetti band qisqarib ketgan va hokazo. Lekin istiqlool davrida amalga oshirilgan tarjimalarda bu kamchiliklar bartaraf etilgan – M.Ahmad, M.Kenjabek, A.Jumayev va J.Zulpiyev, E.Ochilov kabi tarjimonlar o‘z tarjimalarida sho‘ro davri mafkurasini taqozosi sababli J.Sharipov tarjimalarida qisqarib ketgan diniy mazmundagi baytu bandlarni tiklaganlar. Jumladan, “Kor bilan” she’ri tarjimasida tushib qolgan quyidagi band M.Kenjabek hamda A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tarjimasida tiklangan:

*Asli kəfir musulmana gatishmaz,
Chin musulman xaram ishe tutushmaz,
Manzil kesmez, xich bir yana yetishmez,
Bashchi tutup, yola giren kər bile.*

M.Kenjabek tarjimasi:

*Asli kufr musulmonga yarashmas,
Chin musulmon harom ishga yondashmas,
Manzil ketmas – hech bir joyga yetishmas,
Boshliq tutib, yo‘lga kirgan ko‘r bilan.*

A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tarjimasi:

*Asli kufur hech muslimga qotishmas,
Chin musulmon harom ishga tutashmas,
Manzil oshmas, hech makonga yetishmas,
Boshchi tutib, yo‘lga chiqqan ko‘r bila.*

¹² Максуд Шайхзода. Чорак аср девони. Танланган асарлар. – Т.: Бадий адабиёт, 1958. – Б. 425.

¹³ Ф.Сапаева. Махтумқули шеърлари ўзбекча таржималарининг қиёсий таҳлили // Дисс. – Т., 2018. – Б. 31.

¹⁴ Ф.Сапаева. Махтумқули шеърлари ўзбекча таржималарининг қиёсий таҳлили // Дисс. – Т., 2018. – Б. 112.

Lekin tarjimalar ba'zi kamchiliklardan xoli emas. Chunonchi, birinchi misraning mazmuni "*Asli kofir musulmonga el bo'lmas*" bo'lib, ikkala tarjimada ham *kofir* *kuf*rga aylangan. Holbuki, bu ikki so'z o'rtasida farq mavjud: *kofir* – dinni inkor etuvchi, xudosiz, g'ayridin ma'nolariga ega bo'lsa, *kuf*r – dinsizlik, noshar'iy ishlarni qilish. Boshqacha aytganda, *kuf*r – kofirlik bo'lsa, *kofir* – kufni kasb qilib olgan kishi. Umuman, kofir va kuf'r tushunchalarini farqlamaslik, birining o'rniga ikkinchisini qo'llash bu tarjimonlar faoliyatiga xos bo'lib, ularning boshqa qator tarjimalarida ham shu xatoga duch kelamiz. Masalan, "*Kafirlere Shaximardan yaratdi*" misrasini A.Jumayev va J.Zulpiyevlar "*Kufurlarg'a Shohimardon yaratdi*" deb tarjima qiladilar. Holbuki, *kofirlarga* bo'lishi kerak. Keltirilgan bandni E.Ochilov asliyatga muvofiq tarjima qilgan:

*Asli kofir musulmonga qotishmas,
Chin mo'minlar harom ishga botishmas,
Yo'li unmas, bir manzilga yetishmas,
Rahnamo deb, yo'lga kirgan ko'r bilan.*

Ma'lumki, "asl nusxaga har jihatdan muvofiq, uni to'liq aks ettiruvchi, unga shakl va mazmun jihatidan mos keluvchi, muallif uslubi saqlanib, asar badiiyati qayta yaratilgan tarjima"¹⁵ adekvat, ya'ni mukammal tarjima hisoblanadi. Buning uchun, avvalo, asliyat vazniga muvofiq vazn topish, ikkinchidan, asliyat matni mazmunini o'zgartirmaslik, uchinchidan, uni qisqartirmaslik talab qilinadi. Aruz va barmoq tizimi ham o'zbek, ham turkman adabiyotida mavjudligidan Maxtumquli she'rlari tarjimasida tarjimonlar vazn muammosiga duch kelmaganlar. Goh mafkura talabi, goh turkman tilini bilmaslik, goh arab va fors tillaridan bexabarlik, goh islom ta'limotidan yetarli ma'lumotga ega emaslik, goh erkin talqin tufayli asliyat matnini buzish va o'zgartirishlar ko'p uchraydi. Shoir she'rlaridagi diniy o'rinlarni tarjima jarayonida qisqartirib ketish esa o'sha davrdagi hukmron mafkura tazyiqi o'laroq yuz bergan. Bu esa adekvat tarjima talablariga zid bo'lib, asliyatni to'la aks ettirmasligi yetmaganday, muallif dunyoqarashi haqida noto'g'ri tasavvur tug'diradi. Natijada, orif shoir bo'lmish Maxtumqulining sho'ro davrida didaktik shoirga aylanib qolgani buning yorqin isbotidir.

2. Hukmron mafkura tufayli o'zgarishga uchragan matnlar tarjimasini. Albatta, bunda tarjimonning aybi yo'q. Chunki u mavjud matnni tarjima qilgan. Lekin hamma gap o'zgartirilgan matn tarjimasini o'qigan o'quvchining muallif va uning asari haqidagi taassuroti ham boshqacha bo'lishida. Kuzatishlar diniy istilohlarning tushirib qoldirilishi yoki o'zgartirilishi faqat Maxtumquli asarlarining tarjimalariga xos bo'lmay, sho'ro davrida shoir asarlari shunday tuzatishlar bilan nashr etilganligini ko'rsatadi. Masalan, "*Goch yigide din giliy(ж)и*" misrasi ilgari "*Goch yigide – ar giliy(ж)и*" deb berilgan. Binobarin, J.Sharipov uni "*Mard yigitda or qilichi*" deb tarjima qilgan ekan, avvalgi nashrlardan bexabar holda tarjimonni "*din*" so'zini "*or*" bilan almashtirganlikda ayblasak, bu bizning xatomiz bo'ladi. Yoki "*Suleyman dek dovni permana salsaq*" misrasi "*Rustamdek devlarni permana salsaq*" deb o'zgartirilgan. Bu esa mantiqqa zid: sehrli uzugi tufayli payg'ambar va podsho Sulaymon barcha insu jinslar, jumladan, devlarga ham hukm o'tkazgan. Rustam esa Mozandarondagi devlarni yenggan afsonaviy qahramon, u zinhor devlar ustidan farmon yuritgan emas. Bu misra o'zbekchaga ham "*Rustamdek devlarga farmonlar bersang*" tarzida o'girilgan.

3. Diniy termin-tushunchalarni tushunmay noto'g'ri talqin etish va tarjima qilish. Shoirning diniy mavzu-mazmundagi she'rlarini asliyat bilan qiyoslash tarjimonlar bu borada ko'pdan-ko'p xato-kamchiliklarga yo'l qo'yganliklarini ko'rsatadi. Mazkur nuqsonlarning aksariyati ma'noga daxl qilib, asliyat mazmunini buzgan, muallif fikrini o'zgartirib yuborgan, tarjima o'quvchisi uchun esa mavhumlik va tushunarsizlikni keltirib chiqargan, ba'zida hatto islom ta'limotiga to'g'ridan-to'g'ri zid bo'lib qolgan. Chunonchi:

*Eyyup sabri-belalar tartdi gurtнуң zəxmiden,
Sabir kildi, Xak anıñ derdige derman eyledi.
Ol Zekerya pigamber kim Таңрінің, zəkir guli,*

¹⁵ Очиллов Э. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т: Шарқшунослик институти, 2014. – Б. 11.

Erre goydi bashiga ol zikri-Raxman eyledi.

Muzaffar Ahmad tarjimasi:

Ayyub sabru balolar tortdi o‘tning bahridin,
Sabr qildi, Haq aning dardiga darmon ayladi.
Ul Zakariyo payg‘ambar kim, Tangrining zokir quli,
Ari qo‘ydi boshiga, ul zikri Rahmon ayladi.

Keltirilgan har ikkala baytda ham payg‘ambarlar bilan bog‘liq voqealar noto‘g‘ri talqin qilingan: Ayyub payg‘ambar *o‘tning bahridan* emas, balki *qurtning dastidan* ranju azoblar chekkan – rivoyat qilishlaricha, uning a‘zoyi badanini yara-chaqa bosib, qurtlab ketganidan odamlar uni dashtga chiqarib yuborgan emish. Zakariyo payg‘ambar esa boshiga ari qo‘ygan emas, balki u daraxt kovagiga berkinganida daraxt bilan birga boshini arralab tashlaganlarida ham Haq zikridan to‘xtamagan.

Ushbu baytlarni O.To‘rayev ham xato tarjima qilgan. Turkman tilida *gurt* so‘zi *bo‘ri* va *qurt* ma‘nolarida qo‘llaniladi. Ayyub alayhissalom voqearidan bexabar tarjimon esa uni *bo‘ri* deb o‘giradi va xatoga yo‘l qo‘yadi. U Zakariyo payg‘ambar hayotini ham bilmaganligi uchun “*Boshga ari yoki arra emas, balki toj qo‘yiladi-ku?*” degan xayol bilan “*boshiga arra qo‘yilgan Zakariyo*”ni “*boshiga toj qo‘yilgan Zakariyo*”ga aylantirib yuboradi:

Ayyub sabri balolar tortdi bo‘rining zaxmidan,
Sabr qildi – Haq aning dardiga darmon ayladi.
Ul Zakariyo payg‘ambar kim, Tangrining zokir quli,
Toj qo‘ydi boshig‘a, ul zikr Rahmon ayladi.

Bu baytlarni E.Ochilov asliyatga muvofiq tarjima qilgan:

Chekdi Ayyub qurt zaxmidan necha jabru jafo,
Qildi sabru Haq uning dardiga darmon ayladi.
Zakariyo payg‘ambar erdi Tangrining zokir quli,
Qo‘ysa-da boshiga arra, zikri Rahmon ayladi.

“Yo Rasul” muxammasidagi quyidagi misra tarjimasida O.To‘rayev ikki xatoga yo‘l qo‘ygan: *mo‘jiza* so‘zini *ma‘juz* (?) deb olgan bo‘lsa, *shaq* – yorilish, ikkiga bo‘linish so‘zini *shak* deb beradi: “*Mug(ж)uziyni birisi gasetgeli ol shak bile*” – “*Ma‘juzingning bittasi ko‘rsatgali ul shak ila*”. Bu yerda Muhammad alayhissalomning mo‘jizalaridan biri – barmog‘ining ishorati bilan oyni ikkiga bo‘lgani xususida so‘z borayapti. Tarjimadan esa bu mazmunni ilg‘ab olish qiyin. A.Jumayev va J.Zulpiyevlar misrani to‘g‘ri tarjima qilganlar: “*Mo‘jizangning birisi ko‘rsatgali ul shaq ila*”. Lekin *shaq* so‘zi o‘zbek o‘quvchisiga baribir notanish: unga yo izoh berish, yo tarjima qilib olish kerak. E.Ochilov bu misrani “*Mo‘jizangning biri bog‘liq oy sinishi – shaq bilan*” tarzida o‘zbekchalashtiradi. Shu muxammas tarjimasida O.To‘rayev yana “*Laylat ul-me‘roj*” – “*Me‘roj tuni*”ni “*Laylat ul-qadr*” deb oladi. Holbuki, ularning o‘rtasida farq bor: *me‘roj tuni* – Muhammad alayhissalom Buroq bilan Olloh huzuriga yuksalgan kecha. *Laylat ul-qadr* – ramazon oyining Qur‘on nozil bo‘la boshlagan 26-dan 27-ga o‘tar kechasi. Shuningdek, *me‘roj* (magraj) so‘zini *mahroj* deb xato bergan: “*Xizmatihda seyr ederler Leyletil magrajni*” – “*Xizimatingda sayr etarlar laylatul mahrojni*”. Aslida bu misra A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tarjima qilganidek, quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi kerak: “*Xizimatingda sayr etarlar Laylat ul-Me‘rojni*”.

M.Kenjabek Maxtumlulining diniy she‘rlarini mahorat va bilimdonlik bilan o‘zbek tiliga o‘giran, ko‘plab diniy so‘zlar va istilohlarga matn osti havolasida tegishli izohlar berib borgan. Lekin uning tarjimalari ham qator kamchiliklardan xoli emas. Chunonchi, “Haqi uchun” she‘ridagi “*Luv yili dyshdi magrach gallesine*” misrasini “*yetib bordi ul Me‘roj qal‘asina*” deb tarjima qiladi. Aslida (Baliq yili me‘roj havasiga tushdi) bo‘lishi kerak. *Me‘roj* – ko‘tarilish, yuksalish ma‘nosini bildiradi. A.Jumayev va J.Zulpiyevlar bu misrani “*Lu yili tushdi Me‘roj g‘alvasiga*” deb tarjima qilganlar. E.Ochilov uni “*Baliq yili bo‘ldi me‘rojga noil*”, deb to‘g‘ri tarjima qiladi. “Qolar, yoronlar” she‘ri tarjimasida “*Dine gyvə diyrlar parzi, synneti*” misrasini “*Dinga quvvat derlar farzni, sunnatni*” deb tarjima qiladi. Bu yerda

guvoh soʻzi quvvatga aylangan. Shoir dinning dinligi uning farzi bilan sunnatida demoqchi. Ayni jihatdan E.Ochilov tarjimasida asliyatga muvofiq: *“Dinga guvoh derlar farzi, sunnati”*.

J.Sharipov tomonidan tarjima qilingan *“Anglamas”* sheʼrida *Ehson* soʻzi *hamla* boʻlib ketgan: *“Bir bagshashdan yetmish bela dep bolar”* – *“Bir hamladan yetmish balo daf boʻlar”*. Bu yerda tarjimon gap baloni daf qilish haqida borayaptimi, demak, masala urush, jang, zarba bilan hal qilinadi deb oʻylagan boʻlsa kerak, holbuki, xalqda *“Sadaqa – raddi balo”* degan hikmatli soʻz ham bor.

“Gumon koʻrinur” sheʼri tarjimasida J.Sharipov *muqaddar* – taqdir qilingan, qismat etilgan soʻzini *moʻtabar* deb tushunadi: *“Rizkiya kepildir alla, mukadder”* – *“Rizqingga kafildir ollo moʻtabar”*. Albatta, Olloh moʻtabar, lekin shoir *“Rizqingni belgilagan Olloh rizqingga kafildir”*, – demoqda. *“Ish boʻlmas”* sheʼri tarjimasida esa M.Ahmad (Rizq shohu gadoga ilohiy qalam bilan oldindan belgilangan, uning yozgani sira ortiq boʻlmaydi) mazmunidagi *“Rizk bir mukadderdir shax-u gedaga, Galam birdir, munda yazan bish bolmaz”* misralarini *“Rizq bir miqdordadir shohu gadoga, Qalam birdir, bunda yozgan pesh boʻlmas”* deb tarjima qiladi. Bu yerda ikkita xato bor: birinchisi – shohu gadoning rizqi teng emas, faqat ularning rizqi oldindan belgilangan, ikkinchisi – *pesh* soʻzi asliyatda *koʻp, ortiq, ziyoda* maʼnosida kelgan boʻlib, u forscha *besh* soʻzining turkmancha qoʻllanishidir, zinhor *old, old tomon, oldinda, yaqinida, avvali, etagi, bari* maʼnosidagi *pesh* emas.

4. Tarjimada diniy atama va tushunchalarni tushirib qoldirish. Jumladan, O.Toʻrayev tarjimasidagi *“Qora koʻzlaring”* sheʼrida *gʻilmon* (jannatdagi xizmatkor yigit) soʻzi tushib qolishi natijasida sheʼrdagi fikrning taʼsir kuchi pasaygan: *“Agladar besher-gulmani”* – *“Yigʻlatar insonu gʻilmonni”*– *“Yigʻlatar har bir insonni”*. Maxtumquli dardim nafaqat bu dunyodagi insonlarni, balki jannatdagi farishtalarni ham yigʻlatadi deb mubolagʻa qilsa, tarjimada bu fikrning faqat bir tomoni aks etgan – dardim har bir insonni yigʻlatadi. *“Sochdi Muhammad”* sheʼrini oʻzbekchalashtirishda esa Muso alayhissalom Olloh taolo bilan soʻzlashgan Tur togʻini tashlab ketishi natijasida *“Tura nazar dyshyp, daglar yananda”* – *“Nigohlari tushib, togʻlar yonganda”* fikr umumiy lashib, oddiylashgan – Olloh paygʻambari bilan bogʻliq ishoralar yoʻqqa chiqqan.

5. Mafkura taʼsirida yoki shaxsiy mulohazalardan kelib chiqib, diniy termin-tushunchalarni tarjimada oʻzgartirish. Bu hol J.Sharipov tarjimalarida koʻp uchraydi. Masalan, *“Boʻlar”* sheʼrida *moʻmin* (dono)ga aylangan: *“Bir myʼmine gibat etmek xebesdir”* – *“Donolarga gʻiybat etmek abasdir”*. Bu misra islomiy mazmunga ega boʻlgani, hadislarga asoslangani uchun uning bunday oʻzgartirilishi toʻgʻri emas.

“Boʻlmasa” sheʼrida Qurʼon maʼnosidagi *Kalom* soʻzi (oddiy qogʻoz) ga aylangan boʻlsa: *“Kelamiy yzyndek xat galmay ocher”* – *“Qogʻozning yuzindan xat qolmay oʻchar”*, *“Ketuvchi boʻlma”* sheʼrining quyidagi bandi tarjimasida zamon talabi bilan Mushaf – Qurʼon oddiy kitob deb olingan. *“Ollohning amrini qoʻyuvchi boʻlma”* mazmunidagi misra *“Yaxshilikni hech vaqt qoʻyuvchi boʻlma”* deb oʻzgartirilgan:

Okur bolsañ ok ur nebsiñ gøzyne,
Gara, chin gøz bile mysxef yyzyne,
Aldanip girmegil sheytan søzyne,
Allaniñ emrine goyguxi bolma.

J.Sharipov tarjimasida:

Oʻqir boʻlsang, oʻq ur nafsing koʻziga,
Qara chin koʻz bilan kitob yuziga,
Aldanib, kirmagil shayton soʻziga,
Yaxshilikni hech vaqt qoʻyuvchi boʻlma.

“Naylayin” sheʼri tarjimasida Qurʼon maʼnosidagi *“føvz ul-kelam”* iborasini *“barcha kalom”* deb oladi: *“Okir men, gører men føvz ul-kelami, Manisini sacha bilmen, neylayin?!”* – *“Oʻqiyman, koʻraman barcha kalomni, Maʼnosini socholmayman, naylayin!”*. *“Teshixden øzge søz aydiñxi bolma”* misrasi esa *“Boʻstonni xazonga sotuvchi boʻlma”* deb oʻzgartirilgan. Bu 32 bandli katta sheʼr boʻlib, tarjimon uning diniy mazmundagi 8 bandini, demakki, toʻrtinchi qismini tarjima jarayonida qisqartirib ketgan.

“*Allaniň emrinden kəňlyň dash etme*” misrasi tarjimasida J.Sharipov *Olloh* nomini *erk* soʻzi bilan almashtiradi: “*Erkni qoʻldan berib, qalbni tosh etma*”. Sheʼrning yangi tarjimasini amalga oshirgan A.Jumayev va J.Zulpiyevlar esa misrani “*Olloning amridan koʻngling gʻash etma*” deb tarjima qilishadi. Holbuki, uni oddiygina qilib “*Koʻngling Ollohning amridan tashqari boʻlmasin*” yoki “*Ollohning amridan tashqari qadam qoʻyma*” deb oʻzbekchalashtirish mumkin.

J.Sharipov-ku zamona zayli bilan mafkura talabiga koʻra diniy termin-tushunchalarni tarjima jarayonida tushirib qoldirgan yoki oʻzgartirgan. Bu borada taqrizchilar va nashriyotning “talabchan” va “siyosiy hushyor” muharrirlarining ham “munosib hissasi” boʻlishi mumkin. Lekin istiqlool davrida shoir sheʼrlari tarjimasini amalga oshirgan A.Jumayev va J.Zulpiyevlarning baʼzida shunday yoʻl tutishlarini qanday izohlash mumkin? “Koʻngil yotmas hech” sheʼri tarjimasida J.Sharipov mafkura talabi bilan *imon* soʻzini *havas* deb almashtirgan edi: “*Kəňyl bostaninda iman təze gyl*” – “*Koʻngil boʻstonida havas toza gul*”. A.Jumayev va J.Zulpiyevlar ham, istiqlool davri boʻlishiga qaramay, shunday yoʻl tutadilar – faqat *havas* oʻrniga *orzu* soʻzini qoʻllaydilar: “*Koʻngil boʻstonida orzu – toza gul*”.

Maxtumquli asarlari tarjimasida uchraydigan yana bir qiziq hodisa shoir sheʼrlaridagi ayrim soʻz va iboralarining tarjimonlar tomonidan yumshatib, silliqlab tarjima qilinishidir. Ayniqsa, M.Kenjabeikka uning baʼzi soʻzlari qoʻpol va pardasiz tuyulib, oʻzicha “kiftini kelishtirib” oʻzbekchalashtiradi. Holbuki, bu yoʻl adekvat tarjima talablariga zid. Misol uchun, soʻz *paygʻambarlar* haqida borayotgani uchun “Botdi, yoronlar” sheʼridagi “*barchasini qora yer yutdi, yoronlar*” maʼnosidagi “*Barchasin gara yer yuvtdi, yaranlar!*” misrasini M.Kenjabeek “*Bari oxiratga oʻtdi, yoronlar*” tarzida silliqlab tarjima qiladi va oʻzidan qoʻshgan bu misrani sheʼr sarlavhasiga chiqaradi. Iso *paygʻambar* bilan bogʻliq barcha adabiyotlarda uning eshagi haqida ham soʻz boradi. Biror-bir manbada uning ot mingani haqidagi maʼlumot yoʻq. Shunday ekan, uni silliqlab *markab* – *ulov* deb olishga hojat bormi? “*Eshek mýnyp Isa dek, eldirdigim bilmezmiň?*” – “*Markab mingan Iysodek yeldirganim bildingmi?*”

6. Ilohiy kitob, farishta, paygʻambarlar, avliyolar va diniy shaxslar nomini tarjimada berish bilan bogʻliq xato-kamchiliklar. Misol uchun, J.Sharipov “*Naylayin*” sheʼri tarjimasida *favz ul-kalom* iborasini *barcha kalom* deb oʻgiradi. Holbuki, u *saodatga yetaklovchi soʻz, najot beruvchi soʻz* maʼnosini bildirib, majozan *Qurʻoni karim* maʼnosida keladi. “Ozodim qani?” sheʼrida esa diniy mazmundagi ikki bandni tashlab ketibgina qolmay, *Qurʻoni* soʻzini *qoʻrgʻoni* deb notoʻgʻri tarjima qilgan: “*Saxiplar “Kurʻani” – Azadim kani?*” – “*Sohiblar qoʻrgʻoni – Ozodim qani*”. Bu yerda *sohiblar Qurʻoni* jumlasini *Qurʻon sohibi*, yaʼni “*Qurʻonni biluvchi kishi*” deb oʻgirish maqsadga muvofiq boʻladi.

Ishoʻ – Iso deb oʻgirilgan: “*Isha ogli Davut əlemni syrdi*” – “*Iso oʻgʻli Dovud olamni soʻrdi*”. (*Dovud paygʻambarning otasining oti Ishoʻ boʻlgan. Iso esa Maryamning moʻjiza tufayli ersiz tugʻilgan oʻgʻli. Uning oila qurgani va farzand koʻrgani haqida maʼlumot yoʻq.*)

A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tarjimasida ham shunday xatolar uchraydi.

Maʼlumki, Rum hukmdorlarini Qaysar deyishgan. Shundanmi, “*Shetdat Rumuň serdari, Shamda saldirmish gylzari*” misralarini “*Qaysar Rum shahrin sardori, Shomda yaratgan gulzori*” deb tarjima qilishadi. Holbuki, bu yerda yer yuzida jannat yaratish daʼvosi bilan Eram bogʻini qurgan Od qavmining hukmdori Shaddod haqida soʻz bormoqda.

Kalimulloh – Muso alayhissalomning laqabi: Ollohning suhbatdoshi. Rivoyatlarga koʻra, u Tur togʻida Olloh taolo bilan soʻzlashgan. Bu soʻz qisqargan shaklda Kalim (hamsuhbat) tarzida ham uchraydi Shohlik bilan” sheʼridagi “*Bardi Turuň dagina, xak birle boldi ol Kelim*” misrasi tarjimasida bu nom Salimga aylangan: “*Bordi Turning togʻiga, Haq birla boʻldi u Salim*”. “Dini bilan-ey” sheʼrida M.Ahmad “*Rizvanlar giderler gapi kəshgyne*” misrasini “*Orzular toʻldirar gʻam-qaygʻu koʻshkin*” deb erkin tarjima qiladi. Holbuki, misraning mazmuni: “*Rizvonlar oʻz koʻshki eshigiga ketadilar*”. Rizvon soʻzining *jannatdan tashqari, jannat bogʻlaridagi soqchi farishta, jannat eshigining posboni* degan maʼnosi ham borligi maʼlum.

7. U yoki bu diniy soʻz va atamani turkmanchada toʻgʻri oʻqiyolmaslik bilan bogʻliq xatolar.

“To‘nin kim bichdi” she‘ridagi “*Ebabil esxabil pile govushdi?*” misrasini M.Kenjabek “Abobil”, “Asxobil” bilan qovushdi”, A.Jumayev va J.Zulpiyevlar esa “*Abobil asxobil bilan qovushdi*” deb tarjima qilishgan. Bu yerda *pile* so‘zi bilan emas, balki *fila* (filga) bo‘lib, bilan yuklamasi turkman tilida *bilen* tarzida yoziladi. Binobarin, misrani “*Abobil asxobi filga qovushdi*” deb emas, balki “*Abobil ashobil filga yetishdi*” deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Chunki *govushmak* so‘zining *uchrashmoq*, *qovushmoq*dan tashqari, *yetishmoq*, *yetib kelmoq*, *bormoq* ma‘nolari ham mavjud.

A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tomonidan “Oq it” dostonida *oxirgi*, *so‘nggi* ma‘nosidagi *xotam* so‘zini *Hotam* deb tarjima qilinishi natijasida Muhammad – payg‘ambarlarning so‘nggisi degan fikr “*u – Hotam*” deb o‘g‘irilgan. *Hotam* – saxiyliги bilan mashhur arab qabila boshliqlaridan biri. Majoziy ma‘noda bu so‘z *saxiy*, *qo‘li ochiq*, *tanti* ma‘nolarida keng qo‘llanadi.

Pigamber bariniڭ ovvali Adam,
Axiri Muxammet, *olardir xatam* .
Payg‘ambar borining avvali Odam,
Oxiri Muhammad, *alardir Hotam* .

8. Diniy mazmundagi she‘rlarning mohiyatiga tushunib yetmay, ularni majoziy talqin qilish. Masalan, “Ko‘rdingmi?” she‘rida mahbuba sifatida aslida Muhammad alayhissalom ta‘riflangan bo‘lib, J.Sharipov uni dunyoviy ma‘shuqa vasf etilgan she‘r sifatida talqin va tarjima qilgan. Jumaniyoz Jabborov esa “Jono bo‘lmasa” she‘ri tarjimasida “*Haqni vasf etib, zikr qilib qushlar uchar*” (ma‘nosidagi “*Xak silayip, gushlar uchar*”) misrasini “*Rizqin izlab qushlar uchar*” deb dunyoviy talqin qilib qo‘ya qolgan.

“Ko‘rdingmi?” she‘rida *qiyomat kuni* ma‘nosidagi *xeyxat guni* iborasini J.Sharipov *Navro‘z kuni* deb oladi. Bu she‘rda aslida mahbuba sifatida Muhammad alayhissalom ta‘riflangan bo‘lib, unda Navro‘z so‘zi uchrashining o‘zi mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, Olloh taolo, Muhammad alayhissalom yoki avliyo va pirlar mahbuba sifatida majoz vositasida vasf etilgan ko‘plab she‘rlarni tarjimonlar tarjima jarayonida dunyoviy talqin qilganlar.

Demak, Maxtumqulidek mumtoz shoirlar ijodi tarjimasi va talqinlarida islom dini tarixi, shar‘iy hukmlar va fiqhiy atamalarni ham chuqur bilish talab qilinadi.

Ko‘rib turganingizday, zamon zayliga xos tarzda Maxtumquli she‘rlaridagi diniy-ma‘rifiy tushunchalarning qisqarishi yoki ayrim misralar tarjimasidagi nuqsonlarni, bir tarafdin, mafkuraviy tazyiqlar kuchaygan sho‘ro zamonidagi adabiy siyosat, qolaversa, tarjimonlarning islom diniga doir ta‘limotni puxta egallash imkoniyatlari bo‘lmagani bilan izohlash o‘rinli. Maxtumquli she‘rlarining o‘zbek tiliga tarjimalarini qiyosiy tadqiq qilinishiga bugungi o‘zbek tarjimashunosligi uchun ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan o‘ziga xos tajriba maydoni sifatida qarash o‘rinli bo‘ladi.

Tarjimashunoslikda anchadan beri adabiy jarayonni ilmiy-nazariy umumlashtirishga qaratilgan salmoqli tadqiqotlar yaratilmayotgan edi. Bu davrda O‘zbekistonda ham tarjima nazariyasi va adabiy aloqalar yo‘nalishida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Masalan, Najmiddin Komilov (“Xorazm tarjima maktabi”, 1987), Qudrat Musayev (“Tarjimaning lingvostilistik muammolari”, 1988), Muhammadjon Xolbekov (“O‘zbek-fransuz adabiy aloqalari: tarjima, tanqid va idrok tadorigida”, 1991), Q. Jo‘rayev (“She‘riy tarjimalarni xalqaro adabiy va folklor kontekstida qiyosiy o‘rganish”, 1991) ning doktorlik tadqiqotlari yuzaga keldi. Shuningdek, tarjima muammolariga bag‘ishlangan o‘nlab nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Ammo o‘zbek tarjimashunoslari g‘arb olimlarining tarjima nazariyasi xususidagi bahs-munozaralarida ishtirok etolmadilar. Ta‘bir joiz bo‘lsa, bu davrga kelib o‘zbek tarjimashunoslik ilmi bir qadar orqada qola boshladi. 1993-yil Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan tarjimon va tarjimashunoslarning xalqaro simpoziumida so‘zga chiqqan ingliz tilshunosi G.Turi tarjimaning janr xususiyatlariga to‘xtalarkan, har qanday vaziyatda “adabiy tarjima” atamasini qo‘llash ma‘qulligini ta‘kidlagan edi. Uning fikricha, tarjima “badiiy” va “nobadiiy” asar matnini o‘zga tilda qayta tiklashdan iborat bo‘lib, ularning har ikkalasi ham asliyatda adabiy til normalarini o‘zida mujassam etajagini unutmaslik kerak. Shunday ekan, ikkala til (asliyat va tarjima) ning adabiy normalaridan bab-barobar

foydalanmoq va ularni hisobga olmoq talab etiladi. Demak, tarjima A.Lilova ta'biricha, adabiy til hosilasidir. Yoki, tilshunos R.R.Vitenou ta'biri bilan aytganda, vaqt o'tishi bilan tarjima asari ham "vatan adabiyoti" xazinasidan o'rin olib, asliyatda yaratilgan ilmiy va badiiy kitoblar (janr xususiyatidan qat'i nazar) qatorida o'quvchiga o'z "germenevtik" ta'sirini o'tkazishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, tarjima va tarjimashunoslik ilmi o'tgan XX asrda keng taraqqiy etdi, umumfilologik fan tarzida e'tirof qilindi. Uzoq davom etgan bahs-munozaralardan keyin tarjima nazariyasining lingvistik tamoyillari peshqadamlikni qo'lga olgan bo'lsa-da, XXI asr bo'sag'asida nazariya birmuncha tanazzulga yuz tutib, amaliyotdan ortda qola boshladi. Bu fikrni bevosita o'zbek tarjimashunosligi xususida ham aytish mumkin. Sababi, so'nggi o'n-o'n besh yil ichida tarjima nazariyasi muammolariga bag'ishlangan yirik ilmiy tadqiqotlar yaratilmadi hisob. Yosh olimlar tomonidan himoya qilinayotgan nomzodlik dissertatsiyalari jahon tarjimashunosligi ilmi andozalari darajasida emas. Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik yillari "tarjima amaliyoti bir qadar jonlandi-yu, tarjimaning nazariy asoslari, yo'nalishlari, istiqbollari o'rganish, tadqiq etish birmuncha susaydi" (X.Do'stmuhammad). Quvonarli tomoni shundaki, ba'zi oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasi va amaliyotini o'qitish birmuncha jonlandi.

I.G'afurov, A.Abduazizov, Q.Musayev, O.Mo'minov, N.Qambarov, Sh.Sirojiddinov kabi taniqli tarjimon va tarjimashunos olimlarimizning sa'y-harakati tufayli tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalari chop etildi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi", "Zvezda Vostoka", "O'zbek tili va adabiyoti", "Tafakkur", "Filologiya masalalari" jurnallarida tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid maqolalar, bahs-munozaralar bosilmoqda. Vaholanki, o'tgan "XX asr – tarjima asri" (P.F.Kaye) tarzida tarixda muhrlangan bo'lsa, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va sivilizatsiyasi o'rtasidagi "kommunikativ vosita" (P.M.Toper) sifatida yanada ham muhim ahamiyat kasb etishi turgan gap. Bu fikr FITning so'nggi yillarda London, Moskva, Melburn va Shanxay simpoziumlarida ham olimlar tarafidan takror-takror aytilib o'tildi. Endilikda, "o'zbek adabiyoti asta-sekinlik bilan jahon adabiyoti jarayonlari bilan tutashib borayotgan" (I.G'afurov) ekan, tarjima amaliyoti va uning nazariy jihatlariga ham jiddiy e'tibor qaratmog'imiz lozim bo'ladi.

Professor Ninel Vladimirovaning "XX asr o'zbek nasri ravnaqi va badiiy tarjima muammolari" (rus tilida) monografiyasi, atoqli adabiyotshunos, zakiy tarjimon Ibrohim G'afurovning "Tarjimashunoslik asoslari" o'quv qo'llanmasi, Zuhridin Isomiddinovning "Turkiy epos va tarjima masalalari" monografiyasi, K.Quramboyevning "Tarjima va tarjimon mas'uliyati" qo'llanmasi, J.Kamol, E.Ochilov, K.Tashanov, F.Sapayeva kabi olimlarning ilmiy-nazariy, o'quv-uslubiy qo'llanma va kitoblari, tarjimashunosligimiz tarixi va nazariyasini qiyoslash mezoniga xos tadqiqot namunalarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Tekshiruv savollari:

1. Adabiy jarayon va tarjimaning ijtimoiy vazifasi deganda nimani tushunasiz?
2. Adabiy jarayon va tarjima oldiga qanday talablar qo'yiladi?
3. Har qanday tarjima uchun umumiy bo'lgan ikki holat qaysi?
4. Tarjima jarayoni necha bosqichdan iborat?
5. Tarjima, tarjimon, tarjimashunos so'zlariga ta'rif bering.
6. Interpretatsiya deganda nimani tushunasiz?
7. Interpretatsiyaning tarjimadagi maqomini tushuntirib bering.
8. Tarjima asarlaridan interpretatsiyaga misollar toping va ularni asoslab ko'rsating.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Badiiy tarjimaning aktual masalalari, Toshkent: "Fan", 1977.
2. Badiiy tarjima – do'stlik quroli (maqolalar to'plami). Toshkent: "O'qituvchi", 1974.
3. Javbo'riyev M. Badiiy tarjimada milliy xarakter va tarixiy davr koloritini qayta yaratish. Dissertatsiya, Toshkent, 1991.
4. Hazratqulov M. Uslub va tarjima haqida ba'zi kuzatishlar // Tarjima san'ati. 4-kitob. – T., 1978.

5. Komilov N. “Bu qadimiy san’at”. T., 1988.
6. Musayev.Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: “Fan”, 2005.
7. Nurmuhamedov. Adabiyot nazariyasi. 2-tom. Toshkent: “Fan”, 1979.
8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent: “O‘qituvchi”,1978.
9. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1978.
10. Salomov G‘. Tarjimon mahorati. Toshkent: “Fan”, 1979.
11. Salomov G‘. Til va tarjima. Toshkent: “Fan”,1966.
12. Quramboyev K. Tarjima va tarjimon mas’uliyati (Qo‘llanma). – T.: Cho‘lpon, 2007.
13. K.Tashanov. Milliy xarakter va tarjima. – T.: Fan va texnologiya, 2015.
14. F.Sapayeva. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. – T.: Cho‘lpon, 2016.

HOZIRGI ADABIY JARAYON fani bo'yicha test savollari

1. Modernizm oqimi shakllarini belgilang?
A. absurdizm, syurrealizm, pastmodernizm
V. pastmodernizm, romantizm, realizm
S. realizm, obsurdizm, ekzestensializm
D. syurrealizm, romantizm, ekzetensializm.
2. Ilg'or falsafaning asosini belgilang?
A. jamiyatning evolyutsion taraqqiyoti
V. inson ruhiyati, istak va mayllari
S. insonning genetik rivojlanishi
D. jamiyatning tarixiy-funksional rivojlanishi.
3. Yangi o'zbek nasri namunalarini belgilang?
A. "Vaqt", "Mirzo Ulug'bek"
V. "Bir qadam yo'l", "Boburiynoma"
S. "Ustun", "Mirkomilboy"
D. "Samoviy muhabbat", "Vaqt".
4. H.Shayxov qalamiga mansub asarlarni belgilang?
A. "Qon hidi", "Ikki jahon ovorasi"
V. "Samoviy muhabbat", "Ustun"
S. "Kapalaklar o'yini", "Tutash olamlar"
D. "Samoviy muhabbat", "Tutash olamlar".
5. Modern adabiy namunalarini belgilang?
A. "Kapalaklar o'yini", "Fano dashtidagi qush"
V. "Boburnoma", "Mashrab"
S. "Otamdan qolgan dalalar", "Ustun"
D. "Mahmud Tarobiy", "Ot kishnagan oqshom".
6. Sh.Bo'tayevning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida ifodalangan masala ?
A. Sevgi va nafrat, mehr va muhabbat
V. Insonparvarlik, josuslik va hiyonat
S. Inson va tabiat, inson va jamiyat
D. Hayotning hajviy ko'rinishi.
7. N.Norqobilov asarlarini belgilang?
A. "Tog' odami", "Qoyalar ham yig'laydi"
V. "Shohona sovg'a", "Bir kunlik mehmon"
S. "Otchopar", "Qoyalar xam yig'laydi"
D. "Ikki jahon ovorasi", "Kulib tur, azizim".
8. "Boysun jungllardan Kandi o'rmonlarigacha" to'plami muallifi kim?
A. Tohir Malik
V. Faxriyor
S. O.Xoldar
D. D.Nuriy.

9. “Hozirgi adabiy jarayon” fanining asosiy tarmoqlarini belgilang?
A. Qadimgi turkiy adabiyot, o‘zbek mumtoz adabiyoti, yangi o‘zbek adabiyoti
V. Adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid
S. Adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslik tarixi, adabiy tanqid
D. Jahon adabiyoti, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi.
10. Adabiyotshunos olimlar ko‘rsatilgan qatorni belgilang?
A. Ibn Sino, Imom G‘azzoliy, M.Kant
V. A. Dilmuradov, X.Sultonov, Fitrat
S. R.Rustamov, Sh.Boshbekov, U.Azim
D. U.Normatov, N.Komilov, O.Sharafiddinov.
11. Realizmning turlarini belgilang?
A. Modernizm, simvolizm, futurizm
V. Naturalizm, sentementalizm, klassitsizm
S. Syurrealizm, modernizm, naturalizm
D. Lirizm, drammatizm, tragizm.
12. Kulgu tug‘dirish shakllarini belgilang?
A. Makon komizm va zamon komizm
V. Ijtimoiy komizm va vaziyat komizm
S. Vaziyat komizmi va bayon komizmi
D. Makon komizmi va bayon komizmi.
13. Realizm qanday tasvir?
A. Umidlar va tasavvurlar aks etadi
V. Haqqoniy hayotiy tasvir
S. Badiiy to‘qimalar tasviri
D. Inson ruhiyatining lirik tasviri.
14. Idealning bosh belgisini belgilang?
A. Go‘zallik va badiiylilik
V. Milliylikka xos xususiyatlar
S. Vatanparvarlik
D. G‘oyaviylik.
15. Sentimentalizm qanday oqim?
A. Hodisalarni murakkab ramz va shakllarda ko‘rsatadi
V. Hodisalarni noan’anaviy shakllarda ifodalaydi
S. Hodisalarni so‘zlarning fonetik jarangdorligi asosida ifodalaydi
D. Xodisalarni hissiyotlar asosida tasvirlaydi.
16. Nazariy tadqiqotning bosh belgisini belgilang.
A. ilmiylik va xolislik
V. ilmiylik va yangilik
S. ilmiy xoslik
D. A va S

17. Ontologiya nazariyasi...

A. Adabiy talqin haqidagi fan.

V. Adabiyotshunoslik haqida fan

S. Tirik, jonli soʻz haqidagi fan.

D. Ijtimoiy tanqid.

18. Quyidagi jumla kimning qalamiga mansub: “Tanqidni faqat baholash deb anglash maʼnisizlikdir. Uni baholi qudrat talqin deb anglansa, katta maʼno chiqadi”.

A. L.N.Tolstoy

V. A.N. Tolstoy

S. Ya. Qosimov

D. X.Doʻstmammedov.

19. Ozod Sharafiddinov taqrizlari xususiyati...

A. Ilmiylik chuqur yashiringan boʻladi

V. Sotsiologik, tarixiy-madaniy nutq. Nazariya bilan yondashadi.

S. Qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qiladi.

D. Hammasi toʻgʻri.

20. M.Qoʻshjonovning “Sinchalak” taqrizi...

A. Gʻoyaviy-estetik yoʻsinda yozilgan

V. Ijtimoiy-siyosiy yoʻsinda yozilgan

S. Nazariy risolaviy xarakterga ega

D. A, B, S.

21. Gʻoyaviy-estetik tahlil...

A. Gumanizm masalasini yoritadi

V. Hayot problematika (muammo)sini yoritadi

S. Gʻoyaviy jihatdan xulosa chiqarishni talab etadi

D. Sanʼat olamiga chuqur kirib borishi taqozo etadi.

22. Ijtimoiy-estetik tahliliy maqola...

A. “Yillar va yoʻllar” O.Sharafiddinov

V. “Zamon, qalb, poeziya” O.Sharafiddinov

S. “Lirikada konflikt” H.Yoqubov

D “Badiyat qonuniyatlari” M.Qoʻshjonov.

23. “Shunday bir vaziyat paydo boʻldi... Shunday qilib adabiyotda ofarinbozlik boshlanadi”. Tez fursatda muharrirlar, direktorlar, raislar, sekretarlar adabiyoti paydo boʻldi. Ushbu jumla kimning qaysi maqolasidan olingan.

A. “Isteʼdod jilolari” O.Sharafiddinov.

V. “Asr va nasr” L.Qayumov

S. “Yosh doʻstlarimga” Asqad Muxtor

D. “Qayta qurish va oʻzbek” M.Qoʻshjonov.

24. Qaysi davrda “Oʻrtamiyona adabiyot”, “Amaldorlar adabiyoti” jiddiy muammoga aylandi?

A. 50-yillarda

V. 60-yillarda

S. 70-yillarda

- D. 80-yillarda.
25. Tarixiy-funksional tahlil namunalari?
- A. "Ijod bezovta onlari" A.Oripov
V. "O'ttiz yil izhori" I.G'afurov
S. "Navoiyning qalb daftari" I. Sulton
D. "G'azal mulking sultoni" M.Shayxzoda.
26. Tanqid qanday so'zdan olingan?
- A) grekcha
V) arabcha
S) yunoncha
D) forsha
27. 1969-yil Boburning "Aruz Risolasini" qisqartirilgan tarzda kim nashr ettirdi?
- A) Kuplizoda
B) Stebleva
C) Homroyev
D) Aslanov.
28. Yangi tipdagi maqolalar nechanchi asrdan bosila boshladi?
- A) XIX asrdan
B) XVIII asrdan
C) XVII asrdan
D) XIX asrning 2-yarmidan
29. Kim hind she'rlaridagi vaznni arab she'riyatidagi aruz bilan chog'ishtirib tahlil qilgan?
- A) Farobiy
B) Beruniy
C) Bobur
D) Navoiy.
30. Aristotelning "Poetika"siga kim sharh yozgan?
- A) Ibn Sino
B) Farobiy
C) Beruniy
D) a va b
31. G'oyaviy-estetik tahlil...
- A). Gumanizm masalasini yoritadi
V). Hayot muammolarini yoritadi
S). G'oyaviy jihatdan xulosa chiqarishni talab etadi
D). San'at olamiga chuqur kirib borishni taqozo etadi.
32. Qaysi adabiyotshunos adabiy portretlarni janrlararo shartli 4 turga ajratadi?
- A. N.Xudoyberganov
V. B.Nazarov
S. N.Komilov
D. V.S.Baravkov.

33. “Tanqidchi o‘z davrining go‘zallik haqidagi tushunchalarini aniqlaydi va ommalashtiradi”. Bu fikr kimga tegishli?
 A. A.S.Pushkin
 V. Dostoyevskiy
 S. A.Qahhor
 D. Belinskiy
34. Qaysi qatorda ilmi adabga doir janrlar berilgan?
 A) sarv, nahv, bayon, aruz
 V) risola, ruboiy, g‘azal, tuyuq
 S) sonoye’, qofiya, lug‘at, maoni
 D) a va v javoblar to‘g‘ri
35. Nasihatnoma (didaktik) asarni ko‘rsating?
 A. “Boburnoma” va “Qobusnoma”
 V. “Qobusnoma” va “Tazkirai-shuaro”
 S. “Chohar maqola”, “Qobusnoma”
 D. “Rohati dil”, “Qobusnoma”
36. Modernizm oqimi shakllarini belgilang?
 A. absurdizm, syurrealizm, pastmodernizm
 V. pastmodernizm, romantizm, realizm
 S. realizm, absurdizm, ekzestensializm
 D. syurrealizm, romantizm, ekzetensionalizm.
37. Yangi o‘zbek nasri namunalarini belgilang?
 A. “Vaqt”, “Mirzo Ulug‘bek”
 V. “Bir qadam yo‘l”, “Boburiynoma”
 S. “Ustun”, “Mirkomilboy”
 D. “Samoviy muhabbat”, “Vaqt”
38. Sh.Bo‘tayevning “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasida ifodalangan masala ?
 A. Sevgi va nafrat, mehr va muhabbat
 V. Insonparvarlik, josuslik va xiyonat
 S. Inson va tabiat, inson va jamiyat
 D. Hayotning hajviy ko‘rinishi.
39. Modern adabiy namunalarini belgilang?
 A. “Kapalaklar o‘yini”, “Fano dashtidagi qush”
 V. “Boburnoma”, “Mashrab”
 S. “Otamdan qolgan dalalar”, “Ustun”
 D. “Mahmud Tarobiy”, “Ot kishnagan oqshom”
40. “Zamon-qalb-poeziya” kitobining muallifi kim?
 A. O.Sharafiddinov
 V. M.Qo‘shjonov
 S. S.Mamajonov
 D. U.Normatov.
41. Ontologiya nazariyasi...

- A. Adabiy talqin haqidagi fan.
- V. Adabiyotshunoslik haqida fan
- S. Tirik, jonli soʻz haqidagi fan.
- D. Ijtimoiy tanqid.

FAN BOʻYICHA NAZORAT SAVOLLAR TOʻPLAMI

1. Adabiy jarayonda roʻy berayotgan yangiliklar
2. Bugungi kun sheʼriyati tamoyillari
3. Hozirgi oʻzbek poemachiligi (dostonchiligi) da janr va shakl izlanishlari
4. Bugungi hikoyalarining oʻziga xosligi va taraqqiyot xususiyatlari
5. Hozirgi oʻzbek qissachiligining qirralari
6. Bugungi oʻzbek romanida davr, tarix, zamon masalalari
7. Oʻzbek fantastikasi tarixi va uning oʻziga xosligi
8. Yangi bosqichdagi oʻzbek dramaturgiyasi
9. Bugungi kun adabiy tanqidchiligi va publitsistikasi
10. Poemachilikda ijtimoiy qadriyatlarga va maʼnaviy-ahloqiy masalalarga yangicha munosabat
11. Hikoyalarda maʼnaviy-axloqiy masalalar va inson ruhiy dunyosi tahlili
12. Hozirgi adabiy jarayonda tarix va tarixiy shaxslarga yangicha munosabat
13. Adabiy jarayon va uslub rang-barangligi
14. Adabiy jarayon va badiiy tarjima muammosi
15. Hozirgi komediyalarda hayot haqiqati va badiiy toʻqimaning uygʻunligi
16. Hozirgi adabiy jarayon taraqqiyotining asosiy tendensiyalari
17. Hozirgi adabiy jarayon va roman janri muammolari
18. Mustaqillik davri adabiyotining yetakchi xususiyatlari
19. Oʻzbek modern sheʼriyati haqida maʼlumot
20. Hozirgi adabiy jarayonida mumtoz adabiyot anʼanalari
21. Adabiy jarayon va mafkura
22. Shoʻrolar davri adabiyotining yetakchi xususiyatlari
23. Hozirgi adabiy jarayonda qissa janrining taraqqiyoti
24. Hozirgi adabiy jarayonda xalq ogʻzaki ijodi anʼanalari
25. Adabiy jarayonda hikoya janri
26. Hozirgi adabiy jarayonda jahon adabiyoti anʼanalari
27. Adabiy jarayon va dramaturgiya
28. Shoʻrolar va mustaqillik davri adabiyotining oʻziga xos xususiyatlari
29. Hozirgi adabiy jarayon va adabiy tanqidchilik
30. Adabiy jarayon haqida maʼlumot
31. Hozirgi adabiy jarayonda matbuotning oʻrni (Mustaqillik yillari misolida)
32. Adabiy jarayonda ijodiy metod masalasi
33. Modern sheʼriyat oʻzbek adabiy tanqidchiligi talqinida
34. Hozirgi adabiy jarayonda milliy gʻoya talqini
35. Adabiy jarayonda tarixiy mavzu talqini
36. Adabiyot – koʻngil ishi
37. Hozirgi adabiy jarayonda istiqlol gʻoyalari talqini
38. Adabiy jarayonda zamonaviy mavzu talqini
39. Hozirgi adabiy jarayonda obraz yaratish muammolari
40. Adabiy jarayonda milliy qadriyatlar talqini

41. Adabiy jarayon va ijtimoiy hayot
42. Adabiyotning ommaviyligi
43. Sho‘rolar davri adabiy tanqidchiligidan o‘ziga xos xususiyatlari
44. Hozirgi romanlarda zamondoshlar obrazi talqini
45. Adabiy jarayon – milliy mafkura manbai
46. Hozirgi adabiy jarayon va rus adabiyoti
47. 20-yillar adabiy jarayonda mafkuraviy kurash
48. Cho‘lpon, Fitrat ijodi va hozirgi adabiy tanqidchilik
49. Adabiy tanqidning adabiy jarayonga ta‘siri. (Sho‘rolar davri adabiyoti misolida)
50. O‘zbek modern she‘riyati asosiy xususiyatlari
51. Mustaqillik davri va o‘zbek romanchiligi muammolari
52. Hozirgi adabiy jarayonda doston janri
53. Hozirgi adabiy jarayonda mavzu va g‘oya talqini
54. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida obrazlilik
55. Milliy adabiyot –milliy ma‘naviyatni shakllantirish omili
56. Hozirgi adabiy jarayonda tarixiy shaxslar talqini
57. Mustaqillik davri adabiyoti badiiy obraz yaratish muammolari
58. Milliy g‘oya adabiyotining bosh mezon
59. Istiqlol adabiyoti – kechinmalar adabiyoti
60. “Jahon adabiyoti” jurnalining adabiy jarayon taraqqiyotidagi roli
61. Adabiy jarayon va adabiy meros muammolari
62. Hozirgi adabiy jarayon taraqqiyotining manbalari
63. Adabiy jarayon va janrlar taraqqiyoti
64. Adabiy jarayonning kundalik hayot bilan hamnafasligi
65. Adabiy jarayon va vaznlar taraqqiyoti
66. Hozirgi adabiy jarayonda shakliy izlanishlar
67. Sho‘rolar davri adabiyotini baholashdagi biryoqlamaliklar
68. Hozirgi adabiy jarayonda tarixiy shaxslar obrazi talqini
69. Hozirgi adabiy jarayon va esse janri
70. Absurd asarlar –adabiy jarayonda yangi yo‘nalish sifatida
71. Turg‘unlik yillari she‘riyatining yetakchi xususiyatlari
72. Adabiy tanqid taraqqiyotining hozirgi bosqichi
73. Hozirgi adabiy jarayonda publitsistika janri
74. Kursni qamrab olgan davr va ijtimoiy-siyosiy sharoit
75. XX asr adabiyotining taraqqiyot yo‘llari. Davrlashtirish tamoyillari.
76. Yangi o‘zbek adabiyotining vujudga kelishi, sabab va omillari
77. Hajviyotning yangilanishi
78. Yangilanayotgan o‘zbek adabiyotida yangi janrlar, yangi mavzu va muammolarning paydo bo‘lishi
79. Hozirgi adabiy jarayonning asosiy xususiyatlari
80. Istiqlol davri romanlari rivojida yangiliklar
81. Tarixiy romanlar va ularning xususiyatlari
82. Zamonaviy romanlar va ularning tahlili
83. Janrlar tabiatidagi o‘zgarishlar
84. Ma‘naviy-axloqiy mavzudagi hikoya va qissalar
85. Sarguzasht va ilmiy-fantastik hamda dedektiv qissalar
86. She‘riyatga yangilanish jarayoni
87. Uyg‘onish sadolari
88. Liro-epik tur janrlari haqida ma‘lumot

89. Doston janri: mavzu va muammo
90. She'riy roman yangi janr sifatida
91. Dramatik turning taraqqiyot yo'li
92. Yangilanishga intilish
93. Yangi bosqichdagi o'zbek dramaturgiyasi
94. Bugungi kun adabiy tanqidchiligi va publitsistikasi
95. Poemachilikda ijtimoiy qadriyatlarga va ma'naviy-axloqiy masalalarga yangicha munosabat
96. Hikoyalarda ma'naviy-axloqiy masalalar va inson ruhiy dunyosi tahlili
97. Hozirgi adabiy jarayonda tarix va tarixiy shaxslarga yangicha munosabat
98. Adabiy jarayon va uslub rang-barangligi
99. Adabiy jarayon va badiiy tarjima muammosi
100. Hozirgi komediyalarda hayot haqiqati va badiiy to'qimaning uyg'unligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Mirziyoyev Sh. Adiblar xiyobonidagi suhbat // www.uza.uz. 2017- yil 4- fevral.
3. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009. – 9 b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, "Sharq" nashriyot matbaa konserni, 1997. – 130 b.
5. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", 1997- yil, 29-avgust. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.. Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 31 b.
6. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. T.: Sharq, 2002.
7. "Hozirgi adabiy jarayon" o'quv fan dasturi. 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 7-dekabrda 1000-sonli buyrug'ining 4-sonli ilovasi bilan tasdiqlangan va №BD-5321100-3.05 raqam bilan ro'yxatga olingan // tuzuvchi: I.Yoqubov.

Ilmiy-uslubiy asarlar:

8. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 145 b.
9. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. (Ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar) T.: 2008. – 84; – 125-132 b.
10. Haqqulov I. She'riyat – ruhiy munosabat. –T.: – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1989. – 240 b.
11. Abdullayev H. Maxtumquli va o'zbek adabiy muhiti. – T.: Fan, 1983. – 88 b.
12. Inog'omov R. Adabiy qardoshlik taronalari (O'zbek-turkman adabiy aloqalari ocherki). – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1972. – 120 b.
13. Isomiddinov Z. Turkiy epos va tarjima masalalari. – T.: Universitet, 1995. – 118 b.
14. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – T.: O'zbekiston. 2014. – 320 b.
15. Karimov Sh. Dillardan dillarga. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1980. – 152 b.
16. Karimov N. Adabiyot va tarixiy jarayon. – T.: Mumtoz so'z. 2013. – 444 b.
17. Normatov U. Ijod sehri. –T.: Sharq. 2007. – 352 b.
18. Quramboyev K. Adabiy ta'sirdan ijodiy o'ziga xoslikka. – Nukus: Qoraqalpog'iston, 2007.
19. K.Tashanov. Milliy xarakter va tarjima. – T.: Fan va texnologiya, 2015.
20. Qahramonov Q. Adabiy jarayon va estetik talqin. – T.:2014. – 162 b.
21. Quvvatova D. XX asr ikkinchi yarmida o'zbek poeziyasi. – T.: Turon zamin ziyo. 2014. – 176 b.
22. Rahmonov B. Hayotimsiz, odamlar! T.: Istiqloq nuri. 2016. – 68 b.
23. Rasulov A. Mustaqillik davri adabiyotining nazariy-metodologik asoslari. – T.: Ma'naviyat. 2012. – 64 b.
24. Salomov G'. Men suv ichgan daryolar. – T.: Yosh gvardiya, 1990.–272 b.
25. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari (Qo'llanma). –T.: O'qituvchi, 1983. –232 b.
26. Salomov G', Komilov N. Do'stlik ko'priklari –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1979. –224b.
27. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – T.: O'zbekiston, 1997. – 404 b.
28. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. – T.: Cho'lpon, 2016.
29. To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. – T.: Fan. 1985. – 376 b.
30. Tayliyeva L. Poet i ego vremya. – Ashgabat: Rux, 1995. – 160 s.
31. Tvorcheskie svyazi uzbekskoy literatury. – T.: Fan, 1983. – 104 s.
32. Tyulenev S.V. Teoriya perevoda. – M., 2004. – 224 s.
33. Umarov A. Yuksak san'at yo'lida. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1990. – 168 b.

34. Umirov S. Sollanib oqayotgan daryo. – T: Fan, 1992. – 60 b.
35. Visson L. Sinxronniy perevod. – M.1998. – 213 s.
36. G‘aybulloh as-Salom. Asarlar. Ey umri aziz. 1-k. – T.: Sharq, 1997. – 256 b.
37. G‘afurov I. Hayo – xaloskor. –T.: Sharq. 2006. – 384 b.
38. Magtumduly. Goşgular. – Aşgabat. – Tūrkmēn dōvlet neşirât gullugy, 2008. – 688 s.
39. Maxtumquli. Elingga baxsh ayla (Saylanma. Turkman tilidan E.Ochilov tarjimasi). – Toshkent: “Tasvir”, 2017. – 52 b.
40. Vladimirova N. Illat qayerdan boshlanadi? (Maqolalar to‘plami). 6-k. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at, 1985. – 69-83 b.
41. Karimov B. Bir tovush tashvishi // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. 2015-yil 16-oktyabr.
42. Madvaliyev A. Paronimlar // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 695 b.
43. Nazarov B. Maxtumqulining zamonaviyligi // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2008. – №5. – 3-9b.
44. Karomatov H. O‘zbek adabiyotida Qur‘on mavzulari (Adabiy-tarixiy tahlil). – Filol. fan. dokt... diss. – T., 1993. – 281 b.
45. Muxibova U.U. Boburiylar davri bhakti adabiyoti. DDA.–T., 2015. –78b.
46. Yusupov J. K probleme perevoda s rodstvennogo yazika v aspekte vosproizvedeniya natsional’nogo svoeobraziya originala. AKD. –T.,1981.–20s.
47. O‘rmonova N.M. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi. NDA. – T., 2008. – 22 b.
48. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. – 400 b.

Internet manbalar:

<http://www.wikipedia.org>
<http://www.microsoft.com>
<http://www.twitter.com>
<http://www.gosuslugi.uz>.
<http://www.ziynet.uz>.
<http://www.ziyo.uz>.
<http://www.kutubxona.uz>.
<http://www.arxiv.uz>.
e-adabiyot.uz/jahon/jahon-adabiyot...
uza.uz/oz/politics...

MUNDARIJA

Kirish	3
1-mavzu: Adabiy jarayonda ro'y berayotgan yangiliklar va yangi tamoyillar	6
2-mavzu: Bugungi kun she'riyati tamoyillari	18
3-mavzu: Hozirgi o'zbek poemachiligi (dostonchiligi) da janr va shakl izlanishlari	29
4-mavzu: Bugungi hikoyalarning o'ziga xosligi va taraqqiyot xususiyatlari	40
5-mavzu: Hozirgi o'zbek qissachiligining qirralari	58
6-mavzu: Bugungi o'zbek romanida davr, tarix, zamon masalalari	71
7-mavzu: Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti	80
 Test savollari	 93
 Fan bo'yicha nazorat savollar to'plami	 98
 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	 101

СОДЕРЖАНИЕ

Введение	3
1-тема: Новости и новые принципы, происходящие в литературном процессе	6
2-тема: Принципы сегодняшней поэзии	18
3-тема: Жанровые и форменные поиски в современной узбекской поэме (дастане)	29
4-тема: Своеобразие и особенности развития сегодняшних рассказов	40
5-тема: Грани современного узбекского повествование	58
6-тема: Вопросы времени, истории, периода в современном узбекском романе	71
7-тема: Литературный процесс и переводная литература	80
Тестовые вопросы	93
Сборник контрольных вопросов по предмету	98
Список использованной литературы	101

MAZMUNÍ

Kirisiw	3
1-tema: Adebiiy processte júz berip atırǵan jańalıqlar hám jańa principler	6
2-tema: Búgingi kún poeziyası principleri	18
3-tema: Házirgi ózbek poemashılıǵı (dástanshılıǵın)da janr hám forma izlenisleri	29
4-tema: Búgingi gúrrińlerdiń ózine tánligi hám rawajlanıw ózgeshelikleri	40
5-tema: Házirgi ózbek qıssaxanshılıǵının ózgeshelikleri	58
6-tema: Búgingi ózbek romanında dáwir, tariyx, zaman máseleleri	71
7-tema: Ádebiiy process hám awdarma ádebiyatı	80
 Test sorawları	 93
Pán boyınsha qadaǵalaw sorawlar toplamı	98
Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi	101



Sapayeva Feruza Davlatovna – 1977-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, To‘rtko‘l tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek. 1999-yil Qoraqalpoq davlat universitetini muvaffaqiyatli tamomlagan. Mehnat faoliyatini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani 13-maktabda boshlagan. 2000 – 2004-yillar Beruniy qurilish va kommunal xo‘jaligi kasb-hunar kollejida o‘qituvchi. 2004-yili Nukus shahar 17-sonli maktabda o‘qituvchi. 2005 – 2016-yillar Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistent o‘qituvchi, 2017-yildan O‘zbek adabiyoti kafedrası katta o‘qituvchisi, 2018-yildan hozirgacha O‘zbek adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori. Pedagogik staji – 21 yil.

Ilmiy ishlari adabiyoshunoslik va tilshunoslik nazariyasi, metodika, Turkmaniston va O‘zbekiston adabiy aloqalari, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik masalalariga bag‘ishlangan.

Sapayeva Feruza Davlatovna adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik bo‘yicha institutdagi yetakchi mutaxassislardan. U hozirgacha 2 ta o‘quv, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 1 ta monografiya, 20 dan ortiq ilmiy-ommabop maqolalar muallifi. Shuningdek, uning ilmiy tadqiqotlari yuzasidan 60 dan ortiq ilmiy maqolalari (jami 80 dan ortiq) mamlakatimiz va chet el ilmiy jurnallarida chop etilgan. Ayni damda Qoraqalpog‘iston tarixi (umumta‘lim maktablari uchun darslik) fani 7-, 8-, 9-, 10- sinflar uchun yozilgan darsliklarning tarjimoni, mas‘ul muharriri hamdir (2018 – 2019- yy.).

F.Sapayevaning tadqiqoti yuzasidan nashr etilgan maqolalari Turkiya, Turkmaniston, Ozarbayjon, Ukraina, Germaniya, Chelyabinsk, AQSH kabi mamlakatlarda chop etilayotgan adabiy nashrlarda muntazam ravishda e‘lon qilinib boriladi.

Doktorlik dissertatsiya mavzusi: “Maxtumquli she‘rlari o‘zbekcha tarjimalarining qiyosiy tahlili”. Tadqiqotning maqsadi – Maxtumquli she‘rlarining o‘zbekcha tarjimalari misolida qardosh tillardan tarjimaning ilmiy-nazariy qonuniyatlari va eng muhim tamoyillarini ochib berishdan iborat.

Oilali, 2 nafar farzandning onasi.